ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2026**

**$3^{/1}$-son**
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | | **TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI** |
| **U. Alimuxamedova** | 4 | Oila – ekologik tarbiya makoni: "Reggio" yondashuvida ota-onaning hammualliflik roli |
| **A. Sultonov** | 8 | O'smirlarda ma'naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari (Pedagogik konsepsiya) |
| **D. Umarova** | 14 | Talabalarda noverbal muloqot ko'nikmalarini shakllantirish vositalari, noverbal axborotning idrok etilishi |
| **D. Rayimova, G. Muhsinova** | 19 | Talabalarda qadriyatli munosabatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari kompleksi |
| **U. G'oyimov, A. Ismoilov** | 23 | Boshlang'ich sinf o 'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirish |
| **D. Rayimova** | 26 | Assertiv xulq asosida talabalarda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish |
| **J. Ergashev** | 30 | Bo'lajak pedagoglarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari |
| **U. G'oyimov, M. To'rayeva** | 34 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sabr qanoatli qilib tarbiyalashning pedagogik asoslari |
| **N. Xolbozorova, Z. Xurramova** | 38 | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv |
| **M. Solijonova** | 43 | Shaxs assotsiativ tafakkurini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida |
| **G. Yusufova** | 46 | Nutqiy kompetensiyani oshirishda axborot-reseptiv metodini integrativ model bilan birlashtirish |
| | | **TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI** |
| **U. Kubayev** | 49 | Raqamli ta'limda uch o'lchovli obyekt xususiyatlarini ma'lumotlar bazasi bilan bog'lash skriptlarini shakillantirish |
| **U. G'oyimov, M. Qoryog'diyeva** | 56 | Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatish metodikasi |
| **G. Beknazarova** | 59 | Qissa janrining ilmiy-nazariy xususiyatlari |
| **N. Xolbozorova, Ch. Mahmudova** | 63 | Ona tili darslarida o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari |
| **G. Yakubova** | 68 | Ona tili ta'limida lingvistik tafakkurni rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida |
| | | **ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI** |
| **M. Kubayeva** | 72 | Zamonaviy pedagogik metodlar yordamida o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini shakllantirish |
| **F. Ochilova** | 75 | Interaktiv o'quv muhiti oliy ta'limda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish omili sifatida |
| **O. Ne'matov** | 79 | Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aksiologik tushunchalarini shakllantirishda raqamli muhitning deterministik ta'siri |
| **N. Xolbozorova, Sh. Ravshanova** | 86 | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari |

| | | |
|---|---|---|
| | **TA'LIM SIFATI:MAZMUN VA MOHIYAT** | |
| **G. Amirova** | 91 | O'rta ta'lim maktablarida dars jarayonida intensiv baholash usullari va afzalliklari |
| **N. Imamova** | 94 | Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlikni pisa xalqaro baholash dasturi asosida rivojlantirishning metodik asoslari |
| | **MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI** | |
| **M. Nurullayeva** | 97 | Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy va falsafiy qarashlari ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida) |
| | **TA'LIMDA MENEJMET** | |
| **N. Boyqobilova** | 100 | Talabalarda tashkiliy-boshqaruv qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari |
| | **TA'LIMDA MARKETING** | |
| **F. Qanoatova, J. Abdiraxmanov** | 103 | O'zbekiston oliy ta'lim tizimida nodavlat oliy ta'lim muassasalarining o'rni |
| | **PSIXOLOGIYA** | |
| **H. Homidov** | 109 | Talabalarda testologik madaniyatni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari |
| **U. G'oyimov, S. Sodiqova** | 114 | Talabalarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish |
| **Z. Quvanov** | 118 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash mustaqilligini rivojlanishining yoshga oid xususiyatlari |
| | **KORREKSION PEDAGOGIKA** | |
| **S. Ismatov** | 122 | Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga moslashtirishda korreksion-didaktik o'yinlarning roli |
| | **XALQ PEDAGOGIKASI** | |
| **Sh. Hamroyev, M. Alimardonova** | 126 | Shahobiddin marjoniyning hayoti va pedagogik faoliyati |
| | **THEORY OF EDUCATION AND UPBRINGING** | |
| **N. Begaliyev** | 133 | Sardobas as an element of the great silk road infrastructure |
| | **LAW AND LEGAL EDUCATION** | |
| **M. Boboyev** | 138 | The political and legal foundations of temur tuzuklari in the formation of the medieval centralized statehood model |

**Umida ALIMUXAMEDOVA,**
Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy Markazi,
tabiiy va aniq fanlar bo'limi, bosh mutaxassis

# OILA — EKOLOGIK TARBIYA MAKONI: "REGGIO" YONDASHUVIDA OTA-ONANING HAMMUALLIFLIK ROLI

**Annotatsiya**

Maqola zamonaviy ekologik ta'limda maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni Reggio yondashuvi prizmasi orqali tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning markaziy g'oyasi ota-onani shunchaki kuzatuvchi emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti va o'quvchi bilan birga izlanuvchi "hammuallif" (co-researcher) sifatida talqin etishga qaratilgan. Shuningdek, oilaviy muhitni "ekologik laboratoriya"ga aylantirish orqali o'quvchilarda tabiatga nisbatan dahldorlik hissini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar.** Reggio pedagogikasi, oilaviy laboratoriya, hammualliflik, ekologik madaniyat, hamjamiyat ishtiroki, estetik tarbiya, ota-onalar transformatsiyasi.

Статья посвящена исследованию сотрудничества между школой и семьей в современном экологическом образовании через призму подхода Регио. Центральная идея исследования направлена на то, чтобы интерпретировать родителей не просто как наблюдателей, а как активных субъектов образовательного процесса и "соавторов" (co-researcher), которые ищут вместе с учащимся. Также освещены механизмы формирования у учащихся чувства сопричастности к природе путем превращения семейной среды в "экологическую лабораторию."

**Ключевые слова.** Педагогика Реджио, семейная лаборатория, соавторство, экологическая культура, участие сообщества, эстетическое воспитание, трансформация родителей.

This article explores the integration of school and family cooperation in modern environmental education through the lens of the Reggio Emilia approach. The central concept focuses on interpreting the parent not merely as a passive observer but as an active subject of the educational process and a "co-researcher" alongside the student. The study highlights the mechanisms for fostering a sense of environmental connectedness in students by transforming the domestic environment into an "ecological laboratory."

**Key words.** Reggio pedagogy, family laboratory, ecological culture, aesthetic education, parental transformation.

Ekologik inqirozlar davrida o'quvchining tabiatga bo'lgan munosabati uning kundalik turmush tarzi, oilaviy qadriyatlari va yaqin ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, ko'plab an'anaviy ta'lim tizimlarida ota-onalar hamon ta'lim jarayonining "tashqi kuzatuvchisi" yoki "uy vazifalarini nazorat qiluvchi" sifatida ko'rilmoqda. Loris Malaguzzi tomonidan asos solingan Reggio Emilia yondashuvi esa ushbu qarashni tubdan inkor etib, oilani ta'limning uzviy qismi, ota-onani esa o'quvchi va o'qituvchi bilan teng huquqli "hammuallif" (co-researcher) sifatida talqin etadi.

Reggio pedagogikasining asosiy ustunlaridan biri bo'lgan "Hamjamiyat ishtiroki" (Community Participation) tamoyili oilani shunchaki yashash makoni emas, balki bolaning kashfiyotlari davom etadigan "ekologik laboratoriya" deb hisoblaydi. Ushbu modelda ota-onaning roli bolaga tayyor javoblarni berish emas, balki u bilan birgalikda

“Nima uchun?” degan savolga javob izlash, bolaning tabiatdagi estetik topilmalarini qadrlash va ularni “hujjatlashtirish” (documentation) orqali o‘quvchi o‘zligini tasdiqlashdan iboratdir.

Reggio Emilia yondashuvining nazariy poydevori bolani “huquqlar egasi” va “tug‘ma tadqiqotchi” sifatida ko‘radigan gumanistik pedagogikaga tayanadi. Ushbu yondashuvda ota-onalarning ishtiroki shunchaki yordamchi funksiya emas, balki ta’lim sifatini belgilovchi strategik yo‘nalishdir.

Oila va maktab muloqoti: Nazariy modellar. Loris Malaguzzi ta’limni o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida ta’riflagan. Uning fikricha, bola, o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi “triada” (uchlik) bilimlar birgalikda kashf etiladigan maydonni yaratadi (Edwards et al., 2011). Malaguzzi (1998) ota-onalarning ta’limdagi ishtirokini “pedagogik hamkorlik” deb ataydi va bu jarayonda ota-ona bolaning qiziquvchanligini uy sharoitida qo‘llab-quvvatlovchi asosiy figura bo‘lishini ta’kidlaydi.

Oila – “Ekologik laboratoriya” va “Uchinchi o‘qituvchi”. Reggio pedagogikasida atrof-muhit “uchinchi o‘qituvchi” (The environment as the third teacher) deb nomlanadi (Strong-Wilson & Ellis, 2007). Inan (2009) o‘z tadqiqotlarida muhit bolaning timsol tushunishi va ma’no yaratishida o‘ynaydigan rolini tahlil qilgan. Agar maktabda bu muhit sinf xonasi bo‘lsa, oilada bu – hovli, bog‘ yoki uyning tabiiy burchagidir. Ota-ona ushbu muhitda “provokator” (turtki beruvchi) vazifasini o‘taydi: u bolaning tabiatga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmaydi, aksincha, tabiiy materiallar (loose parts) bilan ishlashni rag‘batlantiradi (Thornton & Brunton, 2014).

Hujjatlashtirish (Documentation) – hammualliflik vositasi sifatida. Giudici, Rinaldi va Krechevsky (2001) ta’kidlaganidek, o‘quv jarayonini ko‘zga ko‘rinadigan qilish (Making Learning Visible) nafaqat o‘qituvchilar, balki ota-onalar uchun ham muhimdir. Ota-onalar farzandining tabiatdagi kuzatuvlarini (masalan, o‘sayotgan nihol yoki qiziqarli toshlar to‘plami) suratga olishi, yozib borishi va maktab jamoasi bilan baham ko‘rishi orqali “pedagogik hujjatlashtirish”ning faol ishtirokchisiga aylanadi (Rinaldi, 2006). Bu jarayon ota-onaga o‘z farzandini yangitdan kashf etish va uning ekologik qadriyatlari shakllanishida bevosita hammuallif bo‘lish imkonini beradi.

Ekologik madaniyat va tabiat bilan hissiy bog‘liqlik. R. Louv (2008) o‘zining “Last Child in the Woods” asarida zamonaviy bolalarda “tabiat defitsiti” muammosini ko‘tarib chiqqan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirishda Reggio pedagogikasi tabiat bilan estetik va hissiy muloqotni taklif etadi. Ota-onalarning ushbu muloqotdagi ishtiroki bolada tabiatni shunchaki obyekt emas, balki qadriyat sifatida idrok etishiga yordam beradi (UNESCO, 2021).

Ushbu tadqiqot oilaviy muhitda Reggio Emilia tamoyillarining qo‘llanilishi va ota-onalarning o‘quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishdagi subyektiv rolini aniqlash maqsadida miqdoriy va sifat tahlili usullaridan foydalangan holda tashkil etildi.

Tadqiqotda Toshkent shahridagi uchta ta’lim muassasasi (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi IT-maktab, 9- va 81-sonli umumta’lim maktablari) o‘quvchilarining jami 137 nafar ota-onasi ishtirok etdi. Respondentlarning tanlab olinishi tasodifiy bo‘lib, ularning farzandlari 5–7-sinflarda (Science fani o‘qitiladigan bosqich) tahsil oladi.

Ma’lumotlarni yig‘ishda maxsus ishlab chiqilgan “Reggio yondashuvida oilaviy ekologik muhit” so‘rovnomasidan foydalanildi. So‘rovnoma quyidagi uchta asosiy indikatorni o‘z ichiga olgan:

Hissiy-estetik yondashuv: Ota-onalarning tabiatdagi go‘zallikni tarbiya vositasi sifatida tan olishi (11 ballik shkala asosida).

Tadqiqotchilikni qo‘llab-quvvatlash: Bolaning tabiatdagi “topilmalari” va “Nima uchun?” savollariga ota-onaning pedagogik reaksiyasi.

Maktab bilan hamkorlik darajasi: Ota-onalarning maktabdagi “Open Laboratory” va “Science” loyihalarida ishtirok etishga tayyorligi.

Eksperimental jarayon. Tadqiqotning amaliy bosqichida ota-onalar uchun “Reggio ota-onasi: Hammualliflik san’ati” mavzusida qisqa tushuntirish ishlari olib borildi. Bunda ota-onalarga uy sharoitida quyidagi Reggio elementlarini qo‘llash taklif etildi:

Provokatsiyalar (Turtki berish): Bolaning e’tiborini tortadigan tabiiy ashyolarni uyda qiziqarli ko‘rinishda joylashtirish.

Hujjatlashtirish: Bolaning tabiat haqidagi fikrlarini yozib borish yoki uning yasagan modellarini suratga olish.

Ma’lumotlarni tahlil qilish. To‘plangan natijalar statistik tahlil qilindi. Miqdoriy ma’lumotlar (ballar taqsimoti va foiz ko‘rsatkichlari) diagrammalar ko‘rinishida umumlashtirildi. Sifat tahlili esa ota-onalarning ochiq savollarga bergan javoblari asosida amalga oshirildi, bu esa ularning pedagogik transformatsiyasini chuqurroq anglashga imkon berdi.

Ota-onalarning maktab hayotiga jalb etilish darajasi Reggio modelining barqarorligini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ota-onalarning 85,4 foizi maktabda tashkil etiladigan ekologik loyihalar, “Science” ko‘rgazmalari va master-klasslarda bevosita ishtirok etishga tayyorligini bildirgan.

Statistik ballar taqsimoti tahlili. Ota-onalarning umumiy ballari 5 ballik shkala bo‘yicha tahlil qilinganda, ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymati 4,26 ballni tashkil etdi. Mediana ko‘rsatkichi esa 5 ballga teng bo‘ldi. Ballarning o‘ng tomonga (4 va 5 ballarga) keskin siljishi ota-onalarda innovatsion pedagogikaga nisbatan yuqori ichki tayyorgarlik mavjudligidan dalolat beradi.

Estetika – ota-ona va bola o‘rtasidagi “ekologik ko‘prik”. Respondentlarning mutlaq ko‘pchiligi (95,6%) estetikani tarbiya asosi deb bilishi Loris Malaguzzining estetika haqidagi qarashlari bilan hamohangdir. Malaguzzi (1998) estetika – bu shunchaki go‘zallik emas, balki narsalar o‘rtasidagi munosabatlarni anglash va ularga nisbatan daxldorlik hissi ekanligini ta’kidlagan. Ota-onalar tomonidan tabiat go‘zalligining qadrlanishi oilaviy muhitda bolaning ekologik kashfiyotlari uchun zarur bo‘lgan “psixologik xavfsizlik” va “estetik turtki”ni yaratadi. Bu ko‘rsatkichlar Ly va boshqa. (2024) tadqiqotlaridagi yashil makonlarning hissiy ta’siri haqidagi xulosalarni oila darajasida tasdiqlaydi.

Tadqiqotchilik huquqi va pedagogik reaksiya. Bolaning tabiatdagi topilmalariga ota-onalarning 84,7 foiz holatda ijobiy munosabat bildirishi Reggio pedagogikasidagi “Bolaning tadqiqotchi obrazi” (The Image of the Child) tushunchasini amaliyotga tatbiq etish uchun katta imkoniyat borligini ko‘rsatadi. Edwards va boshq. (2011) ta’kidlaganidek, ota-ona bolaning savollariga tayyor javob berganda tadqiqot to‘xtaydi, biroq bola bilan birga javob izlaganda (69,3% respondent tanlovi) “hammualliflik tadqiqoti” (Co-research) boshlanadi. Bu jarayon ota-onaga farzandining “Yuzta tili”ni tinglash imkonini beradi (Rinaldi, 2006).

“Uchinchi o‘qituvchi” – uydagi muhit. Ota-onalar tomonidan maktabdagi loyihalarga qo‘shilish istagining yuqoriligi (85,4%) maktabdagi “Science” laboratoriyasi va uydagi “ekologik burchak” o‘rtasida uzviylikni ta’minlaydi. Strong-Wilson va Ellis (2007) taklif etgan “Atrof-muhit uchinchi o‘qituvchi sifatida” tamoyili ota-onalar yordamida uy sharoitiga ko‘chirilishi mumkin. Oila a’zolari tomonidan tabiiy materiallarni (loose parts) yig‘ish va ularni tartibga solish orqali uy muhiti ham bolaning ekologik tafakkurini boyituvchi laboratoriyaga aylanadi.

Mahalliy qadriyatlar va Reggio sintezi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Reggio pedagogikasidagi “Hamjamiyat ishtiroki” tamoyili o‘zbek jamiyatining jamoaviylik, hashar va mahalla qadriyatlari bilan tabiiy ravishda uyg‘unlashadi. UNESCO (2021) tavsiyalariga muvofiq, ekologik ta’limning barqarorligi jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa oila ishtirokiga bog‘liq. Bizning natijalarimiz o‘zbek ota-onalarining ushbu global tendensiyaga tayyor ekanligini, biroq ularga faqat metodik “turtki” (provokatsiya) zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy muhitda Reggio Emilia pedagogikasi elementlarini joriy etish o‘quvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirishning eng samarali strategiyasidir. Ota-onalarning 95,6 foizi estetik idrokni tarbiya asosi deb bilishi va 84,7 foizi bolaning kashfiyotlarini qo‘llab-quvvatlashi oilani “passiv kuzatuvchi”dan “faol hammuallif”ga aylantirish uchun tayyor zamin mavjudligini tasdiqlaydi.

Reggio yondashuvi oilani nafaqat yashash makoni, balki bolaning “Yuzta tili” namoyon bo‘ladigan va tabiat bilan muloqot qiladigan “ekologik laboratoriya” sifatida qayta kashf etish imkonini beradi. Ota-onaning bola bilan birga “hammuallif-tadqiqotchi” sifatida ishtirok etishi ekologik bilimlarning shunchaki yod olinishidan qadriyat darajasiga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, ota-onalarning “hammualliflik” rolini kuchaytirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

“Oila – ekologik laboratoriya” modelini joriy etish: Ota-onalarga uyda bolaning tabiatdagi “topilmalari” (toshlar, barglar, urug‘lar) uchun maxsus “estetik burchaklar” yaratish tavsiya etiladi. Bu bolaning tadqiqotchilik mehnatiga nisbatan ota-onaning e’tirofi hisoblanadi.

Pedagogik hujjatlashtirishda ota-ona ishtiroki: Maktab va oila o‘rtasida “Ekologik dialog” platformasini yaratish. Bunda ota-onalar bolaning uydagi tabiat bilan bog‘liq kashfiyotlarini (fotosuratlar, audio-yozuvlar yoki rasmlar) maktab jamoasi bilan baham ko‘rishlari lozim.

“Ota-onalar uchun provokatsiyalar”: Science darslari doirasida ota-onalarga farzandi bilan birga bajarishi uchun “tayyor javobi bo‘lmagan” vazifalar berish. Masalan: “Hovlimizdagi eng keksa daraxt bizga nima degan bo‘lar edi?” kabi savollar orqali oilaviy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

Maktab “Atelye”larida oila ishtiroki: Maktablarda ota-onalar ishtirokida “Tabiiy materiallardan installyatsiyalar” ko‘rgazmalarini o‘tkazish. Bu ota-onalarda “hamjamiyat ishtiroki” (Community Participation) hissini kuchaytiradi va ularning pedagogik transformatsiyasini tezlashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Edwards C., Gandini L., & Forman G. (2011).The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation. Praeger.

2. Giudici C., Rinaldi C., & Krechevsky M. (2001).Making Learning Visible: Children as Individual and Group Learners. Reggio Children.

3. Inan H. Z. (2009). The Third Teacher: Symbols and Meaning-Making in the Reggio Emilia Project Approach. International Journal of Arts & Sciences, 3(1), 143–152.

4. Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. (2019).Education Sector Strategy 2019–2030.

5. Patterson K. (2025).Environment as the Third Teacher: Designing Intentional Spaces for Inquiry and Agency. Reggio-Inspired Publications.

**Akram SULTONOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "Boshlalang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi, dotsent

# O'SMIRLARDA MA'NAVIY-RUHIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI (PEDAGOGIK KONSEPSIYA)

**Annotatsiya**

Maqolada o'smirlarda ma'naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda pedagogik konsepsiyasi tahlil etilgan. Tadqiqotda o'smirlar tarbiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar o'rganilib, ma'naviy-ruhiy immunitetni rivojlantirishning samarali usullari aniqlangan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida tizimli, kompetensiyaviy va aksiologik yondashuvlarga asoslangan pedagogik model taklif etilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya o'smirlarning shaxs sifatida shakllanishi, ularning ma'naviy barqarorligini ta'minlash hamda turli axborot va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Tayanch so'zlar.** ma'naviy-ruhiy immunitet, o'smir, pedagogik konsepsiya, metodologiya, ijtimoiylashuv, psixologik barqarorlik, axborot tahdidlari, tarbiya.

В данной статье исследуются теоретико-методологические основы и педагогическая концепция формирования духовно-психологического иммунитета у подростков. Рассмотрены социальные, психологические и педагогические факторы, влияющие на воспитание подростков, а также определены эффективные методы развития духовно-психологической устойчивости. Предложена педагогическая модель, основанная на системном, компетентностном и аксиологическом подходах. Разработанная концепция направлена на формирование личности подростка, обеспечение его духовной устойчивости и защиту от информационных и идеологических угроз.

**Ключевые слова:** духовно-психологический иммунитет, подростки, педагогическая концепция, методологические основы, социализация, психологическая устойчивость, воспитание, информационные угрозы.

This article explores the theoretical and methodological foundations and the pedagogical concept of developing spiritual and psychological immunity in adolescents. The study analyzes social, psychological, and pedagogical factors influencing adolescent development and identifies effective methods for enhancing their spiritual resilience. A pedagogical model based on systemic, competency-based, and axiological approaches is proposed. The developed concept contributes to adolescents' personal development, ensures their moral stability, and strengthens their resistance to information and ideological threats.

**Key words.** spiritual and psychological immunity, adolescents, pedagogical concept, methodological foundations, socialization, psychological resilience, education, information threats.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari inson hayotining barcha sohalariga, ayniqsa yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda turli mafkuraviy, madaniy va axborot tahdidlari ham kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Bunday sharoitda o'smirlarning ma'naviy-ruhiy barqarorligini ta'minlash, ularni zararli g'oyalardan himoya qilish va mustaqil fikrlov-

chi, ongli shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishiga aylanmoqda.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, ziddiyatli va ayni paytda muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, e’tiqodi va ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan yondashuvi shakllanadi. Aynan shu davrda o‘smirlar tashqi ta’sirlarga nisbatan sezgir bo‘lib, turli axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat vositalari orqali berilayotgan ma’lumotlarni tez qabul qiladi. Natijada, agar ularda yetarli darajada ma’naviy-ruhiy immunitet shakllanmagan bo‘lsa, ular turli zararli g‘oyalar, ekstremistik qarashlar yoki ijtimoiy deviant xatti-harakatlar ta’siriga tushib qolishi mumkin.

Ma’naviy-ruhiy immunitet tushunchasi shaxsning ichki ruhiy va ma’naviy himoya mexanizmlarini ifodalaydi. U shaxsning salbiy ta’sirlarga qarshi turish, mustaqil fikr yuritish, axborotni tanqidiy tahlil qilish hamda ijtimoiy muhitda to‘g‘ri yo‘l tutish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu immunitetning shakllanishi esa bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni, oila muhitidagi qadriyatlar tizimi, ijtimoiy muhit hamda pedagogik yondashuvlarga bog‘liqdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – yosh avlodni nafaqat bilimli, balki yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu bois, o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ularning amaliy natijadorligini ta’minlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur muammoning ilmiy jihatdan o‘rganilishi ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan. Ular o‘smirlar tarbiyasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, aksiologik tamoyillar, kompetensiyaviy model va ijtimoiylashuv jarayonining ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda ma’naviy tahdidlar shakli va mazmuni o‘zgarib borayotgani, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi esa ushbu muammoni yanada chuqurroq tadqiq etishni talab etmoqda.

Tadqiqot metodologik asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari tashkil etadi. Shuningdek, pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishning kompleks pedagogik modeli ishlab chiqildi hamda uning tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi. Shuningdek, zamonaviy axborot muhitida o‘smirlarning ma’naviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar taklif etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda qo‘llanishi mumkin. Bu esa o‘smirlarning ijtimoiylashuvi, ma’naviy rivoji va shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlarning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab ilmiy muammo sifatida qaraladi. Ushbu muammo turli davrlarda va turli ilmiy maktablar doirasida o‘rganilib, uning nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari keng yoritilgan. Mazkur bo‘limda o‘smirlar shaxsini rivojlantirish, ma’naviy tarbiya, psixologik barqarorlik va immunitet tushunchalari bilan bog‘liq ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Avvalo, ma’naviy-ruhiy immunitet tushunchasining ilmiy mohiyatini ochib berishda pedagogika va psixologiya fanlaridagi shaxs rivoji haqidagi fundamental nazariyalar muhim ahamiyatga ega. Xususan, shaxsning ijtimoiylashuvi, uning qadriyatlar tizimi va ichki motivatsion mexanizmlarining shakllanishi haqida ilgari surilgan g‘oyalar mazkur tadqiqot uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanishicha, shaxsning ma’naviy barqarorligi uning tashqi ta’sirlarga nisbatan munosabatida, tanqidiy fikrlash darajasida va o‘zini anglash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari masalasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham mazkur muammoni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu davrda shaxsning identifikatsiya jarayoni, ya’ni “men” konsepsiyasining shakllanishi faol kechadi. Psixolog olimlar tomonidan qayd etilishicha, o‘smirlar o‘z-o‘zini anglash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy rollarni egallash jarayonida turli ziddiyatlarga duch keladi. Aynan shu jarayonda ularda ma’naviy-ruhiy immunitetning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu immunitet o‘smirlarning ichki barqarorligini ta’minlab, ularni salbiy ta’sirlardan himoya qiladi.

Pedagogika fanida ma’naviy tarbiya masalasi qadimdan muhim yo‘nalish sifatida qaralib kelinadi. Klassik pedagogik qarashlarda shaxsning ma’naviy kamoloti uning jamiyatdagi o‘rni, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas’uliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda esa bu jarayon yanada murakkablashib, u shaxsning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri va axborotni tahlil qilish qobiliyatlari bilan uzviy bog‘lanmoqda.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda “immunitet” tushunchasi pedagogik va psixologik kontekstda keng qo‘llanila boshladi. Ilmiy adabiyotlarda ma’naviy-ruhiy immunitet shaxsning turli salbiy g‘oyalar, axborot tahdidlari va ijtimoiy bosimlarga qarshi turish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bu immunitet shaxsning ichki qadriyatlari, e’tiqodi va bilim darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning shakllanishi uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonini talab etadi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida o‘smirlar ongiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar alohida e’tiborga loyiqdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborotlarning xilma-xilligi, ularning tezkorligi va keng qamrovliligi o‘smirlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, o‘smirlar ko‘pincha axborotni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qiladi, bu esa ularning turli zararli g‘oyalar ta’siriga tushib qolish xavfini oshiradi. Shu sababli, ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishda axborot madaniyatini rivojlantirish muhim omil sifatida qaraladi.

Shuningdek, oila va ijtimoiy muhitning o‘smirlar rivojiga ta’siri masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhitidir va unda shakllangan qadriyatlar tizimi o‘smirning keyingi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada sog‘lom ma’naviy muhitning mavjudligi o‘smirlarning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi va ularning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi. Shu bilan birga, maktab va ta’lim muassasalari ham o‘smirlarning ma’naviy-ruhiy immunitetini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonida o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikmalar, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlari ham rivojlantirilishi lozim. Ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishda ham aynan ushbu yondashuv samarali hisoblanadi, chunki u o‘smirlarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Aksiologik yondashuv esa shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ma’naviy tarbiyaning asosiy negizini tashkil etadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, o‘smirlarning ma’naviy-ruhiy immuniteti ularning qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar shaxsda mustahkam qadriyatlar tizimi shakllangan bo‘lsa, u turli salbiy ta’sirlarga nisbatan barqaror bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi ham mazkur muammoni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir o‘quvchi individual xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida qaraladi va ta’lim jarayoni uning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etiladi. Bu esa o‘smirlarning ichki salohiyatini ochishga va ularning ma’naviy-ruhiy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham o‘smirlarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Ularda “rezilyentlik” (resilience) tushunchasi keng qo‘llanilib, u shaxsning stress va salbiy omillarga moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur tushuncha ma’naviy-ruhiy immunitetga yaqin bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ko‘plab ilmiy ishlar orqali asoslab berilgan.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish masalasi hali to‘liq kompleks yondashuv asosida o‘rganilmagan. Ayniqsa, nazariy asoslar bilan amaliy metodikalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqotda aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur tadqiqot o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda samarali pedagogik konsepsiyani ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, u kompleks, tizimli va integrativ yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining ilg‘or g‘oyalari, shuningdek, shaxs rivojlanishiga oid nazariy qarashlarga tayanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini avvalo tizimli yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘smir shaxsi bir butun tizim sifatida qaralib, uning ma’naviy-ruhiy immuniteti turli omillar – ijtimoiy muhit, ta’lim jarayoni, oila tarbiyasi, shaxsiy tajriba va psixologik xususiyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Tizimli yondashuv o‘smir shaxsini kompleks o‘rganish, uning ichki va tashqi determinantlarini aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan muhim metodologik yondashuvlardan biri – kompetensiyaviy yondashuvdir. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarda nafaqat bilimlar tizimini shakllantirish, balki ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlash, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. O‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish jarayonida aynan ushbu yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning real hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutish strategiyasini belgilaydi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, test va suhbat usullaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatish orqali o‘smirlarning xulq-atvori, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi va ma’naviy qadriyatlarga munosabati o‘rganildi. So‘rovnoma usuli yordamida o‘smirlarning ma’naviy-ruhiy immunitet darajasi, ularning qadriyatlari va axborotga munosabati aniqlashtirildi. Test metodlari esa o‘smirlarning psixologik barqarorligi va tanqidiy fikrlash darajasini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida eksperimental metoddan ham foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda – aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarda olib borildi. Aniqlovchi bosqichda o‘smirlarning ma’naviy-ruhiy immunitet darajasi dastlabki holatda o‘rganildi.

Shakllantiruvchi bosqichda esa ishlab chiqilgan pedagogik metodika amaliyotga joriy etilib, uning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Tajriba natijalari tahlil qilinib, pedagogik ta’sirning ijobiy natijalari aniqlangan.

Statistik tahlil metodlari tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ishonchlilik darajasi aniqlashtirildi. Bu esa tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

Mazkur metodologik yondashuvlar va usullar majmuasi o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish muammosini kompleks tarzda o‘rganish imkonini berdi. Ular asosida ishlab chiqilgan pedagogik konsepsiya esa nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali ekanligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va integrativ yondashuvlarga asoslanib, o‘smirlarning ma’naviy-ruhiy rivojini chuqur tahlil qilish va uni samarali boshqarish imkonini berdi. Ushbu metodologiya kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot doirasida o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda pedagogik konsepsiyasi kompleks tarzda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida o‘smirlar ongiga turli ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy omillarning ta’siri kuchayib borayotgani ularning ma’naviy-ruhiy barqarorligini ta’minlashni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shu bois, o‘smirlarda mustahkam ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida ma’naviy-ruhiy immunitet tushunchasining mohiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. U shaxsning ichki himoya mexanizmi sifatida qaralib, uning salbiy ta’sirlarga qarshi turish, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuvni rivojlantirish va ijtimoiy muhitda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga olishi aniqlashtirildi. Mazkur tushuncha nafaqat psixologik, balki pedagogik va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘smirlarning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar rivojlanishida ma’naviy tarbiya, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, oila, maktab va jamiyatning o‘zaro hamkorligi o‘smirlarda barqaror ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot makonida yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar o‘smirlarning ongiga bevosita ta’sir etib, ularning qadriyatlar tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar – tizimli, kompetensiyaviy, aksiologik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar – o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish jarayonini kompleks tarzda o‘rganish imkonini berdi. Ushbu yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan pedagogik konsepsiya o‘smirlarning shaxsiy rivoji, ularning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda samarali vosita sifatida baholandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishda innovatsion pedagogik metodlar va interaktiv texnologiyalarning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Xususan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozaralar, trening mashg‘ulotlari va loyihaviy faoliyat kabi metodlar o‘smirlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda salbiy ta’sirlarga qarshi turish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish jarayoni uzluksiz va

tizimli bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi. Bu jarayon faqatgina ta’lim muassasalari doirasida emas, balki oila va jamiyatning barcha institutlari ishtirokida amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi o‘smirlarning ma’naviy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, ma’naviy-ruhiy immunitet o‘smir shaxsining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim psixologik-pedagogik fenomen sifatida qaralishi lozim. U shaxsning ichki qadriyatlari, bilimlari va ijtimoiy tajribasi asosida shakllanadi.

Ikkinchidan, o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishda tizimli yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u barcha omillarni yagona tizimda ko‘rib chiqishni talab etadi.

Uchinchidan, zamonaviy axborot muhitida o‘smirlarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ma’naviy immunitetni mustahkamlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

To‘rtinchidan, pedagogik jarayonda innovatsion metodlar va interaktiv texnologiyalardan foydalanish o‘smirlarning faolligini oshiradi va ularning ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish o‘smirlar tarbiyasining samaradorligini oshiradi va ularning ma’naviy-ruhiy immunitetini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

– ta’lim jarayoniga ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish;

– o‘smirlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni keng qo‘llash;

– ota-onalar va pedagoglar uchun trening va seminarlar tashkil etish;

– o‘smirlarni ijtimoiy va madaniy faoliyatlarga keng jalb etish;

– axborot xavfsizligi va media savodxonlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida ayrim cheklovlar ham mavjudligi qayd etildi. Jumladan, tadqiqot ma’lum hudud va ma’lum yosh toifasidagi o‘smirlar bilan cheklangan bo‘lib, kelgusida ushbu muammoni yanada kengroq miqyosda o‘rganish zarurati mavjud.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot o‘smirlarda ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish muammosini kompleks tarzda yoritib berib, uning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ta’lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash hamda ularning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 320 b.

3. Yo‘ldoshev J.G. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.

4. To‘raqulov X.A. Tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2015. – 280 b.

5. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. – Moskva: MGU, 2007. – 528 s.

6. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2006. – 352 p.

7. Bandura A. Social Cognitive Theory: An Agentic Perspective. – Annual Review of Psychology, 2001. – Vol. 52. – P. 1–26.

**Dilafruz UMAROVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi, assistent o‘qituvchi

# TALABALARDA NOVERBAL MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI, NOVERBAL AXBOROTNING IDROK ETILISHI

**Annotatsiya**

Maqolada talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi tadqiq etilgan. Noverbal muloqot (mimika, jestlar, postur, ko‘z aloqasi, proksemika va paralingvistik vositalar) samarali kommunikatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganish, samarali usul va texnologiyalarni aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iboratligi aytib o‘tilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, psixologik-pedagogik adabiyotlar sharhi, so‘rovnomalar va eksperimental ish usullari qo‘llanilgan.

**Tayanch so‘zlar.** noverbal muloqot, nonverbal kommunikatsiya, talabalarda noverbal ko‘nikmalar, kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, mimika, jestlar, postur, pedagogik texnologiyalar, rol o‘yinlari, video-tahlil, ta’limda kommunikatsiya.

В статье исследуется вопрос формирования у студентов навыков невербального общения. Невербальное общение (мимика, жесты, поза, зрительный контакт, проксемика и паралингвистические средства) является важной составляющей процесса эффективной коммуникации. Также отмечено, что это состоит из изучения педагогико-психологических основ формирования у студентов навыков невербального общения, выявления эффективных методов и технологий, а также разработки путей их применения в образовательном процессе. В исследовании использовались теоретический анализ, обзор психолого-педагогической литературы, анкетирование и экспериментальные методы работы.

**Ключевые слова.** Невербальное общение, nonverbal communication, навыки невербального общения у студентов, коммуникативная компетенция, эмоциональный интеллект, мимика, жесты, поза, педагогические технологии, ролевые игры, видеоанализ, коммуникация в образовании.

The article explores the issue of developing non-verbal communication skills in students. Non-verbal communication (mimics, gestures, posture, eye contact, proxemics, and paralinguistic means) is an important component of the effective communication process. It is also noted that it consists of studying the pedagogical and psychological foundations of forming non-verbal communication skills in students, identifying effective methods and technologies, and developing ways to implement them in the educational process. The study employed theoretical analysis, a review of psychological and pedagogical literature, questionnaires, and experimental methods.

**Key words.** Non-verbal communication, nonverbal communication, non-verbal skills in students, communicative competence, emotional intelligence, facial expressions, gestures, posture, pedagogical technologies, role-playing, video analysis, communication in education.

Zamonaviy jamiyatda samarali muloqot qobiliyati har qanday mutaxassis uchun muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Noverbal muloqot esa bu jarayonning ajralmas va ko‘pincha hal qiluvchi qismidir. Albert Mehrabian tadqiqotlariga ko‘ra, muloqot jarayonida ma’lumotning 55 foizi tana holati (postur) va mimika orqali, 38 foizi ovoz ohangi (paralingvistika) orqali va atigi 7 foizi so‘zlar orqali

yetkaziladi[1]. Bu ko‘rsatkichlar, ayniqsa, emotsional va munosabatga oid ma’lumotlar almashinuvida yanada dolzarbroq ahamiyat kasb etadi. Noverbal muloqot mimika, jestlar, ko‘z aloqasi, postur, proksemika (masofa) va paralingvistik vositalarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonida noverbal signallar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, tushunishni oshirish, motivatsiyani kuchaytirish va o‘qituvchi bilan ishonchli munosabatlarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining ijobiy noverbal xatti-harakatlari (tabassum, ko‘z aloqasi, ochiq postur) talabalar faolligini oshiradi va o‘quv natijalarini yaxshilaydi. Aksincha, noverbal signallarning yetishmasligi yoki noto‘g‘ri ishlatilishi talabalar o‘rtasida tushunmovchilik, ishonchsizlik va hatto o‘quv jarayonidan ajralib qolishga olib keladi[2].

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida verbal kommunikatsiyaga (nutq va yozma matnga) asosiy e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, noverbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi yetarli darajada e’tiborga olinmayapti. O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim standartlarida ham kommunikativ kompetensiyaga katta ahamiyat berilgan bo‘lib, talabalar kelajakdagi professional faoliyatida samarali muloqot qilishlari talab etiladi. Biroq, amaliyotda talabalarning noverbal ko‘nikmalari (ko‘z aloqasi o‘rnatish, mimikani boshqarish, posturni to‘g‘ri ishlatish) yetarli darajada shakllantirilmayotgani kuzatilmoqda. Bu holat kelajakda ularning ish beruvchilar bilan munosabatlari, jamoaviy ish faoliyati va rahbarlik qobiliyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mamlakatimizda pedagogik-psixologik tadqiqotlarda talabalarning umumiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, noverbal muloqotning o‘ziga xos jihatlari va uni maxsus shakllantirish texnologiyalari bo‘yicha chuqur empirik tadqiqotlar yetishmaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar rivoji (onlayn ta’lim) sharoitida noverbal signallarning cheklanganligi muammoni yanada dolzarblashtirmoqda.

Talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganish, samarali pedagogik texnologiyalar (rol o‘yinlari, video-tahlil, treninglar)ni aniqlash va ularni oliy ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Pedagogik texnologiyalar:

Oliy ta’lim jarayonida talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun maxsus pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishda faol va interaktiv usullar eng samarali hisoblanadi. Mening fikrimcha, noverbal muloqotni rivojlantirishda quyidagi pedagogik texnologiyalar alohida o‘rin tutadi.

Birinchidan, rol o‘yinlari (role-playing) texnologiyasi talabalarga real hayotiy vaziyatlarda noverbal signallarni ongli ravishda qo‘llash imkoniyatini beradi. Ish suhbati, ilmiy konferensiya taqdimoti, konfliktli holatni hal qilish, guruh rahbari sifatida suhbat o‘tkazish kabi turli ssenariylarda talabalar ochiq postur, tabassum, mos ko‘z aloqasi, jestlarni to‘g‘ri ishlatish va shaxsiy makonni saqlashni amalda mashq qilishadi. Rol o‘yinlari nafaqat ko‘nikmalarni mustahkamlaydi, balki talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, emotsional barqarorlikni shakllantiradi va qo‘rquvni bartaraf etishga yordam beradi. Bu usulning afzalligi shundaki, talabalar xatolardan qo‘rqmasdan

[1] Mehrabian, A. (1971). Silent Messages. Wadsworth Publishing Company.

[2] Bambaeeroo, F., & Shokrpour, N. (2017). The impact of the teachers’ non-verbal communication on success in teaching. Journal of Advances in Medical Education & Professionalism, 5(2), 51–59.

tajriba orttirishlari mumkin.

Ikkinchidan, video-tahlil (video recording and self-analysis) texnologiyasi hozirgi vaqtda eng zamonaviy va samarali usullardan biri bo‘lib qolmoqda. Talabalar o‘z nutqlarini, prezentatsiyalarini yoki rol o‘yinlarini videoga olib, keyin o‘zlarining mimikasi, jestlari, posturi, ko‘z aloqasi va ovoz ohangini tahlil qilishadi. Bu jarayon talabaga o‘zini tashqaridan ko‘rish imkonini beradi. Video-tahlil orqali talabalar o‘zlaridagi noverbal signallarning ijobiy va salbiy tomonlarini aniq ko‘rib chiqib, ularni ongli ravishda tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, video-tahlil muntazam qo‘llanilganda talabalarning o‘zini baholash qobiliyati va refleksiv fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi.

Uchinchidan, maxsus kommunikativ treninglar tizimi katta samara beradi. Bunday treninglarda “Mimika orqali emotsiyalarni ifodalash”, “Postur va proksemika mashqlari”, “Noverbal signallarni o‘qish va talqin qilish”, “Ovoz ohangi va pauza bilan ishlash” kabi mavzular bo‘yicha maxsus mashqlar o‘tkaziladi. Treninglar guruhli va juftlik mashqlariga asoslanadi hamda o‘qituvchining tezkor qayta aloqasi (feedback) bilan birga olib boriladi. Treninglarning afzalligi shundaki, ular talabalarda nafaqat ko‘nikma, balki noverbal muloqotga nisbatan ongli munosabatni ham shakllantiradi.

Yuqoridagi pedagogik texnologiyalarni oliy ta’lim jarayoniga tatbiq etishda quyidagi yo‘llarni taklif qilamiz:

Har bir fan dasturiga “Noverbal muloqot mashqlari” bo‘limini kiritish;

Amaliy mashg‘ulotlarda haftada kamida 1-2 marta rol o‘yinlari va video-tahlilni majburiy qilish;

Talabalar portfeliga noverbal ko‘nikmalar bo‘yicha o‘zini baholash varaqlarini kiritish;

Raqamli platformalardan (Zoom, Microsoft Teams va boshqalar) foydalanib, onlayn rejimda ham mashqlarni olib borish.

Ushbu texnologiyalarni kompleks ravishda qo‘llash orqali talabalarning nafaqat noverbal muloqot ko‘nikmalari, balki umumiy kommunikativ kompetensiyasi, emotsional intellekti va professional tayyorgarligi ham yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin. Bu esa ularning kelajakdagi mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga mustahkam asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini maqsadli ravishda shakllantirish orqali ularning umumiy kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Eksperimentda ishtirok etgan talabalar guruhida (eksperimental guruh) rol o‘yinlari, video-tahlil va maxsus treninglar kompleksidan foydalangan holda o‘tkazilgan mashg‘ulotlardan so‘ng noverbal muloqot ko‘nikmalari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 28,4 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkich nazorat guruhidagi 6,7 foizga nisbatan ancha yuqori natija hisoblanadi.

Ayniqsa, mimika va jestlarni ongli boshqarish, ko‘z aloqasini saqlash hamda postur orqali ishonch ifodalash ko‘nikmalarida eng katta o‘sish kuzatildi. Video-tahlil usuli talabalarga o‘zlarining noverbal xatti-harakatlarini tashqaridan ko‘rish imkonini bergani uchun refleksiv fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirdi. Talabalar o‘zlarining oldingi videolarini keyingi videolari bilan solishtirganda, o‘zlaridagi ijobiy o‘zgarishlarni aniq ko‘rib, bu esa ularda qo‘shimcha motivatsiya hosil qildi.

Rol o‘yinlari texnologiyasi esa talabalarda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki emotsional jihatdan o‘zini boshqarish qobiliyatini ham oshirdi. Masalan, konfliktli vaziyatlarni hal qilish bo‘yicha o‘tkazilgan rol o‘yinlaridan so‘ng talabalar stress holatida ham ochiq postur saqlash va tinch ohangda gapirishni yaxshiroq uddalay boshladilar.

Bu natijalar emotsional intellektning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan noverbal signallarni boshqarish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi[3].

Muhokama qismida ta’kidlash joizki, olgan natijalarimiz xorijiy tadqiqotchilarning xulosalari bilan uyg‘unlashadi. Ko‘pgina tadqiqotlarda (Bambaeeroo & Shokrpour, 2017; Knapp et al., 2014) ham noverbal muloqotning professional muvaffaqiyatdagi roli yuqori baholangan. Biroq, bizning tadqiqotimizning o‘ziga xosligi shundaki, texnologiyalarni O‘zbekiston oliy ta’lim muhitiga moslashtirgan holda sinovdan o‘tkazdik va mahalliy talabalar uchun eng samarali usullarni aniqladik. Masalan, video-tahlil usuli talabalar tomonidan eng ijobiy baholandi, chunki u ularga shaxsiy o‘sishni kuzatish imkonini berdi. Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatdiki, noverbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish talabalar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni oshirish bilan birga, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi. Bu esa kelajakdagi professional faoliyatda, xususan, ish suhbatlari, jamoaviy loyihalar va rahbarlik lavozimlarida katta afzallik beradi. Ammo shuni ham qayd etish kerakki, ba’zi talabalarda dastlabki bosqichlarda noverbal signallarni ongli boshqarish qiyin kechdi. Bu holat ularning oldingi tajribasi va shaxsiy psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, kelgusida individual yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini va bu jarayonda rol o‘yinlari, video-tahlil hamda maxsus treninglar kabi pedagogik texnologiyalarning yuqori samaradorligini isbotladi. Ushbu yondashuvni oliy ta’limning amaliyotiga keng joriy etish talabalarning nafaqat kommunikativ, balki umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga bag‘ishlandi. O‘tkazilgan nazariy tahlil, psixologik-pedagogik adabiyotlar sharhi va eksperimental ishlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, noverbal muloqot ko‘nikmalarini maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirish talabalarning umumiy kommunikativ kompetensiyasini, emotsional intellektini va professional tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishga qodir. Rol o‘yinlari, video-tahlil va maxsus treninglar kabi pedagogik texnologiyalarning kompleks qo‘llanilishi orqali talabalarning noverbal signallarni ongli boshqarish, o‘qish va talqin qilish qobiliyatlari yuqori darajada yaxshilanganini empirik tarzda isbotlashga muvaffaq bo‘ldik.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida verbal kommunikatsiyaga ustunlik berilayotgan bir paytda noverbal muloqotning yetarli darajada e’tiborga olinmasligi jiddiy muammo ekanligini yana bir bor tasdiqladik. Holbuki, kelajakdagi mutaxassis uchun so‘zlar bilan birga tana tili, mimika, postur va ovoz ohangi orqali ham o‘z fikrini yetkazish, ham boshqalarning ichki holatini tushunish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Noverbal muloqot ko‘nikmalarining rivoji talabalar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni chuqurlashtiradi, jamoaviy ish samaradorligini oshiradi va ularning kelajakdagi mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, noverbal muloqotni rivojlantirish nafaqat alohida ko‘nikma, balki shaxsiyatning umumiy rivoji, o‘ziga ishonchning ortishi va emotsional barqarorlikning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Bu esa ta’limning insoniy kapitalni rivojlantirishdagi asosiy vazifalaridan biri ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni bermoqchiman:

[3] Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. New York: Bantam Books.

Har bir yo‘nalishning o‘quv dasturlariga “Kommunikativ kompetensiya” yoki “Noverbal muloqot va emotsional intellekt” nomli maxsus modulni kiritish va uni amaliy mashg‘ulotlar shaklida o‘tkazish.

Amaliy mashg‘ulotlarda haftada kamida ikki marta rol o‘yinlari va video-tahlil usullarini majburiy ravishda qo‘llash. Video-tahlilni talabalar portfelining ajralmas qismiga aylantirish.

O‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish, chunki o‘qituvchining o‘zi noverbal muloqotda yuqori ko‘nikmaga ega bo‘lmasa, talabalarga samarali o‘rgata olmaydi.

Talabalarni baholash tizimida faqat bilim va ko‘nikmalarni emas, balki kommunikativ qobiliyatlarni, xususan noverbal muloqot darajasini ham hisobga oluvchi mezonlarni joriy etish.

Raqamli ta’lim platformalarida ham noverbal muloqotni rivojlantirishga qaratilgan maxsus vositalar (video-feedback, virtual realistik mashqlar) yaratish va ulardan foydalanish.

Kelgusida bu yo‘nalishda chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish zarur deb hisoblayman. Xususan, turli yo‘nalishdagi talabalar (texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, pedagogika) o‘rtasida qiyosiy tadqiqotlar, uzoq muddatli kuzatuvlar hamda onlayn va gibrid ta’lim sharoitida noverbal muloqotni rivojlantirishning samarali usullarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish – bu nafaqat pedagogik vazifa, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli va uyg‘un shaxsni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar va amaliy ishlar davom ettirilsa, oliy ta’lim tizimi talabalarimizni kelajakning raqobatbardosh mutaxassislari sifatida yetishtirishda yanada samarali bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bambaeeroo, F., & Shokrpour, N. (2017). The impact of the teachers’ non-verbal communication on success in teaching. Journal of Advances in Medical Education & Professionalism, 5(2), 51–59.

3. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.

4. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). Nonverbal Communication in Human Interaction (8th ed.). Boston: Wadsworth Cengage Learning.

5. Burgoon, J. K., Guerrero, L. K., & Floyd, K. (2016). Nonverbal Communication. New York: Routledge.

6. Richmond, V. P., McCroskey, J. C., & Hickson, M. L. (2012). Nonverbal Behavior in Interpersonal Relations (7th ed.). Boston: Allyn & Bacon.

7. Hall, E. T. (1966). The Hidden Dimension. New York: Doubleday. (Proksemika bo‘yicha asosiy manba)

8. Ekman, P. (2003). Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. New York: Times Books.

9. Naz, E. (2023). Use of Nonverbal Communication while Teaching Primary School Students. Journal of Development and Social Sciences, 4(3), 123–135.

10. Abekah Keelson, S. (2024). The influence of lecturer non-verbal cues on student perceptions of teaching quality. Cogent Education, 11(1), 2325788.

**Dilfuza RAYIMOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi, o‘qituvchi
**Gulpari MUHSINOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, talaba

# TALABALARDA QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI KOMPLEKSI

**Annotatsiya**

Maqolada talabalar shaxsida qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Qadriyat tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati, uning shaxs kamolotidagi o‘rni hamda zamonaviy ta’lim jarayonida qadriyatlarni singdirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muhitida talabalar faoliyatini faollashtirish, interaktiv metodlardan foydalanish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash orqali qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning samarali yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Qadriyat, qadriyatli munosabat, pedagogik shart-sharoit, shaxs rivoji, ta’lim jarayoni, interaktiv metodlar, kompetensiya, tarbiya.

В статье на основе комплексного подхода анализируются педагогические условия формирования ценностных отношений в личности студентов. Освещена педагогико-психологическая сущность понятия ценности, его роль в развитии личности, а также механизмы внедрения ценностей в современный образовательный процесс. Также показаны эффективные способы формирования ценностных отношений путем активизации деятельности студентов в образовательной среде, использования интерактивных методов, применения личностно-ориентированного подхода.

**Ключевые слова.** Ценность, ценностное отношение, педагогические условия, развитие личности, образовательный процесс, интерактивные методы, компетенция, воспитание.

The article analyzes the pedagogical prerequisites for forming value-based attitudes in students based on a comprehensive approach. The pedagogical and psychological essence of the concept of value, its role in personal development, and the mechanisms for instilling values in the modern educational process are highlighted. It also demonstrates effective ways to form value-based relationships by activating student activity in the educational environment, using interactive methods, and applying a student-centered approach.

**Key words.** Value, value attitude, pedagogical conditions, personal development, educational process, interactive methods, competence, upbringing.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida jamiyat taraqqiyoti bevosita barkamol, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki talaba shaxsida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan munosabatlarning rivojlanishi uning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

Qadriyatli munosabat – bu shaxsning atrof-muhitga, jamiyatga, o‘ziga va boshqalarga nisbatan ongli, maqsadga yo‘naltirilgan, axloqiy-me’yoriy qarashlari tizimi bo‘lib, u insonning xulq-atvori va faoliyatida namoyon bo‘ladi. Talabalarda bunday

munosabatlarni shakllantirish pedagogik jarayonning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarda qadriyatli munosabatni samarali shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni tizimli ravishda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shart-sharoitlar ta’lim jarayonining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi, interaktiv metodlardan foydalanish, talabaning faolligini ta’minlash, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida nafaqat bilim berish, balki talabalarning qadriyatli ongini rivojlantirish, ularni ijtimoiy mas’uliyatli va faol fuqarolar sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, mazkur maqolada talabalarda qadriyatli munosabatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari kompleksi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Qadriyatli munosabat – bu shaxsning jamiyatda mavjud bo‘lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarga nisbatan ongli, barqaror va maqsadga yo‘naltirilgan munosabatlar tizimi bo‘lib, u insonning xulq-atvori, qarashlari va faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tushuncha pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishgan nuqtada shakllanib, shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Qadriyatli munosabatning mohiyati, avvalo, shaxsning qadriyatlarni anglash, ularni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilish va amaliy faoliyatda namoyon etish jarayoni bilan belgilanadi. Bu jarayon uch asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: kognitiv (bilim va tushunchalar), emotsional (his-tuyg‘ular va baholash) hamda xulqiy (amalga oshirish va faoliyat). Kognitiv komponent orqali shaxs qadriyatlar mohiyatini anglaydi, emotsional komponent orqali ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat shakllanadi, xulqiy komponent esa ushbu munosabatlarning real faoliyatda ifodalanishini ta’minlaydi.

Qadriyatli munosabatning shakllanishi ijtimoiy muhit, tarbiya, ta’lim jarayoni hamda shaxsiy tajriba bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, ta’lim tizimida bu jarayon maqsadli pedagogik ta’sirlar orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi tomonidan yaratilgan tarbiyaviy muhit, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar va ijtimoiy faoliyatlar o‘quvchilarda qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, qadriyatli munosabat shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. U orqali inson jamiyatda qabul qilingan me’yor va qadriyatlarga moslashadi, o‘zining ijtimoiy pozitsiyasini belgilaydi va boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatadi. Bu esa ayniqsa, globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat kabi sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatli munosabatning yana bir muhim jihati – uning barqarorlik xususiyatidir. U vaqt o‘tishi bilan mustahkamlanib boradi va shaxsning hayotiy pozitsiyasiga aylanadi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida qadriyatli munosabatlarni shakllantirish uzluksiz va tizimli ravishda olib borilishi lozim.

Qadriyat – bu shaxs va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimidir. Qadriyatli munosabat esa shaxsning ushbu qadriyatlarga nisbatan ongli, ijobiy va mas’uliyatli munosabatidir.

Talabalarda qadriyatli munosabatni shakllantirish:

– axloqiy me’yorlarni anglash;

– ijtimoiy mas’uliyatni his qilish;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik shart-sharoitlar kompleksi: Talabalarda qadriyatli munosabatni samarali shakllantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmuasini talab etadi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish Har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olish, uning fikrini hurmat qilish va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish muhimdir.

2. Interaktiv metodlardan foydalanish Munozara, debat, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish qadriyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

3. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni integratsiyalash Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qadriyatlar bilan bog‘liq mavzularni uyg‘un holda tashkil etish zarur.

4. O‘qituvchi shaxsining namuna bo‘lishi Pedagogning shaxsiy fazilatlari, axloqiy qarashlari va kasbiy madaniyati talabalar uchun muhim model vazifasini bajaradi.

5. Ijtimoiy hamkorlik muhitini yaratish Talabalarni jamoaviy faoliyatga jalb etish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ijtimoiy qadriyatlar shakllanadi.

Qadriyatli munosabatlarni shakllantirishda quyidagi amaliy usullar samarali hisoblanadi:

– vaziyatli mashqlar (case-study);
– loyihaviy faoliyat;
– refleksiya mashqlari;
– ijtimoiy loyihalarda ishtirok.

Talabalarda qadriyatli munosabatni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda qadriyatlarga asoslangan munosabatni rivojlantirish tasodifiy yoki faqat nazariy bilim berish orqali emas, balki puxta o‘ylangan, tizimli va uzviy bog‘langan pedagogik shart-sharoitlar kompleksi asosida amalga oshiriladi.

Avvalo, ta’lim jarayonida insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan mazmunni integratsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘quv materiallarini tanlash, dars jarayonini tashkil etish hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishda qadriyat komponentining yetakchi o‘ringa chiqishini taqozo etadi. Shuningdek, talabalarning faol subyekt sifatida ishtirok etishi, ya’ni interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat orqali ularning mustaqil fikrlashi va munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Talabalar jamoasida sog‘lom psixologik iqlim yaratish, o‘zaro hurmat, hamkorlik va tolerantlik tamoyillarini mustahkamlash qadriyatli munosabatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, uning kommunikativ madaniyati va pedagogik mahorati hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi, refleksiv faoliyatni yo‘lga qo‘yish alohida e’tiborga loyiqdir. Talabalarning o‘z xatti-harakatlari, qarashlari va qarorlarini tahlil qilishga o‘rgatilishi, ularning ichki qadriyat tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat bilim, balki shaxsiy pozitsiya va ijtimoiy mas’uliyatni ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qadriyatli munosabatni shakllantirish samaradorligi quyidagi pedagogik shart-sharoitlar kompleksiga bog‘liq:

– ta’lim mazmunining qadriyatlarga yo‘naltirilganligi;
– interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish;
– ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit yaratish;
– o‘qituvchining shaxsiy namunaliligi;
– refleksiv faoliyatni tizimli tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda qadriyatli munosabatni shakllantirish ko‘p omilli, murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u faqat alohida metod yoki vosita bilan emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi orqali samarali amalga oshiriladi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda amaliy metodikalarni takomillashtirish, ayniqsa CLIL, STEAM va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlarini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Qadriyatli munosabat – bu shaxsning qadriyatlarni anglash, baholash va ularga muvofiq faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalovchi murakkab pedagogik-psixologik hodisa bo‘lib, u shaxs kamolotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarda qadriyatli munosabatni shakllantirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u pedagogik shart-sharoitlar kompleksiga bog‘liq holda samarali amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida tizimli, maqsadli va integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llash orqali talabalarda mustahkam qadriyatli pozitsiyani shakllantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (ta’lim va tarbiya sohasiga oid hujjatlar).
4. Abduqodirov A.A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Qodirov B.R. Shaxs kamoloti va tarbiya muammolari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
6.Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent, 2018.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2016.
8. Musurmonova O. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2015.
9. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.
10. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Free Press, 1916.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.

**Umar G‘OYIMOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, v.v.b dotsent, p.f.f.d., (PhD)
**Avazbek ISMOILOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, talaba

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Kreativ fikrlash bolaning mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarga noodatiy yechim topishi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirishi asoslab berildi. Kreativ tafakkur boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Tayanch so‘zlar.** Kreativ tafakkur, boshlang‘ich ta’lim, ijodkorlik, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, mustaqil fikrlash, pedagogik yondashuv.

В данной статье раскрывается педагогическое значение формирования креативного мышления у учащихся начальных классов. Креативное мышление способствует развитию самостоятельности, способности находить нестандартные решения и творческого подхода к обучению. В исследовании проанализирована эффективность интерактивных методов, дидактических игр и инновационных технологий в образовательном процессе. Также обоснована важность сотрудничества учителя и родителей в расширении кругозора ребёнка. Формирование креативного мышления является важным фактором повышения качества начального образования.

**Ключевые слова.** креативное мышление, начальное образование, творчество, интерактивные методы, инновационные технологии, самостоятельное мышление, педагогический подход.

This article highlights the pedagogical importance of developing creative thinking in primary school students. Creative thinking plays a significant role in improving children’s independent decision-making skills, problem-solving abilities, and creative activities. The study analyzes the effectiveness of interactive methods, didactic games, and innovative technologies in the educational process. In addition, the cooperation between teachers and parents is considered an important factor in expanding students’ imagination and intellectual potential. Developing creative thinking contributes to improving the quality and effectiveness of primary education.

**Key words.** Creative thinking, primary education, creativity, interactive methods, innovative technologies, independent thinking, pedagogical approach.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Zamonaviy jamiyat nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan va yangilik yaratishga qodir shaxslarni tarbiyalashni talab etadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq o‘quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish muhim pedagogik masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kreativ tafakkur bolaning erkin fikrlashi, tasavvur doirasining kengligi, noodatiy qaror qabul qilishi hamda yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bolaning psixologik, intellektual va ijodiy imkoniyatlari faol shakllanadigan bosqich bo‘lgani uchun

bu davrda kreativ yondashuvlarni qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiatan qiziquvchan, faol va yangilikka intiluvchan bo‘ladilar. Ularning tabiiy qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunda o‘qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy metodlardan foydalanish darajasi hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishi muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihaviy faoliyat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, dars jarayonida o‘quvchini mustaqil fikr bildirishga undash, erkin munozara muhitini yaratish va ijodiy topshiriqlardan foydalanish ularning tafakkur doirasini kengaytiradi.

Hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimida kreativlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda ham o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritilgan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham yosh avlodni ijodkor, tashabbuskor va innovatsion fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich ta’limda kreativ tafakkurni shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshiradi, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatga erishishiga ham zamin yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu yuzasidan ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Lev Vygotskiy o‘zining “Voobrajeniye i tvorchestvo v detskom vozraste” asarida bolalarda ijodiy tafakkur rivojlanishi ijtimoiy muhit va ta’lim jarayoni bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlagan. Olim bolaning tasavvuri va kreativ fikrlashi faol muloqot hamda mustaqil faoliyat orqali rivojlanishini ilmiy asoslab bergan[2]. Shuningdek, Jean Piaget tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasida boshlang‘ich yoshdagi bolalarning fikrlash jarayonlari bosqichma-bosqich shakllanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Uning fikricha, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun amaliy topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonlik olimlaridan N. Saidahmedovning “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” nomli ilmiy ishida interfaol metodlarning o‘quvchilar mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni keng yoritilgan. M. Ochilov esa boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Mazkur manbalar mavzuning nazariy va amaliy asoslarini yoritishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasida pedagogik kuzatish, suhbat, savol-javob, taqqoslash va tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash darajasini aniqlash maqsadida interfaol topshiriqlar va ijodiy mashqlar qo‘llanildi. Olingan natijalar tahlili orqali kreativ tafakkurni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning samarali usullari tahlil qilindi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ta’lim sifatiga ta’siri o‘rganildi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy dars usullariga nisbatan interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar yaratish, kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

O‘qituvchining pedagogik mahorati kreativ tafakkurni shakllantirishda asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan rag‘batlantirish usullari, samimiy muloqot muhiti va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi o‘quvchini faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanuvchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishi lozim. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarda tashabbuskorlik, o‘ziga ishonch va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlandi.

Kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan darslar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham oshiradi. O‘quvchilar darslarda faol ishtirok etib, yangi g‘oyalarni ilgari surishga intildilar. Shu bilan birga, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarda bilim olishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirishi aniqlandi. Demak, boshlang‘ich ta’limda kreativ tafakkurni shakllantirish orqali barkamol, mustaqil va innovatsion fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirish bugungi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki kreativ fikrlash bolaning nafaqat bilim olish jarayonidagi faolligini oshiradi, balki uning mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarga noodatiy yondashuvi va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim davri bolaning intellektual va psixologik jihatdan faol shakllanish bosqichi bo‘lgani sababli aynan shu davrda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, muammoli topshiriqlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ayniqsa, dars jarayonida erkin fikr almashish muhiti yaratilganda o‘quvchilar o‘z imkoniyatlarini faol namoyon etishga intiladi. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, mustaqil va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Shuningdek, kreativ tafakkurni rivojlantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi va zamonaviy ta’lim muhitining mavjudligi muhim omil ekanligi aniqlandi. O‘quvchilarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar ta’lim samaradorligini oshiradi. Demak, boshlang‘ich ta’limda kreativ tafakkurni shakllantirish orqali kelajakda innovatsion g‘oyalarni ilgari sura oladigan, raqobatbardosh va barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boltaboyeva M. Texnologiya darslari orqali boshlang‘ich sinflarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish: Ped. fan. nom. diss. – Toshkent: TDPU, 2022.

2. Qodirov N. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish modeli: Ped. fan. nom. diss. – Toshkent, 2020.

3. Yusupova G‘. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy faollikni shakllantirish: Ped. fan. nom. diss. – Toshkent: TDPU, 2021.

4. Yunusova D. STEM yondashuvining boshlang‘ich ta’limdagi samaradorligi: Ped. fan. dr. diss. – Toshkent, 2023.

5. G‘oyimov U. E. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasb va faoliyatga yo‘naltirishning nazariy asoslari // Ilm, fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2020. – B. 112–113.

6. G‘oyimov U. E. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-sahovatni shakllantirish yo‘llari // Xalq ta’limi jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 75–77.

**Dilfuza RAYIMOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi, o‘qituvchi

# ASSERTIV XULQ ASOSIDA TALABALARDA QADRIYATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada talabalarda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishda assertiv xulq-atvorning o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, o‘z nuqtai nazarini erkin ifoda etishi hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar yoritilgan. Shuningdek, assertiv xulq asosida qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning samarali metod va vositalari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etishi ham aytib o‘tilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Assertiv xulq, qadriyatli munosabat, pedagogik jarayon, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy faollik, shaxs rivoji, ta’lim texnologiyalari.

В статье научно-теоретически проанализированы роль и значение ассертивного поведения в развитии ценностных отношений у студентов. Также освещены педагогические условия, обеспечивающие самостоятельное мышление студентов в образовательном процессе, свободное выражение их точки зрения и активное участие в общественных отношениях. Также показаны эффективные методы и средства формирования ценностных отношений на основе ассертивного поведения. Также отмечено, что результаты исследования имеют важное значение в развитии коммуникативной компетенции студентов и их личностном развитии.

**Ключевые слова.** Ассертивное поведение, ценностное отношение, педагогический процесс, коммуникативная компетенция, социальная активность, развитие личности, образовательные технологии.

The article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of assertive behavior in developing value-based relationships among students. It also highlights the pedagogical conditions that ensure students’ independent thinking, free expression of their point of view, and active participation in social relations during the educational process. Additionally, effective methods and tools for forming value-based relationships based on assertive behavior are demonstrated. It is also noted that the research results are of great importance for the development of students’ communicative competence and their development as individuals.

**Key words.** Assertive behavior, value attitude, pedagogical process, communicative competence, social activity, personal development, educational technologies.

Bugungi ta’lim tizimida talabalarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning shaxsiy sifatlarini, xususan, qadriyatli munosabatlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida turli madaniyatlar, qarashlar va ijtimoiy me’yorlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi talabalardan mustahkam hayotiy pozitsiya, mustaqil fikrlash va o‘z nuqtai nazarini asosli himoya qilish ko‘nikmalarini talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, assertiv xulq-atvor talabalarda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Assertiv xulq tushunchasi psixologiya va pedagogika fanlarida shaxsning o‘z huquq va manfaatlarini boshqalarning huquqlarini hurmat qilgan holda himoya qila olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bu xulq turi agressiv yoki passiv xatti-harakatlardan

farqli ravishda muvozanatli va konstruktiv muloqotni ta’minlaydi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, assertivlik shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, stressga chidamliligini kuchaytiradi hamda samarali kommunikatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish jarayoni murakkab pedagogik tizim bo‘lib, u shaxsning axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni anglash, qabul qilish va amalda qo‘llash darajasini ifodalaydi. Qadriyatli munosabatlar shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilashda, ijtimoiy faolligini oshirishda hamda ijobiy insoniy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta’lim jarayonida talabalarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish pedagogik faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – talabalarda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishda assertiv xulq-atvorning o‘rni va pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida assertivlikni rivojlantirish orqali talabalar o‘rtasida samarali muloqot, o‘zaro hurmat va ijtimoiy faollikni kuchaytirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Assertiv xulqning nazariy asoslari va uning pedagogik mohiyati

Assertiv xulq-atvor zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda shaxsning ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim kompetensiya sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda assertivlik shaxsning o‘z fikrini ochiq va aniq ifoda etishi, o‘z huquqlarini himoya qilishi bilan birga boshqalarning huquq va manfaatlarini ham hurmat qilishi bilan tavsiflanadi. Bu jihat uni agressiv va passiv xulq shakllaridan tubdan farqlaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, assertiv xulq talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularda mas’uliyat hissini shakllantiradi hamda ijtimoiy faol pozitsiyani qaror toptiradi. Ayniqsa, oliy ta’lim jarayonida talabalar o‘rtasida muloqot madaniyatini rivojlantirish, bahs-munozaralarda faol ishtirok etish va o‘z nuqtai nazarini asoslashda assertivlik muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, assertivlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etadi va yuqori natijalarga erishadi.

Shuningdek, assertiv xulq shaxsning emotsional barqarorligini ta’minlaydi. Bu esa talabalarning stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beradi. Natijada, talabalarda nafaqat bilim, balki hayotiy kompetensiyalar ham shakllanadi.

Assertiv xulq-atvor tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida gumanistik psixologiya va xulq-atvor terapiyasi doirasida shakllana boshlagan bo‘lib, shaxsning o‘zini erkin ifoda etishi, huquqlarini himoya qilishi va shu bilan birga boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ifodalaydi. Dastlabki tadqiqotlarda assertivlik shaxslararo muloqot samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘rilgan. Keyinchalik bu tushuncha pedagogika sohasiga ham kirib kelib, ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Ilmiy adabiyotlarda assertiv xulq uch asosiy komponent orqali tavsiflanadi:

– kognitiv komponent – shaxsning o‘z huquq va imkoniyatlarini anglash darajasi;

– emotsional komponent – o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va ifoda etish qobiliyati;

– xulqiy komponent – real vaziyatlarda konstruktiv muloqotni amalga oshirish ko‘nikmasi.

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi shaxsda barqaror assertiv pozitsiyani shakllantiradi.

Assertiv xulqni chuqurroq tushunishda A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, shaxs xulqi kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy tajriba

asosida shakllanadi [3]. Demak, ta’lim muhitida o‘qituvchining kommunikativ uslubi, guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlar va ta’lim texnologiyalari talabalarda assertivlikni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shuningdek, K. Rogersning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi ham assertiv xulqning nazariy asoslarini boyitadi. Unga ko‘ra, insonning o‘zini anglashi va o‘zini erkin ifoda etishi uchun psixologik xavfsiz muhit zarur. Ta’lim jarayonida bunday muhitni yaratish talabalarning ochiq fikr bildirishiga, tashabbus ko‘rsatishiga va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, assertiv xulq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– kommunikativ funksiyasi – samarali muloqotni ta’minlaydi;

– regulyativ funksiyasi – shaxsning xatti-harakatlarini muvozanatlashtiradi;

– rivojlantiruvchi funksiyasi – mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantiradi;

– ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi – shaxsning jamiyatga moslashuvini osonlashtiradi.

Bu funksiyalar talabalarning nafaqat akademik, balki ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda assertiv xulq kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog‘liq holda qaralmoqda. Ya’ni, talabaning bilim, ko‘nikma va malakalari uning real hayotiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, assertivlik kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi.

Bundan tashqari, assertiv xulq talabalarda quyidagi muhim sifatlarni shakllantiradi:

– o‘ziga ishonch va adekvat o‘zini baholash;

– ijtimoiy mas’uliyat hissi;

– konfliktlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalari;

– tolerantlik va empatiya.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot kuchayib borayotgan bir paytda assertiv xulq talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi.

Qadriyatli munosabatlar — bu shaxsning ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarga bo‘lgan ongli munosabatini ifodalovchi murakkab tizimdir. U shaxsning xulq-atvori, qaror qabul qilishi va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Talabalarda bunday munosabatlarni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir.

Pedagogik jarayonda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish quyidagi omillarga bog‘liq:

– ta’lim mazmunining qadriyatlarga yo‘naltirilganligi;

– o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi demokratik munosabatlar;

– interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

– ijtimoiy tajriba va amaliy faoliyatni tashkil etish.

Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida talabalarning shaxsiy rivoji markaziy o‘ringa qo‘yilib, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim deb e’tirof etiladi. Shu sababli, qadriyatli munosabatlarni shakllantirish jarayonida talabalarni faol subyekt sifatida jalb etish zarur.

Assertiv xulq asosida qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish metodlari

Talabalarda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishda assertiv xulqqa asoslangan metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday metodlar talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi hamda ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Quyidagi metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi:

1. Muammoli vaziyatlar (case-study) –Talabalarga real hayotiy vaziyatlar taqdim etilib, ulardan muammoni assertiv yondashuv asosida hal etish talab qilinadi. Bu metod talabalarda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Rol o‘ynash (role-play) –Talabalar turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali muloqot jarayonida assertiv xulqni amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu esa ularda empatiya va ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiradi.

3. Munozara va debatlar –Talabalar o‘z fikrlarini asoslab berish, boshqalarning fikrini hurmat qilish va konstruktiv bahs olib borishni o‘rganadilar. Bu jarayon assertivlikni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

4. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash –Talabalar o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilib, o‘z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa shaxsiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshiradi va ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, oliy ta’lim jarayonida assertiv xulqni rivojlantirish orqali talabalarda nafaqat kommunikativ kompetensiyalar, balki axloqiy qadriyatlar, bag‘rikenglik, empatiya, mas’uliyat va ijtimoiy faollik kabi sifatlar ham shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali hamkorlik qilish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va konstruktiv muloqot olib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanganki, ta’lim jarayonida maxsus pedagogik shart-sharoitlar – interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, reflektiv tahlil va hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish assertiv xulqni shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirib, ularni faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishda assertiv xulqni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bu jarayon uzluksiz, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda olib borilgandagina kutilgan natijalarni beradi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish, innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish va barkamol, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash imkoniyatlari yanada kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni (Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi).

4. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2018.

5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2005.

6. Рогов Е.И. Психология общения. – Москва: Владос, 2017.

7. Alberti R., Emmons M. Your Perfect Right: Assertiveness and Equality in Your Life and Relationships. – California: Impact Publishers, 2017.

8. Corey G. Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy. – Boston: Cengage Learning, 2016.

9. Hargie O. Skilled Interpersonal Communication: Research, Theory and Practice. – London: Routledge, 2011.

**Jamoliddin ERGASHEV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, o‘qituvchi, Qarshi davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

# BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada bo‘lajak pedagoglarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida integrativ yondashuvdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda fanlararo aloqadorlik va ta’lim komponentlarining integratsiyasi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Muallif tomonidan ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlikning samaradorligini oshirishga qaratilgan didaktik shart-sharoitlar va integrativ modullar taklif etilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Integrativ yondashuv, bo‘lajak pedagog, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, didaktik imkoniyatlar, fanlararo integratsiya, kompetensiya, ta’lim sifati, kasbiy tayyorgarlik.

В статье анализируются дидактические возможности использования интегративного подхода в процессе подготовки будущих педагогов к социально-педагогической деятельности. В исследовании освещается роль междисциплинарной связи и интеграции образовательных компонентов в формировании профессиональных компетенций студентов. Автором предложены дидактические условия и интегративные модули, направленные на повышение эффективности социально-педагогической подготовки.

**Ключевые слова.** Интегративный подход, будущий педагог, социально-педагогическая деятельность, дидактические возможности, междисциплинарная интеграция, компетенция, качество образования, профессиональная подготовка.

The article analyzes the didactic possibilities of using an integrative approach in the process of preparing future educators for socio-pedagogical activity. The study highlights the role of interdisciplinary connections and the integration of educational components in the formation of students’ professional competencies. The author proposes didactic conditions and integrative modules aimed at increasing the effectiveness of socio-pedagogical training.

**Key words.** Integrative approach, future teacher, socio-pedagogical activity, didactic possibilities, interdisciplinary integration, competence, quality of education, professional training.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar davrida ta’lim tizimi oldiga nafaqat bilimli mutaxassis, balki jamiyatning murakkab ijtimoiy jarayonlarida faol ishtirok eta oladigan, o‘quvchilarning ijtimoiy muammolarini hal qilishga qodir pedagog-shaxsni tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Zamonaviy pedagog endi faqat o‘z fanining repetitori emas, balki o‘quvchining ijtimoiy muhiti, oilasi va psixologik holatini tahlil qiluvchi ijtimoiy muhandis bo‘lishi lozim.

An’anaviy pedagogik ta’limda talabalarni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash ko‘pincha bir tomonlama yoki tarqoq (parchalanib ketgan) holda amalga oshiriladi. Psixologik bilimlar pedagogik mahorat bilan, sotsiologik tahlil esa metodika bilan yetarli darajada bog‘lanmaydi. Integrativ yondashuv esa ta’lim mazmunini sun’iy chegaralardan holi qilib, bo‘lajak pedagogning ongida yaxlit bir ijtimoiy-pedagogik manzara yaratishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali nazariya va amaliyotning uzviyligi ta’minlanadi, talabada kasbiy vazifalarni bajarishda tizimli tahlil qilish qobiliyati shakllanadi.

Integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari shundaki, u o‘quv jarayonida fanlararo sintezni yuzaga keltiradi, talabalarning tanqidiy va metakognitiv fikrlashini

faollashtiradi. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy didaktik modellarini ko‘rib chiqish, integratsiyani amalga oshirishning metodik mexanizmlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonning ijtimoiy samaradorligini asoslash maqsad qilingan.

Integratsiya tushunchasining pedagogik va didaktik mohiyati V.V. Krayevskiy, M.N. Berulava va N.K. Chapayev kabi olimlar tomonidan fundamental tarzda o‘rganilgan. Ular integratsiyani ta’lim mazmunini tizimlashtirish va talaba shaxsida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Xususan, N.K. Chapayev integratsiyani “Pedagogik bilimlarning sintezi” sifatida baholab, u orqali ta’lim oluvchining kasbiy kompetensiyalari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanishini ta’kidlaydi [6;354].

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar I.A. Zimnyaya, A.V. Mudrik va V.A. Slastenin kabi tadqiqotchilar ishlarida o‘z aksini topgan. A.V. Mudrik o‘z tadqiqotlarida pedagogning ijtimoiy roli faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki o‘quvchining ijtimoiylashuv jarayonini boshqarishdan iborat ekanligini asoslab bergan [5;83]. O‘zbekistonlik olimlardan R.A. Mavlonova, B.X. Xodjayev va M.X. Toxtaxodjayevalarning ishlarida pedagogik mahorat va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning milliy va hududiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Zamonaviy bosqichda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda konstruktivizm (J. Piaje, L. Vigotskiy) va konnektivizm (J. Siemens) nazariyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvlar talabaning ijtimoiy tajribani tayyor holda qabul qilmasdan, balki integrativ faoliyat jarayonida uni o‘zi “qurishi” (construct) kerakligini uqtiradi. Shuningdek, ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilishda TRIZ (Ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi) metodlaridan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, talabalarning kreativ va metakognitiv strategiyalarini rivojlantirishda integratsiyaning yangi didaktik imkoniyatlarini ochib bermoqda [9;7].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, garchi integratsiya va ijtimoiy-pedagogika sohalarida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, aynan integrativ yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik mexanizmlari va ularning didaktik modullari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Aksariyat ishlar nazariy xarakterga ega bo‘lib, amaliyotda talabalarning ijtimoiy-pedagogik tayyorgarligini monitoring qilish metodikasi ochiq qolmoqda. Bu esa biz tanlagan mavzuning dolzarbligini va yangi tadqiqotlar uchun ehtiyoj borligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-tarkibiy va shaxsga yo‘naltirilgan integrativ yondashuvlar tanlab olindi. Tadqiqot jarayonini tashkil etishda obyektivlik, izchillik va nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyillariga tayanildi. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

1. Nazariy-qiyosiy tahlil metodlari:

Tadqiqotning dastlabki bosqichida mavzuga oid falsafiy, pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlar tanqidiy tahlil qilindi. Integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida mavjud ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va fan dasturlari qiyosiy o‘rganildi. Bu bosqichda umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari yordamida “Ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik” tushunchasining integrativ modeli ishlab chiqildi.

2. Empirik va sotsiologik metodlar:

Bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi diagnostika usullari qo‘llanildi:

Anketalashtirish va so‘rovnoma: Talabalarning ijtimoiy-pedagogik bilimlarga bo‘lgan

qiziqishi va motivatsiyasini aniqlash uchun.

Intervyu va suhbat: Pedagogik oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari bilan integratsiyalashgan darslarning samaradorligi bo‘yicha ekspert baholash o‘tkazildi.

Pedagogik kuzatuv: Talabalarning pedagogik amaliyot jarayonida ijtimoiy muammolarni (o‘quvchilar o‘rtasidagi konfliktlar, ijtimoiy moslashuv va h.k.) hal qilish mahorati bevosita kuzatildi.

3. Modellashtirish va loyihalashtirish:

Tadqiqot davomida integrativ yondashuvga asoslangan “Ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlikning didaktik moduli” yaratildi. Bunda asosiy e’tibor fanlararo bog‘liqlikni (pedagogika, psixologiya, huquqshunoslik, sotsiologiya) ta’minlovchi integrativ keyslar va muammoli vaziyatlarni ishlab chiqishga qaratildi.

4. Matematik-statistik tahlil:

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini va haqqoniyligini ta’minlash maqsadida olingan ko‘rsatkichlar statistik metodlar (masalan, Styudentning t-kriteryasi yoki Pirson koeffitsiyenti) yordamida qayta ishlandi. Nazorat va tajriba guruhlaridagi o‘zgarishlar dinamikasi qiyosiy tahlil qilinib, taklif etilayotgan metodikaning samaradorligi matematik jihatdan asoslandi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Bo‘lajak pedagoglarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda integratsiya shunchaki bilimlar yig‘indisi emas, balki murakkab didaktik tizim hisoblanadi.

Muhokama jarayonida quyidagi qonuniyatlar aniqlandi:

Sinergetik effekt: Fanlar (pedagogika, psixologiya, huquq) alohida-alohida o‘qitilganda, talaba ularni bir butun ijtimoiy muammo yechimi sifatida ko‘ra olmaydi. Integrativ yondashuv esa ushbu fanlarning birlashishidan yangi, yuqori darajadagi kasbiy ko‘nikmani hosil qiladi.

Konstruktiv faoliyatning o‘rni: Tadqiqotimiz natijalari konstruktivizm tamoyillariga mos ravishda, talaba muammoni o‘zi tahlil qilib, yechim “qurganda” (construction), bilimning xotirada saqlanishi va amaliyotga ko‘chishi osonlashishini ko‘rsatdi.

Metakognitiv rivojlanish: Integrativ modullar talabalarni o‘z bilimlarini boshqarishga va turli ijtimoiy vaziyatlarda kreativ yondashuvlarni qidirishga majbur qiladi, bu esa ularning metakognitiv strategiyalarini boyitadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, integrativ tayyorgarlikdan o‘tgan talabalar pedagogik amaliyot davrida “murakkab” o‘quvchilar bilan ishlashda, ota-onalar bilan muloqot qilishda va maktabdagi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishda yuqori faollik ko‘rsatdilar. Bu esa biz taklif etayotgan metodikaning nafaqat ta’limiy, balki kuchli ijtimoiy natijadorlikka ega ekanligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Integratsiya – zamonaviy pedagogik zaruriyat: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi fanlarning shunchaki mexanik yig‘indisidan emas, balki ularning sintezlashgan yaxlitligidan iborat bo‘lishi lozim. Integrativ yondashuv talabada ijtimoiy muammolarni tizimli ko‘ra olish va ularni bartaraf etishda pedagogik, psixologik hamda sotsiologik bilimlarni uyg‘un qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Didaktik samaradorlik: Tajriba-sinov ishlari shuni isbotladiki, integrativ modullar asosida o‘qitilgan talabalarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiya darajasi an’anaviy guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Bu yondashuv talabalarning o‘quv

motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning amaliy faoliyatga moslashish jarayonini tezlashtiradi.

Shaxsga yo‘naltirilganlik: Integrativ yondashuv bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari (empatiya, tolerantlik, kreativlik) va kasbiy mahoratining uzviy birligini ta’minlaydi. Bu esa ta’lim tizimiga nafaqat “Bilim beruvchi”, balki o‘quvchining ijtimoiy himoyasini ta’minlovchi professional kadrlar yetkazib berish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, pedagogik ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

O‘quv rejalarini modernizatsiya qilish: Pedagogika yo‘nalishi o‘quv rejalariga fanlararo uzviylikni ta’minlovchi maxsus integrativ kurslarni (masalan, “Ijtimoiy-pedagogik diagnostika va reabilitatsiya”) joriy etish.

Keys-texnologiyalardan foydalanish: Dars jarayonida talabalarni real ijtimoiy muammolar (o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolar, noqulay oilaviy muhit va h.k.) bilan yuzlashtiruvchi integrativ keyslar va simulyatsion mashg‘ulotlar ulushini ko‘paytirish.

Pedagogik amaliyot mazmunini qayta ko‘rib chiqish: Talabalarning pedagogik amaliyoti davrida nafaqat dars o‘tish samaradorligi, balki ularning maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish mahoratini baholash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Raqamli integrativ platformalarni yaratish: Bo‘lajak pedagoglar uchun ijtimoiy-pedagogik muammolar banki va ularning integrativ yechimlari bazasini o‘z ichiga olgan elektron resurslarni ishlab chiqishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Normativ-huquqiy hujjat. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020. – 74 b.

2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. “Sano-standart” nashriyoti – Toshkent: 2017. – 360 b.

3. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. O‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” nashriyoti – Toshkent: 1996. – 128 b.

4. Берулава М.Н. Теоретические основы интегрированного образования. Монография. Педагогическое издательство – Москва: 1994. – 174 с.

5. Мудрик А.В. Социальная педагогика: Учебник для студентов педагогических вузов. Учебник. Издательство Академия – Москва: 2005. – 200 с.

6. Чапаев Н.К. Теоретические и методологические основы педагогической интеграции. Монография. Изд-во Рос. проф.-пед. мука - Екатеринбург: 1998. – 462 с.

7. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. Научная статья – Москва. 2003. – № 5. – С. 34-42.

8. Dewey, J. Experience and Education. Scientific publication. – New York: Kappa Delta Pi / Macmillan Publishers, 1938. – 91 p.

9. Siemens, G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. Scientific publication – 2005. – Vol. 2. No. 1. – 3-10-betlar.

10. Altshuller, G. The Innovation Algorithm: TRIZ, Systematic Innovation and Technical Creativity. Methodological guide. – Worcester: Technical Innovation Center, Inc., 1999. – 312 p.

**Umar G‘OYIMOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, v.v.b dotsent, p.f.f.d., (PhD)
**Mohina TO‘RAYEVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, talaba

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI SABR QANOATLI QILIB TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sabr-qanoatli qilib tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining muhim pedagogik masalalaridan biridir. Sabr-qanoat bolalarning o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishishi, ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi va o‘zini boshqara olishi uchun zarur sifat hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sabrni shakllantirishning pedagogik asoslari, o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi, o‘yin va tarbiyaviy metodlardan foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishda motivatsiya va rag‘batlantirishning o‘rni yoritiladi. Natijada, sabrli va maqsadga intiluvchan shaxsni tarbiyalashning samarali usullari ko‘rsatib beriladi.

**Tayanch so‘zlar.** Sabr-qanoat, boshlang‘ich sinf, tarbiya, pedagogik asoslar, motivatsiya, o‘qituvchi, o‘quvchi.

Воспитание терпения у учащихся начальных классов является одной из важных педагогических задач современной системы образования. Терпение способствует успешному обучению, развитию самоконтроля и формированию правильных социальных отношений у детей. В данной статье рассматриваются педагогические основы формирования терпения у младших школьников, роль взаимодействия учителя и родителей, а также использование игровых и воспитательных методов. Особое внимание уделяется значению мотивации и поощрения в развитии положительного поведения учащихся. В результате выделяются эффективные способы воспитания терпеливой и целеустремлённой личности.

**Ключевые слова.** Терпение, начальная школа, воспитание, педагогические основы, мотивация, учитель, ученик.

Developing patience in primary school students is one of the key pedagogical tasks in modern education. Patience helps children achieve academic success, develop self-control, and make appropriate social decisions. This article analyzes the pedagogical foundations of cultivating patience in young learners, the cooperation between teachers and parents, and the use of game-based and educational methods. It also highlights the importance of motivation and encouragement in shaping positive behavior. As a result, effective approaches to raising a patient and goal-oriented personality are discussed.

**Key words.** patience, primary school, education, pedagogical foundations, motivation, teacher, student.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim olish jarayoni bilan bir qatorda ularning shaxsiy sifatlarini shakllantirish ham muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bolalarning xarakteri, xulq-atvori va hayotga bo‘lgan munosabatining shakllanishida hal qiluvchi bosqich sanaladi. Shu sababli ushbu davrda o‘quvchilarda sabr-qanoat, chidamlilik, o‘zini boshqara olish va maqsadga intilish kabi fazilatlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Sabr-qanoat inson hayotida muvaffaqiyatga erishishning eng muhim omillaridan biri

bo‘lib, u nafaqat ta’lim jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘pincha tez natija olishni istaydigan, sabrsiz bo‘lishi mumkin. Shu bois o‘qituvchi va ota-onalar ularni asta-sekinlik bilan to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirib borishi zarur. Sabrli bo‘lish bolalarda mustahkam iroda, qat’iyat va o‘z maqsadiga erishish yo‘lida to‘siqlarni yengib o‘tish qobiliyatini shakllantiradi [2].

Pedagogik nuqtai nazardan sabr-qanoatni shakllantirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining kasbiy mahorati, tarbiyaviy usullardan to‘g‘ri foydalanishi hamda o‘quvchilar bilan individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida o‘yin texnologiyalaridan, rag‘batlantirish usullaridan va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali bolalarda sabr va chidamlilikni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarga kichik vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish topshiriqlarini berish ham ularning sabrini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oila ham tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati, uning harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi yoki to‘g‘ri yo‘naltirishi sabr-qanoatning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar bola uyda ham, maktabda ham bir xil tarbiyaviy yondashuvni his qilsa, unda ijobiy sifatlar tezroq rivojlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sabr-qanoatli qilib tarbiyalashning pedagogik asoslarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu mavzu doirasida o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi, tarbiyaviy metodlarning samaradorligi hamda o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish yo‘llari chuqur tahlil qilinadi. Natijada, sabrli, maqsadga intiluvchan va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ilmiy-pedagogik yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sabr-qanoatli qilib tarbiyalash masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biridir. Ushbu mavzu yuzasidan turli olimlar tomonidan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, L.S. Vygotskiy o‘zining “Thinking and Speech” asarida bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayoniga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, sabr va o‘zini boshqarish kabi sifatlar kattalar bilan hamkorlik jarayonida shakllanadi. A.N. Leontyev (2001) esa faoliyat nazariyasida bolalarning xulq-atvori faoliyat orqali rivojlanishini asoslab beradi, bu esa tarbiya jarayonida amaliy mashg‘ulotlarning muhimligini ko‘rsatadi [1].

Zamonaviy pedagog olimlardan J. Piaget (2002) bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, boshlang‘ich sinf yoshida konkret operatsion tafakkur shakllanishini qayd etadi. Bu davrda bolalarda sabr-qanoatni shakllantirish uchun aniq, ko‘rgazmali va bosqichma-bosqich yondashuvlar samarali ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zbekistonlik olimlardan K. Hoshimov va S. Nishonova (2010) pedagogika asoslari bo‘yicha tadqiqotlarida tarbiya jarayonida o‘qituvchi shaxsining o‘rni katta ekanini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, sabrli o‘quvchini tarbiyalashda o‘qituvchining shaxsiy namunasi va ijobiy muhit yaratishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, M. Ochilov (2015) pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ishlarida o‘yin texnologiyalari va rag‘batlantirish usullari bolalarda ijobiy xulq-atvor va sabrni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini asoslab beradi.

Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sabr-qanoatni shakllantirishning pedagogik asoslarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Birinchi navbatda, nazariy tahlil metodi qo‘llanildi. Bu metod orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik qo‘llanmalar va psixologik tadqiqotlar o‘rganilib, mavzuga oid

asosiy tushunchalar tahlil qilindi.

Ikkinchi metod sifatida kuzatuv metodi ishlatildi. Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarning xulq-atvori, sabr bilan topshiriq bajarish jarayoni va o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatlari kuzatildi. Bu orqali real pedagogik jarayon haqida amaliy ma’lumotlar to‘plandi. Shuningdek, suhbat metodi orqali o‘qituvchilar va ota-onalarning fikrlari o‘rganildi. Ularning tajribasi bolalarda sabrni shakllantirishda qanday usullar samarali ekanligini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqotda so‘rovnoma metodi ham qo‘llanilib, o‘quvchilarning sabr darajasi, ularning dars jarayonidagi munosabati va motivatsiyasi haqida statistik ma’lumotlar yig‘ildi.

Olingan ma’lumotlar tahlil va sintez metodi yordamida umumlashtirildi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sabr-qanoatni shakllantirishda o‘yin texnologiyalari, rag‘batlantirish, individual yondashuv va oilaviy hamkorlik eng muhim omillar ekanligi aniqlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sabr-qanoatli qilib tarbiyalash jarayoni pedagogik faoliyatning murakkab va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning darsdagi xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish tezligi, muammoli vaziyatlarga munosabati hamda o‘qituvchi va tengdoshlari bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sabr-qanoat darajasi nafaqat individual psixologik xususiyatlarga, balki pedagogik muhit va tarbiyaviy yondashuvlarga ham bevosita bog‘liqdir.

O‘quvchilarning bir qismi topshiriqlarni tez tugatishga intilib, xatolarga yo‘l qo‘yadi va natijada o‘qituvchining qayta tushuntirishiga ehtiyoj sezadi. Boshqa guruh o‘quvchilari esa bosqichma-bosqich ishlashga harakat qilib, nisbatan aniq va sifatli natijaga erishadi. Bu holat sabr-qanoat darajasining ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonida o‘yin texnologiyalari va rag‘batlantirish usullaridan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning sabr darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Masalan, guruhli ishlarda o‘quvchilar bir-birini tinglashga, navbat kutishga va fikr bildirish jarayonida sabrli bo‘lishga o‘rganadilar. Bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

O‘qituvchining shaxsiy namunasi ham juda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi sabr bilan tushuntirish olib borsa, o‘quvchilarda ham shu sifat shakllanadi. Aksincha, shoshqaloqlik va keskin munosabat o‘quvchilarda stress va beqaror xulqni keltirib chiqarishi mumkin.

Oilaviy muhit ham sabr-qanoatning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ota-onasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, lekin ortiqcha bosimga uchramagan bolalarda o‘zini boshqarish va vaziyatni kutish qobiliyati yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, bolaga mustaqil vazifalar berish va uni kichik yutuqlari uchun rag‘batlantirish ijobiy natija beradi.

Sabr-qanoatni shakllantirishda quyidagi omillar asosiy ahamiyatga ega: o‘qituvchining pedagogik mahorati, interfaol metodlardan foydalanish, oilaviy qo‘llab-quvvatlash hamda o‘quvchining shaxsiy motivatsiyasi. Ushbu omillar uyg‘unlashganda, o‘quvchilarda nafaqat sabr, balki mustaqil fikrlash, mas’uliyat va maqsadga intilish kabi sifatlar ham rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sabr-qanoatli qilib tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, sabr-qanoat nafaqat o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishish, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri

qaror qabul qilishi va o‘zini boshqara olishi uchun ham zarur sifatdir.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda sabr darajasi turlicha bo‘lib, bu holat ularning oilaviy muhiti, psixologik xususiyatlari va o‘qituvchining pedagogik yondashuviga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, dars jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar hamda rag‘batlantirish tizimi o‘quvchilarda sabrni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari o‘yin texnologiyalari, guruhli ishlar va bosqichma-bosqich topshiriqlar berish kabi metodlar bolalarda sabr-qanoatni rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqladi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning emotsional barqarorligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Oilaviy tarbiya ham bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, lekin ortiqcha bosimga duch kelmagan bolalarda sabr va mustaqillik yuqori darajada shakllanadi. Shu sababli maktab va oila hamkorligi samarali tarbiya jarayonining asosiy shartlaridan biridir.

Umuman olganda, sabr-qanoatni shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u muntazam e’tibor, to‘g‘ri metodik yondashuv va ijobiy muhitni talab qiladi. Ushbu sifatlarni rivojlantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maqsadga intiluvchan, mas’uliyatli va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mavlonova R. va boshqalar. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslari metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – B. 96.

2. Rasulova Z. Boshlang‘ich sinflarda axloqiy tarbiya. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – B. 64.

3. Toxtaxodjayeva M. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – B. 211.

4. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – B. 234.

5. Макаренко А.С. Педагогическая поэма. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 411.

6. Kodirova F. Oilaviy tarbiya psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – B. 73.

7. G‘oyimov U. E. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasb va faoliyatga yo‘naltirishning nazariy asoslari // Ilm, fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2020. – B. 112–113.

8. G‘oyimov U. E. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-sahovatni shakllantirish yo‘llari // Xalq ta’limi jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 75–77.

9. G‘oyimov U. E. Building a sense of compassion in elementary school students // International Journal for Innovative Engineering and Management Research. – 2021. – 4-aprel. – B. 61–63.

**Nasiba XOLBOZOROVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri
**Zulayxo XURRAMOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, magistrant

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

**Annotatsiya**

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda pedagogik samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar va loyiha asosida o‘qitish orqali talabalarning kommunikativ, axborot bilan ishlash, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.

**Tayanch so‘zlar.** Kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiyalar, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik faoliyat, interaktiv metodlar, kasbiy tayyorgarlik, ta’lim samaradorligi.

This article examines the theoretical and practical foundations of developing core competencies of future primary school teachers based on the competency-based approach. The study highlights the essence of the competency-based approach, its role in the educational process, and its pedagogical effectiveness. It also substantiates the possibilities of developing students’ communicative, informational, social, and professional competencies through interactive methods, problem-based learning, and project-based activities. The research results demonstrate that organizing the educational process based on the competency-based approach significantly enhances the professional training of future teachers..

**Key words.** Competency-based approach, core competencies, primary education, pedagogical activity, interactive methods, professional training, educational effectiveness.

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы развития ключевых компетенций будущих учителей начальных классов на основе компетентностного подхода. В ходе исследования раскрыта сущность компетентностного подхода, его роль в образовательном процессе и педагогическая эффективность. Обоснованы возможности развития коммуникативных, информационных, социальных и профессиональных компетенций студентов посредством интерактивных методов, проблемного обучения и проектной деятельности. Результаты исследования показывают, что организация учебного процесса на основе компетентностного подхода способствует значительному повышению профессиональной подготовки будущих педагогов.

**Ключевые слова.** Компетентностный подход, ключевые компетенции, начальное образование, педагогическая деятельность, интерактивные методы, профессиональная подготовка, эффективность обучения.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning keyingi rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajarishi sababli bu bosqichda faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tayanch kompetensiyalarni

shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirishga xizmat qiluvchi muhim konseptual asoslardan biridir. Ushbu yondashuv doirasida bilimlarni oddiy o'zlashtirish emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, muammolarni mustaqil hal etish, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalari tarkibiga kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, ijtimoiy faoliyat kompetensiyasi, muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyasi hamda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi kiradi. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlarini o'rganish mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika, psixologiya va didaktika fanlarining zamonaviy konsepsiyalari, xususan, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv va konstruktivistik nazariya tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va statistik metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar tizimli va qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, tarkibiy qismlari va pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayanch kompetensiyalari tarkibi ilmiy manbalar asosida tizimlashtirildi. Empirik tadqiqotlar oliy ta'lim muassasasining pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari ishtirokida olib borildi. Tadqiqot tanlanmasi sifat jihatidan bir xil sharoitda ta'lim olayotgan talabalar guruhlaridan shakllantirildi. Tadqiqot dizayni tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etishga asoslandi. Nazorat guruhlarida an'anaviy o'qitish metodlari qo'llanilgan bo'lsa, tajriba guruhlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan maxsus metodik tizim joriy etildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi empirik metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv, diagnostik suhbat, anketa-so'rov, test sinovlari, o'quv faoliyati mahsullarini tahlil qilish hamda tajriba-sinov ishlari. Pedagogik kuzatuv orqali talabalar faoliyati, ularning dars jarayonidagi ishtiroki va kompetensiyaviy ko'rsatkichlari muntazam ravishda monitoring qilindi. Anketa va suhbatlar yordamida talabalarning kompetensiyaviy yondashuvga bo'lgan munosabati, o'zini o'zi baholash darajasi va refleksiv ko'nikmalari o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari bir necha bosqichda tashkil etildi. Dastlabki bosqichda talabalarning tayanch kompetensiyalari rivojlanish darajasi aniqlanib, boshlang'ich diagnostika amalga oshirildi. Keyingi bosqichda kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv mashg'ulotlari tizimi joriy etildi. Ushbu mashg'ulotlar interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, keys-stadi texnologiyalari va refleksiya usullariga asoslandi. Yakuniy bosqichda esa o'zgarishlar dinamikasi aniqlanib, natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda baholash mezonlari alohida e'tibor bilan ishlab chiqildi. Tayanch kompetensiyalar rivojlanish darajasi quyidagi indikatorlar asosida baholandi: bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish, mustaqil fikrlash darajasi, kommunikativ faollik, axborot bilan ishlash ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati va refleksiv tahlil yurita olish. Har bir indikator bo'yicha past, o'rta va yuqori darajalar belgilandi. Natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Xususan, o'rtacha arifmetik qiymat, foiz ko'rsatkichlari va taqqoslash tahlili qo'llanildi. Bu usullar orqali

tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi ilmiy asosda isbotlandi. Shuningdek, tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash maqsadida triangulyatsiya usuli qo‘llanildi, ya’ni turli metodlar orqali olingan natijalar o‘zaro solishtirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining obyektivligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar ko‘p bosqichli diagnostika va qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi. Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan talabalar orasida tayanch kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi yetarli emas edi. Xususan, talabalar ko‘pchiligida nazariy bilimlar mavjud bo‘lsa-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil qaror qabul qilish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari sust rivojlanganligi aniqlandi. Kommunikativ kompetensiya doirasida ham nutqiy faollik, fikrni mantiqan asoslab ifodalash va bahs-munozaralarda faol ishtirok etish darajasi past ekanligi kuzatildi. Tajriba-sinov ishlari davomida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar tizimi joriy etilgach, tajriba guruhidagi talabalar faoliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Xususan, interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish va muammoli vaziyatlarni yechishga yo‘naltirilgan topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Kommunikativ kompetensiya bo‘yicha o‘zgarishlar alohida e’tiborga loyiqdir. Tajriba guruhidagi talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, mantiqiy asoslash hamda jamoa bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Dars jarayonida tashkil etilgan munozaralar, debatlar va guruhli ishlash shakllari bu borada muhim omil bo‘ldi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi ham sezilarli darajada rivojlandi. Talabalar mustaqil ravishda axborot izlash, uni tahlil qilish, saralash va amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini egallay boshladi. Raqamli resurslardan foydalanish, taqdimotlar tayyorlash va ma’lumotlarni tizimlashtirish jarayonlari ularning axborot madaniyatini oshirdi.

Muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyasi doirasida talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va eng maqbul variantni tanlash qobiliyatlarini namoyon eta boshladi. Keys-stadi va amaliy mashg‘ulotlar bu kompetensiyaning shakllanishida samarali vosita bo‘lib xizmat qildi.

Ijtimoiy kompetensiya ham rivojlanish dinamikasini ko‘rsatdi. Talabalar jamoada ishlash, hamkorlik qilish, o‘zaro hurmat va mas’uliyatni his etish kabi sifatlarni egallay boshladi. Guruhli loyihalar va jamoaviy topshiriqlar bu jarayonda muhim rol o‘ynadi.

Refleksiv kompetensiya rivoji ham kuzatildi. Talabalar o‘z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda o‘z ustida ishlash zaruratini anglash darajasiga erishdi. Refleksiya mashg‘ulotlari va o‘zini o‘zi baholash usullari bu jarayonni qo‘llab-quvvatladi.

Yakuniy diagnostika natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farq mavjudligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi kompetensiyalar ulushi keskin oshgan bo‘lsa, nazorat guruhida bunday o‘sish unchalik sezilmadi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Statistik tahlil natijalari ham ushbu xulosalarni qo‘llab-quvvatladi. O‘rtacha ko‘rsatkichlar, foiz o‘sish dinamikasi va qiyosiy tahlillar tajriba guruhida ijobiy natijalar ustun ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa tadqiqot gipotezasining to‘g‘riligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Mazkur tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning yuqori samaradorlikka ega

ekanligini ko‘rsatdi. Olingan empirik ma’lumotlar va ularning tahlili ushbu yondashuvning nazariy jihatdan asoslanganligini va amaliyotda o‘z tasdig‘ini topayotganligini yana bir bor isbotlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy natijalar zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan mos keladi. Xususan, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilimlar o‘quvchi tomonidan faol ravishda o‘zlashtiriladi va bu jarayon real faoliyat bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi. Tadqiqot natijalarida ham aynan faol o‘qitish metodlari, muammoli vaziyatlar va loyiha ishlari orqali talabalar bilimlarni chuqurroq anglab, ularni amaliyotda qo‘llay olish darajasi oshgani kuzatildi. Kompetensiyaviy yondashuvning ustun jihatlaridan biri uning shaxsga yo‘naltirilgan xarakterga ega ekanligidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur yondashuv talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqish va ehtiyojlariga mos ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quv motivatsiyasining oshishiga, mustaqil fikrlash va o‘zini o‘zi rivojlantirish ehtiyojining shakllanishiga olib keladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy o‘qitish usullarida ko‘proq reproduktiv faoliyat ustun bo‘lib, talabalar tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi. Natijada esa ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmaydi. Aksincha, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Bu jarayonda ular mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini egallaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuvning integrativ xarakterga ega ekanligini ham tasdiqlaydi. Ya’ni bu yondashuv doirasida bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zaro uyg‘unlashgan holda shakllanadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kommunikativ, axborot va refleksiv kompetensiyalarning birgalikda rivojlanishi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etishda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli darajada emasligi sezildi. Ko‘plab pedagoglar hali ham an’anaviy metodlarga ko‘proq tayanadi, bu esa yangi yondashuvlarni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Shu bois pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zarur. Yana bir muhim jihat – o‘quv-metodik ta’minot masalasidir. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan darsliklar, metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallar yetarli emasligi kuzatiladi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli zamonaviy talablarga javob beradigan o‘quv materiallarini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, vaqt va tashkiliy resurslar bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Interaktiv metodlar va loyiha asosida o‘qitish ko‘proq vaqt talab qiladi. O‘quv yuklamasining yuqoriligi esa ba’zan ushbu metodlarni to‘liq qo‘llash imkonini cheklaydi. Bu muammoni hal etish uchun o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etish tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion metodlarni keng joriy etish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ta’lim muhitini modernizatsiya qilish.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning zamonaviy ta’lim tizimi uchun dolzarb va samarali ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi.

Tahlillar jarayoni ko‘rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv o‘quv jarayonini an’anaviy bilim berish modelidan farqli ravishda, shaxsga yo‘naltirilgan, faol va natijaga qaratilgan tizimga aylantiradi. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, kommunikativ, axborot bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijtimoiy va refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishda ushbu yondashuvning ustunligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Talabalar faoliyatida mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish ko‘nikmalarining sezilarli darajada rivojlangani kuzatildi. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga tayyorgarligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari asosida ayrim tizimli muammolar ham aniqlandi. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etishda pedagoglarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, zamonaviy o‘quv-metodik ta’minotning yetishmasligi hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda vaqt va resurslar bilan bog‘liq cheklovlar mavjudligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi. Kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etish uchun oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini qayta ko‘rib chiqish, interaktiv va innovatsion metodlarni keng qo‘llash zarur. Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash, malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Kelgusida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuvning turli fanlar kesimida qo‘llanishi, uning metodik ta’minotini takomillashtirish hamda raqamli ta’lim muhitida kompetensiyalarni rivojlantirish masalalarini chuqurroq o‘rganish zarur. Bu esa ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim tizimiga keng joriy etish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, ularni zamonaviy talablar asosida tayyorlash va raqobatbardosh pedagog kadrlarni shakllantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva Q. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2020.–256 b.

2. Avliyakulov N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.–320 b.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 280 b.

4. Jo‘rayev R.X. Ta’lim jarayonini boshqarish asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 240 b.

5. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat. – Toshkent: Noshir, 2020. – 300 b.

6. Tadjibayeva D., Yo‘ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Universitet, 2019. – 270 b.

7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.

**Mavluda SOLIJONOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi, o‘qituvchi

# SHAXS ASSOTSIATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning assotsiativ tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Maqolada an’anaviy o‘qitish uslublarining cheklanganligi ko‘rsatib o‘tilib, ta’lim oluvchilarning ijodiy va kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda kognitiv vositalarning o‘rni eksperimental tarzda asoslangan. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan mental xaritalar, erkin assotsiatsiyalar hamda integratsiyalashgan tushunchalar sintezi kabi metodlarning talabalar va o‘quvchilar fikrlash doirasini kengaytirishdagi samaradorligi statistik tahlillar orqali isbotlangan.

**Tayanch so‘zlar.** Assotsiativ tafakkur, kreativlik, kognitiv moslanuvchanlik, mental xaritalar, erkin assotsiatsiyalar, didaktik dogmatizm, divergent fikrlash.

В данной статье рассматриваются педагогические основы и практическое значение развития ассоциативного мышления личности в современной системе образования. В работе указаны ограничения традиционных методов обучения и экспериментально обоснована роль когнитивных инструментов в формировании творческих и креативных способностей учащихся. На основе статистического анализа доказана эффективность таких методов, как ментальные карты, метод свободных ассоциаций и синтез несвязанных понятий, в расширении кругозора учащихся.

**Ключевые слова.** Ассоциативное мышление, креативность, когнитивная гибкость, ментальные карты, свободные ассоциации, дидактический догматизм, дивергентное мышление.

This article explores the pedagogical foundations and practical significance of developing an individual’s associative thinking within the modern educational system. The paper highlights the limitations of traditional teaching methods and experimentally validates the role of cognitive tools in fostering learners’ creative and innovative abilities. Through statistical analysis, the effectiveness of methods such as mind mapping, free associations, and the synthesis of unrelated concepts in expanding students’ cognitive boundaries is thoroughly demonstrated.

**Key words.** Associative thinking, creativity, cognitive flexibility, mind mapping, free associations, didactic dogmatism, divergent thinking.

Bugungi kunda pedagogika sohasi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – shunchaki tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammolarga kreativ yondashuvchi va nostandart fikrlovchi kadrlarni tarbiyalashdan iboratdir. Axborot oqimi shiddat bilan o‘sayotgan hozirgi XXI asrda quruq yodlash va uni qayta takrorlashga asoslangan an’anaviy ta’lim modellari o‘zining funksional qiymatini yo‘qotib bormoqda. Bunday sharoitda inson intellektining o‘sishini ta’minlovchi bosh omillardan biri sifatida assotsiativ (bog‘lanishli) tafakkur madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, assotsiativ tafakkur deganda inson xotirasi va tasavvuridagi mavjud tushunchalar, voqea-hodisalar yoki ramziy timsollar o‘rtasida mantiqiy, funktsional va hissiy aloqalarni o‘rnata olish qobiliyati tushuniladi. Aynan mana shu qobiliyat ijodkorlik, kashfiyotchilik hamda intellektual moslashuvchanlikning bosh mezoni sanaladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, assotsiativ zanjirlarning

ko‘p tarmoqliligi shaxsga kutilmagan, muammoli vaziyatlarda eng optimal va noodatiy yechimlarni tezkorlik bilan topish imkonini beradi. Biroq hozirgi pedagogik amaliyotda jiddiy bir ziddiyat ko‘zga tashlanmoqda: mehnat bozori va jamiyat innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarga ehtiyoj sezayotgan bir paytda, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning assotsiativ tafakkurini tizimli rivojlantirishning metodologik asosi va texnologik ta’minoti yetarlicha shakllanmagan. Aksariyat dars mashg‘ulotlari faqat bir tomonlama (chiziqli) mantiqqa tayangani sababli, ta’lim oluvchilar fikrlashida qoliplashish (shablonlar) yuzaga kelmoqda. Mazkur muammoni yaxlit pedagogik fenomen sifatida o‘rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini kashf etish va dars jarayoniga tatbiq etiladigan metodikasini yaratish ushbu maqolaning nechog‘lik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Assotsiativ va divergent tafakkurni o‘rganish pedagogika va psixologiyaning fundamental yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu sohada G.Ebbingauz xotirada axborotlar bog‘lanish zanjiri ma’lum qonuniyatlar asosida yuzaga kelishini isbotlagan bo‘lsa, J.Piaje intellektual moslashuvchanlikni yangi bilimlarni kognitiv sxemalarga integratsiya qilish natijasi o‘laroq baholagan. Kreativlik va assotsiatsiyalar o‘rtasidagi korrelyatsiyani ilmiy asoslagan S.Mednik esa ijodkorlikni – uzoq tushunchalarni yangi va foydali kombinatsiyalarga birlashtirish qobiliyati deb ta’riflaydi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-kognitiv yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi qabul qilindi. Izlanish jarayoni aniqlovchi, shakllantiruvchi va tekshiruvchi bosqichlarda tashkil etildi. Ushbu tadqiqot ishi 2025-2026-o‘quv yili davomida bevosita ta’lim muassasalarining real dars jarayonlarida tashkil etildi. Eksperimentga jami 60 nafar ta’lim oluvchi jalb qilinib, ular teng ikki guruhga ajratildi:

Nazorat guruhi (30 nafar): Mashg‘ulotlar odatiy ma’ruza va an’anaviy seminar darslari shaklida o‘tildi.

Tajriba guruhi (30 nafar): Darslarda talabalarning assotsiativ fikrlashini faollashtiruvchi maxsus kognitiv o‘yinlar va pedagogik innovatsiyalar tizimli ravishda amaliyotga kiritildi.

Izlanish davomida quyidagi uslublar majmuasidan foydalanildi:

Nazariy metodlar: Muammoga doir falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish.

Empirik metodlar: S.Mednikning “Ijodiy fikrlash (assotsiatsiya) testi” (RAT) modifikatsiyasi, pedagogik kuzatuv va so‘rovnomalar.

Pedagogik eksperiment: Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari.

Matematik-statistika metodlari: Eksperiment natijalarining ishonchlilik darajasini aniqlashda Styudent t-kriteriysidan foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqotning dastlabki bosqichida (kirish nazorati) olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, har ikki guruhda ham assotsiativ fikrlash, kognitiv moslashuvchanlik va original g‘oyalar o‘ylab topish ko‘rsatkichlari deyarli bir xil – asosan quyi va o‘rta darajada edi. Biroq o‘quv yili yakunida o‘tkazilgan yakuniy sinovlar tajriba guruhida jiddiy ijobiy siljishlar sodir bo‘lganini namoyon etdi. Bunda ta’lim oluvchilarning assotsiativ zanjirlarni shakllantirish tezligi va o‘ziga xoslik (originallik) koeffitsiyentlari asosiy mezon qilib olindi.

Quyidagi jadvalda tadqiqotgacha va tadqiqotdan keyingi ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasi aks etgan:

| Guruhlar | Bosqichlar | Past daraja (%) | O‘rtacha daraja (%) | Yuqori daraja (%) |
|---|---|---|---|---|
| Nazorat guruhi | Tajribadan oldin | 45% | 43% | 12% |
| | Tajribadan keyin | 40% | 45% | 15% |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Tajriba guruhi | Tajribadan oldin | 47% | 41% | 12% |
| | Tajribadan keyin | 13% | 52% | 35% |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, odatiy dars o'tish uslubi saqlanib qolgan nazorat guruhida yuqori ko'rsatkich atigi 3 foizga (12% dan 15% ga) o'sgan bo'lsa, innovatsion metodlar tatbiq etilgan tajriba guruhida ushbu natija 23% ga yuksalib, 35% ni tashkil qildi. Shu bilan birga, tajriba guruhida past ko'rsatkichli o'quvchilar ulushi 47% dan 13% gacha pasaydi. S.Mednik testi tahlillari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi ishtirokchilari so'zlarga faqat standart (shablonli) javoblar (masalan: olma – meva) berishdan qochib, chuqur mantiqiy, funksional va metaforik bog'lanishlarni (olma – tortishish qonuni, olma – smartfon brendi, olma – yoshlik ramzi) faol qo'llay boshladilar. Bu esa ularning xotirasidagi ma'lumotlar bazasi o'zaro integratsiyalashganini ko'rsatadi.

Eksperiment natijalari tasdiqlaydiki, shaxsda assotsiativ tafakkurning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'ladigan tasodifiy jarayon emas, balki u bevosita yaratilgan pedagogik muhit va qo'llanilayotgan metodikaga bog'liqdir. Shu sababli, ushbu muammoni faqatgina psixologiya doirasida cheklamay, muhim pedagogik muammo sifatida e'tirof etish lozim.

Pedagogik adabiyotlar tahlili va amaliy tajribamiz jarayonida assotsiativ fikrlashga to'sqinlik qiluvchi quyidagi to'siqlar aniqlandi:

Didaktik dogmatizm: O'quv dasturlarida faqat bitta to'g'ri javob yoki tayyor yechim modelining talab qilinishi.

Kognitiv stereotiplar: Ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasiga tayanishiga yo'l qo'yilmasligi va xato qilishdan qo'rqish muhitining mavjudligi.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqotlar va eksperiment natijalari asosida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

Shaxsning assotsiativ tafakkurini yuksaltirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash darajasini to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi.

An'anaviy o'qitish metodlari talabalarda tarmoqli fikrlashni rivojlantirishda past samaradorlikka ega. Intellektual moslashuvchanlikni oshirish uchun ta'lim tizimiga interaktiv va sintezlovchi texnologiyalarni tizimli joriy etish zarur.

Mental xaritalar, erkin assotsiatsiyalar va noodatiy sintez mashqlari tajriba guruhida yuqori samaradorlik ko'rsatdi (kreativlik darajasi 12 foizdan 35 foizga ko'tarildi), bu esa taklif etilgan pedagogik modelning amaliy jihatdan unumli ekanini isbotlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo'ldoshev J.G'., Hasanov S. "Pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

2. Mednick S.A. "The associative basis of the creative process" // Psychological Review, 1962. – Vol. 69, No. 3. – P. 220-232.

3. Buzan T. "The Mind Map Book: How to Use Radiant Thinking to Maximize Your Brain's Untapped Potential". - New York: Plume, 2010.

4. G'oziyev E.G'. "Tafakkur psixologiyasi". – Toshkent: Universitet, 2012.

5. Xalilov Sh.R. "O'quvchilarning kognitiv va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari" // Pedagogika jurnali, 2024. - №2. - B. 45-51.

**Gulhayo YUSUFOVA**
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

# NUTQIY KOMPETENSIYANI OSHIRISHDA AXBOROT-RESEPTIV METODINI INTEGRATIV MODEL BILAN BIRLASHTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda axborot-reseptiv metodini integrativ pedagogik model bilan birlashtirishning nazariy asoslarini va amaliy samaradorligini o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ushbu metodologik yondashuv talabalarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda qanday ijobiy natijalar berishi tahlil qilingan. Integrativ modelning tarkibiy elementlari, axborot-reseptiv metodning mohiyati va ularni birgalikda qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari batafsil ko‘rib chiqilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Nutqiy kompetensiya, axborot-reseptiv metod, integrativ model, kommunikativ kompetensiya, til ta'limi, pedagogik texnologiya, til o‘qitish metodikasi.

В статье изучены теоретические основы и практическая эффективность сочетания информационно-рецептивного метода с интегративной педагогической моделью в развитии речевой компетенции. В ходе исследования был проанализирован тот факт, что данный методологический подход дает положительные результаты в формировании навыков устной и письменной речи у студентов. Подробно рассмотрены структурные элементы интегративной модели, сущность информационно-рецептивного метода и педагогические возможности их совместного применения.

**Ключевые слова.** Речевая компетенция, информационно-рецептивный метод, интегративная модель, коммуникативная компетенция, языковое образование, педагогические технологии, методика преподавания языка.

The article examines the theoretical foundations and practical effectiveness of combining the information-receptive method with an integrative pedagogical model in developing speech competence. During the study, it was analyzed how this methodological approach yields positive results in developing students' oral and written speech skills. The structural elements of the integrative model, the essence of the information-receptive method, and the pedagogical possibilities of their combined application are examined in detail.

**Key words.** Speech competence, information-receptive method, integrative model, communicative competence, language education, pedagogical technology, language teaching methodology.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o‘quvchi va talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Globallashuv jarayonida kommunikativ malakalar nafaqat akademik, balki kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biriga aylandi. Bu vaziyatda pedagog oldida muammo paydo bo‘ladi: an'anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha talabaning faol nutqiy ishtirokini ta'minlay olmaydi.Axborot-reseptiv metod (informatsion-reseptiv yoki reproduktiv metod deb ham ataladi) – bu o‘quvchi axborotni o‘qituvchi yoki manba orqali qabul qilib, uni o‘zlashtiradi va takrorlaydi . Metod tushuntirishga, namoyish etishga va tayyor bilimlarni uzatishga asoslanadi. Biroq, faqat ushbu metodni qo‘llash talabalarda ijodiy nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda yetarli emas.Integrativ model esa turli pedagogik yondashuvlarni, o‘quv fanlari va metodlarini yaxlit tizimda birlashtirish konsepsiyasiga asoslanadi. Kommunikativ-integrativ ta'lim modeli ayniqsa til o‘qitish sohasida keng qo‘llanilmoqda va u nutqning barcha aspektlarini – tinglash, o‘qish, so‘zlash va yozis-

hni – uyg‘un holda rivojlantirishni ko‘zda tutadi.Ushbu maqolada biz axborot-reseptiv metodning kuchli tomonlarini integrativ modelning moslashuvchanlik imkoniyatlari bilan birlashtirish orqali nutqiy kompetensiyani oshirishning samarali yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

Axborot-reseptiv metod I.Ya. Lerner va M.N. Skatkin tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim metodlari tasnifida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimda axborot-reseptiv metod birinchi bosqich hisoblanadi – o‘quvchi yangi bilimni oladi, uni qabul qiladi va anglaydi. Bu bosqichda o‘qituvchi asosiy axborot manbai sifatida harakat qiladi, talaba esa faol tinglovchi va kuzatuvchi bo‘ladi.Nutqiy kompetensiya tushunchasi Xymes (Hymes, 1972) tomonidan kommunikativ kompetensiya doirasida tavsiflanib, tilni nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyati sifatida belgilangan. Keyinchalik Canale va Swain (1980) bu tushunchani grammatik, ijtimoiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarga bo‘lib o‘rgandilar.Integrativ o‘qitish nazariyasi (Integrated Language Teaching) Brown (2007) asarlarida batafsil yoritilgan. Unga ko‘ra, tilning to‘rt ko‘nikmasi – tinglash (listening), o‘qish (reading), so‘zlash (speaking) va yozish (writing) – alohida-alohida emas, balki yaxlit kommunikativ jarayonning tarkibiy qismlari sifatida o‘rgatilishi lozim. Bu yondashuv real hayot komunikatsiyasini yaqinroq simulyatsiya qiladi.Richards va Rodgers (2014) ta'lim yondashuvlari, metodlari va texnikasi o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, biron bir metodning yagona universal echim bo‘la olmasligini ko‘rsatdi.Amaliyotda eng samarali natijaga eklektik yondashuv – turli metodlarning maqsadli kombinatsiyasi orqali erishiladi.

O‘zbek pedagogikasi sohasida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari N.M. Mahmudov, R.Q. Qo‘ng‘urov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.Ularning tadqiqotlari o‘zbek tili ta'limida kommunikativ yondashuvning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi va milliy ta'lim kontekstida axborot-reseptiv metodning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tarixiy tahlil, integrativ ta'lim modellarini o‘rganish, shuningdek mavjud amaliy tajribalarni umumlashtirish. Maqolada taqdim etilgan integrativ model uch bosqichli tuzilmaga ega: 1) axborot qabul qilish; 2) til birliklarini qayta ishlash; 3) nutqiy mahsulotni yaratish.

Birinchi bosqich – axborot qabul qilish bosqichi – axborot-reseptiv metodning asosini tashkil etadi. Bu bosqichda talabalar audio, video yoki matn shaklidagi yangi axborot bilan tanishadilar. O‘qituvchi og‘zaki tushuntirish, ko‘rgazmali qurollar va multimediya vositalari orqali yangi lingvistik materiallarni taqdim etadi. Talaba passiv tinglovchi emas, balki faol kuzatuvchi va tahlilchi sifatida ishtirok etadi – u axborotni nafaqat qabul qiladi, balki undagi til birliklarini (leksik, grammatik, fonetik) ongli ravishda kuzatib boradi.

Ikkinchi bosqich – til birliklarini qayta ishlash – integrativ modelning o‘ziga xos xususiyatidir. Bu bosqichda talaba qabul qilgan axborotini til tahlili nuqtai nazaridan o‘rganadi: matnni qayta hikoyalash, dialogik va monologik mashqlar, juftlik va guruh topshiriqlari. Tinglash va o‘qish ko‘nikmalari yozish va so‘zlash ko‘nikmalari bilan organik ravishda uyg‘unlashadi.

Uchinchi bosqich – nutqiy mahsulotni yaratish – talaba o‘rganilgan til vositalaridan foydalanib, o‘z nutqiy mahsulotini yaratadi. Bu bosqich kommunikativ kompetensiyani bevosita rivojlantiradi: talabalar o‘zlari o‘rgangan leksika va grammatik konstruksiya-

larni yangi kommunikativ vaziyatlarda qo‘llaydilar.

Axborot-reseptiv metodini integrativ model bilan birlashtirish bir qator muhim pedagogik afzalliklarni beradi. Birinchidan, bu yondashuv talabalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy axborot-reseptiv metoddan farqli o‘laroq, integrativ model talabaga passiv tinglovchi bo‘lib qolmasdan, axborotni qayta ishlash va uni nutqiy mahsulotga aylantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ushbu kombinatsiya o‘rganish jarayonini kognitiv jihatdan boyitadi. Axborot-reseptiv bosqichda talabalar yangi til birliklarini yangi kontekstda ko‘radilar va eshitadilar, bu esa ongli taqlid (conscious imitation) mexanizmini ishga tushiradi.

Uchinchidan, integrativ modelning o‘zgaruvchan vazifalar tizimi (task-based approach) axborot-reseptiv bosqichda qabul qilingan axborotni nutqiy amaliyotga o‘tkazishda samarali ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ellis (2003) ta'lim topshiriqlarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi rolini tadqiq etib, til birliklarini real kommunikativ vaziyatda qo‘llash imkonini beruvchi topshiriqlarning eng yuqori samaradorlikka ega ekanligini isbotladi.

Amaliy jihatdan bu model quyidagicha ro‘yobga chiqarilishi mumkin. Dars boshlanishida o‘qituvchi mavzuga oid qisqa video yoki audio parchani namoyish etadi (axborot-reseptiv bosqich). Talabalar diqqat bilan tinglaydilar va yangi so‘z hamda iboralarni belgilab oladilar. Keyingi bosqichda talabalar matn muhokamasi, juft va guruh topshiriqlari orqali axborotni qayta ishlaydilar. Yakuniy bosqichda esa ular o‘z nutqiy mahsulotini – og‘zaki taqdimot, dialog yoki yozma matn shaklida yaratib taqdim etadilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot-reseptiv metod va integrativ modelni uyg‘unlashtirish nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning til haqidagi nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularni amaliy nutqiy faoliyat jarayonida qo‘llash imkonini ham yaratadi. Axborot-reseptiv metod orqali o‘quvchilar til birliklari, grammatik qoidalar, leksik vositalar va nutq madaniyati elementlari haqida tizimli bilimlarga ega bo‘ladilar. Integrativ model esa ushbu bilimlarni tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish kabi nutq faoliyati turlari bilan bog‘lab, ularning kompleks rivojlanishini ta’minlaydi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, o‘z fikrini erkin va ravon bayon etish hamda suhbatdosh fikrini to‘g‘ri anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta’minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin berish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ta’lim samaradorligini yuksaltiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Foley J., Thompson L. Til o‘rganish: uzluksiz jarayon. – London: Arnold nashriyoti, 2003. – 258 b.

2. Hymes D.H. Kommunikativ kompetensiya haqida // J. Pride, J. Holmes (muharrirlar). Sotsiolingvistika. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – 269–293-betlar.

3. Brown H.D. Prinsiplar asosida o‘qitish: til pedagogikasiga interfaol yondashuv. – 3-nashr. – Nyu-York: Pearson Longman, 2007. – 569 b.

4.Richards J.C., Rodgers T.S. Til o‘qitishdagi yondashuvlar va metodlar. – 3-nashr. – Kembrij: Cambridge University Press, 2014. – 390 b.

5.Mahmudov N.M., Yo‘ldoshev B.A. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. – 312 b.

**Ulug'bek KUBAYEV,**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, dotsent v.b.

# RAQAMLI TA'LIMDA UCH O'LCHOVLI OBYEKT XUSUSIYATLARINI MA'LUMOTLAR BAZASI BILAN BOG'LASH SKRIPTLARINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada uch o'lchovli obyekt xususiyatlarini ma'lumotlar bazasi bilan bog'lash skriptlarini shakllantirish hamda virtual reallik muhitiga integratsiya qilish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotda AutoDesk 3D Max, HeidiSQL, Apache server va "Autoexport to VirtualUniver server" plagini asosida 3D modellarni yaratish, eksport qilish va VR muhitga joylashtirish texnologiyalari tahlil qilingan. XML fayllar orqali obyekt koordinatalari, tekstura, poligon va material ma'lumotlarini avtomatik ravishda ma'lumotlar bazasiga uzatish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yangi lokatsiyalar yaratish, obyektlarni boshqarish, server bilan sinxronlashtirish hamda SQL skriptlari yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash usullari tavsiflangan. Tadqiqot natijalari virtual ta'lim va interaktiv muhitlarni yaratishda 3D obyektlarni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Tayanch so'zlar.** Virtual reallik, 3D modellashtirish, HeidiSQL, XML fayllar, SQL skriptlari, AutoDesk 3D Max, ma'lumotlar bazasi, VR muhiti.

В данной статье рассмотрены процессы формирования скриптов для связывания свойств трёхмерных объектов с базой данных, а также их интеграции в среду виртуальной реальности. В исследовании проанализированы технологии создания, экспорта и размещения 3D-моделей в VR-среде на основе AutoDesk 3D Max, HeidiSQL, Apache Server и плагина «Autoexport to VirtualUniver Server». Рассмотрены механизмы автоматической передачи координат объектов, текстур, полигонов и данных о материалах в базу данных посредством XML-файлов. Кроме того, описаны методы создания новых локаций, управления объектами, синхронизации с сервером и обработки данных с использованием SQL-скриптов. Результаты исследования способствуют расширению возможностей эффективного управления 3D-объектами при создании виртуальных образовательных и интерактивных сред.

**Ключевые слова.** виртуальная реальность, 3D-моделирование, HeidiSQL, XML-файлы, SQL-скрипты, AutoDesk 3D Max, база данных, VR-среда.

This article describes the processes of forming scripts for linking the properties of three-dimensional objects with a database and integrating them into a virtual reality environment. The study analyzes the technologies of creating, exporting, and placing 3D models into a VR environment based on AutoDesk 3D Max, HeidiSQL, Apache Server, and the "Autoexport to VirtualUniver Server" plugin. Mechanisms for automatically transferring object coordinates, textures, polygon data, and material information to a database through XML files are examined. In addition, methods for creating new locations, managing objects, synchronizing with the server, and processing data using SQL scripts are described. The research results contribute to expanding the possibilities of effective management of 3D objects in the creation of virtual learning and interactive environments.

**Key words.** Virtual reality, 3D modeling, HeidiSQL, XML files, SQL scripts, AutoDesk 3D Max, database, VR environment.

HeidiSQL ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi asosida veb server bilan birgalikda o‘yin va dizayn yaratish uchun professional 3D modellashtirish va vizuallashtirish AutoDesk 3D Max dasturi 2009 muhitida 3D modellarni chizib olinadi. Apache (veb server) va SSL uchun Denwer instrumentlar to‘plami avtomatik ishlatiladi. Integrated development environment (Integrallashgan rivojlantirish muhiti), ya’ni MBBT HeidiSQL to‘g‘ridan to‘g‘ri serverdagi SQL bazaga ulanib struktularni ko‘rsatadi. HeidiSQL orqali bazaga masofadan ulanish orqali murojat qilish mumkin. Klient kompyuterdan HeidiSQL orqali SQL bazaga murojat amalga oshiriladi. Autoexport to VirtualUniver server plagini 3D Maxda chizilgan uch o‘lchovli obyektlarni VR muhiti uchun tayyorlab (kimdan kimga jo‘natishni) serverga joylashtirish uchun almashtirib beradi.

Har bir saqlangan papkani ichida uch o‘lchovli obyektning XML fayllari mavjuddir. Tizim XML fayllarini avtomatik tekshirib bazaga ham qo‘shib qo‘yadi. Plagin har bir model haqidagi struktura ma’lumotlarni matn qilib bazaga yozib beradi. So‘ngra u haqida umumiy ma’lumot (material, poligon, tekstura, model koordinata)larni qayerga borib joylashishi XMLni ichida saqlaydi. Har bir o‘zgarish bo‘yicha baza tekshirib turadi. Shu koordinatalar asosida VR muhitga joylashadi. Joylashuv joyini koordinatasi joylashgan x va y bo‘yicha 3D Maxda joylashuv joyi bilan birga model chiziladi. Joylashuv joyi yaratilgandan so‘ng 3D model koordinatalarni Insert funksiyasi yordamida joylashtiradi.

Yangi joylashuv manzilini yaratilishi. C:\VuServers\ServerBins\islands.xml faylida joylashuv joylarining koordinatalari mavjud. Endi joylashuv manzili uchun quyidagi koordinatalar belgilandi:

<joylashuv manzili nomi = ‘‘Joylashuv manzili’’ type=‘‘1’’ tasvir=‘‘uz.png’’ nuqtaAX=‘‘106000’’ nuqtaAY =‘‘-34900’’ nuqtaBX =‘‘124900’’ nuqtaBY =‘‘-53800’’ posAX=‘‘106621’’ holAY=‘‘-35521’’ holBX=‘‘124279’’ holBY=‘‘-53179’’ rasmAX=‘‘9’’ rasmAY=‘‘9’’ rasmBX=‘‘265’’ rasmBY=‘‘265’’/>

Buning natijasini hisobga olgan holda joylashuv manzilining koordinatalarini quyidagicha o‘zgartiriladi:

– Tasvir – bu rasm (joylashuv hududining oq va qora chegaralarini ko‘rsatadi), nuqtaAX va nuqtaAY, nuqtaBX va nuqtaBY- hududda joylashgan to‘rtburchakning koordinatalari;


– holAX, holAY, rasmAX, rasmAY - virtual olamdagi va rasmdagi yuqori chap nuqta, holBX, holBY, rasmBX, rasmBY- virtual olamdagi va rasmdagi pastki o‘ng nuqta. Virtual olamdagi va tasvirlardagi koordinatalarning mos kelishi (joylashuv joyining chegara nuqtalari).

Yangi joylashuv manzil (lokatsiya)ini yaratish. Joylar ro‘yxatida ko‘rinishi uchun yangi lokatsiyani yaratish ma’lumotlar bazasi orqali amalga oshiriladi:


1. Ma’lumotlar bazasiga ulanish.

2. Eng yuqori IDga ega lokatsiyani topish a. (SELECT * FROM locations WHERE locID IN (SELECT MAX(locID) FROM locations) orqali amalga oshiriladi.

3. Skript vaqtinchalik xotiraga saqlanadi.



*1-rasm. Topilgan qatorga sichqonchaning o‘ng tugmasi bosish orqali eksport buyrug‘ini tanlash*




*2-rasm. Sozlamalarni tekshirish va skript o‘zgarish bandini tanlash oynasi*

4. O‘zgartirish orqali skriptni moslashtirish bosqichlari:

a. Lokatsiya identifikatorini 2-bandidan bir marta ko‘proq o‘rnatiladi;

b. Manzil nomi. Masalan: - squb_basic_loc.

c. Joyning nomi va uni ko‘chirish. {o‘zb:”O‘zbekcha nomlanish”, ing:”Inglizcha sarlavha”}

d. URL manzil bo‘yicha mos kelishi, santimetrda teleportatsiya nuqtasining koordinatalari mavjuddir. Masalan: ‘vacademia:///?x=115450&y=-44350&z=250 &ra=0&rx=0&ry=0&rz=0&rn=0’

e. Rasmni old tomonidan ko‘rinishini nomlash. ‘home_loc.jpg’

SQL skriptini bajarish. a. INSERT INTO `locations` (`locID`, `name`, `description`, `url`, `outsideUrl`, `loc_capacity`, `loc_boards`, `loc_preview`, `loc_map`, `playingRecordID`, `realityID`, `mayChanged`, `isDynamic`, `owner`, `logo`) VALUES (5125, ‘squb_basic_loc’, ‘{rus:”Lokatsiya Uzbekistan”,eng:”Location Uzbekistan”} ‘,’vacademia:///?x=115450&y=-44350 &z=250&ra=0&rx=0&ry=0& rz=0&rn=5’, ‘’, 0, 0, ‘home_loc.jpg’, ‘home_loc.jpg’, 0, 0, 1, 0, 0, ‘’).

6. Xizmatchi serverni qayta ishga tushirish, ularga joylar ro‘yxati yuborish. a. Jarayonlar ro‘yxatini ochiladi va ServiceServer.exe faylini o‘chiriladi b. ServiceServer.exe faylini qayta ishga tushiriladi.


7. vacademia klient dasturi orqali VR muhitiga o‘tib va manzillar ro‘yxatidan yangi lokatsiyani topish.

Joylashuv maydonini yaratish:


1. AutoDesk 3D Maxda makon.xml faylida ko‘rsatilgan koordinatalar yordamida joylashuv manzilini yaratiladi. Har bir obyekt nomlanishi uchun joy nomidan boshlanadi, masalan: squb_ground. Obyektlarga misollarni Mir_Arab.max faylini ko‘rib to‘liq tanishib olinadi.

2. Autoexport to VirtualUniver server plaginidan foydalanib, obyektlarni vacademia muhitiga eksport qilinadi.

3. 3D Maxdagi plagin sozlamalarida ko‘rsatilgan papkadagi obyektlarni eksport qilish amalga oshiriladi, so‘ngra joylashuv nomi va undagi obyektlar nomlari papkaosti nomlar bilan papka yaratiladi. Ushbu papkalarda mesh va obyekt fayllari yaratiladi.





*3-rasm. X=354.05m, Y= 354.05 m o‘lchamdagi, jami 12.5 gektar maydonga ega bo‘lgan joylashgan makonning ko‘rinishi. Uning poligonlari soni 5922 va nuqtalar soni 9098 ni tashkil qiladi.*





*4-rasm. 3D modelning obyektlari soni va ko‘rinishi*

4-rasmda Uch o‘lchovli obyektining grafik DVdagi umumiy ma’lumotlari tasvirlangan. Ushbu obyekt X=57.16 m, Y= 39.44 m, Z= 11.58 m o‘lchamga egadir. Uning poligonlari soni 48478 va nuqtalar soni 24321 ni tashkil qiladi.




*5-rasm. Belgilangan obyektning "Autoexport to VirtualUniver server" plagini orqali serverga joylashtirish oynasi*


Yaratilgan obyektlar foydalanuchi lokal kompyuterining F:\WebServers5\home\ virtuniver.loc\www\vu\root\files\vu2008-02-20\ geometry\squb manziliga saqlanadi. _ squb papkasi ichida har bir model uchun alohida papkaosti papka mavjud.




*6-rasm. Avtomatik eksport qilish jarayoni yakunlangandan so'ng bitta obyektning arxiv papkasi ichidagi fayllar soni*


Har bir model uchun 3 xil turdagi fayllar joylashgan. Masalan: materials.xml.bak, materials.xml, mesh.bmf fayllar mavjuddir. Birinchi fayl *. bak - bu nusxa uchun model tarixini saqlab boradi. Ikkinchi fayl *. xml –bu XMLni avtomatik tekshirib MBsiga ham qo'shib qo'yadi. Model haqida umumiy ma'lumotlar qayerga borib joylashishi XMLni ichida saqlaydi. Har bir o'zgarish bo'yicha MBga tekshirib turadi. Uchinchi fayl *. bmf -bu obyektning to'r holatini saqlab turadi.

4. Avto-eksportdan so'ng ma'lumotlar bazasida yangi obyektlarning yozuvlari yaratiladi. Siz bu yozuvni so'rov yuborib tekshirib ko'rishingiz mumkin.Quyidagi buyruq yordamida: SELECT * FROM objects_map WHERE NAME LIKE "squb%" orqali amalga oshiriladi.



*7-rasm.Ushbu ma'lumotlar asosiy serverga o'tkazilishi jarayoni.*

Buni amalga oshirish uchun barcha qatorlarni tanlang, sichqonchaning o'ng tugmachasini bosing, Eksport qatorlarini tanlang.





*8-rasm. Ushbu ma’lumotlarni asosiy serverdagi ma’lumotlar bazasiga joylashtirish*

5. Har bir lokatsiya uchun 7-turi bilan yozuv va bo‘sh maydon res bilan yaratish majburiydir

Buning uchun ma’lumotlar bazasida joylashuv joyi obyektining qatorlari eksport qilinadi va ID o‘zgartiriladi (maksimal MBdan 1 taga ko‘p), 7- turi, res maydoni bo‘sh qoldiriladi, nom (lokatsiya nomi) o‘rnatiladi.

Yozib olish misoli: INSERT INTO `objects_map` (`id`, `type`, `res`, `name`, `level`, `class`, `px`, `py`, `pz`, `rx`, `ry`, `rz`, `rw`, `bx`, `by`, `bz`, `sqId`, `params`, `scalex`, `scaley`, `scalez`, `bornRealityID`, `creatingTime`, `deleteTime`, `creator`) VALUES (33331, 7, ‘’, ‘squb_basic_loc’, 0, ‘’, -7270.04, 5840.83, 847.732, 0, 0, -0.201423, 0.979504, 1072.66, 1000.42, 521.006, 524205701, ‘’, 1, 1, 1, 0, ‘2022-10-17 18:33:20’, NULL, 0) quyidagi so‘rov orqali amalga oshiriladi.

6. ServiceServer, ObjectServer, ResServerni qayta ishga tushiring. vacademia klient dasturi yordamida VR muhitga kiriladi va joylar ro‘yxatidagi yangi manzilga tanlanadi.




*9-rasm. Virtual muhit uchun yangi foydalanuvchi huquqlari (rollari)ning ER diagrammasi*

Obyektlarni yaratish:

1. 3D Maxda joylashuv maydonida obyektlar yaratiladi. Obyektlar guruhlanmasligi kerak, squb_box1 kabi joy nomidan boshlangan haqiqiy nomlarga ega bo‘lishi kerak.

2. Eksport qilinishi zarur bo‘lgan obyektlar Autoexport to VirtualUniver server plagini yordamida tanlanadi “Avtoeksport” tugmasini tanlash orqali VR muhit uchun tayyor holatga keltiradi.

3. Ichki papkalar va fayllar bilan yaratilgan resursni standart usulda asosiy serverga nusxalanadi.

4. Ma’lumotlar bazasida asosiy serverga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan yozuvlar yaratiladi.

Obyektlarni o‘chirish:

1. Asosiy serverdagi ma’lumotlar bazasiga quyidagicha so‘rov DELETE FROM objects_map WHERE NAME LIKE “obyekt nomi” orqali murojat qilinadi, squb joylashuvidagi barcha obyektlarni o‘chirib tashlash uchun quyidagi buyruq orqali amalga oshiriladi. DELETE FROM objects_map WHERE NAME LIKE «squb%»

2. Asosiy serverda C:\WebServers\home\localhost\www\vu\root\files\ vu2008-02-20\geometry papkasida obyekt joylashgan joy nomi yozilgan papka tanlanadi, obyekt nomi bilan pakaostki papka o‘chiriladi.

3. -- SHOW TABLES - Tablitsalarni ro‘yhatini chiqarish

-- DESCRIBE- _crash_users_crash_ip tablitsani tasvirlash

-- UPDATE objects_map SET TYPE=1 WHERE id=33143 - Objects_map tablitsadagi type kolonkani turi 1 ga o‘rnatiladi, agarda id=33143 bajarilsa SELECT id, NAME, creatingTime FROM objects_map WHERE NAME LIKE “squb%” - objects_map tablitsaning id, name va creatingTime kolonkalarini ma’lumotlarini chiqarish kommandasi

4. UPDATE locations SET loc_preview=’uzb_loc1.jpg’ WHERE locID=5125

Ushbu komanda administrator uchun veb sahifadagi foydalanuvchi lokatsiyasi uchun yangi lokatsiya yaratilganda, lokatsiyani tasvirini veb sahifaga chiqarish uchun yoziladi. Buning uchun 195.158.1.78 ikkinchi serverga C:\WebServers\home\vacademia.uz\www\images\location_img\ preview\uzb_loc1.jpg kerakli rasmni joylashtirish uchun preview papkasini ichiga ko‘chirib o‘tkaziladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nazirov Sh.A., Muxamedieva D.T., Nuraliev F.M., Ne’matov A.. «Matematik modellashtirish asoslari».// Monografiya, Toshkent: Aloqichi. 2020. – 364 b.

2. Nuraliev F.M., Giyosov U.E., Anvarov B.M. Virtual 3D universitet o‘quv jarayonini tashkil qilish modellarini yaratish. // TATU xabarlari. №3(47), Vol.1, c.65-75, 2018, Toshkent

3. Yoshihiro Okada, Taiki Ura. IntelligentBox for Web-Based VR Applications (WebIBVR) and Its Collaborative Virtual Environments. // Proc. of 8th International Conference on Emerging Internet, Data & Web Technologies (EIDWT 2020), Springer(Advances in Internet, Data and Web Technologies, Lecture Notes on Data Engineering and Communications Technologies 47), pp. 503-515, Feb. 2020.

4. T. Akenine-Moller, E. Haines, and N. Hoffman, Real-Time Rendering.// Boca Raton, FL, USA: CRC Press, 2018.

5. Carlos J. Gayar-Anguita , Antonio J. Rueda-Ruiz , Rafael J. Segura-Sanchez, Miguel Diaz-Medina, va Angel L. García-Fernandez, Gpu-Based Framework for Generating Implicit Datases of Vokselized Polygonal Models. // January 21, 2020, DIO: 10.1109/ACCESS.2020.2965624

6. Artikova M.A., Namozova X. Vizualizatsiyalashtirish jarayonida 3D modellashtirishning ahamiyati. // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqodlar jurnali, 20.12.2021 y.

**Umar G‘OYIMOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, v.v.b dotsent, p.f.f.d., (PhD)
**Mohinur QORYOG‘DIYEVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, talaba

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH METODIKASI

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarga otning grammatik xususiyatlarini tushuntirish, ularning nutq boyligini oshirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Maqolada ot so‘z turkumini o‘rgatishda interfaol metodlardan, didaktik o‘yinlardan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars tashkil etish samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Ona tili darslarida ot mavzusini o‘zlashtirish orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Boshlang‘ich ta’lim, ot so‘z turkumi, metodika, ona tili, interfaol metod, didaktik o‘yin, pedagogik texnologiya, nutq rivoji.

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы методики обучения имени существительному в начальных классах. Особое внимание уделяется формированию у учащихся грамматических знаний, развитию речи и навыков самостоятельного мышления. В статье анализируются эффективные методы преподавания, включая интерактивные технологии, дидактические игры и современные педагогические подходы. Также подчеркивается важность учета возрастных и психологических особенностей младших школьников при организации уроков. Освоение темы имени существительного способствует развитию устной и письменной речи учащихся, а также повышению их языковой грамотности.

**Ключевые слова.** начальное образование, имя существительное, методика обучения, родной язык, интерактивные методы, дидактические игры, педагогические технологии, развитие речи.

This article discusses the theoretical and practical aspects of teaching noun word classes in primary education. It highlights the importance of explaining grammatical features of nouns to pupils, enriching their vocabulary, and developing independent thinking skills during the educational process. The article analyzes the use of interactive methods, didactic games, and modern pedagogical technologies in teaching nouns effectively. In addition, special attention is paid to organizing lessons according to the age and psychological characteristics of primary school students. Teaching nouns in mother tongue classes plays a significant role in improving pupils’ oral and written speech as well as their linguistic competence.

**Key words.** Primary education, noun, teaching methodology, mother tongue, interactive methods, didactic games, pedagogical technology, speech development.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash hamda ularning nutqiy savodxonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning keyingi bilim olish jarayoniga mustahkam zamin yaratishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ona tili darslarida tilning

grammatik qurilishini puxta o‘rgatish, so‘z turkumlarini amaliy va nazariy jihatdan tushuntirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi ham aynan shu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ot so‘z turkumi tilning eng faol va eng ko‘p qo‘llaniladigan birliklaridan biri bo‘lib, u predmet, shaxs, voqea-hodisa va tushunchalarni ifodalash orqali nutqning mazmunini boyitadi. O‘quvchilar dastlabki sinflardanoq otning ma’nosi, so‘roqlari, birlik va ko‘plik shakllari hamda gapdagi vazifasi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Mazkur bilimlar ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, fikrni aniq va ravon ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ot mavzusini puxta o‘zlashtirish keyingi sinflarda boshqa grammatik mavzularni o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh jihatidan qiziqishga moyil, tasviriy fikrlashga ega bo‘lganligi sababli darslarni samarali tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, didaktik o‘yinlar, savol-javoblar, rasmlar asosida ishlash, guruhli topshiriqlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Bu esa bilimlarni mustahkam va ongli ravishda egallashga yordam beradi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan metod va usullar qanchalik samarali bo‘lsa, o‘quvchilarning darsdagi faolligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Hozirgi davrda ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ona tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatishda ham zamonaviy yondashuvlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Shu jihatdan mazkur mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim metodikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ona tili ta’limining samaradorligini oshirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mavzuni o‘rganishda bir qator mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Jumladan, K.Qosimovaning “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli asarida boshlang‘ich sinflarda grammatik tushunchalarni shakllantirishning didaktik asoslari batafsil yoritilgan. Muallif ot so‘z turkumini o‘rgatishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, T.G‘afforova va M. Yo‘ldoshevalarning boshlang‘ich ta’limga oid ilmiy-uslubiy qo‘llanmalarida interfaol metodlar orqali ona tili darslarini tashkil etishning samarali usullari tavsiya etilgan.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, savol-javob, taqqoslash hamda tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ot mavzusini o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida amaliy mashg‘ulotlar va test topshiriqlari qo‘llanildi. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi kuzatilib, o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishi va faolligi tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi natijasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar ot so‘z turkumini o‘rgatishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatish jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, mazkur mavzuni samarali tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki nutqiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

An’anaviy va zamonaviy metodlar o‘zaro taqqoslanib, interfaol usullarning o‘quvchilar faolligini oshirishdagi ahamiyati aniqlandi. Ayniqsa, didaktik o‘yinlar, guruhli ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish hamda rasm asosida gap tuzish kabi metodlar

o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi kuzatildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot so‘z turkumini dastlab predmet nomi sifatida qabul qilishi, keyinchalik esa uning grammatik xususiyatlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishi ma’lum bo‘ldi. O‘qituvchi tomonidan mavzuni hayotiy misollar asosida tushuntirish o‘quvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga yordam berdi. Masalan, atrof-muhitdagi buyumlar, hayvonlar, o‘simliklar va inson nomlarini ajratish orqali otning ma’nosi amaliy tarzda tushuntirildi. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda ham samarali natija berdi.

Dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham ijobiy samara ko‘rsatdi. Slaydlar, elektron topshiriqlar va interaktiv mashqlar orqali o‘quvchilarning mavzuni eslab qolish darajasi oshgani kuzatildi. Ayniqsa, multimedia vositalari orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida jalb qilish imkonini berdi. Natijada o‘quvchilar otning birlik va ko‘plik shakllari, so‘roqlari hamda gapdagi vazifalarini ancha puxta o‘zlashtirdilar.

Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlardan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning darsdagi faolligi yuqori bo‘lib, ular topshiriqlarni mustaqil bajarishga ko‘proq intildilar. Shuningdek, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqida yangi so‘zlardan foydalanish ko‘nikmalari rivojlandi.

Ot so‘z turkumini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Darslarni qiziqarli va interfaol tashkil etish orqali o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish, grammatik bilimlarini mustahkamlash hamda nutq madaniyatini rivojlantirish mumkin. Bu esa boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatish metodikasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu mavzu ona tili ta’limining eng muhim va asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Ot so‘z turkumi orqali o‘quvchilar atrof-muhitni nomlash, predmet va hodisalarni ifodalash, shuningdek, fikrni aniq va tushunarli bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Bu jarayon boshlang‘ich ta’lim bosqichida to‘g‘ri tashkil etilsa, keyingi grammatik mavzularni o‘zlashtirish ancha osonlashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili o‘qitish asoslari: Ma’ruza matnlari. – Toshkent: Universitet, 2012. – 180 b.

2. Safarova R. Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarining didaktik asoslarini takomillashtirish. – Toshkent: “Fan”, 2005. – 154 b.

3. Abdullayeva Q. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkil etish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2008. – 120 b.

4. Mullajonova M. Nutq o‘stirish metodikasi. – Farg‘ona: Klassik, 2020. – 115 b.

5. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2007. – 128 b.

6. G‘oyimov U. E. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasb va faoliyatga yo‘naltirishning nazariy asoslari // Ilm, fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2020. – B. 112–113.

7. G‘oyimov U. E. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-sahovatni shakllantirish yo‘llari // Xalq ta’limi jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 75–77.

**Gulasal BEKNAZAROVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Til va adabiyot” kafedrasi stajor o‘qituvchi

# QISSA JANRINING ILMIY-NAZARIY XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada qissa janrining ilmiy-nazariy xususiyatlari, uning epik turdagi o‘rni, badiiy adabiyotdagi taraqqiyot bosqichlari hamda kompozitsion va uslubiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qissaning roman va hikoya janrlari bilan o‘xshash hamda farqli tomonlari ilmiy asosda yoritiladi. O‘zbek va jahon adabiyotidagi qissa namunalarining badiiy-estetik ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot davomida qissa janrining syujet qurilishi, obrazlar tizimi, konflikt va badiiy vaqt masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Qissa, epik janr, syujet, kompozitsiya, obraz, konflikt, badiiy tafakkur, adabiyotshunoslik, roman, hikoya.

В данной статье анализируются научно-теоретические особенности жанра повести, его место в эпическом роде литературы, этапы развития и композиционно-стилистические аспекты. Также рассматриваются сходства и различия жанра повести с романом и рассказом. Освещается художественно-эстетическое значение образцов повести в узбекской и мировой литературе. Особое внимание уделено вопросам сюжета, системы образов, конфликта и художественного времени.

**Ключевые слова.** повесть, эпический жанр, сюжет, композиция, образ, конфликт, литературоведение, художественное мышление, роман, рассказ.

This article analyzes the scientific and theoretical features of the novella genre, its place in epic literature, stages of development, and compositional and stylistic characteristics. The similarities and differences between the novella, novel, and short story are also discussed. The artistic and aesthetic significance of novella samples in Uzbek and world literature is highlighted. Special attention is paid to the issues of plot construction, character system, conflict, and artistic time.

**Key words.** Novella, epic genre, plot, composition, character, conflict, literary studies, artistic thinking, novel, short story.

Badiiy adabiyot inson tafakkuri, ma’naviyati va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim san’at turi hisoblanadi. Adabiyotda janrlar tizimi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, har bir janr o‘zining mazmun-mohiyati, badiiy qurilishi va tasvir usullari bilan ajralib turadi. Epik tur tarkibidagi qissa janri ham o‘ziga xos badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan janrlardan biridir.Qissa janri qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, Sharq va G‘arb adabiyotida uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Mazkur janr inson hayoti, ijtimoiy muammolar, ma’naviy-axloqiy qarashlarni badiiy ifodalashda muhim vosita sifatida shakllangan. O‘zbek adabiyotida ham qissa janri taraqqiy etib, ko‘plab yozuvchilar ijodida yetakchi o‘rin egallagan.Qissaning nazariy xususiyatlarini o‘rganish adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Chunki ushbu janr syujetning ixchamligi, voqealarning hayotiyligi, obrazlarning tabiiyligi hamda badiiy konfliktning chuqurligi bilan xarakterlanadi.Qissa janri Sharq mumtoz adabiyotida ham, Yevropa adabiyotida ham qadimdan mavjud bo‘lgan. Sharq adabiyotida “Qissasi Rabg‘uziy”, “Qissasi Yusuf”, xalq og‘zaki ijodidagi rivoyat va afsonalar qissa janrining dastlabki ko‘rinishlari sifatida baholanadi.Yevropa adabiyotida esa qissa janri XIX asrda alohida rivojlandi. Rus adabiyotida Nikolay Gogol, Ivan Turgenev hamda Lev Tolstoy ijodida

qissaning mukammal namunalari yaratildi.O‘zbek adabiyotida qissa janrining taraqqiyotida Abdulla Qodiriy, Oybek, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov kabi ijodkorlarning xizmatlari katta bo‘ldi.Qissa janri dastlab xalq og‘zaki ijodi asosida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik yozma adabiyot taraqqiyoti bilan yanada takomillashdi. Zamonaviy qissalarda inson ruhiyati, ichki kechinmalar va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar keng yoritilmoqda. Qissa epik turning o‘rta hajmli janrlaridan biri hisoblanadi. U hajm jihatidan hikoyadan katta, romandan kichik bo‘ladi. Qissaning asosiy belgilaridan biri voqealarning izchil rivojlanishi va bitta markaziy konflikt asosida qurilishidir.

Qissada odatda: bir yoki bir necha asosiy qahramon; muayyan hayotiy voqea; badiiy konflikt; syujet yaxlitligi; kompozitsion mutanosiblik mavjud bo‘ladi. Qissa janrida voqealar hayotiylik tamoyiliga asoslanadi. Unda insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari, jamiyat bilan munosabati chuqur tasvirlanadi. Qissaning yana bir muhim jihati – tasvirning ixchamligidir. Roman keng qamrovli voqealarni tasvirlasa, qissa muayyan hayotiy holat yoki inson taqdirining ma’lum bir bosqichini yoritishga xizmat qiladi.

Kompozitsiya qissaning badiiy mukammalligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Har qanday qissada:

– kirish;
– tugun;
– voqealar rivoji;
– kulminatsiya;
– yechim qismlari mavjud bo‘ladi.

Syujetning izchil va mantiqiy qurilishi qissaning ta’sirchanligini oshiradi. Qissada ortiqcha tafsilotlarga o‘rin berilmaydi. Barcha voqealar markaziy g‘oyaga xizmat qiladi. Kompozitsion yaxlitlik qahramon xarakterini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, portret, peyzaj va dialog vositalari qissada badiiylikni kuchaytiradi. Qissa janrida obrazlar tizimi muhim o‘rin tutadi. Asarda qahramon xarakteri voqealar jarayonida asta-sekin ochib boriladi. Yozuvchi qahramonning ichki dunyosini tasvirlash orqali kitobxonda estetik ta’sir uyg‘otadi.

Qissalarda ko‘pincha:

– bosh qahramon;
– yordamchi obrazlar;
– epizodik qahramonlar ishtirok etadi.

Bosh qahramon asar g‘oyasini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Uning ruhiyati, dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasi voqealar davomida namoyon bo‘ladi.

Masalan, O‘tkir Hoshimov qissalarida oddiy insonlar obrazi orqali milliy ruhiyat va ma’naviy qadriyatlar yorqin aks ettiriladi. Qissa hikoya va roman o‘rtasidagi janr hisoblanadi. Hikoyada bitta voqea qisqa tasvirlansa, qissada voqealar nisbatan kengroq yoritiladi. Roman esa ko‘p qirrali syujet va ko‘plab qahramonlarni qamrab oladi. Qissaning hikoyadan farqi:voqealar hajmining kattaroqligi,xarakterlarning chuqurroq ochilishi,konfliktning murakkabligi bilan belgilanadi. Roman bilan farqi esa:syujetning ixchamligi,qahramonlar sonining kamligi,voqealar ko‘lamining cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu jihatdan qissa epik janrlar tizimida alohida o‘rin egallaydi. XX asr o‘zbek adabiyotida qissa janri yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda ijtimoiy hayot, inson ruhiyati va milliy qadriyatlarni yorituvchi ko‘plab qissalar yaratildi. Abdulla Qodiriy ijodida tarixiylik va realizm uyg‘unlashgan bo‘lsa, Oybek asarlarida insonparvarlik va ma’naviy poklik masalalari ilgari surilgan. Said Ahmad hamda O‘tkir Hoshimov qissalarida esa oddiy insonlarning hayoti, ma’naviy iztiroblari va jamiyatdagi

muammolar realistik tasvirlangan.Mustaqillik davri qissalarida esa milliy o‘zlik, erkin fikr va ma’naviy qadriyatlar mavzusi yetakchi bo‘lib qoldi.

Qissa inson ma’naviy olamini tarbiyalovchi muhim vosita hisoblanadi. Ushbu janr orqali kitobxon:

– hayot haqidagi tasavvurlarini boyitadi;

– estetik didini shakllantiradi;

– insoniy fazilatlarni anglaydi.

Qissalarda inson ruhiyatining nozik jihatlari ochib beriladi. Shu sababli mazkur janr kitobxon qalbiga tez ta’sir ko‘rsatadi.

Badiiy-estetik jihatdan qissa:realizmni kuchaytiradi,milliy qadriyatlarni targ‘ib qiladi,-ma’naviy tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotshunoslikda qissa epik turning eng muhim janrlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu janr voqealarning ma’lum bir izchillik asosida bayon qilinishi, inson hayotining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy muhitni badiiy aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Qissa hajm jihatidan hikoyadan kattaroq, romandan kichikroq bo‘lib, unda syujetning yaxlitligi va kompozitsion mutanosiblik muhim o‘rin egallaydi. Adabiyot nazariyasida qissaning asosiy vazifasi inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va hayotiy ziddiyatlarni badiiy shaklda ifodalashdan iborat deb qaraladi. Shu sababli qissada voqealar tasviri bilan bir qatorda qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va ma’naviy olami ham keng yoritiladi.Qissa janrining yana bir muhim xususiyati – realizmga yaqinligidir. Ko‘pgina qissalarda hayotiy voqealar, oddiy insonlar taqdiri va jamiyatdagi dolzarb muammolar tasvirlanadi. Bu esa kitobxonning asarga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi hamda badiiy ta’sirchanlikni oshiradi.

Nazariy jihatdan qissaning quyidagi muhim belgilari mavjud:

– voqealarning ketma-ketlik asosida rivojlanishi;

– markaziy konfliktning mavjudligi;

– qahramon xarakterining bosqichma-bosqich ochilishi;

– kompozitsion yaxlitlik;

– badiiy til va uslubning ixchamligi.

Mazkur xususiyatlar qissani boshqa epik janrlardan farqlab turadi.

Xulosa qilib aytganda, qissa janri epik turning muhim va murakkab shakllaridan biri sifatida badiiy adabiyot taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu janr inson hayotining muayyan bosqichlarini, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni hamda shaxsning ruhiy kechinmalarini badiiy jihatdan chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega. Qissaning hikoya va roman o‘rtasidagi o‘ziga xos janriy tabiati uning badiiy-estetik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.Tadqiqot davomida qissa janrining ilmiy-nazariy xususiyatlari tahlil qilinib, uning asosiy belgilari sifatida syujetning ixchamligi, kompozitsion yaxlitlik, konfliktning aniq ifodalanishi, obrazlarning hayotiyligi hamda psixologik tasvirning kuchliligi alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ayniqsa, qissada inson ruhiyati va ichki dunyosining chuqur ochib berilishi ushbu janrning asosiy estetik xususiyatlaridan biri ekanligi kuzatildi.Qissa janrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari o‘rganilganda, uning xalq og‘zaki ijodi asosida vujudga kelgani hamda yozma adabiyot taraqqiyoti bilan takomillashib borgani ma’lum bo‘ldi. Sharq va G‘arb adabiyotida qissaning turli ko‘rinishlari shakllanib, har bir davrning ijtimoiy va ma’naviy qarashlarini aks ettirib kelgan. Xususan, o‘zbek adabiyotida qissa janri milliy ruh, insonparvarlik va ma’naviy qadriyatlarni ifodalovchi muhim badiiy vositaga aylangan.Maqolada qissaning syujet va kompozitsiya tizimi ham keng tahlil qilindi. Qissada voqealarning izchil rivojlanishi, konfliktning markaziy o‘rin tutishi hamda barcha badiiy unsurlarning yagona g‘oyaga

xizmat qilishi ushbu janrning badiiy mukammalligini ta’minlaydi. Syujetning ixchamligi va mantiqiyligi kitobxon diqqatini asosiy voqealar va qahramonlar taqdiriga qaratadi. Shuningdek, qissada obraz yaratish mahorati va psixologizm masalalari ham muhim nazariy jihatlardan biri sifatida baholandi. Yozuvchi qahramonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ma’naviy izlanishlarini tasvirlash orqali kitobxon qalbiga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy qissalarda psixologik tahlilning chuqurlashib borayotgani ushbu janrning badiiy imkoniyatlari yanada kengayganini ko‘rsatadi.

Qissaning badiiy tili va uslubiy xususiyatlari ham uning estetik qimmatini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Obrazli tasvir vositalari, xalqona iboralar, dialog va monologlarning tabiiyligi asarning hayotiyligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yozuvchining individual uslubi qissaning badiiy mukammalligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.O‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Oybek, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov kabi adiblarning qissalari milliy qissachilik taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi. Ularning asarlarida inson taqdiri, ma’naviy qadriyatlar, jamiyat muammolari va milliy ruh chuqur badiiy talqin etilgan.Bugungi kunda ham qissa janri o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zamonaviy qissalarda globallashuv, ekologik muammolar, ma’naviy inqiroz, yoshlar tarbiyasi va inson ruhiyati bilan bog‘liq dolzarb masalalar keng yoritilmoqda. Bu esa qissaning nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati ham yuqori ekanligini ko‘rsatadi.Umuman olganda, qissa janri inson hayoti va jamiyat muammolarini badiiy aks ettirishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan epik janr sifatida adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu janrning ilmiy-nazariy xususiyatlarini chuqur o‘rganish adabiyotshunoslik rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov N. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent, 2009.
4. Solijonov Y. O‘zbek nasri taraqqiyoti. – Toshkent, 2015.
5. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent, 2012.
6. O‘tkan kunlar.
7. Dunyoning ishlari.
8. Ufq.
9. Bolalik.
10. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. – Toshkent, 2000.

**Nasiba XOLBOZOROVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri
**Charos MAHMUDOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, magistrant

# ONA TILI DARSLARIDA O’QUV-BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Annotatsiya**

Maqolada ona tili darslarining o‘tilishi, o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari va metodikasi, ona tili darslarida qo‘llaniladigan texnologiyalarning samarasi haqida fikr yuritiladi. Unda kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi bilish jarayonlarini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ona tili ta’limida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va usullar, didaktik tamoyillar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslab beriladi. Bundan tashqari o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, matn bilan ishlash, ijodiy yondashuvni shakllantirish orqali ularning bilish faolligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Kompetensiya, differensial yondashuv, texnologiyalar samarasi, optimal o‘qitish usullari, didaktik shart-sharoitlar.

В статье рассматриваются вопросы проведения уроков родного языка, теоретические основы и методика развития учебно-познавательной компетенции, а также эффективность технологий, используемых на уроках родного языка. В нем с научно-педагогической точки зрения анализируется сущность компетентностного подхода, его роль в формировании у учащихся таких познавательных процессов, как самостоятельное мышление, анализ, выводы. Также обосновывается эффективность методов и приемов, дидактических принципов и современных педагогических технологий, служащих развитию учебно-познавательной компетенции в обучении родному языку. Кроме того, особое внимание уделяется вопросам повышения познавательной активности учащихся путем развития их речевой деятельности, работы с текстом, формирования творческого подхода.

**Ключевые слова.** Компетенция, дифференцированный подход, эффективность технологий, оптимальные методы обучения, дидактические условия.

The article discusses the conduct of native language lessons, the theoretical foundations and methodology for developing educational and cognitive competence, and the effectiveness of technologies used in native language lessons. It provides a scientific and pedagogical analysis of the essence and significance of the competency-based approach and its role in forming cognitive processes such as independent thinking, analysis, and inference. Additionally, the effectiveness of methods and techniques, didactic principles, and modern pedagogical technologies serving to develop educational and cognitive competence in mother tongue education is substantiated. In addition, special attention is paid to the development of students’ speech activity, working with text, and increasing their cognitive activity through the formation of a creative approach.

**Key words.** Competence, differentiated approach, technology effectiveness, optimal teaching methods, didactic conditions.

Bugun zamonaviy hayotni ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur qilish qiyin. Hozirgi kunda har qaysi sohada rivojlanish ilgarilab ketmoqda. Bunga asosiy sabab, ta’lim tizimiga bo‘lgan islohotlar, yangiliklarning yaratib berilishidir. Keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning

davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etildi. Bunga misol qilib, maktablarda darsliklarning tubdan yangilanishi, o‘quv muassasalarining ko‘p qismi raqamli tizimga o‘tganligini, darslar jahondagi rivojlangan mamlakatlar dasturiga o‘xshash tarzda o‘tilayotganligini olishimiz mumkin. Jahon tajribasida differensial yondashuv asosida ona tili ta’limida talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikalarini takomillashtirishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlarining  mamlakatimiz ta’lim tizimida ham isloh etilishi o‘quvchilarning ta’lim sifatini yuqorilashiga sabab bo‘lmoqda. PIRLS xalqaro baholash dasturi 4-sinf o‘quvchilarini matnni o‘qib tushunish ko‘nikmalarini baholaydi va har 5 yilda 1 marta o‘tkaziladi.  Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, davlat ta’lim standartlari va milliy o‘quv dasturlarida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o‘qituvchilardan darslarni yangicha metodlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Shu jihatdan qaraganda, ona tili darslarida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, uning didaktik imkoniyatlarini ochib berish va samarali metodik yondashuvlarni asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi – ona tili darslarida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishning ilmiy-pedagogik omillarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida o‘quv-bilish kompetensiyasining mazmun-mohiyatini yoritish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash, ona tili ta’limida qo‘llaniladigan metod va vositalarning samaradorligini asoslash belgilandi. Unda o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari tekshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash ularning kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha bir qator olimlarning ishlarida o‘rganilgan.

Xususan, akademik R.X.Djurayev tomonidan olib borilgan ilmiy-fundamental tadqiqot ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy-metodik jihatlari tadqiq qilingan. Oliy kasbiy ta’limni rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturlari bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishga to‘liq hissa qo‘shadigan ta’lim muhitini yaratish zarurligini belgilaydi.

Taniqli olima B.S.Abdullayevaning ta’kidlashicha , ona tili va boshqa tillarni o‘qitish jarayonida muloqot kompetesiyasini o‘zlashtirish jarayonida muloqot kompetensiyasini o‘zlashtirish jarayonida nafaqat kommunikativ ahamiyatga ega vazifalarni hal qilish, balki kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ham yuzaga keladi.

Ona tili ta’limida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda differensial yondashuv va interfaol metodlar asosida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Differensial yondashuv, talabalarda kompetensiyalarni shakllanishi, o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha MDH olimlarining ishlari tahlil qilinadi:

G.G.Yerkibayevaning ta’kidlashicha , ta’limga differensial yondashuv – bu ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘qitish strategiyasini ishlab chiqishdir. Bunday yondashuv ta’limning

samaradorligini oshirishga, har bir o‘quvchining o‘z qobiliyatlari doirasida eng yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi.

A.I.Zabaluyeva kompetensiyani to‘plangan bilimlarni, talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini ,o‘quv-bilish vazifalarini hal qilish usullarini, tajribani va mustaqil bilish faoliyatini ochib beradigan shaxsiy xususiyat deb hisoblaydi.

I.I.Lavashova o‘quv-bilish kompetensiyasini bilimini oshirishga, bilish faoliyati usullarini o‘zlashtirishga , o‘quv faoliyatida ma’lum ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan asosiy kompetensiya deb hisoblaydi

Differensial yondashuv – bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi, o‘rganish tezligi va individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga turli murakkablikdagi topshiriqlar, usullar va yordam darajalarini qo‘llash asosida o‘qitishni tashkil etish usulidir. Differensial yondashuv – bu “hamma bir xil emas” degan tamoyilga asoslangan o‘qitish usuli bo‘lib, u har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshiradi. Bilamizki, darsda o‘quvchilarning mavzuni tushunish qobiliyati bir xil emas. Bu esa ayrim o‘quvchilarning mavzuni tushunmasdan “qoloq” bo‘lishlariga sabab bo‘ladi. Ona tili darslarida differensial yondashuvning qo‘llanilishining asosiy maqsadi-o‘quvchilarning individual qobiliyatini rivojlantirish , bilimni chuqur va mustahkam egallash, o‘quv jarayonida hammani faol ishtirok ettirish, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ortda qoldirmaslik.

Natija va muhokama. Ona tili darslarida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ona tili darslarida o‘quvchilarning faolligi an’anaviy darslarga nisbatan yuqori bo‘ldi. Har bir o‘quvchining individual imkoniyatiga mos topshiriqlar berilishi ularning dars jarayonida ishtirokini kuchaytirdi va o‘zlashtirish sifatini yaxshiladi. Ayniqsa, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda ijobiy o‘sish kuzatildi. Didaktik shart-sharoitlar- ta’lim jarayonini samarali va natijali tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan shartlar to‘plamini tashkil etadi. Bu shart-sharoitlar talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Differensial yondashuvda guruh bo‘lib ishlashning ahamiyati katta. Boshlang‘ich sinflarda guruh bo‘lib ishlash- bu nafaqat bilim berish, balki jamoada ishlash, muloqot qilish, yordam berish va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantirishdir. Shu sababli guruhli o‘qitish bugungi kunda zamonaviy ta’limning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchining mahorat egasi ekanligi  uning darsda foydalanadigan texnologiyasiga o‘z ifodasini topadi. Masalan, ona tili darsi uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan texnologik metodlarni misol qilamiz:

“Insert” metodi. Matnni o‘qish jarayonida belgilar qo‘yish:

bilaman

* yangi ma’lumot

- noto‘g‘ri deb o‘ylagan edim

? tushunmadim

Matn bilan faol ishlashni o‘rgatadi.

Bu metod matn bilan ishlash jarayonida eng yaxshi samara beradigan metodlardan biri hisoblanadi.

“Klaster metodi”. Bunda markaziy tushuncha o‘rta qismda yoziladi, uning atrofida

markaziy tushunchaga oid so‘zlar ,izohlar yoziladi.

“T-sxema metodi”. Bunda tushunchalarning ijobiy va salbiy tomonlari solishtiriladi. Misol uchun “ Kompyuter va kitob” so‘zlari.

4-SINF O‘QUVCHILARIDA PIRLS TOPSHIRIQLARI ASOSIDA SIFAT O‘SISHI (2–3 OY)

| Ko‘rsatkichlar | Boshlang‘ich holat (1-oy) | 2-oy | 3-oy | O‘sish darajasi |
|---|---|---|---|---|
| Matnni tushunish (asosiy g‘oyani topish) | 45% | 62% | 78% | +33% |
| Matn bo‘yicha savollarga to‘liq javob berish | 40% | 58% | 75% | +35% |
| Xulosa chiqarish (inferensiya) | 35% | 52% | 70% | +35% |
| Lug‘aviy boylikdan foydalanish | 50% | 65% | 80% | +30% |
| Mustaqil fikr bildirish | 38% | 55% | 73% | +35% |
| Matnni qayta hikoya qilish | 55% | 70% | 85% | +30% |
| O‘rtacha sifat ko‘rsatkichi | 44% | 60% | 77% | +33% |

Ona tili darslarida texnologik metodlardan foydalanish: o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantiradi; darsni interfaol va samarali qiladi; o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi; bilimlarni amaliy qo‘llashga yordam beradi.

O‘quvchilarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari- bu o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, yangi ko‘nikmalarni shakllantirish va ularning tanqidiy fikrlash, ijodiy izlanish salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ta’lim shart-sharoitlarini anglatadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni mustaqil bilim olishga yo‘naltirish va hayotiy faoliyatda qo‘llay oladigan ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Yangi ishlab chiqilgan darsliklarga ham asosiy e’tibor o‘quvchilarning o‘g‘zaki nutqini rivojlantirishga, o‘z fikrini bayon qilishga, mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlarga qaratilgan.

Yangi darsliklar faqat bilim berishga emas, balki o‘quvchilarda: nutqiy kompetensiya; o‘quv-bilish kompetensiyasi; kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan.

Darsliklarda: klaster, aqliy hujum savollari, guruhli topshiriqlar, matn bilan ishlash mashqlari kabi interfaol faoliyatlar ko‘p berilgan. Differensial topshiriqlarning mavjudligi: Bir mavzu doirasida: oson, o‘rta, murakkab darajadagi topshiriqlar berilgan. Matnlar mazmunining yangiligi: zamonaviy hayotga yaqin, o‘quvchi yoshiga mos, qiziqarli va tushunarli tarzda tanlangan. Darsliklarda: rasmlar, sxemalar, jadval va diagrammalar keng qo‘llanilgan. Yangi ona tili darsliklari: kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi, differensial ta’limni qo‘llashga imkon beradi, o‘quv-bilish kompetensiyasini samarali rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish o‘quvchilarning nafaqat til qoidalarini o‘zlashtirishi, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish kabi kognitiv faoliyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotning nazariy asoslari shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchini bilimni tayyor holda qabul qiluvchi subyekt emas, balki uni izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo‘llovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Ona tili fanining o‘ziga xosligi – matn bilan ishlash, nutqni rivojlantirish va mantiqiy fikrlashni uyg‘unlashtirish imkoniyati – o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay didaktik muhit yaratadi. Shu bois dars jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, matn tahlili va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quv-

chilarning kognitiv faolligini oshiradi. Umuman olganda, ona tili darslarida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga hamda ularning umumiy intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri sifatida dolzarbligini saqlab qoladi. Ona tili darslarida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kompetensiyaviy ta’lim tizimining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqotlari ham o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalari ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichi ekanini tasdiqlaydi. Ushbu dastur natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar muvaffaqiyati faqat yodlashga emas, balki matn ustida mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarishga bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi o‘rtacha 25–40 foizgacha oshadi, mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar esa ularning tahliliy ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ayniqsa, matn bilan ishlash, savol-javob, klaster, “BBB (Bilaman–Bilmoqchiman–Bilib oldim)” kabi metodlar o‘quv-bilish jarayonini faollashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ona tili fanida kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kommunikativ, axborot bilan ishlash va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Bu esa ularning keyingi ta’lim bosqichlarida ham muvaffaqiyatli o‘qishiga zamin yaratadi. O‘quvchilarda nutq turi turli ko‘rinishlarda taraqqiy topgan bo‘ladi. Kimgadir og‘zaki nutq yaxshi rivojlangan bo‘lsa, kimgadir yozma nutq rivojlangan bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Джураев Р. Х . Применение инновационных технологий в образовании// Sciyence and innovation. International sciyentific journal. – 2022. 775-790

2. Abdullayeva B.S Talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish// International scientific and practical conference “Innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road”, may 3-4, 2024. P. 1214-1218

3. Xolbozorova N.X. “Differensial yondashuv asosida ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish” monografiya. Ta’lim innovatsiyalari nashriyoti. Shahrisabz-2025.

4. Mahmudova Ch.B. “Boshlang’ich sinflarda guruh bo‘lib ishlashning ahamiyati”, The multidisciplinary journal of science and technology, 2024

5. Ramazonova A., Mamasaidova M., Umaraliyeva Sh. “Boshlang’ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari” “Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi”, 2024

6. Еркибаева Г. Г. Дифференцированное обучение учащихся на уроках технологии через творческие проекты// МНПК “Научные исследования.: от теории к практике”, 2016.С. 92-96

7. Забалуева А.И. Формирование учебно-познавательной компетенции студентов вуза: Автореф , дис. канд. пед. наук/ А.И.Забалуева. – Ставрополь, 2010.-22с

**Guzal YAKUBOVA,**
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

# ONA TILI TA’LIMIDA LINGVISTIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqolada ona tili ta’limida lingvistik tafakkurni rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Maktab o‘quvchilarida lingvistik tafakkurni shakllantirish, til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat, hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ushbu jarayondagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, L.S. Vigotskiy, A.A. Leontev, N.I. Jinkin, A.R. Luriya va boshqa yetakchi olimlarning nazariy qarashlari asosida lingvistik tafakkurni rivojlantirishning usul va yo‘llari taqdim etiladi. Ona tili darslarida metakognitiv yondashuv, muloqotli o‘qitish va matn tahlilining ahamiyati asoslab beriladi.

**Tayanch so‘zlar.** Lingvistik tafakkur, ona tili ta’limi, pedagogik muammo, til va tafakkur, metakognitiv yondashuv, matn tahlili, kommunikativ kompetentlik.

В данной статье рассматривается проблема развития лингвистического мышления в процессе обучения родному языку как педагогическая проблема. Анализируются теоретические основы формирования языкового мышления у школьников, взаимосвязь языка и мышления, а также роль современных педагогических технологий в этом процессе. На основе трудов Л.С. Выготского, А.А. Леонтьева, Н.И. Жинкина, А.Р. Лурии и других ведущих учёных представлены методы и пути развития лингвистического мышления. Обоснована значимость метакогнитивного подхода, диалогического обучения и текстового анализа на уроках родного языка.

**Ключевые слова.** лингвистическое мышление, обучение родному языку, педагогическая проблема, язык и мышление, метакогнитивный подход, анализ текста, коммуникативная компетентность.

This article examines the development of linguistic thinking in native language education as a pedagogical problem. The study analyses the theoretical foundations of linguistic thinking formation in schoolchildren, the relationship between language and thought, and the role of modern pedagogical technologies in this process. Drawing on the scholarly works of L.S. Vygotsky, A.A. Leontiev, N.I. Zhinkin, A.R. Luria and other leading scholars, methods and approaches to developing linguistic thinking are presented. The importance of metacognitive approaches, dialogic teaching, and text analysis in native language lessons is substantiated.

**Key words.** Linguistic thinking, native language education, pedagogical problem, language and thought, metacognitive approach, text analysis, communicative competence.

Zamonaviy ta’lim tizimida ona tili o‘qitish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirishni, balki o‘quvchilarda lingvistik tafakkurni shakllantirishni ham ko‘zda tutadi. Lingvistik tafakkur – bu tilni qurol sifatida ishlatib, fikrni aniq, izchil va ta’sirchan ifodalash qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki hayotiy kommunikativ ko‘nikmalar uchun ham muhim hisoblanadi. L.S. Vigotskiy o‘zining mashhur asarida ta’kidlaganidek, “til va tafakkur bir-biridan ajralmas birlik hosil qiladi”. Ushbu g'oya pedagogikaga katta ta’sir ko‘rsatdi va til o‘qitishning maqsadini qayta tushunishga zamin yaratdi.O‘zbekiston ta’lim tizimida ona tili ta’limi yangi davlat ta’lim standartlari asosida takomillashtirilmoqda. 2022-yilda qabul qilingan Uzluksiz ta’lim to‘g'risida Qonunning yangi tahriri (2022) va 2023-yilgi Maktab ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi o‘quvchilarda kommunikativ va lingvistik kompetentliklarni rivojlantirishni asosiy maqsad qilib belgiladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki,

ko‘pchilik o‘quvchilar grammatika qoidalarini yod olishga ko‘niksa-da, ularning nutqida izchillik, mantiqiylik va ijodiy tafakkurning aksi ko‘rinmaydi. Bu holat lingvistik tafakkurni rivojlantirish masalasini dolzarb pedagogik muammo sifatida o‘rganishni talab qiladi.

Til va tafakkurning o‘zaro munosabati.Til va tafakkur munosabati masalasi qadim zamonlardan buyon falsafa va psixologiyaning markaziy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. V. Gumboldt (1836) tilni faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki tafakkur shakli sifatida talqin etgan.L.S. Vigotskiy (1934) "Tafakkur va nutq" asarida so‘zning ma’nosini tafakkur va nutqning birlashgan nyqtasi sifatida ko‘rsatdi. U ichki nutq va tashqi nutqning o‘zaro bog'liqligini tadqiq qilib, bolalarda tafakkurning rivojlanishi til o‘sishi bilan chambarchas bog'liqligini isbotladi [2]. A.R. Luriya (1979) o‘z tadqiqotlarida verbal tafakkur shakllanishida miya faoliyatining rolini o‘rganib, til ta’limining neyrokognitiv asoslarini ochib berdi.

Lingvistik tafakkur tushunchasi.Lingvistik tafakkur – bu tilning tuzilish qonuniyatlarini anglagan holda fikrni ifodalash, fikrni til vositalari orqali tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatidir. Bu tushunchani kengroq talqin qilsak, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

– til hodisalarini tahlil qilish va tasniflash qobiliyati (analitik komponent);

– til vositalarini fikrni ifodalashda ongli ravishda tanlash qobiliyati (tanlov komponenti);

– nutq situatsiyasiga mos ravishda til birliklarini qo‘llash (pragmatik komponent);

– matn tuzilishini anglash va yaratish qobiliyati (diskursiv komponent).

A.A. Leontev (1974) "Nutq faoliyati" nazariyasida lingvistik tafakkurni faoliyat nazariyasi doirasida o‘rganib, uning motivatsion-ehtiyojlar asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Unga ko‘ra, til o‘rganish faqat bilim berish emas, balki faoliyat jarayonida tafakkurni shakllantirish demakdir.

Pedagogik kuzatishlar va empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida lingvistik tafakkurni rivojlantirishda quyidagi asosiy to‘siqlar mavjud:

1. Yodlashga yo‘naltirilganlik: Ko‘pchilik o‘qituvchilar hali ham grammatika qoidalarini yod oldirish metodologiyasidan foydalanar ekan, bu o‘quvchilarda mexanik xotira ko‘nikmasini rivojlantiradi, lekin tafakkurni faollashtirmaydi. 2. Matn bilan ishlab chiqish metodikasining zaifliigi: Qator tadqiqotlar O‘zbekiston maktablarida matn tahlili darslarining yetarli darajada tashkil etilmasligini ko‘rsatadi. 3. Metakognitiv o‘qitishning yo‘qligi: O‘quvchilar ko‘p hollarda o‘z nutqlarini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni mustaqil tuzatish malakasiga ega emas. 4. Kommunikativ vaziyatlarning cheklanishi: Dars jarayonida o‘quvchilarning haqiqiy nutq muloqotiga kirishish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib qolmoqda.

Empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablarida ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda grammatik bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan o‘quvchilarning amaliy nutqiy kompetensiyasi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud. Jumladan, 2023-yilda Toshkent viloyati umumta’lim maktablarining 8–9-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 68 foizi grammatik test topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajargan va nazariy bilimlarni yaxshi egallaganligi aniqlangan. Ular gap bo‘laklari, so‘z turkumlari, imlo qoidalari hamda sintaktik birliklarni aniqlash bo‘yicha yuqori natijalarni qayd etgan. Biroq tadqiqotning ikkinchi bosqichida o‘quvchilarga mustaqil ravishda matn yaratish, fikrni izchil bayon qilish, mavzu asosida esse yozish hamda muloqot vaziyatiga mos nutq tuzish vazifalari berilganda, natijalar sezilarli darajada past bo‘lgan. Xususan, o‘quvchilarning atigi 34 foizi o‘z fikrini

mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash, dalillar bilan asoslash va mazmunan yaxlit matn yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Qolgan o‘quvchilarda esa fikrning uzilib qolishi, lug‘at boyligining yetarli emasligi, bog‘lovchi vositalardan noto‘g‘ri foydalanish hamda matn kompozitsiyasini shakllantirishda qiyinchiliklar kuzatilgan. Mazkur holat ta’lim jarayonida ko‘proq nazariy bilimlarni yodlashga e’tibor qaratilib, amaliy nutq faoliyatini rivojlantirishga yetarli darajada sharoit yaratilmayotganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning erkin fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, munozara va ijodiy yozuv mashqlaridan foydalanish zarurligi aniqlangan.Tadqiqot davomida integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning nutqiy faolligi an’anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani kuzatilgan. Guruhli ishlash, matn tahlili, rolli o‘yinlar va media vositalaridan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilar o‘z fikrini erkinroq ifodalagan hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etgan. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

M. Mirzayeva tomonidan o‘tkazilgan longitudinal tadqiqot natijalariga ko‘ra, matn tahlili va diskussiya asosida olib borilgan ona tili darslarida o‘qitilgan sinflarda lingvistik tafakkur ko‘rsatkichlari an'anaviy usulda o‘qitilgan sinflarga nisbatan 42 foizga yuqori bo‘lgan. Xalqaro miqyosda PISA (2022) natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonlik o‘quvchilar o‘qish savodxonligi bo‘yicha o‘rtacha 405 ball to‘plagan bo‘lib, bu OECD o‘rtacha ko‘rsatkichidan (487 ball) sezilarli darajada past.

J. Flavell (1979) tomonidan ishlab chiqilgan metakognitsiya nazariyasiga asoslanib, ona tili ta’limida o‘z fikrlash jarayonini kuzatish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv quyidagilarga asoslanadi:

• o‘quvchilar o‘z nutqlarini ovozga yozib tahlil qiladi (nutqiy portfel metodi);

• matn yozishdan oldin reja tuzish va yozishdan so‘ng o‘z-o‘zini baholash amalga oshiriladi;

• ‘‘fikrlash vaqti’’ texnikasi – o‘quvchi javob berishdan oldin 2-3 daqiqa mulohaza qiladi.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash.UNESCO (2023) ta’lim texnologiyalari bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, raqamli vositalar to‘g'ri qo‘llanilganda ona tili ta’limida lingvistik tafakkurni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin. Korporativ matn tahlili dasturlari (AntConc, Sketch Engine) orqali til hodisalarini statistik o‘rganish;

• aqlli lug'atlar va tezaurus xizmatlaridan foydalanish;

• raqamli hikoya yaratish – video va audio matnlar orqali nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish;

• AI-yordamchi yozuv platformalari orqali o‘quvchi matnlarini qayta ishlash va tahlil qilish.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta’limida lingvistik tafakkurni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari atroflicha tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida lingvistik tafakkur o‘quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarni egallashi, balki mustaqil fikrlashi, nutqiy faoliyatni ongli ravishda tashkil etishi va til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanishida muhim omil ekanligi aniqlandi. Lingvistik tafakkur til hodisalarini tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash hamda ulardan amaliy nutq jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qilishi asoslab berildi.Amaldagi ona tili ta’limida grammatik bilimlarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ushbu bilimlarni erkin nutq va ijodiy fikrlash faoliyatiga tatbiq etish darajasi yetarli emas. O‘quvchilar grammatik qoidalarni bilgan holda ham murakkab matnlar yaratish, o‘z

fikrini mantiqiy va izchil ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat ona tili darslarida nazariy bilim bilan amaliy nutq faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.Lingvistik tafakkurni rivojlantirishda matn asosida ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish, kommunikativ yondashuv, metakognitiv strategiyalar hamda interfaol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘z nutqini tahlil qilishi, xatolarini mustaqil aniqlashi va baholashi ularda refleksiv fikrlashni shakllantirishi bilan ahamiyatlidir. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Shuningdek, tadqiqot davomida zamonaviy ta’lim texnologiyalari, elektron platformalar va raqamli vositalardan foydalanish lingvistik tafakkurni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishi asoslandi. Biroq texnologiyalar ta’lim jarayonida asosiy maqsad emas, balki pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo‘llanilgandagina yuqori natijalar berishi ta’kidlandi.

Tahlillar asosida ona tili ta’limi mazmunini takomillashtirish, darslik va o‘quv dasturlarini lingvistik tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirish, o‘qituvchilarning metodik kompetensiyalarini oshirish hamda grammatika va nutqiy faoliyat integratsiyasini kuchaytirish zarurligi aniqlandi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tilga ongli munosabatini shakllantirish va ularni faol kommunikativ shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi. Lingvistik tafakkurni rivojlantirish ona tili ta’limining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning intellektual, kommunikativ va ijodiy salohiyatini yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi. Til va tafakkurning uzviy bog‘liqligi haqidagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, tilni chuqur o‘zlashtirish insonning fikrlash imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu sababli zamonaviy ona tili ta’limi o‘quvchini faqat grammatik qoidalarni biluvchi emas, balki til orqali mustaqil fikrlay oladigan, o‘z qarashlarini asoslaydigan va jamiyatda samarali muloqot qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-martdagi PQ–246-son qarori. “Maktab ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2023.

2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 361 с.

4. Jinkin N.I. Nutq – axborot uzatish vositasi . – Moskva: Nauka, 1982. – 156 b.

6. Humboldt W. von. On Language: On the Diversity of Human Language Construction and Its Influence on the Mental Development of the Human Species. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 324 p.

7. Mirzayeva M.A. Matn tahlili asosidagi ona tili ta’limining samaradorligi // Pedagogik ta’lim. – 2022. – №3. – B. 78–86.

8. Rahimova N.X. O‘quvchilarda grammatik va kommunikativ kompetentliklarning nisbati (empirik tadqiqot) // NUUz ilmiy axboroti. – 2023. – №4. – B. 112–119.

9. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.

10. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

11. Mahmudov N. Ona tili ta’limi va nutq madaniyati masalalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 256 b.

12. G‘ulomov A., Yo‘ldoshev B. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 320 b.

**Maxbuba KUBAYEVA,**
"Toshkent kimyo xalqaro universiteti" nodavlat oily ta'lim muassasasi
Samarqand filiali, o'qituvchi

# ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'RGANISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy pedagogik metodlar yordamida o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va muammoli o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Tayanch so'zlar**. Zamonaviy pedagogik metodlar, mustaqil o'rganish faoliyati, interfaol metodlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash.

В статье рассматриваются вопросы формирования самостоятельной учебной деятельности учащихся с использованием современных педагогических методов. Обоснована роль интерактивных методов обучения, инновационных педагогических технологий и проблемного обучения в развитии самостоятельного мышления учащихся. Также освещается значение педагогических технологий в процессе развития самостоятельной учебной деятельности. Результаты исследования показывают, что применение современных педагогических методов способствует повышению эффективности образовательного процесса и развитию навыков самостоятельного усвоения знаний учащимися.

**Ключевые слова.** Современные педагогические методы, самостоятельная учебная деятельность, интерактивные методы, инновационные образовательные технологии, самостоятельное мышление.

This article analyzes the formation of students' independent learning activities through the use of modern pedagogical methods. The study highlights the role of interactive teaching methods, innovative pedagogical technologies, and problem-based learning in developing students' independent thinking. The importance of pedagogical technologies in enhancing students' independent learning activities is also discussed. The results of the study indicate that the application of modern pedagogical methods improves the effectiveness of the educational process and contributes to the development of students' independent learning skills.

**Key words.** Modern pedagogical methods, independent learning activity, interactive methods, innovative educational technologies, independent thinking.

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bevosita bog'liq holda yangilanib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni mustaqil bilim olishga yo'naltirish va o'rganish faoliyatini faollashtirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga yordam beradi. Mustaqil o‘rganish faoliyati o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va ularni amaliyotda qo‘llash jarayonini anglatadi. Bunday faoliyat o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularning o‘z fikrini erkin ifodalashiga imkon yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil o‘rganish faoliyati o‘quvchilarning bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishiga xizmat qiladi [3].

Pedagogik metodlarning samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy pedagogik metodlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Interfaol metodlar, muammoli o‘qitish, loyiha metodi va bahs-munozara usullari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini asoslab berish, muammolarni tahlil qilish hamda yangi g‘oyalar ilgari surish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, ularga izlanish imkoniyatini yaratish hamda bilimlarni mustaqil ravishda egallashga yordam berishdan iboratdir. Shu sababli pedagog zamonaviy metodlarni to‘g‘ri tanlashi va ularni dars jarayonida samarali qo‘llashi zarur.

Zamonaviy pedagogik metodlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bunday metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi va ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Quyidagi jadvalda zamonaviy pedagogik metodlar va ularning o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati keltirilgan.

| **Pedagogik metod** | **Mazmuni** | **Mustaqil o‘rganish faoliyatiga ta’siri** |
|---|---|---|
| Muammoli o‘qitish | O‘quvchilarga muammoli vaziyatlar berish | Muammoni mustaqil hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi |
| Loyiha metodi | O‘quvchilar loyiha ustida ishlaydi | Tadqiqot va izlanish faoliyatini rivojlantiradi |
| Aqliy hujum | G‘oyalarni erkin bildirish | Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi |
| Klaster metodi | G‘oyalarni tizimlashtirish | Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi |
| Debat metodi | Bahs-munozara tashkil etish | Mustaqil fikr bildirishni rivojlantiradi |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy pedagogik metodlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi [8].

Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Elektron resurslar, multimedia vositalari va internet manbalari o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini faollashtiradi.

Mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirish jarayonida motivatsiya ham muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilar bilim olishga qiziqish bildirsa, ular mustaqil ravishda yangi

bilimlarni o‘rganishga intiladi. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishini oshiradigan metodlardan foydalanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik metodlar yordamida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini shakllantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ularni bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga undaydi. Shu sababli ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan keng foydalanish o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va uning kasbiy ta’limdagi o‘rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b.

2. Jo‘rayev R.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 212 b.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llash nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2017. – 198 b.

4. Xodjayev B.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 220 b.

5. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 192 b.

6. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari va pedagogik jarayon. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – 240 b.

7. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019. – 208 b.

8. Ismoilova Z.K. Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 164 b.

9. Raxmonov A.A. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 176 b.

10. Ochilov M. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 200 b.

**Fayyoza OCHILOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti

# INTERAKTIV O‘QUV MUHITI OLIY TA’LIMDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqolada nazariy asoslar va mavjud ilmiy dalillarga e’tibor qaratgan holda, universitet talabalari orasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv o‘quv muhitining roli o‘rganiladi. Shuningdek, Scopus, Web of Science va Google Scholar kabi ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda adabiyotlarni tizimli tahlil qilish o‘tkazilib, 2015 va 2024-yillar oralig’ida nashr etilgan tadqiqotlar ILE va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog’liq asosiy naqshlar, pedagogik modellar va natijalarni aniqlash uchun tahlil qilindi.

**Tayanch so‘zlar.** Interaktiv o‘quv muhiti, tanqidiy fikrlash, oliy ta’lim, pedagogika, faol o‘rganish, muammoli o‘rganish.

В статье рассматривается роль интерактивной учебной среды в развитии навыков критического мышления среди студентов университетов, с акцентом на теоретические основы и имеющиеся научные доказательства. Также был проведен системный анализ литературы с использованием баз данных, таких как Scopus, Web of Science и Google Scholar, и проанализированы исследования, опубликованные в период с 2015 по 2024 год, для выявления ключевых паттернов, педагогических моделей и результатов, связанных с развитием ILE и критического мышления.

**Ключевые слова.** Интерактивная учебная среда, критическое мышление, высшее образование, педагогика, активное обучение, проблемное обучение.

The article examines the role of an interactive learning environment in developing critical thinking skills among university students, focusing on theoretical foundations and available scientific evidence. A systematic literature review was also conducted using databases such as Scopus, Web of Science, and Google Scholar, analyzing studies published between 2015 and 2024 to identify key patterns, pedagogical models, and outcomes related to ILE and critical thinking development.

**Key words.** Interactive learning environment, critical thinking, higher education, pedagogy, active learning, problem-based learning

Interaktiv o‘quv muhitlari (ILE) transformatsion pedagogik asos sifatida ilmiy e’tiborni tortdi. An’anaviy sinf sharoitlaridan farqli o‘laroq, ILElar o‘quvchilarning dinamik ishtiroki, hamkorlikdagi bilimlarni shakllantirish va real dunyodagi muammolarni hal qilish vazifalarini birlashtirish bilan tavsiflanadi. Bunday muhitlar o‘quvchilar ma’lumotni passiv qabul qiluvchilar emas, balki o‘zlarining kognitiv rivojlanishida faol ishtirokchilar bo‘ladigan sharoitlarni yaratadi.

Ushbu tadqiqot Scopus, Web of Science va Google Scholar kabi ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodologiyasiga asoslanadi. 2015- va 2024-yillar oralig’ida nashr etilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqildi. Qidiruv kalit so‘zlari: “interactive learning environment”, “critical thinking”, “higher education”, “collaborative learning”, “problem-based learning” va ularning kombinatsiyalari ishlatildi.

Tahlil jarayoni

ILE va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog’liq asosiy naqshlar, pedagogik modellar va natijalarni aniqlash maqsadida saralangan 45 dan ortiq ilmiy maqola va

monografiya tahlil qilindi. O‘zbekiston kontekstiga oid maxsus manbalarga alohida e’tibor qaratildi. Natijalar uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha: (1) nazariy asoslar, (2) empirik dalillar va (3) amaliy ta’sirlar bo‘yicha tasniflanib chiqildi.

Interaktiv o‘quv muhitlarini aniqlash

Interaktiv o‘quv muhiti (INM) konsepsiyasi so‘nggi uch o‘n yillikda konstruktiv pedagogika, kognitiv fan va ta’lim texnologiyalaridagi yutuqlar ta’sirida sezilarli darajada rivojlandi. Keng ma’noda, interaktiv o‘quv muhiti o‘quvchilar tarkibiy muloqot, hamkorlikdagi vazifalar va refleksiv amaliyot orqali kontent, tengdoshlar va o‘qituvchilar bilan faol muloqot qiladigan har qanday o‘quv kontekstini – jismoniy, raqamli yoki aralash – anglatadi[1].

ILElarning dastlabki kontseptualizatsiyasi Vygotskiyning (1978) sotsiomadaniy nazariyasiga asoslangan bo‘lib, u ijtimoiy o‘zaro ta’sirning kognitiv rivojlanishdagi rolini ta’kidlagan[2]. Keyingi olimlar ILE ta’rifini muammoga asoslangan o‘rganish (PBL), loyihaga asoslangan o‘rganish, simulyatsiyalar va texnologiya bilan takomillashtirilgan sinfxonalarni qamrab olish uchun kengaytirdilar[3].

Tanqidiy fikrlash: Nazariy asoslar

Tanqidiy fikrlash falsafa, psixologiya va ta’lim sohalarida keng nazariy munozaralar mavzusi bo‘lib kelgan. Facione (1990) tomonidan Delphi hisobotida taklif qilingan eng keng tarqalgan ta’rifda tanqidiy fikrlash talqin, tahlil, baholash, xulosa chiqarish va tushuntirishni o‘z ichiga olgan maqsadli, o‘zini o‘zi boshqarish mulohazasi sifatida ta’riflanadi[4]. Pol va Elder (2019) intellektual standartlarga asoslangan tanqidiy fikrlash modelini yanada ishlab chiqdilar.

Rivojlanish nuqtai nazaridan, Bloomning qayta ko‘rib chiqilgan taksonomiyasi[5] tanqidiy fikrlashni kognitiv faollikning yuqori darajalarida – ya’ni tahlil, baholash va yaratishda joylashtiradi. Ushbu ierarxik model tanqidiy fikrlashni yodlash yoki ma’lumotni passiv qabul qilish orqali rivojlantirib bo‘lmasligini anglatadi; aksincha, u o‘quvchilarni ushbu yuqori kognitiv darajalarda ishlashga muntazam ravishda chaqiradigan o‘qitish shartlarini talab qiladi.

ILE va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi bog’liqlik

Empirik va nazariy adabiyotlarning katta qismi interaktiv o‘quv muhiti tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun samarali zamin bo‘lib xizmat qiladi degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. ILElar bu rivojlanishni osonlashtiradigan bir nechta mexanizmlar aniqlangan:

Hamkorlikdagi muloqot va bahslashish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tengdoshlarning tizimli o‘zaro ta’siri – jumladan, munozara, Sokratik savollar berish va muammolarni hamkorlikda hal qilish – talabalarni turli nuqtai nazarlar bilan tanishtirish orqali tanqidiy fikrlashni rag’batlantiradi[6].

Metakognitiv iskala. Samarali ILElar talabalarni o‘zlarining fikrlash jarayonlarini kuzatish va tartibga solishga undaydigan aniq metakognitiv ko‘rsatmalarni – masalan,

[1] Jonassen, DH, & Rohrer-Murphy, L. (1999). Activity theory as a framework for designing constructivist learning environments. Educational Technology Research and Development, 47(1), 61–79.

[2] Vygotsky, LS (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

[3] Barrows, HS (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. Medical Education, 20(6), 481–486.

[4] Facione, PA (2015). Critical thinking: What it is and why it counts. Insight Assessment.

[5] Anderson, LW, & Krathwohl, DR (Eds.). (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Educational Objectives. Longman.

[6] Mercer, N., & Littleton, K. (2007). Dialogue and the Development of Children’s Thinking: A Sociocultural Approach. Routledge.

refleksiv jurnallar, o‘zini baholash rubrikalari va ovoz chiqarib o‘ylash protokollarini – o‘z ichiga oladi Flavellning (1979) metakognitsiya bo‘yicha asosiy ishi shuni ko‘rsatdiki, o‘z kognitiv jarayonlarini anglash ularni qasddan takomillashtirish uchun zarur shartdir[7].

Raqamli vositalar va texnologiyalar integratsiyasi. Raqamli texnologiyalarning ILElarga integratsiyasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etdi. Hamkorlikdagi annotatsiya, ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va multimedia argumentatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan platformalar talabalarga murakkab, multimodal ma’lumotlar bilan analitik mulohazalarni talab qiladigan usullar bilan ishlash imkonini beradi.

O‘zbekiston oliy ta’limi kontekstida ILE

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi 1991-yilda mustaqillikka erishganidan beri sezilarli tarkibiy islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu siyosat darajasidagi majburiyatlarga qaramay, empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab O‘zbekiston universitetlaridagi pedagogik amaliyotlar translyatsiyaga yo‘naltirilgan an’analarni aks ettirishda davom etmoqda[8]. Baholash amaliyoti ko‘pincha yuqori darajadagi fikrlashdan ko‘ra eslashga urg’u beradi.

Shunga qaramay, mintaqada paydo bo‘layotgan ilmiy ishlar istiqbolli tashabbuslarga ishora qilmoqda. O‘zbekistonning yetakchi universitetlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar faol o‘rganish strategiyalari va hamkorlikdagi raqamli platformalarning talabalarning ishtiroki va tahliliy kompetentsiyalariga ijobiy ta’sirini hujjatlashtirdi[9].

Dalillarni sintez qilish: ILElar tanqidiy fikrlash uchun katalizator sifatida

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar izchil nazariy va empirik taklifga asoslanadi: interaktiv o‘quv muhiti, puxta o‘ylangan va tizimli ravishda amalga oshirilganda, oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun mazmunli pedagogik katalizator vazifasini bajaradi. Biroq, bu bog’liqlik na avtomatik, na shartsiz emas.

Adabiyotlardan kelib chiqadigan asosiy tushuncha shundaki, interaktivlikning o‘zi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni kafolatlash uchun yetarli emas. Garrison va Vaughan (2008) o‘zlarining Tadqiqot Hamjamiyati doirasida ta’kidlaganidek, mazmunli ta’lim o‘zaro ta’siri birgalikda ishlashi uchun uchta mavjudlikni – kognitiv, ijtimoiy va o‘qitishni talab qiladi[10]. Yuzaki interaktivlik va chuqur kognitiv ishtirok o‘rtasidagi bu farq tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun juda muhimdir.

O‘zbekistonda oliy ta’limga ta’siri

Ushbu sharh natijalari O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari uchun sezilarli amaliy oqibatlarga olib keladi. Bir nechta aniq yo‘nalishlar alohida e’tiborga loyiqdir:

O‘quv dasturini qayta loyihalash. Universitetlarga kurs dizaynini interaktiv, muammoga asoslangan va hamkorlikdagi o‘quv tajribalarini qo‘shimcha qo‘shimchalar o‘rniga o‘quv dasturining tarkibiy xususiyatlari sifatida singdiradigan usullar bilan qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

Professor-o‘qituvchilarni rivojlantirish. ILE ni muvaffaqiyatli amalga oshirish nafaqat fan bo‘yicha tajribaga, balki interaktiv o‘qishni osonlashtirishda pedagogik qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga ham bog’liq. Kasbiy rivojlanish dasturlariga institutsional

[7] Flavell, JH (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906–911.

[8] Abdullayeva, N. (2020). Student-centered learning challenges in the higher education system of Uzbekistan. Journal of Educational Research and Innovation, 8(2), 45–61.

[9] Karimova, Z., & Umarov, S. (2021). Implementing flipped classrooms in Uzbek universities: opportunities and obstacles. Uzbek Journal of Educational Research, 3(4), 78–94.

[10] Garrison, DR, & Vaughan, ND (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass.

investitsiyalar ILE ning barqaror integratsiyasi uchun zarur shartdir.

Baholash islohoti. Eslab qolish va takrorlashga imtiyoz beradigan an’anaviy baholash amaliyotlari ILElar rivojlantirishga mo‘ljallangan tanqidiy fikrlash natijalari bilan tubdan mos kelmaydi. Muqobil baholash vositalarini – jumladan, ishlash vazifalari, portfel baholashlari, refleksiv jurnallar va tengdoshlarni baholash protokollarini – joriy etish zarur.

Cheklovlar va kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari

Nazariy adabiyotlar sharhi sifatida ushbu maqola bir nechta muhim cheklovlarga duch keladi. Birinchidan, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridan olingan birlamchi empirik ma’lumotlarning yo‘qligi xalqaro topilmalarning mahalliy qo‘llanilishini cheklaydi. Ikkinchidan, ko‘rib chiqilgan adabiyotlar asosan G’arb akademik an’analaridan olingan bo‘lib, Markaziy Osiyo sharoitlaridagi tadqiqotlar nisbatan kamligicha qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv o‘quv muhiti va oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘rtasidagi nazariy va empirik bog’liqlik, xususan, O‘zbekiston ta’lim kontekstiga murojaat qilingan holda ko‘rib chiqilgan. Ilmiy adabiyotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqish asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Birinchidan, interaktiv o‘quv muhitlari – faol o‘quvchi ishtiroki, hamkorlikdagi bilimlarni shakllantirish va real hayotdagi muammolarni hal qilish bilan tavsiflangan – tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng qulay pedagogik sharoitlarni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, tanqidiy fikrlash tug’ma yoki o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan qobiliyat emas, balki qasddan o‘qitish dizaynini talab qiladigan rivojlangan intellektual moyillikdir.

Uchinchidan, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi interaktiv o‘quv muhitini integratsiyalash bilan bog’liq holda ham jiddiy qiyinchiliklar, ham haqiqiy imkoniyatlarni taqdim etadi.

To‘rtinchidan, davom etayotgan milliy ta’lim islohotlari va paydo bo‘layotgan institutsional tashabbuslar mazmunli taraqqiyotning nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva N. (2020). Student-centered learning challenges in the higher education system of Uzbekistan. Journal of Educational Research and Innovation, 8(2), 45–61.

2. Anderson T. (2011). Theory and Practice of Online Learning (2nd ed.). Athabasca University Press.

3. Brookfield, SD (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. Jossey-Bass.

4. Dochy, F., Segers, M., Van den Bossche, P., & Gijbels, D. (2003). Effects of problem-based learning: A meta-analysis. Learning and Instruction, 13(5), 533–568.

5.Facione, PA (1990). Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (Delphi Report). American Philosophical Association.

6. Facione, PA (2015). Critical thinking: What it is and why it counts. Insight Assessment.

7. Garrison, DR, & Vaughan, ND (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass.

8. Greenhow, C., & Lewin, C. (2016). Social media and education: Reconceptualizing the boundaries of formal and informal learning. Learning, Media and Technology, 41(1), 6–30.

**Oybek NE’MATOV**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedarasi, assistent o‘qituvchi

# KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING AKSIOLOGIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI MUHITNING DETERMINISTIK TA’SIRI

**Annotatsiya**

Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aksiologik tushunchalarini shakllantirishda raqamli muhitning deterministik ta’siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, virtual muhit, ta’limiy platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning bolalar qadriyatlar tizimiga ko‘rsatadigan ijobiy hamda salbiy ta’sirlari o‘rganilgan. Shuningdek, raqamli muhitning aksiologik rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillari, jumladan, kontent mazmuni, ekran vaqti, ota-onalar nazorati va oilaviy qadriyatlarning roli aniqlangan. Muallif tomonidan raqamli muhit sharoitida o‘quvchilarning ijobiy qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik strategiyalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Aksiologik tarbiya, raqamli muhit, kichik maktab yoshi, qadriyatlar tizimi, raqamli savodxonlik, pedagogik strategiyalar, virtual muhit, ta’lim texnologiyalari, oilaviy qadriyatlar, deterministik ta’sir.

В статье теоретически и эмпирически проанализировано детерминистическое влияние цифровой среды на формирование аксиологических представлений учащихся младшего школьного возраста. В ходе исследования было изучено положительное и отрицательное влияние цифровых технологий, виртуальной среды, образовательных платформ и социальных сетей на систему ценностей детей. Также определены основные факторы, влияющие на аксиологическое развитие цифровой среды, включая содержание контента, экранное время, роль родительского контроля и семейных ценностей. Автором разработаны педагогические стратегии и рекомендации, служащие формированию положительных ценностей учащихся в условиях цифровой среды.

**Ключевые слова.** Аксиологическое воспитание, цифровая среда, младший школьный возраст, система ценностей, цифровая грамотность, педагогические стратегии, виртуальная среда, образовательные технологии, семейные ценности, детерминированное влияние.

This article theoretically and empirically analyzes the deterministic influence of the digital environment on the formation of axiological concepts among primary school students. The study examines the positive and negative impacts of digital technologies, virtual environments, educational platforms, and social networks on children’s value systems. In addition, the main factors influencing axiological development in the digital environment, including content quality, screen time, parental supervision, and family values, are identified. The author proposes pedagogical strategies and recommendations aimed at developing positive values in students under conditions of digitalization.

**Key words.** Axiological education, digital environment, primary school age, value system, digital literacy, pedagogical strategies, virtual environment, educational technologies, family values, deterministic influence.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi boshlang‘ich ta’limning barcha yo‘nalishlariga, shu jumladan o‘quvchilarning qadriyatlar tizimini shakllantirishga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Kichik maktab yoshi shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda

bolaning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va qadriyatlari asoslari belgilanadi. Aksiologik tushunchalar – bu shaxsning yaxshi va yomon, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, go‘zal va xunuk kabi qadriyatlarni idrok etishi va qabul qilishi bilan bog‘liq tushunchalar tizimini anglatadi.

XXI asr – raqamli asrda o‘quvchilar doimiy ravishda virtual muhit, kompyuter o‘yinlari, ijtimoiy tarmoqlar, ta’limiy ilovalar va boshqa raqamli resurslarga duch kelmoqdalar. Bu hodisa pedagogika fanlari uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda: raqamli muhit kichik maktab yoshidagi bolalarning qadriyatlar tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Ushbu ta’sir deterministik xususiyatga egami yoki boshqa omillar ham ishtirok etadimi? O‘qituvchi va ota-onalar raqamli muhitning salbiy ta’sirlarini qanday oldini olishi va ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishi mumkin?

Tadqiqotning nazariy ahamiyati aksiologik pedagogika nazariyasini raqamli ta’lim kontekstida boyitish, deterministik yondashuvning pedagogik tadqiqotlarda qo‘llanilishini kengaytirish va kichik maktab yoshidagi bolalar qadriyatlar tizimi shakllanishining nazariy modelini takomillashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ta’lim psixologlari, ta’lim muassasalari rahbarlari va ota-onalar tomonidan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning axloqiy-qadriyat tarbiyasini raqamli muhit sharoitida samarali tashkil etishda foydalanish imkoniyatidan iboratdir.

Aksiologik pedagogikaning nazariy asoslari

Aksiologiya – qadriyatlar haqidagi fan bo‘lib, falsafaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Pedagogik aksiologiya ta’lim va tarbiya jarayonida qadriyatlarning o‘rnini, ta’lim mazmunini va metodlarini qadriyat asosida tashkil etish masalalarini o‘rganadi. Aksiologik yondashuv zamonavir pedagogikaning asosiy metodologik prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Aksiologik tushunchalar strukturasiga quyidagilar kiradi: bilim (qadriyatlar to‘g‘risida ma’lumotlar), anglash (qadriyatlarning shaxsiy ahamiyatini idrok etish), his-tuyg‘u (qadriyatlarga nisbatan emotsional munosabat), xulq-atvor (qadriyatlarga muvofiq amal qilish). Kichik maktab yoshida barcha ushbu komponentlarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonlik olimlar, jumladan, Sh.E. Kurbonov, N.A. Muslimov, Q.T. Olimov, A.Yo. Xoshimov, G‘.B. Sho‘ayev va boshqalarning ishlarida milliy qadriyatlar asosida tarbiya masalalari, o‘zbek pedagogikasining tarixiy-falsafiy asoslari, axloqiy tarbiyaning metodik jihatlari o‘rganilgan. Ularning fikricha, zamonaviy O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, yoshlar tarbiyasida an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli muhitning pedagogik imkoniyatlari va xavflari

Raqamli muhit – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida yaratilgan virtual fazo bo‘lib, unda o‘quvchilar bilim olish, muloqot qilish, ijod etish va o‘yin-kulgi bilan shug‘ullanishlari mumkin. Zamonaviy kichik maktab yoshidagi bolalar uchun raqamli muhit hayotning ajralmas qismi bo‘lib qolgan.

Raqamli muhitning pedagogik imkoniyatlari ko‘p jihatlidir. Birinchidan, ta’limiy kontentning boy va turli xil bo‘lishi: interaktiv darsliklar, ta’limiy o‘yinlar, virtual laboratoriyalar va muzeylarga tashrif, multimediali materiallar o‘quvchilarga bilimlarni yanada qiziqarli va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Ikkinchidan, individual ta’lim yo‘llarini yaratish imkoniyati: har bir o‘quvchi o‘zining qobiliyati va qiziqishlari asosida ta’limiy materiallarni tanlashi mumkin. Uchinchidan, darhol qayta aloqa: ko‘plab ta’limiy dasturlar o‘quvchiga uning javoblarini zudlik bilan baholash va xatolarini tuzatishga

yordam berishni ta’minlaydi.

Biroq raqamli muhit bir qator xavflarni ham o‘z ichiga oladi. S. Livingstone, N. Carr, S. Turkle kabi tadqiqotchilar quyidagi muammolarga e’tibor qaratishadi: ekran vaqtining ortiqcha ko‘p bo‘lishi sog‘liqqa salbiy ta’sir ko‘rsatishi (ko‘zning toliqishi, harakat faolligining kamayishi); real muloqotning kamayishi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanishini sekinlashtirishi; virtual dunyodagi qadriyatlarning real hayot qadriyatlaridan farq qilishi; axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi tanqidiy fikrlash va muhim narsalarni ajratish qobiliyatini susaytirishi.

Ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalar uchun raqamli muhitdagi ta’sir jiddiy ahamiyatga ega, chunki bu yoshda bolalar hali tanqidiy fikrlash qobiliyatiga to‘liq ega emaslar va virtual va real olamni farqlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun raqamli muhitda qadriyatlar tizimini shakllantirishning alohida pedagogik strategiyalari zarur.

Deterministik yondashuvning mohiyati

Deterministik yondashuv pedagogikada hodisa va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini o‘rganishga asoslangan metodologik prinsipdir. “Determinizm” atamasi lotincha “determinare” – “belgilash, aniqlash” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, hodisalarning bir-biri bilan bog‘liqligini va bir hodisaning ikkinchisini keltirib chiqarishini bildiradi.

Pedagogik tadqiqotlarda deterministik yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonining natijalarini belgilovchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Klassik pedagogikada uch asosiy determinant – nasldan-naslga o‘tadigan biologik xususiyatlar (genotip), tashqi muhit ta’siri va tarbiya – ta’kidlangan. Zamonaviy sharoitda raqamli muhit muhim determinant sifatida qaralishi kerak.

Raqamli muhitning deterministik ta’siri deganda, uning bolaning aksiologik rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sirini, ma’lum qadriyatlar tizimini shakllantirishda uning rolini tushunamiz. Bu ta’sir bir necha mexanizmlar orqali amalga oshadi: modellashtirish (bolalar raqamli muhitda ko‘rgan xulq-atvor namunalarini takrorlaydilar); mustahkamlash (raqamli o‘yinlar va ilovalar ma’lum xatti-harakatlarni mukofotlaydi yoki jazolaydi); ta’limiy kontent orqali ma’lum qadriyatlarni yetkazish; ijtimoiy tarmoqlar orqali tengdoshlar va kattalarning fikr-mulohazalari ta’siri.

Deterministik yondashuv kontekstida muhim savol paydo bo‘ladi: raqamli muhit to‘liq belgilovchi omilmi yoki u boshqa omillar (oila, maktab, tengdoshlar) bilan o‘zaro ta’sirda ishlaydi? Zamonaviy tadqiqotlar raqamli muhitning kuchli, lekin yagona emas deterministik omil ekanligini ko‘rsatmoqda. Uning ta’siri oila tarbiyasi, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati, bolaning shaxsiy xususiyatlari va boshqa omillar bilan kombinatsiyada namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot ishida nazariy va empirik usullar majmuasidan foydalanildi. Nazariy usullar qatoriga pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimli yondashuv kiradi. Empirik usullar sifatida pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, intervyu, test, pedagogik eksperiment va statistik ma’lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot bazasi sifatida Toshkent shahrining 5 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinflari tanlandi. Tadqiqotda 2-4-sinflarning 420 nafar o‘quvchisi, 42 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va 380 nafar ota-ona ishtirok etdi. Tadqiqot 2022-2024-yillar davomida uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda (2022-yil) nazariy-tahliliy ish olib borildi: muammo bo‘yicha ilmiy adabiyotlar o‘rganildi, tadqiqot konsepsiyasi ishlab chiqildi, diagnostik vositalar

tayyorlandi. Ikkinchi bosqichda (2023-yil) asosiy empirik tadqiqot amalga oshirildi: o‘quvchilarning raqamli muhit bilan ishlash tajribasi va aksiologik rivojlanish darajasi o‘rganildi. Uchinchi bosqichda (2024-yil) olingan ma’lumotlar tahlil qilindi, xulosalar shakllantirildi va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

O‘quvchilarning aksiologik rivojlanish darajasini aniqlash uchun “Qadriyatlar orientatsiyasi” metodikasi (M. Rokich metodikasining modifikatsiyalangan varianti), projeksion testlar (“Mening oilam”, “Mening do‘stlarim”), axloqiy dilemmalar usuli (L. Kolberg yondashuviga asosan) ishlatildi. Raqamli muhit bilan ishlash tajribasini o‘rganish uchun ota-onalar va o‘qituvchilar uchun maxsus so‘rovnomalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari va tahlil

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aksiologik rivojlanishi xususiyatlari

Kichik maktab yoshi (6-10 yosh) shaxsning aksiologik rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu yoshda bolalarda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar kuzatiladi:

Qadriyatlarning bevosita-his-tuyg‘u xarakterda qabul qilinishi. Kichik maktab yoshidagi bolalar qadriyatlarni mantiqiy tahlil qilishdan ko‘ra, his-tuyg‘ular orqali qabul qilishadi. Ularda “yaxshi” va “yomon” tushunchalari ko‘proq kattalarning baholashlari va o‘zlarining his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq.

Kattalar (ota-ona, o‘qituvchi) fikrining yuqori avtoriteti. Bu yoshda bolalar kattalar tomonidan ifodalangan qadriyatlarni deyarli tanqidsiz qabul qilishadi. O‘qituvchining so‘zlari bolalar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Konkret-obrazli fikrlashning ustunligi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun qadriyatlarni mavhum tarzda tushuntirish qiyin, ular konkret misollar, hikoyalar, harakatlar orqali yaxshiroq tushunishadi.

Taqlid qilish moyilligining yuqoriligi. Bolalar o‘zlari hurmat qiladigan odamlarning (ota-ona, o‘qituvchi, qahramonlar) xulq-atvorini takrorlab, ulardan o‘rganishadi.

O‘yin faoliyatining saqlanib qolishi. O‘yin orqali o‘rganish bu yoshda hali ham eng samarali usul bo‘lib qolmoqda, shu jumladan axloqiy-qadriyat tarbiyasida ham.

Tadqiqotimiz davomida aniqlandi ki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun eng muhim qadriyatlar oila, do‘stlik, adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik hisoblanadi. Biroq bu qadriyatlarning mazmuni va ularga munosabat yoshlar o‘sishi bilan o‘zgarib boradi. 1-2-sinflarda bolalar uchun oila qadriyati ko‘proq moddiy ne’matlar (ovqat, o‘yinchoqlar) va mehribonlik bilan bog‘liq bo‘lsa, 3-4-sinflarda emotsional qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro tushunish elementlari paydo bo‘ladi.

Raqamli muhitning o‘quvchilar qadriyatlar tizimiga ta’siri

Empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy kichik maktab yoshidagi bolalarning deyarli barchasi (98,3%) raqamli qurilmalar bilan tanish va ulardan doimiy yoki vaqti-vaqti bilan foydalanadilar. Ota-onlar so‘rovnomasi ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rtacha bo‘lib, 2-sinf o‘quvchilari kuniga 1,5 soat, 3-sinf o‘quvchilari 2 soat, 4-sinf o‘quvchilari 2,5 soat raqamli qurilmalar (planshet, smartfon, kompyuter) bilan ishlaydilar.

Raqamli muhitda o‘tkaziladigan vaqt turlarini tahlil qilish quyidagi taqsimotni ko‘rsatdi: o‘yin o‘ynash – 45%, video tomosha qilish – 25%, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda muloqot – 15%, ta’limiy ilovalar va dasturlar – 10%, boshqa faoliyat – 5%. Shunday qilib, raqamli muhitda o‘tkaziladigan vaqtning faqat 10% ta’limiy maqsadlarga qaratilgan, qolgan qismi asosan o‘yin-kulgi funktsiyasini bajarmoqda.

Raqamli muhitning bolalar qadriyatlar tizimiga ta’sirini o‘rganish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni aniqladi:

Individualizmning kuchayishi. Raqamli muhitda ko‘p vaqt o‘tkazadigan bolalarda

individual o‘yinlar va faoliyatga moyillik ortadi, jamoaviy ishtirok etishga qiziqish kamayadi. Tadqiqotda qatnashgan o‘quvchilarning 42% gacha raqamli o‘yinlarni jamoaviy o‘yinlardan ko‘ra afzal ko‘rishlari aniqlandi.

Virtual muvaffaqiyat va real muvaffaqiyat qadriyatlarining farqlanishi. Ko‘plab raqamli o‘yinlarda yutuq va muvaffaqiyatga erishish juda oson, bu esa bolalarda real hayotda erishilgan natijalarni baholashda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. O‘quvchilarning 35% real hayotdagi qiyinchiliklardan qochish va virtual olamda “muvaffaqiyat”ga erishishni afzal ko‘rishlari kuzatildi.

Tezkor natija olishga moyillikning ortishi. Raqamli muhit darhol natijalarni ta’minlaydi (o‘yinda tezkor mukofot, videoda tezkor axborot), bu esa bolalarda sabr-toqat, uzoq muddatli maqsadlarga intilish kabi qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. O‘qituvchilarning 68 foiz o‘quvchilarda sabr-toqat va uzoq muddatli vazifalarni bajarish qobiliyatining yillar davomida kamayganligini ta’kidlashdi.

Ijtimoiy munosabatlar qadriyatining o‘zgarishi. Virtual muloqot real muloqotni to‘liq almashtira olmaydi, biroq ba’zi bolalar uchun u oddiyroq va qulay ko‘rinadi. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilarning 28% yuzma-yuz muloqot qilishda qiyinchiliklar va noqulaylik his qilishlarini tan olishdi.

Axborot tanqidiy baholash muammosi. Kichik maktab yoshidagi bolalar raqamli muhitda olingan axborotni tanqidiy baholash qobiliyatiga ega emaslar. Ular virtual qahramon yoki video bloggerning so‘zlariga osongina ishonishlari va bu ularning qadriyatlar tizimiga ta’sir qilishi mumkin.

Biroq raqamli muhitning ijobiy ta’sirlari ham mavjud. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’limiy dasturlar orqali bolalarda quyidagi ijobiy qadriyatlar shakllanishi mumkin: bilimga chanqoqlik (qiziqarli ta’limiy ilovalar orqali); ijodkorlik (rasm chizish, musiqa yaratish dasturlari orqali); halollik va adolat (o‘yinlardagi qoidalarga rioya qilish orqali); hamkorlik (jamoaviy onlayn loyihalar orqali); global fikrlash va madaniyatlararo hurmat (turli mamlakatlar va madaniyatlar haqidagi ta’limiy kontentlar orqali).

Deterministik omillar va ularning ta’sir mexanizmlari

Tadqiqot davomida raqamli muhitning bolalar aksiologik rivojlanishiga ta’sir qilishining quyidagi deterministik omillari aniqlandi:

Raqamli kontentning mazmuni. Bu eng kuchli deterministik omil hisoblanadi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, bolalar tomosha qiladigan video, o‘ynaydigan o‘yinlar va foydalanadigan ilovalarning mazmuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning qadriyatlar tizimiga ta’sir qiladi. Zo‘ravonlik elementlari bo‘lgan o‘yinlar bilan shug‘ullanuvchi bolalarda agressiv xulq-atvor namunalari ko‘proq kuzatildi, prosocial mazmunli dasturlardan foydalanuvchi bolalarda esa yordam berish, hamjihatlik kabi ijobiy xususiyatlar ko‘proq rivojlangan.

Ekran vaqtining miqdori. Raqamli qurilmalar bilan o‘tkaziladigan vaqt miqdori ham muhim determinant hisoblanadi. Kuniga 3 soatdan ortiq ekran vaqti bo‘lgan bolalarda (tadqiqotda ishtirok etganlarning 23%) real muloqot ko‘nikmalari zaif rivojlangan, ularning qadriyatlar tizimida virtual dunyo qadriyatlari ustun kelishi kuzatildi.

Raqamli muhitdan foydalanish shakli (yolg‘iz yoki kattalar nazoratida). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalar yoki o‘qituvchilar nazoratida raqamli resurslardan foydalanuvchi bolalarda (53%) salbiy ta’sirlar kamroq, ijobiy ta’sirlar ko‘proq bo‘ladi. Nazorat faqat vaqt cheklash emas, balki kontent tanlashda yordam berish, muhokama qilish, tushuntirishni ham o‘z ichiga oladi.

Raqamli va real tajribalarning muvozanati. Raqamli faoliyat bilan birga yetarlicha real tajribaga (sport, san’at, tabiiy muhitda bo‘lish, jonli muloqot) ega bo‘lgan bolalarda

(61%) qadriyatlar tizimi muvozanatli rivojlangan. Faqat raqamli muhitga bog‘liq bo‘lgan bolalarda (12%) esa bir tomonlama rivojlanish kuzatildi.

Oila madaniyati va qadriyatlari. Oilada qanday qadriyatlar ustuvor ekanligi raqamli muhit ta’sirini kuchaytiradi yoki zaiflashtiradi. Kuchli oilaviy qadriyatlarga ega oilalarda (74%) raqamli muhitning salbiy ta’siri kamroq bo‘lib, bolalar real va virtual dunyoni muvaffaqiyatli farqlashadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari raqamli muhitdagi faollik va aksiologik rivojlanish o‘rtasida o‘rta darajadagi bog‘liqlik ($r = 0,52$, $p < 0,01$) mavjudligini ko‘rsatdi. Bu raqamli muhitning kuchli, lekin yagona emas deterministik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Pedagogik strategiyalar va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aksiologik tushunchalarini raqamli muhit sharoitida shakllantirishning quyidagi pedagogik strategiyalari ishlab chiqildi:

Raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlash rivojlantirish. Bolalarga raqamli muhitda navigatsiya qilish, axborotni tanqidiy baholash, xavfsiz ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur. Bu maxsus darslar, amaliy mashg‘ulotlar, ota-onalar bilan birgalikda muhokama qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sifatli ta’limiy raqamli kontentni tanlash va tavsiya qilish. O‘qituvchilar va ota-onalar uchun yosh xususiyatlariga mos, qadriyatlar jihatidan to‘g‘ri yo‘naltirilgan raqamli resurslar ro‘yxatini tayyorlash va ulardan foydalanishni rag‘batlantirish muhimdir.

Raqamli va analog tajribalarning muvozanatini ta’minlash. Maktabda va oilada raqamli faoliyat bilan bir qatorda yetarlicha jonli muloqot, harakatli o‘yinlar, tabiiy muhitda bo‘lish, kitob o‘qish, ijodiy faoliyat uchun vaqt ajratish kerak.

Raqamli resurslardan pedagogik maqsadlar uchun samarali foydalanish. Raqamli texnologiyalarni shunchaki o‘yin-kulgi vositasi sifatida emas, balki qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida qo‘llash kerak. Masalan, axloqiy dilemmalarni muhokama qilish uchun interaktiv hikoyalar, ijobiy qahramonlar haqida videolar, yordam berish va hamkorlik o‘yinlari ishlatilishi mumkin.

Ota-onalar va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish. Kattalar o‘zlari raqamli muhit haqida yaxshi ma’lumotga ega bo‘lib, zamonaviy texnologiyalardan foydalana bilishlari va bolalarni to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. Buning uchun maxsus treninglar, seminarlar, metodik materiallar tayyorlash zarur.

Maktab-oila hamkorligini kuchaytirish. Bolalarning raqamli muhit bilan ishlashi va aksiologik rivojlanishini ta’minlashda maktab va oila birgalikda ishlashlari muhim. Ota-onlar uchun maxsus uchrashuv va maslahatlashuvlar, umumiy loyihalar, axborot almashish platformalari yaratish tavsiya etiladi.

O‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelingan:

Raqamli muhit zamonaviy kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aksiologik rivojlanishida muhim deterministik omil bo‘lib, ularning qadriyatlar tizimini shakllantirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir ikki tomonlama xususiyatga ega: u ijobiy (bilimga qiziqish, ijodkorlik, global fikrlash) va salbiy (individualizmning ortiqcha kuchayishi, sabr-toqatning zaiflashishi, real muloqot ko‘nikmalarining kamayishi) oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Raqamli muhitning ta’siri absolut deterministik emas, balki boshqa omillar (oila tarbiyasi, maktab ta’limi, shaxsiy xususiyatlar) bilan kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Eng kuchli deterministik omillar raqamli kontentning mazmuni, ekran vaqtining miqdori,

foydalanish shakli (nazorat ostida yoki mustaqil) hisoblanadi.

Kichik maktab yoshining o‘ziga xos xususiyatlari (bevosita-his-tuyg‘u xarakteri, kattalar fikrining yuqori avtoriteti, konkret-obrazli fikrlash, taqlid qilish moyilligi) raqamli muhit ta’sirini kuchaytiruvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun bu yoshda raqamli muhitdan foydalanishni alohida e’tibor bilan tashkil etish zarur.

O‘zbek oilalarining an’anaviy qadriyatlari (oilaviy rishta-bog‘liqlik, kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik) raqamli muhitning ba’zi salbiy ta’sirlarini yumshatuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot kuchli oilaviy qadriyatlarga ega oilalarda raqamli muhitning salbiy ta’siri ancha kam ekanligini ko‘rsatdi.

Raqamli muhitning ijobiy ta’sirini ta’minlash va salbiy oqibatlarning oldini olish uchun kompleks pedagogik strategiya zarur. Bu strategiya raqamli savodxonlikni rivojlantirish, sifatli kontentni tanlash, raqamli va analog tajribalar muvozanatini ta’minlash, ota-onalar va o‘qituvchilarning kompetensiyasini oshirish, maktab-oila hamkorligini kuchaytirish kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’limiy raqamli resurslar to‘g‘ri tanlanib, pedagogik maqsadlar uchun samarali qo‘llanilganda, ular kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijobiy aksiologik tushunchalarini (bilimga chanqoqlik, ijodkorlik, adolat, hamkorlik, madaniyatlararo hurmat) shakllantirishda kuchli vosita bo‘la oladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalarini boshlang‘ich ta’lim amaliyotida qo‘llash imkoniyatidan iboratdir. Ishlab chiqilgan pedagogik strategiyalar va tavsiyalar maktablarda raqamli muhit bilan ishlash bo‘yicha maxsus kurslar va treninglar tashkil etishda, ota-onalar uchun yo‘riqnoma va maslahatlashuvlar o‘tkazishda, ta’limiy raqamli resurslarni tanlash va baholash mezonlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit zamonaviy kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aksiologik rivojlanishida kuchli deterministik omil hisoblanadi. Uning ta’siri to‘g‘ri pedagogik strategiya va kattalarning bilimdon rahbarligida ijobiy yo‘nalishga ega bo‘lishi, bolalarning to‘laqonli, harmonik rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq bu maqsadga erishish uchun maktab, oila va jamiyat birgalikda izchil ishlashi, raqamli texnologiyalarning nafaqat texnik, balki pedagogik, psixologik va aksiologik jihatlarini chuqur tushunishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.

3. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – M.: Pedagogika, 1991. – 480 s.

4. Slastyonin V.A., Isaev I.F., Mixaylova G.I., Shiyanov E.N. Pedagogika. – M.: Akademiya, 2013. – 608 s.

5. Lixachev B.T. Filosofiya vospitaniya. – M.: Prometey, 1995. – 282 s.

6. Kurbonov Sh.E. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.

7. Muslimov N.A. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2015. – 276 b.

8. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, № 5. – P. 1-6.

9. Livingstone S. Children’s Digital Rights // InterMedia. – 2018. – Vol. 46, № 2. – P. 20-24.

10. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: W.W. Norton, 2010. – 276 p.

**Nasiba XOLBOZOROVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri
**Shabnam RAVSHANOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, magistrant

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

**Annotatsiya**

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, loyihaviy ta’lim, interfaol metodlar va refleksiv faoliyatning o‘rni ilmiy asosda ochib berilgan. Empirik ma’lumotlar asosida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

**Tayanch so‘zlar.** Kasbiy kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar, refleksiya, raqamli ta’lim, loyihaviy metod.

В данной статье анализируются современные технологии формирования профессиональных компетенций будущих учителей начальной школы на основе комплексного подхода. Научно раскрывается роль компетентностного подхода, цифровой педагогики, проектного обучения, интерактивных методов и рефлексивной деятельности. На основе эмпирических данных установлено, что использование инновационных технологий оказывает существенное влияние на развитие профессиональных компетенций.

**Ключевые слова.** профессиональная компетентность, начальное образование, педагогические технологии, рефлексия, цифровое образование, проектный метод.

This article analyzes modern technologies for the formation of professional competencies in future primary school teachers based on an integrated approach. The study scientifically reveals the role of the competency approach, digital pedagogy, project-based learning, interactive methods, and reflective activity. Based on empirical data, it was found that the use of innovative technologies has a significant impact on the development of professional competencies.

**Key words.** Professional competence, primary education, pedagogical technologies, reflection, digital education, project method.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da har bir bosqichda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish zarurligi qayd etilgan. Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimlarini tashkil etish davomida maktablarda innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri va samalarali foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lmoqda. “Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Kasbiy kompetensiya – bu shunchaki diplom yoki bilim emas, balki o‘qituvchining o‘z ishini professional darajada bajara olish qobiliyatidir. Bu “bilim + ko‘nikma + tajriba + shaxsiy fazilatlar” yig‘indisidan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun

kasbiy kompetensiyaning 5 ta asosiy ustuni bor: Maxsus (soha) kompetensiyasi: O‘zi o‘tadigan fanlarni (ona tili, matematika, tabiiy fanlar va h.k.) chuqur bilishi va ularni bolaga sodda tilda tushuntira olishi. Metodik kompetensiya: Darsni qanday tashkil qilishni bilish. Qaysi mavzuda o‘yin, qaysi birida texnologiya qo‘llashni to‘g‘ri tanlash. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya: Bolalar bilan til topishish, sinfdagi muhitni boshqarish, ota-onalar bilan nizosiz muloqot qilish. Axborot texnologiyalari (AKT) kompetensiyasi: Zamonaviy elektron doskalar, ta’limiy platformalar va raqamli resurslardan darsda unumli foydalanish. Shaxsiy kompetensiya: O‘z ustida ishlash, kreativlik, mas’uliyat va pedagogik etika. Nima uchun bu muhim? Hozirgi zamon o‘quvchisi faqat darslikdagi ma’lumot bilan cheklanmaydi. O‘qituvchi “kompetentli” bo‘lsa, u bolaga tayyor bilimni bermaydi, balki bilimni qayerdan va qanday olishni o‘rgatadi. Shuningdek, XXI asrda ta’lim tizimi global transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamlash-tirish, axborot oqimining keskin ortishi va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida e’tirof etilmoqda. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini boshqaruvchi, uning kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi mutaxassis hisoblanadi. Shu bois uning kasbiy kompetensiyalari kompleks xarakterga ega bo‘lishi zarur. Muammo qo‘yilishi. Amaliyotda ko‘plab pedagogika yo‘nalishidagi talabalar nazariy bilimlarga ega bo‘lsa-da: darsni innovatsion tashkil etish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, o‘quvchini faol subyekt sifatida jalb qilish ko‘nikmalarida yetarli darajaga erisha olmayapti.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun pedagogik, metodik, shaxsiy, ijtimoiy va raqamli kompetensiyalar muhim hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va kasbiy yuksalishi bevosita uning ijodiy qobiliyatiga bog‘liq. Odatda, pedagoglarning ijodiy qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari hamda samarali pedagogik muloqotni amalga oshirishi orqali ta’minlanadi.Samarali pedagogik muloqotni amalga oshirish-o‘qituvchi kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogik faoliyatdagi muloqot ta’lim mu-ammolarini hal qilish, o‘quv jarayonini ijtimoiy-psixologik ta’minlash vositasi, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etish usuli bo‘lib, ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish, ta’lim jarayonini rejalashtirish va baholash, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, o‘z ustida muntazam ishlash, psixologik bilimlarga ega bo‘lish hamda o‘z fanini mukammal bilish kabi kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi kerak. Kasbiy kom-petensiyani shakllantirib borishda inson avvalo o‘z ma’naviyatini namoyon qilib olishi zarur, ya’ni kasb ma’naviyati mavjud bo‘lgan har bir o‘qituvchida pedagogik mahorat, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya rivojlanib boradi. Kasb ma’naviyati ham tezda shakllanadigan jarayon emas. U ma’lum bir vaqt, tinimsiz o‘zlashtirilayotgan ilm, tajriba va ko‘nikmalar asosida shakllanib boradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar muloqot muam-molarini hal qilishda bilimlar tizimini, uni o‘zlashtirish usullarini va kognitiv jarayonlarni real hayotdagi vaziyatlarga o‘tkazishni o‘zlashtiradilar. Ular kelajakdagi o‘qituvchilik faoliyati bilan bog‘liq topshiriqlarni bajaradilar, bu esa professional ahamiyatga ega

kommunikativ bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga va muloqotda ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik muloqot o‘zaro ta’sir deb ataladi, chunki bu har bir ishtirokchi boshqalarga nisbatan o‘zining individualligini tasdiqlaydigan, shaxslararo va guruhlararo aloqalarni o‘rnatadigan va munosabatlarni shakllantiradigan uzluksiz jarayondir. Bularning barchasi kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishni talab qiladi.

Tadqiqot maqsadi: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ilmiy asosda aniqlash.

Tadqiqot aralash metodologiya (mixed-methods) asosida olib borildi.Tadqiqot dizayni: Eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etildi.

1 semestr davomida kuzatuv olib borildi. 2 bosqichli diagnostika (boshlang‘ich va yakuniy) o‘tkazildi. Ishtirokchilar Tadqiqotda 3-bosqich boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi 60 nafar talaba ishtirok etdi: 30 nafari – eksperimental guruh; 30 nafari – nazorat guruhi.

Metodlar: Diagnostik testlar – kompetensiya darajasini aniqlash. Kuzatish kartalari – amaliy faoliyatni baholash. So‘rovnoma – motivatsiya va refleksiya darajasini o‘lchash Pedagogik eksperiment – innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Intervensiya mazmuni. Eksperimental guruhda quyidagilar joriy etildi: Loyihaviy ta’lim, raqamli platformalar va refleksiv kundaliklar.

Natija va muhokama. Kompetensiya darajasining o‘sishi

| Ko‘rsatkich | Boshlang‘ich ( % ) | Yakuniy ( % ) |
|---|---|---|
| Kommunikativ kompetensiya | 48 | 78 |
| AKT kompetensiyasi | 42 | 74 |
| Metodik kompetensiya | 45 | 80 |

Nazorat guruhida o‘sish atigi 10–12% ni tashkil etdi.

Sifat tahlili. Talabalarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi: Mustaqil dars loyihalash ko‘nikmasi shakllandi, refleksiv fikrlash rivojlandi, raqamli vositalardan erkin foydalanish darajasi oshdi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy texnologiyalar: an’anaviy o‘qitishdan samaraliroq, talabaning faol ishtirokini ta’minlaydi, kompetensiyalarni kompleks rivojlantiradi.

Nazariy talqin. Kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra, bilim → ko‘nikma → kompetensiya zanjiri shakllanadi. Innovatsion texnologiyalar aynan shu jarayonni tezlashtiradi.

Muhim omillar: Refleksiya (o‘z faoliyatini tahlil qilish); amaliy faoliyat ulushining oshishi; raqamli muhit.

Bundan tashqari, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi darslarda o‘quvchi shunchaki bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi va tadqiqotchi sifatida qatnashadi. Har bir maktablarda barcha dars mashg‘ulotlari 4K modeli asosida tashkil etilishi kompetensiyaviy yondashuvni yaqqol namunasi bo‘la oladi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli o‘zgarib, u bilim beruvchi emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, maslahatchi, fasilitatorga aylanadi. Ya’ni, ustozlar o‘quvchilar jamoasida o‘zaro kommunikativ jarayonlar, kreativ hamda kritik fikrlash va jamoaviy ish olib borishni ta’minlab boradi. Innovatsion darslar jarayonida uyga topshiriqlar berish orqali turli ilovalardan foydalanib, o‘qitish jarayonini qulaylashtirish mumkin. Misol tariqasida, “Mutolaa” ilovasini har bir 3-4-sinf o‘quvchilarini ota-onasini mobil telefoniga o‘rnatib foydalantirish orqali o‘quvchilar

orasida kitobxonlik madaniyatini, kam vaqt ichida ko‘plab asarlar mazmuni va bilimlarni bilib olishlari mumkin bo‘ladi. Ushbu innovatsion ilovaning foydali tarafi yo‘lda ketyotganda, yoki biror jismoniy mashg‘ulot bilan band bo‘lgan holatda ham eshitib, ko‘plab bilimlarga ega bo‘lishadi.

Zamonaviy texnologiyalarning samarali turlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

– “Aqliy hujum”, “Debat”,“Sinkveyn”, “Klaster”, “Venn diagrammasi” kabi interfaol metodlar;

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)asosidagi elektron darsliklar, turli platformalar va test tizimlari;

– Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi, bu o‘quvchini amaliy faoliyatga yo‘naltiradi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bu yondashuv natijasida o‘quvchilarda metodik ko‘nikmalar – o‘rganish, tushunish, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash malakalari rivojlanadi. Interfaol o‘qitish metodlari zamonaviy ta’lim tizimida asosiy o‘rinni egallaydi. Bu usullar dars mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarning ishtirokini eng yuqori darajada ta’minlab, ularning mavzu bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini yanada mustahkamlashga qaratiladi. Innovatsion metodlar bolalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy g‘oyalarini shakllantirishga yordam beradi. Rolli o‘yinlar bolalarni turli hayotiy vaziyatlarni tasvirlashga undaydi va bu jarayonda o‘quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalari – kompetensiyaviy yondashuv shakllanadi. Masalan, bolalarga “mehmon-mehmon” o‘yini orqali mehmon kutish odobi, mehmonlarga nisbatan hurmatda bo‘lish, bundan tashqari nutqiy muloqot kompetensiyalari rivojlanadi balki hayotiy bilimlarni ham oshiradi. Interfaol mashg‘ulotlar esa guruhlarda ishlash, muhokama va fikr almashish orqali bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Guruhlarda birgalikda ishlash bolalarning jamoaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi texnologiya asrida yashar ekanmiz boshlang‘ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning diqqatini jalb qilishda samarali usul hisoblanadi. Elektron darsliklar va o‘yinlar bolalarning mavzuni oson va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Dars jarayonlarida elektron doska orqali turli qiziqarli o‘yinlar va quvnoq daqiqalarni qo‘yib, o‘quvchilarning toliqishini hamda zerikishini oldini olishimiz mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim omillaridan biri bu – individual rivojlanish dasturi. Ushbu dastur - har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida u yoki bu sifat, ko‘nikma, malakalarini shakllatirish, takomillashtirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqilgan shaxsiy dasturi. Bu dasturda o‘qituvchining o‘zida shakllantirishi, takomillashtirishi zarur bo‘lgan sifat, BKM ni shakllantirish, amaliy faoliyat turlarini tashkil etish, tanlangan metodlar bo‘yicha o‘z ustida ishlash uchun belgilangan muddat aks etadi. Har bir o‘qituvchi o‘z ustida ishlash jarayonida o‘z bajargan ishlari va faoliyatidagi kamchilik va yutuqlarini tahlil qilishi hamda yutuqlarini boyitib, kamchiliklarini yo‘qotish haqida aniq qaror qabul qilishi, qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borishi zarur. Ushbu faoliyatini to‘g‘ri olib borish jarayonida mutaxassis kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich ravishda rivojlantirib boradi. Shuningdek, universitet o‘qituvchisining shaxsiyati, ularning kommunikativ xulq-atvor madaniyatiga e’tibor qaratish, ularning ilmiy-pedagogik tajribasi va ilmiy ishlarini o‘rganish bo‘lajak mutaxassislarga fikrlash va nutq madaniyatini, o‘z sheriklarining kommunikativ harakatlarini idrok etish madaniyatini, hissiy ifoda etish madaniyatini, o‘zini o‘zi boshqarish madaniyatini egallash imkonini beradi. Bu holat zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashning chinakam dolzarb talabi sifatida professional jamoada muhokama qilinishi kerak.

Ushbu yondashuv oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining ilmiy g‘oyalarini ommalashtirish va kelajakda bo‘lajak professor-o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, kommunikativ salohiyati va kommunikativ madaniyatini oshirish maqsadida o‘quv fanlari, kurslar, seminarlar, konferensiyalar mavzulari, yakuniy malaka va kurs ishlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bizning fikrimizcha, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari – inklyuziv pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida har bir o‘qituvchi o‘quvchilarda muloqot qilish ko‘nikmalari va qobiliyatlari tizimini rivojlantirishga, mavjud shaxslararo muloqot tizimlarini tuzatishga va muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun shaxsiy shart-sharoitlarni yaratishga intilishi kerak.

Oliy ta’limdagi o‘quv ishining har qanday shakli yuqori sifatli umumiy pedagogik va uslubiy tayyorgarlik bilan qo‘llab-quvvatlanadigan kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini, etakchilik fazilatlarini, etarli darajada yuqori o‘zini o‘zi qadrlashni va o‘z vakolatiga ishonchni rivojlantirishi kerak. Kommunikativ tajribaga ega bo‘lish nafaqat bevosita ta’lim o‘zaro ta’siri orqali sodir bo‘ladi; umuman ta’lim muassasasi ta’lim muhiti subyektlarining aloqa sohasi va ularning muloqoti va o‘zaro ta’sirining tashkiliy va uslubiy shartlari alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassis davr talabini chuqur his etadi, yangi bilimlarga intilib, topib, ularni qayta ishlab o‘z amaliyotida samarali qo‘llaydi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda kasbiy kompetensiyasi shakllangan nafaqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari balki barcha fan o‘qituvchilari ham ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zining faolligi, yaratuvchanligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan pedagogik jarayonni milliy o‘quv dasturi asosida to‘gri tashkil qiladi hamda davomli ravishda o‘zini o‘zi rivojlantirib boradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Loyihaviy va interfaol metodlar o‘qituvchini amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshiradi.

Amaliy tavsiyalar: Pedagogika OTMlarida mini darslar tizimini majburiy qilish, raqamli platformalarni integratsiya qilish, refleksiv metodlarni joriy etish, boshlang‘ich sinf darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash – ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchilarni faol, mustaqil va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashning muhim shartidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 320 b.

2. Hasanboyev J. T. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 280 b.

3.Tolipov O‘. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017. – 256 b.

4. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: 2021. – 210 b.

5. Abduqodirov A. A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2018. – 240 b.

6.Yuldashev S.N, Imomov M.P Pedagogik mahorat / o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” , 2023.

7. Omonov B.N. Kasbiy ma’naviyat / darslik. - Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2024. - 260 bet

**Gulnoza AMIROVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, assistent o‘qituvchisi

# O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA DARS JARAYONIDA INTENSIV BAHOLASH USULLARI VA AFZALLIKLARI

**Annotatsiya**

Maqolada o‘rta ta’lim maktablarida dars jarayonida intensiv baholash usullaridan foydalanishning mazmuni, pedagogik ahamiyati hamda samaradorligi yoritilgan. Intensiv baholash usullarining o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida reyting, test, kuzatish, o‘z-o‘zini baholash va rag‘batlantiruvchi baholash metodlarining afzalliklari ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Maqolada intensiv baholashning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va darsdagi faolligini oshirishdagi roli haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar.** Intensiv baholash, ta’lim sifati, pedagogik texnologiya, kompetensiya, monitoring, reyting tizimi, motivatsiya, interfaol metodlar, o‘quv faoliyati.

В данной статье рассматриваются методы интенсивного оценивания в процессе обучения в средних общеобразовательных школах, их педагогическое значение и эффективность. Анализируется роль интенсивного оценивания в развитии знаний, навыков и компетенций учащихся. Также научно обоснованы преимущества современных методов оценивания: рейтинговой системы, тестирования, наблюдения, самооценки и стимулирующего оценивания. Особое внимание уделяется влиянию интенсивного оценивания на развитие самостоятельного мышления, творческих способностей и активности учащихся на уроке.

**Ключевые слова.** интенсивное оценивание, качество образования, педагогические технологии, компетенция, мониторинг, рейтинговая система, мотивация, интерактивные методы, учебная деятельность.

This article discusses intensive assessment methods used during lessons in secondary schools, their pedagogical significance, and effectiveness. The role of intensive assessment in developing students’ knowledge, skills, and competencies is analyzed. The advantages of modern assessment methods such as rating systems, testing, observation, self-assessment, and motivational assessment are scientifically substantiated. The article also highlights the role of intensive assessment in improving students’ independent thinking, creativity, and classroom activity.

**Key words.** Intensive assessment, quality of education, pedagogical technology, competence, monitoring, rating system, motivation, interactive methods, educational activity.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – barkamol, mustaqil fikrlovchi hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimini aniqlash, baholash va monitoring qilish tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. An’anaviy baholash tizimi ko‘proq yakuniy natijani aniqlashga xizmat qilgan bo‘lsa, zamonaviy intensiv baholash usullari o‘quvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini muntazam nazorat qilish va rivojlantirishga qaratilgan. Intensiv baholash usullari o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularning bilim darajasini do-

imiy ravishda aniqlab borishga imkon yaratadi hamda dars samaradorligini oshiradi. Mazkur baholash tizimi orqali o‘quvchi o‘zining kuchli va sust tomonlarini aniqlaydi, o‘qituvchi esa individual yondashuvni amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.Bugungi globallashuv davrida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Intensiv baholash – bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam, tizimli hamda interfaol metodlar asosida baholab borish jarayonidir. Mazkur usulda o‘quvchi faqat yakuniy nazorat orqali emas, balki har bir dars davomida baholanadi. Intensiv baholashning asosiy maqsadi:o‘quvchilarning bilimini aniqlash,ta’lim sifatini oshirish,o‘quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytirish,mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirishdan iborat. Mazkur tizim pedagogik monitoring vazifasini ham bajaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning rivojlanish darajasini muntazam kuzatib boradi va zarur hollarda ta’lim jarayoniga o‘zgartirishlar kiritadi.

Test asosida baholash:Test usuli eng keng tarqalgan baholash metodlaridan biridir. Testlar yordamida qisqa vaqt ichida ko‘plab o‘quvchilarning bilimini aniqlash mumkin.Testlarning afzalliklari:tezkorlik, xolislik,aniqlik,barcha o‘quvchilar uchun teng sharoit yaratishi. Test topshiriqlari:yopiq testlar,ochiq testlar,mantiqiy savollar,muammoli vaziyatli topshiriqlardan iborat bo‘lishi mumkin.Reyting tizimi o‘quvchilarning darsdagi barcha faoliyatini hisobga olish imkonini beradi. Bunda:uy vazifasi,mustaqil ish,amaliy mashg‘ulot,guruhli ish,ijodiy topshiriqlar baholanadi. Reyting tizimi o‘quvchini muntazam ishlashga undaydi. O‘quvchilar faqat yakuniy nazoratga tayyorlanib qolmay, har bir mashg‘ulotda faol ishtirok etishga harakat qiladilar.O‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Ushbu metod orqali o‘quvchi:o‘z xatolarini aniqlaydi,o‘z ustida ishlashni o‘rganadi,mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

Mazkur usul zamonaviy kompetensiyaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Rag‘batlantiruvchi baholash o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Rag‘bat:maqtov,sertifikat,ball,qo‘shimcha imkoniyatlar,ijodiy topshiriqlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Psixologik jihatdan rag‘batlantirish o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Interfaol metodlar asosida baholash

Zamonaviy darslarda interfaol metodlardan foydalanish intensiv baholash samaradorligini oshiradi. Jumladan:“Aqliy hujum”;“Klaster”; “BBB”; “Insert”; “Debat”; “Case-study” metodlari orqali o‘quvchilar faoliyati baholanadi.

Bu metodlar o‘quvchilarning:nutq madaniyatini; muloqot ko‘nikmalarini; ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Intensiv baholashning afzalliklari

Intensiv baholashning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Ta’lim sifatini oshiradi

Doimiy nazorat o‘quvchilarning bilim darajasini yaxshilaydi.

2. O‘quvchilarni faollashtiradi

Baholashning muntazamligi o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini oshiradi.

3. Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi

Interfaol topshiriqlar orqali o‘quvchilar erkin fikr yuritishni o‘rganadilar.

4. Individual yondashuvni ta’minlaydi

Har bir o‘quvchining qobiliyati va imkoniyati inobatga olinadi.

5. Motivatsiyani oshiradi

Rag‘batlantirish tizimi o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini kuchaytiradi.Amaliyotda

ayrim qiyinchiliklar ham uchraydi:baholash mezonlarining aniq belgilanmaganligi,o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi,vaqt taqsimotidagi muammolar,texnik vositalarning yetishmasligi.Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun:pedagoglarning malakasini oshirish; zamonaviy texnologiyalarni joriy etish; elektron baholash tizimlarini keng qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta’limda intensiv baholashning roli

Raqamli texnologiyalar rivojlangan bugungi davrda elektron baholash tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Masalan:Google Forms; Moodle; Quizizz; Kahoot platformalari orqali tezkor va samarali baholash amalga oshiriladi. Elektron baholash:vaqtni tejaydi; natijalarni avtomatik tahlil qiladi;xolis baholashni ta’minlaydi.Shuningdek, masofaviy ta’lim tizimida intensiv baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘rta ta’lim maktablarida intensiv baholash usullaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mazkur usullar o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.Intensiv baholash orqali o‘quvchilar doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga odatlanadilar. O‘qituvchi esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va elektron platformalardan foydalanish intensiv baholash tizimining samaradorligini yanada oshiradi.Kelajakda ta’lim tizimida intensiv baholash metodlarini takomillashtirish hamda ularni amaliyotga keng joriy etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
3. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2018.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
5. Ziyomuhammedov B. Pedagogika. – Toshkent, 2019.
6. Muslimov N. Kasbiy ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2021.
7. OECD Education Report. Assessment and Learning. – Paris, 2022.
8. John Hattie. Visible Learning for Teachers. – London, 2018.

**Nasiba IMAMOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, o‘qituvchi

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini rivojlantirishda PISA xalqaro baholash dasturining ahamiyati, matematik kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy metodlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, matematika darslarini xalqaro baholash mezonlari asosida tashkil etishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar hamda hayotiy masalalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari ko‘rsatib berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Matematik savodxonlik, PISA, kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion texnologiyalar, funksional savodxonlik, mantiqiy fikrlash, pedagogik metodlar.

В данной статье освещается значение международной программы оценки PISA в развитии математической грамотности учащихся начальных классов, современные методы формирования математических компетенций, а также вопросы использования инновационных педагогических технологий. Также проанализированы дидактические возможности организации уроков математики на основе международных критериев оценки. В ходе исследования показаны способы развития навыков логического и аналитического мышления учащихся посредством использования интерактивных методов, проблемных ситуаций, а также жизненных вопросов.

**Ключевые слова.** Математическая грамотность, Пиза, компетентность, начальное образование, инновационные технологии, функциональная грамотность, логическое мышление, педагогические методы.

This article covers the importance of the International Assessment Program of PISA in the development of mathematical literacy of primary students, modern methods for the formation of mathematical competencies and the use of innovative pedagogical technologies. Also, the didactic possibilities of organizing mathematics lessons on the basis of international assessment criteria have been analyzed. In the course of the study, the methods of developing students ‘ logical and analytical thinking skills through interactive methods, problem situations and the use of life issues are shown.

**Key words.** Mathematical literacy, PISA, competence, primary education, innovative technologies, functional literacy, logical thinking, pedagogical methods.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan xalqaro dasturlar orasida PISA (Programme for International Student Assessment) alohida o‘rin egallaydi. Ushbu dastur o‘quvchilarning nazariy bilimidan ko‘ra, egallagan bilimlarini amaliy hayotda qo‘llay olish kompetensiyalarini baholashga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishning dastlabki poydevori hisoblanadi. Shu sababli matematika darslarini PISA talablari asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish dolzarb pedagogik

muammolardan biri sanaladi.

PISA topshiriqlari esa matematik masala emas, u matematik masaladan oldin keluvchi bosqich – muammoli vaziyatning tavsifi (kontekst)dan iborat. Topshiriq kontekstida tasvirlangan muammoli vaziyatni mulohaza yuritish orqali o‘rganib, uni matematik tilga o‘girib ifodalash, ya’ni matematik masala ko‘rinishiga keltirish kerak bo‘ladi. Shundan keyingina masalani matematikani qo‘llab yechishga kirishiladi.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda matematik bilimlardan foydalana olish, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va muammoni samarali hal qilish qobiliyatidir.

PISA tadqiqotlarida o‘quvchilarning matematik tayyorgarligini baholashda quyidagi uch jihatga alohida e’tibor qaratiladi: topshiriqlar o‘quvchilarning kundalik hayotdagi qiziqishlari va ehtiyojlariga mosligi; muammo mazmuni (kontekst)ning hayotiyligi; matematikani qo‘llash bosqichlarining faqat ayrimlarini emas, balki barchasining to‘liq qamrab olinganligi, ya’ni bu jarayonning bir qisminigina bajarish (masalan, tenglamani yechish, algebraik ifodani soddalashtirish) emas, balki masalani tushunish bosqichidan boshlab, uni matematik tilda ifodalash, yechish va yechimni talqin qilishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarning hammasining qamrab olinganligi ochiq oydin ifoda etib beradi. PISA tadqiqotlarida matematik savodxonlik muammoni tushunish, matematik model yaratish, hisoblash va tahlil qilish, natijalarni izohlash, mantiqiy xulosa chiqarish kabi kompetensiyalar orqali baholanadi. Boshlang‘ich sinflarda aynan ushbu kompetensiyalarni shakllantirish kelgusida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi- Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, analitik-sintetik yondashuv, eksperimental metod hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida boshlang‘ich ta’lim tizimida matematika fanini o‘qitish jarayonida PISA topshiriqlariga oid ilmiy-metodik manbalar va amaliy kuzatishlar asos qilib olindi.

Siz-u bizga tanish bo‘lgan uzunlik va uning o‘lchov birliklari birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarga tushuntirilib boriladi. Chunki biz bu mavzuni real hayotda juda ko‘p uchratamiz, bu mavzuning birinchi sinf darsligiga kiritilishi ham bejiz emas, albatta. PISA topshiriqlarida ham uzunlik o‘lchov birliklariga oid matematik savodxonlikni oshiruvchi misol va masalalar bor.

Namunaviy topshiriq:

Uydan kinoteatrgacha masofa 1 km. 200 m., maktabgacha bo‘lgan masofa esa 850 m. Uydan maktabgacha masofa kinoteatrgacha masofadan necha m. qisqa? A.400 m. B.250 m. C.350 m. D. 300 m.

Savol tavsifi: Uydan maktabgacha masofa qanchalik qisqaligini aniqlash.Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar. Kontekst: ijtimoiy.Aqliy faoliyat turi: ifodalash. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bu masalani yechish uchun, avvalo, 1 kilometrni metrga aylantirib olishi kerak, 1km.=1000m. Keyingi bosqichda 1000 metrga 200 metrni qo‘shish talab etiladi va chiqqan javobdan 850 metr ayriladi. O‘quvchi xuddi shu tartibda topshiriqni ishlashi kerak. Topshiriqning baholash mezoni: Quyidagi holda javob to‘liq qabul qilinadi: To‘g‘ri javob: C. 350 m.

Oddiy arifmetik misol o‘rniga kundalik hayot bilan bog‘liq quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin: “Oilada bir haftalik oziq-ovqat xarajatlari hisoblandi. Agar har kuni 85 000 so‘mdan sarflansa, bir oyda jami qancha mablag‘ ishlatiladi?” Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning matematik bilimni real vaziyatlarga tatbiq etish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

PISA topshiriqlari an’anaviy testlardan farqli ravishda o‘quvchilarning tayyor bilimini

emas, balki bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli matematika darslarida PISA formatidagi topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Namunaviy topshiriq. Maktab kutubxonasiga 248 ta yangi kitob olib kelindi. Kitoblar 8 ta javonga teng taqsimlandi. Har bir javonga nechta kitob joylashtirilgan? Mazkur topshiriq orqali o‘quvchi matematik amal bajaradi, muammoni tahlil qiladi, natijani izohlaydi, amaliy xulosa chiqaradi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematik savodxonlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarita’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

Tajriba jarayonida matematika darslari PISA talablari asosida tashkil etilganda samarali bo‘ladi.

Pisa topshiriqlari matematik fikrlash, mustaqil ishlash, muammo yechish ko‘nikmasi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligi, kreativ fikrlashi, o‘qish savodxonligi, albatta, ta’lim tizimimizning rivojlanishi uchun muhim hisob-lanadi. PISA muayyan maktab o‘quv dasturlarining ustunligini emas, balki o‘quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlarini o‘rganadi. O‘quvchilar maktabda o‘rganishi lozim bo‘lgan hamma narsani to‘liq o‘zlashtira olmaydilar. Samarali o‘rganuvchi bo‘lish uchun nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki ular qanday va nima uchun o‘rganilishi haqida xabardor bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning matematik savodxonligini baholashda ularning taniqidiy fikrlashi, ijodkorligi, kreativligi, mulohaza yurita olishi kabi ko‘nikmalari inobatga olinadi.

PISA xalqaro baholash dasturi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning funksional kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda hayotiy muammolarni samarali hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois matematika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

2. Jumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.

3 . PISA–2021 Mathematics Framework (second draft), 46th meeting of The PISA Governing Board, 5-7 November 2018 Prague, Czech Republic.

4. PISA-2012 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Problem Solving and Financial Literacy, OECD Publishing.

5. Ziyomuhammedov B. Pedagogika. – Toshkent, 2013.

6. Muslimov N. Kasbiy kompetentlik va pedagogik faoliyat. – Toshkent, 2016.

7. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2009.

**Munisa NURULLAYEVA,**
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, talaba

# ALISHER NAVOIYNING TA'LIMIY-AXLOQIY VA FALSAFIY QARASHLARI ("HAYRAT UL-ABROR" DOSTONI MISOLIDA)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning Alloh, inson, borliq, dunyo haqidagi qarashlari, adolatli shoh qanday bo'lishi haqidagi fikrlari, ustozlarga bag'ishlangan ta'riflari, ishq va vafo ahli sifatlari, iymon, islom, saxovat, qanoat, odob, rostlik, juvonmardlik, yigitlik davri haqidagi bayonotlari va maqtanchoqlikning oqibatlari haqidagi o'zining shaxsiy,falsafiy-didaktik qarashlari to'liq bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar.** Borliq, inson, umr mazmuni, saxovat, vafo, ishq, iymon, odob, didaktika, dunyo ne'matlari, boqiy va foniy dunyo, xushmuomalalik, rostgo'ylik.

В данной статье полностью изложены взгляды Алишера Навои на Аллаха, человека, бытие, мир, его мысли о том, каким должен быть справедливый царь, его описания учителей, качества людей любви и верности, его высказывания о вере, исламе, щедрости, довольстве, приличиях, правдивости, мужестве, молодости и его личные, философско-дидактические взгляды на последствия хвастовства

**Ключевые слова**. Бытие, человек, смысл жизни, щедрость, верность, любовь, вера, этикет, дидактика, блага мира, вечный и бренный мир, вежливость, правдивость.

This article fully describes Alisher Navoi's views on Allah, man, existence, and the world, his thoughts on how a just king should be, his descriptions of teachers, the qualities of people of love and loyalty, his statements about faith, Islam, generosity, contentment, decency, truthfulness, courage, his youth, and his personal, philosophical, and didactic views on the consequences of boasting.

**Key words.** Existence, man, meaning of life, generosity, loyalty, love, faith, etiquette, didactics, worldly goods, eternal and mortal world, politeness, truthfulness.

"Hayrat ul-abror" (o'zbekcha: Yaxshi kishilarning hayratlanishi) - Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa"ning birinchi dostoni bo'lib, pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy doston. Aruzning sare' bahrida yozilgan bo'lib, 64 bob, 20 maqolatdan tashkil topgan. Asar an'anaviy muqaddima hamd va na't bilan boshlanadi va shoir Allohga hamd qilib,shunday deydi: "Bir vaqtlar bu jahon pinhon edi. Na yer, na ko'k, na kun, na tun - hech narsa yo'q edi. Sendan boshqa hech kim, hech narsa yo'q edi. Nozir ham, manzur ham o'zing eding. Ishqingdan mast, husningdan masrur eding, husning jilvasiga chek-u chegara yo'q edi. Senga ko'zgu kerak bo'ldi va shu maqsad bilan dunyo maydonga keldi. Demak dunyo sening jamolingga oynadir. Sen dunyoni g'oyat go'zal qilib yaratding, lekin hammasidan insonni ulug' aylading. Binobarin, Alloh har narsadan ulug' va yaqin tutgan inson ham tabiatning, ham jamiyatning gultojidir". Navoiy dunyoni Allohning namoyon bo'lishidir,deb biladi. Inson esa uning markaziy siymosidir.

Birinchi maqolatda Navoiy iymon haqida so'z yuritarkan, aslida iymoni butun inson qanday bo'lishi haqidagi qarashini ochib berish maqsadida "Ibrohim Adham" hikoyatini keltiradi. Unda Ibrohim shahzodalikni tashlab,saroy mol-mulkini fano yeliga berib, joynamoz olib, sahroda 14 yil namoz o'qib, Makka tomonga bordi. Ne ko'z bilan

qarasaki, Ka’ba o‘z joyida yo‘q edi. Shunda bir ayolning nolasi eshitildi va Ka’ba u ojiza tomonga borib, sajda qildi. Bu ojiza ayol Robiya edi va Ibrohim unga qarab: “Sening ziyoratmakoning Arsh - osmonning yuqorisida, ammo sen Ka’baga azm etib ko‘rki, jahonni ne ko‘yga solib qo‘yding”,deganida farishta ayol Robiya unga: “Sening o‘zing 14 yil yo‘l yurib, olamga g‘avg‘o solib qo‘yibsan”. Ibrohim: “Nega men ranj chekib, sen ganj olasan”, deganida Robiya: “Sen sahroda 14 yil namoz o‘qib o‘tkazgan bo‘lsang, men yolvorish,umid bilan o‘tkazdim. Sen namozning riyo mevasidan bahramand bo‘lgan esang, meni riyoz umidimga yetkazdi”, deya oqilona javob berdi va iymonning mustahkam ko‘rinishini bu so‘zlari bilan yana bir bor isbotladi.

Boqma, Navoiy yana noz ahlig‘a,

Arzi niyoz ayla niyoz ahlig‘a.

Uchinchi maqolat, “Salotin bobi”da esa Navoiy podshohlarning qanday xislatlarga ega bo‘lishi kerakligi haqida so‘z yuritib, ular adolat bilan davlatni boshqarishi eng muhim jihati ekanini va maydan,ortiqcha bazm-jamshidlardan uzoqlashishi kerakligi haqida kuyunib yozadi va barcha podshohlarga ibrat bo‘lishi uchun “Shohi G‘oziy” hikoyatini keltiradi. Adolatli shoh G‘oziy Xorazm, Adoq yurtlarini urush qilib egallagach, taxtga o‘tiradi va xalq dardini eshitadi, vayronalarni obod qiladi, zulmni adolat bilan daf qiladi, o‘g‘ri, iflos odamlar yo‘qolib, shariat adolatini tiklaydi. Ammo bir kampir shohdan norozi ekanini va qanchalik adolatli ekanini isboti sifatida u bilan shar’an da’volashishni so‘raydi va qozi oldiga boradilar. Kampir urush tufayli bitta-yu bitta jigarbandi bo‘lmish o‘glining vafot etganini va bunga mana shu shoh aybdor ekanini arz qiladi va qozidan adolatli hukm chiqarib, shohdan xun puli, yoki bo‘lmasa xuddi o‘g‘li singari jonining olinishini talab qiladi. Odil shoh shu paytda kampirning bir qo‘liga xumcha to‘la oltin va bir qo‘liga xanjar beradi va shunday deydi: “Agar xun puli kerak bo‘lsa, mana shu oltinni ol, garchi o‘g‘lingni o‘limini atayin istamagan bo‘lsam ham, men sababli vafot etgani uchun jonim kerak bo‘lsa, shu xanjar bilan jonimni ol, adolat hamma barobar”, degan nidosidan so‘ng kampir shohning odilligiga yana bir bor guvoh bo‘lib, ko‘zlariga yosh oldi va tiz cho‘kib, o‘g‘lining joni qurbon bo‘lganiga ming marta roziligini va bunday adolat uchun o‘zining ham jonini ham qurbon qilishga tayyor ekanini aytib, podshohdan afv tilaydi. G‘oziy kampirni kechirib, uni oltin-u zarlarga ko‘madi va Tilla xotin deb atay boshlaydi. Aynan mana shu hikoya orqali Navoiy barcha shohlarga adolat yuzasidan nasihat qiladi, o‘rnak olishni uqtiradi.

Oltinchi maqolatda shoir odob haqida fikr yuritib, ko‘p kulish odobsizlikning alomati ekanini, haddan ziyod kulmoqdan yig‘lash afzal ekanini aytadi va qahqahani qurbaqaning ovozi-yu sakrashiga qiyoslaydi. Shu bilan bir qatorda, qarshingizdagi inson kim bo‘lishidan qat’i nazar unga nisbatan xushmuomalada bo‘lishni musulmonlarga xos odob va tarbiya deb biladi. Shoir farzandga ism qo‘yish haqida ham aynan mana shu bobda aytib o‘tadi. Ya’ni ism qo‘yishda shunday yaxshi ism qo‘yish kerakki, farzand ulg‘aygach, o‘z ismidan uyalmasligi, ota-onasidan norozi bo‘lmasligi kerakligini ta’kidlagan. Farzand ulg‘ayishni boshlagach, unga yaxshi muallim topib, ilm olishga undash va bu jarayonda bolani kerakli paytda maqtash, taqdirlash ham kerakligini,ammo bu me’yordan ortiq bo‘lmasligi, mehr va jazo birga bo‘lishini yozadi. Navoiy farzandlarni ham unutmagan holda, ota-onani bir umr hurmat qilib, ularning oldidagi burchni ado qilishlari, ranjitmasligi kerakligi haqida nasihat qiladi.

Sakkizinchi maqolatda esa vafo ahli haqida so‘z yuritib, Navoiy agar hayotingda vafoli yor bo‘lsa, vafoga vafo qilsa, unga jonni bersang ham arziydi deydi. Aynan mana shunday kuchli vafodorlikni ko‘rsatish uchun ikki vafoli do‘st haqidagi hikoyani

keltiradi. Unda Sohibqiron Amir Temur Hindistonni bosib olib, yovlarning barchasi kofir bo‘lganligi uchun ularni qirib tashlashni buyuradi va askarlar butun xalqni bir boshdan o‘ldirishni boshlaydi. Navbat shu ikki do‘stga kelganida ikkovi ham sipohdan do‘stidan oldin o‘zini o‘ldirilishini iltimos qilib zor yig‘laydi. Sipohlar esa qanday yo‘l tutishni bilmay turganida “Al omon” – o‘ldirishni to‘xtatish haqida farmon yangraydi va shoh qolgan xalqning jonidan kechkani ma’lum bo‘ladi. Bu ikki yorning bir- biriga bo‘lgan vafosi ham o‘zlarining,ham xalqining omon qolishiga sabab bo‘ldi. Demak, vafo faqat va faqat yaxshi oqibatlarga olib kelarkan.

O‘ninchi maqolatda esa shoir rostlik, to‘g‘rilik haqidagi qarashlarini bayon etar ekan, nay to‘g‘ri bo‘lgani uchun odamlar uni yoqtiradi, chang esa egriligi tufayli uning qulog‘ini burab, azoblaydilar, deydi. Sham to‘g‘ri bo‘lgani uchun doim yuqoriga nur taratishi, chaqmoq esa egri bo‘lgani uchun yer ostiga g‘arq bo‘lishini ta’kidlaydi. Va aynan mana shu maqolatda “Sher va durroj” hikoyasini misol sifatida keltiradi. Navoiy egri, yolg‘onchi insonning hech qachon yaxshi bo‘lmasligi haqida so‘z yuritarkan, yolg‘onchillikda o‘g‘rilik afzal deydi. Chunki bu illatni to‘g‘rilasa bo‘ladi,ammo yolg‘onchilar tuzalmaydi deydi.

O‘n to‘rtinchi maqolatda adib falak hay’atidan shikoyat qilib, bu olamning nayranglariga aldanmaslik kerakligi haqida yozadi. Qancha mol-mulkka ega bo‘lmasin inson bu foniy dunyodan boqiy dunyoga hech narsasiz ketishini, faqatgina ilminigina olib keta olshini ta’kidlaydi va bu so‘zlarining isboti sifatida Iskandar haqidagi hikoyani keltiradi. Iskandar payg‘ambarlikka, olimlikka, mol-mulkka,umuman, bir inson nimalarni istasa,barchasiga erishgan shaxs. Ammo o‘limi oldidan uni ko‘mishganda bir qo‘lini qabrdan chiqarib qo‘yishlari haqida vasiyat qiladi. Toki shuncha boyligi bo‘lsa ham, Allohning oldiga mana shu bo‘sh qo‘l bilan ketganini butun insoniyat ko‘rishini istadi.

O‘n yettinchi maqolatda Navoiy yigitlik davri haqidagi o‘z qarashlarini keltiradi. Yoshlik abadiy emasligini, qarilikda afsuslanib qolmaslik uchun vaqtida bilim olish, ilm bilan band bo‘lish kerakligini uqtiradi. Va qazo umrni qismlarga bo‘lib berganini ham ta’kidlaydi. Ya’ni 10 yoshgacha: g‘aflatda erkin hayot kechirish; 20 yoshgacha: bilimsizlik,mastlik bilan band bo‘lish; 30-40 yoshgacha: aysh qilish; 50 yoshda taraqqiy etib bo‘lmasligi; 60 da tanazzulga yuz tutish; 70 da turib, 80 da o‘tirish; 90 da yiqilib, 100 yoshda jon tarkini qilish kabi ko‘p insonning umr tarziga aylanib qolgan taqsimotni aytadi. Insonlar, shu bilan birga biz ham, agar hali vaqtimiz bor deya, bilim olmay umrimizni sh tarzda kechirsak, oxrida jabr chekkan ham, afsuslangan ham o‘zimiz bo‘lamiz...

Xullas, Alisher Navoiy dostonda umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollar qo‘yadi va keyingi dostonlari bo‘lmish “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabbayi Sayyor” va “Saddi Iskandariy” da muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob beradi. Dostonda o‘sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlari, din-diyonat, odob-axloq haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).

2. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР

3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.

**Nilufar BOYQOBILOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi, o'qituvchi

# TALABALARDA TASHKILIY-BOSHQARUV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**Annotatsiya**

Maqolada sinergetik ta'lim muhiti asosida talabalarning boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirish muhokama qilinadi. Boshqaruv qobiliyati mustaqil rejalashtirish, vazifalarning ustuvorligini aniqlash, jamoaviy ishlarni tashkil etish, qarorlar qabul qilish, yetakchilik va aks ettiruvchi tahlilni o'z ichiga olgan ko'nikmalar majmuasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda 84 nafar uchinchi kurs talabasi ishtirok etdi. Anketalar, pedagogik kuzatish, "Ustuvorlikni belgilash" treningi, Eyzenxauer matritsasi, loyihaga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'rganish va muammoli vaziyatlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sinergetik ta'lim muhiti o'quvchilarning boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik asosdir.

**Tayanch so'zlar.** Sinergetik ta'lim muhiti, boshqaruv qobiliyati, etakchilik, tashkiliy kompetentsiya, Eyzenxauer matritsasi, loyihaga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'rganish, muammoli ta'lim.

В статье рассматривается формирование управленческих навыков студентов на основе синергетической учебной среды. Управленческие навыки интерпретируются как набор умений, включающих самостоятельное планирование, расстановку приоритетов, организацию командной работы, принятие решений, лидерство и рефлексивный анализ. В исследовании приняли участие 84 студента третьего курса. Использовались анкеты, педагогическое наблюдение, тренинг «Приоритизация», матрица Эйзенхауэра, проектное обучение, совместное обучение и проблемно-ориентированное обучение. Результаты показали, что синергетическая учебная среда является эффективной педагогической основой для развития управленческих навыков студентов.

**Ключевые слова.** Синергетическая учебная среда, управленческие навыки, лидерство, организационная компетентность, матрица Эйзенхауэра, проектное обучение, совместное обучение, проблемно-ориентированное обучение.

The article discusses the formation of students' management skills based on a synergistic learning environment. Management skills are interpreted as a set of skills that include independent planning, prioritizing tasks, organizing teamwork, decision-making, leadership, and reflective analysis. 84 third-year students participated in the study. Questionnaires, pedagogical observation, "Prioritization" training, the Eisenhower matrix, project-based learning, collaborative learning, and problem-based learning were used. The results showed that the synergistic learning environment is an effective pedagogical basis for developing students' management skills.

**Key words.** Synergistic learning environment, management skills, leadership, organizational competence, Eisenhower matrix, project-based learning, collaborative learning, problem-based learning.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning nafaqat nazariy bilimlarni egallashini, balki ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini ham shakllantirishini ta'minlashi kerak. Shuningdek, ular mustaqil qarorlar qabul qilish, vaqtni boshqarish, jamoada ishlash, vazifalarni rejalashtirish va natijalar uchun mas'uliyatni

o‘z zimmalariga olishlari kerak. Shuning uchun boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun o‘quvchilarda ustuvorliklarni belgilash va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Tashkiliy qobiliyatlar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga, yetakchilik qobiliyatiga va muammolarni samarali hal qilish qobiliyatiga yordam beradi.

Sinergetik yondashuv bu jarayon uchun muhim uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’limni ochiq, o‘zaro bog’langan va o‘zini o‘zi tashkil etuvchi tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Bunday sharoitda o‘quvchi nafaqat bilimni passiv qabul qiluvchi, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, tashkilotchisi va qaror qabul qiluvchisi hamdir.

Sinergetik yondashuvning nazariy asoslari X.Xakenning murakkab tizimlardagi tartib va o‘z-o‘zini tashkil etish haqidagi qarashlari bilan bog‘liqdir. Ta’limda bu yondashuv o‘qituvchi, o‘quvchi, guruh, topshiriq, raqamli vosita va aks ettirish kabi turli omillarning o‘zaro ta’siri orqali yangi pedagogik natija qanday paydo bo‘lishini tushuntiradi.

Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash va natijaga yo‘naltirilgan faoliyatini rivojlantiradi. Kooperativ ta’lim jamoaviy mas’uliyat, o‘zaro yordam va guruhni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning analitik tafakkurini, qaror qabul qilish va bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot Shahrisabz davlat pedagogika institutining 3-bosqich 84 nafar talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqot usullariga anketalar, pedagogik kuzatishlar, kichik guruhlarda ishlash, “Ustuvorlikni belgilash’’ treningi va Eyzenxauer matritsasi asosidagi vazifalarni tasniflash kiradi.

Talabalarning boshqaruv qobiliyatlari quyidagi mezonlar bo‘yicha baholandi: mustaqil rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, jamoaviy ishlarni muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish, etakchilik tashabbusi va reflektiv tahlil. Ushbu mezonlar sinergetik yondashuvning asosiy tamoyillari bilan birlashtirildi: ochiqlik, o‘zaro bog’liqlik, moslashuvchanlik va o‘zini o‘zi tashkil qilish.

So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, 84 nafar o‘quvchidan 74 nafari yoki 88 foizi o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan muloqot va murabbiylik muhitidan mamnun. Jami 69 nafar talaba yoki 82 foizi ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘yicha uslubiy maslahatga muhtojligini bildirdi. Shuningdek, 62 nafar talaba yoki 74 foizi amaliy kasbiy ko‘nikmalarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

“Ustuvorlikni belgilash” treningi davomida talabalar Eyzenxauer matritsasi yordamida 20 ta vazifani tasnifladi. Natijada 40 nafar talaba dolzarb vazifalarni, 30 nafar talaba muhim vazifalarni, 12 nafar talaba kechiktirilishi mumkin bo‘lgan vazifalarni, 2 nafar talaba o‘ta muhim bo‘lmagan vazifalarni aniqladi. Umumiy muvaffaqiyat darajasi 84 foizni tashkil etdi.

Pedagogik usullar tahlili shuni ko‘rsatdiki, loyiha asosida o‘qitish mustaqillikni 92 foizga, hamkorlikda o‘qitish jamoaviy ish faoliyatini 95 foizga, muammoli o‘qitish esa qaror qabul qilish qobiliyatini 94 foizga rivojlantirdi. Bu natijalar turli pedagogik usullar talabalarning boshqaruv qobiliyatlarining turli komponentlarini rivojlantirayotganini tasdiqlaydi.

*1-jadval Boshqaruv qobiliyatlari rivojlanishida usullarning samaradorligi (%)*

| **Metod** | **Mustaqillik** | **Jamoada ishlash** | **Qaror qabul qilish** | **Rahbarlik** |
|---|---|---|---|---|
| Loyiha asosidagi o‘qitish | 92 | 89 | 85 | 87 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Interfaol usullar | 85 | 91 | 88 | 83 |
| Kooperativ ta’lim | 78 | 95 | 81 | 89 |
| Muammoli ta’lim | 88 | 82 | 94 | 79 |
| Raqamli texnologiyalar | 91 | 87 | 90 | 86 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, loyiha asosida o‘qitish talabalarning mustaqilligini rivojlantirishda eng yuqori natijani ko‘rsatdi. Kooperativ ta’lim jamoaviy ishni takomillashtirishning eng samarali usuli bo‘lib chiqdi, muammoli ta’lim esa qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda eng yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalar barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha nisbatan muvozanatli natijalar berdi. Bu shuni ko‘rsatadiki, sinergetik ta’lim muhitida raqamli vositalar boshqaruv jarayonini kuzatish, vazifalarni taqsimlash va o‘quv natijalarini tezkor baholash uchun foydalidir.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv qobiliyatlari alohida bir usul orqali emas, balki bir qancha pedagogik omillarni birlashtirish orqali shakllanadi. Loyihaga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantiradi, hamkorlikda o‘rganish esa jamoaviy mas’uliyat va hamkorlikni kuchaytiradi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarni real hayot va murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Sinergetik ta’lim muhitida o‘qituvchi faqat bilimni uzatuvchi sifatida harakat qilmaydi. O‘qituvchi ta’lim jarayonining maslahatchisi, yordamchisi va muvofiqlashtiruvchisiga aylanadi. Talaba o‘z navbatida vazifalarni rejalashtiruvchi, guruh faoliyatini tashkil etuvchi, natijalarni baholovchi va qaror qabul qiluvchi faol sub’ektga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, sinergetik ta’lim muhiti o‘quvchilarning boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirishning samarali pedagogik asosidir. Boshqaruv qobiliyati mustaqil rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, jamoaviy ishlarni muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish, etakchilik va mulohaza yuritish kabi ko‘nikmalarni birlashtirishdan iborat.

Amaliy tavsiya sifatida oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan sinergetik modulni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu modul loyiha vazifalarini, kichik guruhlarda ishlashni, muammolarni hal qilish faoliyatini, murabbiylikni va reflektiv baholashni birlashtirishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020. - URL: https://lex.uz/docs/-5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-58-son Farmoni. 10.04.2026. - URL: https://lex.uz/uz/docs/-8129755

3.Haken H. Synergetics: Introduction and Advanced Topics. Berlin: Springer, 2004. DOI: 10.1007/978-3-662-10184-1.

4.Dewey J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.

6. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House. 2010. Vol. 83, No. 2. P. 39–43. DOI: 10.1080/00098650903505415.

7. Hmelo-Silver C.E. Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? Educational Psychology Review. 2004. Vol. 16. P. 235–266. DOI: 10.1023/B:EDPR.0000034022.16470.f3.

**Feruza QANOATOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, dotsent
**Jamshid ABDIRAXMANOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, magistrant

# O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI

**Annotatsiya**

Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi nodavlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyati va ularning uzoq o'tmishga ega ekanligi, umumiy ta'lim tizimidagi ahamiyati,mutaxassislikl arini kengaytirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratatilayotgan maqsadli ishlar, kichik va o'rta hajmga ega ikkinchi turdagi universitetlar, xususiy universitetlarni uch turi va Qashqadaryo xususiy OTMlari haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so'zlar.** Nodavlat oliy ta'lim, ta'lim tizimi, oliy maktab, ta'lim sifati, talabalar, mahsulotlar.

В данной статье рассматривается деятельность негосударственных высших учебных заведений в Республике Узбекистан и их многолетняя история, их значение в системе общего образования, целенаправленная работа по расширению специализаций и повышению качества образования, малые и средние университеты второго типа, три типа частных университетов и частные университеты Кашкадарьи.

**Ключевые слова.** Негосударственное высшее образование, система образования, высшее учебное заведение, качество образования, студенты, выпускники.

This article examines the activities of non-state higher education institutions in the Republic of Uzbekistan and their long history, their importance in the general education system, targeted efforts to expand specializations and improve the quality of education, small and medium-sized Type II universities, three types of private universities, and private universities in Kashkadarya.

**Key words.** Non-state higher education, education system, higher education institution, education quality, students, graduates.

Mamlakatimzda nodavlat ta'lim muassasalari ochilishi uchun 2002-yildan ruxsat berila boshlandi. Xususiy sarmoyaning kirib kelishi – oliy ta'limimizdagi eng katta yutuqlarimizdan biridir.

2016-yilda boshlangan bozor munosabatlari borasidagi islohotlar uchun oliy ta'lim qulay soha bo'ldi. Sababi oddiy: yildan yilga o'sib borgan talabga qaramasdan, davlat universitetlarida o'rnatilgan qabul kvotasi jamiyatda millionlab o'qimaganlar "bozori"ni paydo qildi. 2017-yildan boshlab esa oliy ta'lim faoliyatida xususiy sektorga keng o'rin berish haqida bir qator qaror va farmonlar chiqarilishi bunday OTMlarning yanada ko'payishiga imkon yaratdi. O'zbekistondagi ilk nodavlat OTM – Qo'qon universiteti – 2019-yilda ochilgan edi[1]. Shundan so'ng, xususiy universitet tashkil etish va ularga litsenziya berish jarayoni tezlashib ketdi.

Xususiy ta'lim muasssasalarini barcha viloyat va tumanlar bo'ylab ochish, ularni qo'llabquvvatlash davlat oldida turgan muhim vazifadir. Bundan ko'zlangan maqsad esa yoshlarni bilimli, o'z tanlagan sohasining mutaxassisi bo'lishida sifatli ta'lim tizimini yaratishdan iborat. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ishsizlar sonining oshishi, O'zbekiston

[1] Litsenziyaga ega nodavlat va xususiy oliygohlar ro'yxati – mbaza.uz

fuqarolarining ish izlab chet davlatlarga, xorijda mehnat migrantiga aylanishi, qaysidir ma’noda ularning o‘z yurtlarida kerakli bilimni olmaganliklari, xususan, OTMga bo‘lgan qamrovning pastligi va bunga o‘z vaqtida davlatning bee’tibor bo‘lganligida ham edi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2030-yilga kelib bitiruvchi yoshlarning OTMlarga qamrovini 50 foizgacha oshirishni tegishli vazirlik va muassasalar oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ygan edi[2]. Tabiiyki, bu qamrovni birgina davlat OTMlarining o‘zi bajara olmaydi. Shu bois, ushbu masalaning yechimida xususiy oliy ta’lim muassasalarining o‘rni salmoqlidir.

Fikrimcha, davlat yoki xorijiy sarmoya aralashgan universitetlarni hisobga olmaganda, bugungi kunda oliy ta’lim bozorida paydo bo‘lgan xususiy universitetlarni uch turga bo‘lib tahlil qilish mumkin.

Hajm jihatidan yirik hisoblangan birinchi turdagi universitetlar ortida odatda sobiq yoki ayni paytdagi amaldorlar turadi deb taxmin qilish mumkin. Nisbatan kichik va o‘rta hajmga ega ikkinchi turdagi universitetlar ortida yetarli sarmoya orqali mavjud imkoniyatdan unumli foydalangan tadbirkorlar qatlami turadi. Bu qatlam yillar davomida ta’lim sohasida faoliyat yuritib tajriba va sarmoya to‘plagan yoki boshqa bizneslardan kelgan sarmoyasini jozibasi oshib borayotgan ta’lim sohasiga tikayotgan tadbirkorlarni o‘z ichiga oladi. Va nihoyat, xalqaro universitet maqomiga erishishga da’vogar bo‘lgan uchinchi turdagi universitetlar ortida katta moliyaviy qudratga ega yirik biznes egalari turadi.

Xususiy oliy ta’lim muassasalari faoliyati vatanimiz tarixida uzoq o‘tmishga ega bo‘lib, bunda vaqf, hayriya va homiylik haqli ravishda asosiy ta’minot manbai bo‘lib xizmat qilgan deb aytish mumkin. 2019-yilda xususiy sektorni jalb qilish orqali 65 nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashkil etilgan edi, xorijiy oliy ta’lim muassasalari soni 30 taga, davlat oliy ta’lim muassasalari 115 taga yetkazilgani ta’kidlandi. Yevropaning ECTS – European Credit Transfer and Accumulation System tizimi asosida oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni kredit-modul tizimiga o‘tkazil, 41 ta oliygohlarga akademik va moliyaviy mustaqillik berilgani qayd etildi. Shuningdek, oliy ta’lim tizimidagi davlat ta’lim standartlari UNESCO tomonidan joriy etilgan “Ta’limning xalqaro standart klassifikasiyasi” va “TXSK: Ta’lim va kasbiy tayyorlash sohalari” asosida qayta ishlab chiqildi. Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlandi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib ta’lim jarayoniga tatbiq etildi.

So‘nggi olti yilda oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 8 636 nafar professor-o‘qituvchilar xorijiy oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o‘tash uchun yuborilgan. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida 7 385 nafar xorijlik mutaxassislar o‘quv jarayoniga jalb qilindi. “Global innovasiya indeksi – innovasiyaviy rivojlanish o‘lchovining mezoni: dunyo tajribasi” nomli panel sessiyada Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori Kongratbay Sharipov, Xalqaro ekspert (AQSH )Kendrik Vayt, Xalqaro menejmentni rivojlantirish va salohiyatni oshirish bo‘yicha maslahatchi (Shveysariya) Marlon Lezama, Qozog‘iston Texnologiyalarni tijoratlashtirish bo‘yicha ekspertlari uyushmasi kengashi a’zosi Abilay Akimbekov chiqish qililar. Unda Mamlakatda olib borilayotgan ochiqlik siyosati, ilm-fanga berilayotgan e’tibor hamda innovasion salohiyatni yaxshilashga qaratilgan ishlarning

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2024 yildagi PF-37-son-https://lex.uz/uz/docs/6811936

natijasida Global Innovation Index 2022 reytingida O‘zbekiston ilk marotaba innovatsion rivojlanish bo‘yicha Markaziy Osiyoning yetakchisiga aylandi, jahon reytingida yana 4 pog‘onaga ko‘tarilib, 82-o‘rinni egallagani haqida so‘z bordi. Xozirgi kunda respublikamizdagi xususiy oliy ta’lim muassasalarining yuridik maqomi va ular ta’minotini ko‘rib chiqsak quyidagilar oydinlashadi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, nodavlat OTMni litsenziyalash 2023-yil yanvarigacha Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilgan. Lekin 2022-yil dekabr oyidagi ma’muriy o‘zgarishlar sabab bu inspeksiya tugatilib, uning vazifalari oliy o‘quv yurtlariga Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi litsenziya beradigan bo‘ldi[3]. Uning faoliyati, litsenziya berish tartibi qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bunda albatta, asosiy maqsad sifatli ta’lim berish sanaladi.

Nodavlat OTMlarning o‘zi xorijiy va mahalliy xususiy OTMlarga bo‘linadi. Xorijiy OTMlar ochishda bugungi kunda yuridik mustaqil tashkilot sifatida rasmiylashtirmasdan, mavjud mahalliy universitet qoshidagi xorijiy OTM filialini tashkil qilish tendensiyasi ham so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ancha kengaydi. Xususan, ular soni bugungi bunda 30 tani tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etishga davlat tomonidan ruxsat berilishiga muhim voqea deb qarash o‘rinli. Chunki, so‘ngi yillarda bu borada O‘zbekiston MDH respublikalari bilan solishtirganda ancha orqada qolganligi namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, 2017-yillarga qadar O‘zbekiston umumiy aholisini o‘rtacha hisobda 32 mln. hisoblaganda, 477,6 nafar odamga 1 nafar talaba, Rossiya aholisini 142 millionligini inobatga olsak har 28.4 nafar odamga 1 nafar talaba to‘g‘ri kelgan. Umuman olganda, bir yilda O‘zbekistonlik 32 mln.nafar fuqarolarning 67 ming nafarigina talaba bo‘lish baxtiga muyassar bo‘lgan[4].

O‘rganilayotgan davrda yillar davomida oliy ta’limda eng katta muammo ham davlat miqyosidagi qamrovning kamligi bo‘lib, talabning kattaligi bois sohada korrupsion holatlar avj olganligini alohida ta’kidlash lozim. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, xalq orasida “OTMga kirish uchun yetarli bilim kifoya qilmaydi” degan tushuncha shakllandi. Jumladan, bunda 10 ta abiturentdan bor yo‘g‘i bittasigina talaba bo‘lishi, qolgan 9 ta abiturentning bu baxtdan maxrumligi sabab bo‘lar edi. Bundan tashqari, yildan-yilga davlat tomonidani imtiyozlarniing ko‘payib borishi ham talaba bo‘lishni istagan bilimli yoshlarni umidsizlantirar edi. 2023-yilga kelib, O‘zbekistonda talabalar soni 1 mln.dan oshgan (ulardan 544,8 mingtasi talaba yigitlar, 495,6 mingtasi esa talaba qizlardir). 2021–2022-o‘quv yilida esa respublikadagi OTMlarda ta’lim olayotgan talabalar soni 808,4 ming nafarni tashkil qiladi. Ko‘rinib turibdiki, xususiy OTMlar miqdorining ortib borishi talabalar sonining yildan-yilga oshib borishiga sezilarli ta’sir qilmoqda. Ammo shunga qaramay, sifatli ta’lim olish uchun xorijni tanlovchi yoshlar ham talaygina. Tabiiyki, xorijda ta’lim olish hamma davrda ham dolzarb bo‘lgan. Masalan, YUNESKO bergan statistik ma’lumotiga ko‘ra, 2021-yilning o‘zida xorijda tahsil olayotgan O‘zbekistonlik talabalar soni 85,9 ming nafarni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda. Sifatli oliy ta’lim – istiqbolli kelajak kafolati sifatida yoshlarni nafaqat respublika ichida, balki xorijdagi nufuzli universitetlar sari intilishlariga sabab bo‘lmoqda. Qayd etish joizki, dunyoda keng tarqalgan koronovirus pandemiyasi sharoitida masofadan o‘qish amaliyoti ancha samara bera boshladi.

2022-yilda Respublikamizda ilk bor davlat OTMlarida ham masofaviy ta’lim shakli

[3] Raximdjanova N. Q. Yangi O‘zbekistonda xususiy oliy ta’lim istiqbollari: o‘tmish va bugun - https://cdn.uza.uz/2024/05/08/17/17/kd604r

[4] O`sha manba

joriy etilishiga oid qaror loyihasi e’lon qilindi[5]. 2024-yildan boshlab IT-Park University nodavlat universiteti masofaviy ta’lim shakli joriy etildi. Bu esa tez orada O‘zbekistonda ham masofaviy ta’lim shaklida o‘qib olingan diplomlar tan olina boshlanishini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda nafaqat xorijda, hatto qo‘shni respublikalarda ham davlat OTMlariga nisbatan xususiy OTMlar soni oshib bormoqda, hatto ular oliy ta’lim tizimida etakchilikni qo‘lga olgan. Xususan, Qozog‘iston Respublikasida 2017-yilda davlat OTMlari soni 30 tani tashkil qilgan bo‘lsa 2022 yilga borib, 47 tani, xususiy OTMlar esa 2017-yilda 86 ta bo‘lsa, 2022-yilga kelib 75 tani tashkil qilgan. Shu bilan birga ular yildan-yilga xususiylashtirilmoqda. Masalan, 2017-yildan 2022-yilga qadar 38,5% dan 25,9% ga qisqarib, 47 tadan 30 taga pasaygan6 . Bundan ko‘rinib turibdiki, xususiy sektorning oliy ta’limga kirib kelishi sezilarli darajada oshib, talabalar soni ham davlat OTMlariga nisbatan xususiy OTMlarda yetakchilik qilib kelmoqda. Bu nafaqat oliy ta’lim tiziminiing rivoji, davlat uchun oliy ma’lumotli kadrlar sonini ortib borishini va, hatto, davlat g‘aznasi uchun ham katta sarf - harajatlarning oldini olib, davlat byudjetini iqtisod qilishga yordam bermoqda[7]. O‘zbekiston misolida ko‘radigan bo‘lsak, 2021-yil uchun O‘zbekistonda davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan OTMlarda o‘qitishning shartnoma (kontrakt) shaklidan tushadigan mablag‘lar oliy ta’lim muassasalari harajatlariniing o‘rtacha 68% ini qoplaydi xolos, qolgan harajatlar davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi[8]. Ta’kidlash joizki, xususiy OTMlar soni ko‘payib borsa-da, ular faoliyatiga bo‘lgan ishonch hali u qadar kuchli emas. Ayniqsa, yillar davomida davlat va jamiyat uchun kerakli kadrlarni etishtirib chiqargan davlat OTMlarining nufuzi baland. Bunda ularning kuchli ilmiy salohiyatga ega professor-o‘qituvchilar jamoasi, oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichining mavjudligi, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-amaliy grantlar va turli xorijiy loyihalardagi ishtiroki, xalqaro hamkorlik, bir so‘z bilan aytganda, kuchli potensialga ega ekanligidadir.

Darhaqiqat, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobatning o‘sib borishida ilmiy salohiyat, ilmiy tadqiqotlar va loyihalarni kengaytirish, bitiruvchi talabalarni ish bilan ta’minlash va albatta, bunga ko‘proq kapitalni jalb qilish asosiy omillardan biri sanaladi. SHuningdek, ishonchli jamg‘armalarga ega bo‘lish OTMlar ta’minotining doimiy bo‘lishida yordam beradi. Xususan, Toshkentdagi Singarpur menejmentni rivojlantirish instituti (xorijiy OTM) misolida aytish mumkinki, hozirgi kunda institut o‘zining ishonchli jamg‘armalariga ega bo‘lib, u moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan iqtidorli talabalarni moliyalashtiradi. Institutning butun faoliyati davomida umumiy qiymati 6 mln. AQSH dollariga teng bo‘lib, ushbu mablag‘dan 8000 ga yaqin stipendiyalar ajratilgan.

O‘zbekistondagi ilk nodavlat oliy ta’lim muassasi sifatida tashkil etilgan Akfa universiteti ham ana shu maqsadlarni ko‘zlagan investitsion loyiha sifatida ish boshladi.

Universitet O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida Akfa xalqaro universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori va Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda “Akfa Medline” MCHJ tashabbusi asosida 2019-yilda tashkil etilgan. Ta’lim muassasasiga 2019/2020 o‘quv yili uchun 917 nafar abituriyent hujjat topshirdi, ularning 152 nafari talabalar safiga qabul qilingan edi.

Akfa universiteti loyihasining umumiy qiymati 80 million dollardan ortiq bo‘lib, birinchi bosqich doirasida 43 million dollarlik bunyodkorlik ishlari olib borildi va 10 ming

[5] https://regulation.gov.uz/uz/d/61078

[6] https://www.energyprom.kz/ru/a/monitoring

[7] https://www.energyprom.kz/ru/a/monitoring

[8] O‘zbekistonning eng yangi tarixi: o‘quv qo‘llanma. – T.;2021. – 195 b.

talabaga mo‘ljallangan zamonaviy kampus qurib bitkazildi. Kampus zamonaviy o‘quv xonalari, laboratoriyalar, kutubxona, sport majmualari, 3 ming talabaga mo‘ljallangan yotoqxona va boshqa qulayliklarni o‘z ichiga olib, unda talabalarga zamonaviy ta’lim berish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Qashqadaryo viloyati xususiy oliy ta’limning hududiy rivojlanishini ko‘rsatuvchi muhim misoldir. Qarshi shahrida so‘nggi yillarda bir nechta xususiy OTM faoliyati shakllandi: Qarshi xalqaro universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Turon universiteti, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Osiyo texnologiyalar universiteti hamda Xalqaro innovatsion universitet. Ularning paydo bo‘lishi viloyatda oliy ta’limga talab yuqoriligi, ayniqsa pedagogika, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, boshqaruv, xizmat ko‘rsatish va amaliy mutaxassisliklarga ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Qarshi xalqaro universiteti ochiq ma’lumotlarda 2022-yilda tashkil etilgani, 2024-yil holatida 3 mingdan ortiq talabaga ega bo‘lgani va 200 nafardan ziyod professor-o‘qituvchi faoliyat yuritgani bilan ajralib turadi. Bu universitet Qashqadaryoda xususiy oliy ta’limning nisbatan yirik instituti sifatida baholanadi. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti esa pedagogik va iqtisodiy yo‘nalishlarga ixtisoslashgan bo‘lib, viloyatda maktabgacha, maktab va iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ochiq axborotlarda mazkur universitetda minglab talabalar tahsil olayotgani qayd etiladi; bu uning hududiy ta’lim bozoridagi o‘rnini kuchaytiradi.

Turon universiteti, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Osiyo texnologiyalar universiteti hamda Xalqaro innovatsion universitet Qashqadaryoda xususiy ta’lim tarmog‘ining sohaviy diversifikatsiyasini ta’minlamoqda. Ularning biri iqtisodiyot va menejmentga, boshqasi IT va raqamli boshqaruvga, yana biri texnologik va innovatsion yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi viloyat uchun muhim. Qashqadaryo iqtisodiyotida sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, energetika va tadbirkorlik sohalari katta o‘rin tutadi. Shu bois xususiy OTMlar mahalliy ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirsa, amaliy ta’lim va dual ta’lim elementlarini kengaytirsa, ularning hududiy samarasi yanada ortadi.

Qashqadaryo xususiy OTMlari bo‘yicha umumiy tendensiya shundan iboratki, ular qisqa muddatda talabalarni qamrab olish imkoniyatini kengaytirdi, ammo keyingi bosqichda professor-o‘qituvchilarning ilmiy darajasi, ilmiy maqolalar, laboratoriyalar, xalqaro hamkorlik, bitiruvchilarning ishga joylashuvi va ma’lumotlar ochiqligi asosiy mezonga aylanishi kerak. Ayniqsa sirtqi ta’lim ulushi yuqori bo‘lgan muassasalarda mustaqil ta’lim, raqamli platforma, baholash shaffofligi va amaliy mashg‘ulotlar sifatiga qat’iy e’tibor zarur.

Xalqaro tajribadan ko‘rinadiki, hozirda saqlanib qolgan xususiy universitetlarning mavqei davlatnikidan yaxshiroq. Ular zamonga tez moslashuvchanligi, ish beruvchilarning ehtiyojlariga ko‘proq e’tibor qaratganligi va o‘quv dasturlarini tasdiqlash tartibiga talabchanligi uchun ta’limni giperkonservativlashishdan asrab turadi.

Fan, ta’lim va innovatsiyalar vazirligining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda respublikamizda 210 ta OTM mavjud bo‘lib, ulardan 115 tasi davlat, 95 tasi nodavlat va xorijiy oliy ta’lim muassasasi[9] (yoki ularning filiallari) hisoblandi.

2023-yilda davlat universitetlariga hujjat topshirgan abituriyentlar soni 986 mingdan oshgan bo‘lsa-da, ularga ajratilgan qabul kvotasi 381 mingtani tashkil qilgan.

Aytish mumkinki, ta’limning xususiy shakliga e’tiborning yanada kengayib borayotganligi mamlakatimizda har bir yoshning oliy ma’lumot olishlari uchun katta imkoniyatdir.

[9] DS agentligi ma’lumoti. - https://statuzagent/2023 yil

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qilgan “Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030 strategiyasini tasdiqlash hamda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 2026-yil 1-sentabrdan boshlab nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda o‘zini-o‘zi tartibga solish tizimi joriy etiladi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2026-yil 1-iyulga qadar nodavlat qo‘shimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarning yuqori natijalarga erishgan o‘qituvchilari xorijiy ilg‘or ta’lim markazlariga stajirovkaga yuboriladi.

Har yili dekabr oyida o‘quv markazlari uyushmalari bilan hamkorlikda ular o‘rtasida o‘zaro tajriba almashishga bag‘ishlangan forum o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yiladi.

Olis va chekka hududlarda xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha nodavlat qo‘shimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish uchun foizsiz qarz (ssuda) ajratilgan va faoliyatini kengaytirmoqchi bo‘lgan subyektlarga yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari doirasida bazaviy hisoblash miqdorining 730 baravarigacha miqdorda foizsiz qarz (ssuda) ajratib boriladi.

O‘zbekistonda 2023-yilning 20-fevralida e’lon qilingan ma’lumotga ko‘ra, 209 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatdi. Ularning 114 tasi davlat, 65 tasi nodavlat oliy ta’lim tashkiloti, 30 tasi xorijiy OTM va uning filiallari edi. Yaqindagina Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan 5 ta nodavlat oliy ta’lim tashkilotining litsenziyasi bekor qilingani, 1 ta nodavlat OTM litsenziyasini bekor qilish bo‘yicha sud jarayoni davom etayotgani haqida xabar berdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu universitetlarning 2 tasi: Valley Innovative University hamda Urganch shahridagi Binari universiteti bilan bog‘liq sud jarayonlari to‘liq tugallangan va ularning talabalari boshqa universitetlarga ko‘chirib o‘tkazilgan.

Qayd etilishicha, xususiy universitetlarda ta’lim jarayonini tashkil etish va litsenziya talablarining buzilganligi holatlari bo‘yicha norozilik murojaatlari kelib tushgan. Ular asosida tekshirish o‘tkazilib, hozirgacha “litsenziya talablari va shartlarini qo‘pol ravishda buzganligi uchun” 6 ta xususiy universitetning tegishli litsenziyasini bekor qilish bo‘yicha sudga da’vo arizalari kiritilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada faollashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Oliy ta’limning o‘ziga xos muammolaridan kelib chiqib, hamkorlikning yo‘nalish va mexanizmlari aniq belgilanganda, uning tashkiliy-huquqiy bazasi yanada mustahkamlanganda, davlat va xususiy sektor hamkorligi samaradorligini oshirish mumkin. Mazkur hamkorlik rivoji yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar uchun birday muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2024 yildagi PF-37-son-https://lex.uz/uz/docs/6811936

2. Raximdjanova N. Q. Yangi O‘zbekistonda xususiy oliy ta’lim istiqbollari: o‘tmish va bugun - https://cdn.uza.uz/2024/05/08/17/17/kd604r

3. Litsenziyaga ega nodavlat va xususiy oliygohlar ro‘yxati – mbaza.uz

4. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: o‘quv qo‘llanma. – T.; 2021. – 195 b.

**Husniddin HOMIDOV,**
Shahrisabz davlat vpedagogika instituti, "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kaferasi, dotsent, p.f.f.d. (Phd)

# TALABALARDA TESTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada talabalarda testologik madaniyatni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari nazariy-metodologik jihatdan keng ko'lamda tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy ilmiy yangiligi shundaki, unda testologik madaniyat birinchi marta kognitiv, motivatsion-irodaviy va refleksiv-metakognitiv komponentlarning yaxlit tizimi sifatida ta'riflanadi va har bir komponent uchun maqsadli rivojlantirish usullari taklif etiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy metod, psixologik nazariyalarni sintezlash va nazariy modellash usullaridan foydalanilgan. Muammoning psixologik ildizlari — test tashvishligi (test anxiety), o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) defitsiti va metakognitiv rivojlanmagan — batafsil ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etishning zamonaviy psixologik mexanizmlari tizimlashtirilib beriladi.

**Tayanch so'zlar.** Testologik madaniyat, psixologik imkoniyatlar, test tashvishligi, metakognitsiya, o'z-o'zini tartibga solish, kognitiv moslashuvchanlik, ichki motivatsiya, refleksiya, oliy ta'lim.

В статье широко анализируются психологические возможности развития тестологической культуры у студентов с теоретико-методологической точки зрения. Основная научная новизна статьи заключается в том, что тестологическая культура впервые определяется как целостная система когнитивных, мотивационно-волевых и рефлексивно-метакогнитивных компонентов, а для каждого компонента предлагаются методы целевого развития. В качестве методологии исследования использованы методы системного анализа, сравнительно-исторического метода, синтеза психологических теорий и теоретического моделирования. Психологические корни проблемы - тест-тревога (test anxiety), дефицит уверенности в себе (self-efficacy) и недоразвитость метакогнитива - рассматриваются подробно, а современные психологические механизмы их преодоления систематизируются.

**Ключевые слова.** Тестологическая культура, психологические возможности, тестовая тревожность, метакогниция, саморегуляция, когнитивная гибкость, внутренняя мотивация, рефлексия, высшее образование.

The article provides a comprehensive theoretical and methodological analysis of the psychological possibilities for developing testological culture in students. The main scientific novelty of the article is that, for the first time, testological culture is defined as a holistic system of cognitive, motivational-volitional and reflexive-metacognitive components, and methods of targeted development for each component are proposed. The research methodology utilizes methods of systematic analysis, the comparative-historical method, the synthesis of psychological theories, and theoretical modeling. The psychological roots of the problem - test anxiety, self-efficacy deficit, and metacognitive underdevelopment - are examined in detail, and modern psychological mechanisms for overcoming them are systematized.

**Key words.** Testological culture, psychological possibilities, test anxiety, metacognition, self-regulation, cognitive flexibility, intrinsic motivation, reflection, higher education.

XXI asrda ta’lim tizimlarida raqamli transformatsiya va baholash paradigmasining o‘zgarishi testologiyaning amaliy va ilmiy ahamiyatini yanada oshirdi. Xalqaro baholash tizimlari – PISA, TIMSS, PIRLS va milliy akkreditatsiya sinovlari – talabalardan nafaqat bilim egallashni, balki test formatidagi vaziyatlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ham talab etmoqda. Shu boisdan “testologik madaniyat” tushunchasi pedagogika va ta’lim psixologiyasida tobora muhim ilmiy kategoriyaga aylanib bormoqda.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar testlarni faqat tashqi nazorat vositasi sifatida idrok etadilar. Natijada ular test topshiriqlarini hal etish jarayonida o‘z bilish imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqara olmaydilar. Psixologik tadqiqotlar bu holatning sababi faqat bilim yetishmovchiligi emas, balki test tashvishligi, metakognitiv ko‘nikmalarning rivojlanmaganligi va o‘z-o‘ziga ishonchning pastligi ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyovning “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida va Raqamli O‘zbekiston – 2030 Strategiyasida kadrlar sifatini oshirishda baholash tizimlarining zamonaviy psixologik-pedagogik asoslar bilan ta’minlanishi alohida ta’kidlangan. Biroq O‘zbekiston psixologiya fanida “testologik madaniyat” ni psixologik jihatdan maqsadli rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan kompleks nazariy-metodologik ishlar hali yetarli emas.

Maqolaning maqsadi – talabalarda testologik madaniyatni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va metodologik model ishlab chiqish.

Maqolaning vazifalari: (1) testologik madaniyat tushunchasining ilmiy mazmunini tahlil qilish; (2) uning psixologik tarkibiy tuzilishini belgilash; (3) psixologik to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini tizimlashtirish; (4) nazariy-metodologik model taklif etish.

“Testologik madaniyat” tushunchasi psixologiya-pedagogika fanida nisbatan yangi bo‘lib, 1990-yillar oxiridan boshlab faol qo‘llanilmoqda. Rus tadqiqotchisi V.S. Avanesov bu tushunchani birinchilardan bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan. Uning ta’rifiga ko‘ra, testologik madaniyat – test topshiriqlarini tuzish, o‘tkazish va natijalash jarayonida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kasbiy munosabatlar majmuasidir.

G‘arb psixologiyasida bu tushunchaga yaqin bo‘lgan assessment literacy (baholash savodxonligi) kategoriyasi keng qo‘llaniladi. D.D. Stiggins o‘z tadqiqotlarida baholash savodxonligi deganda faqat texnik ko‘nikmalarni emas, balki baholash natijalarini axloqiy jihatdan to‘g‘ri talqin qilish va ulardan shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyatini ham tushunadi.

Psixometriya sohasida M. Zeidner va N.S. Endler test tashvishligi hamda testologik faoliyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib, test samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik o‘zgaruvchilarni aniqlashgan: situatsion tashvish, bilish qobiliyatiga ishonch va natijaga yo‘nalganlik.

O‘zbek ta’lim psixologiyasida E.G‘. G‘oziyev, M.G‘. Davletshin va B.R. Qodirovlarning asarlari ta’lim jarayonidagi kognitiv va motivatsion jarayonlarni o‘rganishda muhim nazariy zamin yaratgan. Biroq xususan testologik madaniyatni psixologik rivojlantirish muammosi mustaqil tadqiqot ob’ekti sifatida ko‘rilmagan. Bu esa ushbu maqolaning ilmiy yangiligini ta’minlaydi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili quyidagi ilmiy muammoni belgilaydi: bir tomondan, testologik madaniyatning ahamiyati e’tirof etilsa-da, ikkinchi tomondan, uni psixologik jihatdan maqsadli rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlar tahlili va nazariy sintez asosida biz testologik madaniyatni uchta asosiy psixologik komponentdan iborat yaxlit tizim sifatida ta'riflaymiz. Har bir komponent o'ziga xos psixologik mazmun va rivojlantirish strategiyalariga ega.

Kognitiv component. Kognitiv komponent test topshiriqlarini tahlil qilish, tushunish va hal etishga bevosita ta'sir etuvchi bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu komponentning asosiy elementlari: (a) mantiqiy-analitik tafakkur – topshiriqni dekodlash va strategiya tanlash; (b) kognitiv moslashuvchanlik – turli formatdagi topshiriqlarga moslashish qobiliyati; (c) ishchi xotira resurslarini boshqarish – parallel axborotni saqlash va qayta ishlash; (d) diqqatni ongli boshqarish.

A.R. Luriyaning neyropsixologik tadqiqotlaridan kelib chiqib, test topshiriqlarini hal etish jarayonida frontal korteks va prefrontal tuzilmalarning ijroiy funksiyalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu boisdan kognitiv komponentni rivojlantirish strategiyalari ijroiy funksiyalarni (executive functions) mustahkamlashga qaratilishi kerak.

Motivatsion-irodaviy component. Motivatsion-irodaviy komponent talabaning test faoliyatiga nisbatan ichki munosabatini va irodaviy sa'y-harakatlarini belgilaydi. E. Deci va R. Ryan'ning o'z-o'zini belgilash nazariyasiga (Self-Determination Theory, SDT) ko'ra, inson xulq-atvori uchta asosiy ehtiyojni qondirish darajasiga qarab motivatsiya turini belgilaydi: avtonomlik, kompetentlik va bog'liqlik.

Test sharoitida ichki motivatsiya (masalaning o'zidan qiziqish) tashqi motivatsiyaga (bahoga yo'nalganlik) nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: (1) testdan keyingi bilimni uzoqroq saqlab qolish; (2) stressli vaziyatlarda kognitiv ishlash qobiliyatini saqlab qolish; (3) muvaffaqiyatsizlikdan keyin tezroq tiklanish. Bu holatni R. Ryan 2023 yildagi tadqiqotida empirik jihatdan tasdiqlagan.

Refleksiv-metakognitiv komponent

Ushbu komponent eng murakkab va rivojlanishi eng ko'p vaqt talab etadigan qismdir. J. Flavell tomonidan 1979 yilda fan tiliga kiritilgan metakognitsiya tushunchasi o'z bilish jarayonlari haqida bilim va ularni ongli boshqarish qobiliyatini anglatadi. Testologik madaniyat kontekstida metakognitsiya uch funksiyani bajaradi: rejalashtirish (qaysi strategiya qo'llaniladi?), monitoring (mening yechimim to'g'ri ketayaptimi?) va baholash (nima noto'g'ri bo'ldi va keyingi safar nima o'zgartiriladi?).

Schraw va Moshman'ning metakognitsiya rivojlanish bosqichlari modeliga ko'ra, talabalarning aksariyati metakognitiv jarayonlarni ongli qo'llamaydi – ular strategiya qo'llashlari tasodifiy va vaziyatga bog'liq bo'ladi. Shu boisdan ta'lim jarayonida metakognitsiyani maqsadli rivojlantirish – testologik madaniyat pedagogikasining markaziy vazifasi hisoblanadi.

Testologik faoliyatdagi asosiy psixologik to'siqlar

Test tashvishligi (test anxiety) - bu test sinovlari oldidan va davomida paydo bo'ladigan, bilish faoliyatini susaytiruvchi ko'p qirrali psixofiziologik holat. C. Spielbergerning ikki omilli modeli bo'yicha u kognitiv tashvish (worry) - muvaffaqiyatsizlik haqidagi salbiy fikrlar - va emotsivnost (emotionality) - jismoniy qo'zg'alish belgilaridan iborat.

M. Zeidnerning 2014 yilgi meta-tahlilining xulosasiga ko'ra, test tashvishligi o'quvchilarning 25-40 foizida klinik darajada namoyon bo'ladi va haqiqiy bilim darajasini 20-35 foizga past ko'rsatadi. Ayollar test tashvishligini erkaklarga nisbatan 1.3-1.5 barobar kuchliroq his qilishi empirik tarzda tasdiqlangan. Bu farqning asosiy sababi ijtimoiy-gender stereotiplari va o'z-o'ziga qo'yiladigan talablarning farqi hisoblanadi.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) – shaxsning ma'lum bir vazifani muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan ishonchi – ta'lim nati-

jalarining eng kuchli bashoratlovchisi sifatida aniqlangan (β = 0.38-0.65 oralig‘ida turli tadqiqotlarda). Testologik madaniyat nuqtai nazaridan past o‘z-o‘ziga ishonch quyidagi psixologik mexanizmlar orqali salbiy ta’sir ko‘rsatadi: kognitiv blokada, xato qidirish yo‘nalishdagi diqqatni chalg‘itish va “learned helplessness” (o‘rganilgan ojizlik) holati.

Testologik madaniyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari

Kognitiv qayta baholash strategiyasi. R.S. Lazarus va S. Folkman’ning kognitiv-tranzaksional stressni baholash nazariyasiga ko‘ra, vaziyatni “tahdid” sifatida emas, “imkoniyat” sifatida qayta baholash (cognitive reappraisal) stressning salbiy psixofiziologik ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Testologik madaniyatni rivojlantirishda bu mexanizm talabaga testni o‘z bilimlarini ko‘rsatish va zaifliklarini aniqlash uchun foydali vosita sifatida idrok etishga yordam beradi.

Metakognitiv monitorni rivojlantirish. Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng samarali usullari quyidagilardir: (a) ‘‘Fikrlash baland ovozda’’ (Think-Aloud Protocol) – test topshirig‘ini hal etish jarayonini og‘zaki ifodalash; (b) O‘quv kundaligi (Learning Journal) – har bir test topshirishdan keyin nima o‘rganildi, qayerda xato qilindi va nima o‘zgartirilishi kerakligi haqida yozma refleksiya; (c) Tengdoshlar o‘rtasida o‘zaro baholash (Peer Assessment) – boshqa talabaning javobini baholash orqali o‘z baholash mezonlarini rivojlantirish.

O‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlash. Banduraning self-efficacy nazariyasiga ko‘ra, o‘z-o‘ziga ishonch to‘rtta manbadan shakllanadi: (1) shaxsiy muvaffaqiyat tajribasi (eng kuchli manba – gradient qiyinlikdagi topshiriqlar orqali); (2) kuzatuvli o‘rganish (tengdoshlarning muvaffaqiyatini kuzatish); (3) ijtimoiy ishontirish (o‘qituvchi va murabbiylanning konstruktiv fikrlari); (4) fiziologik holat (jismoniy va emotsional qo‘zg‘alishning to‘g‘ri talqini).

Stressni emlash trenirovkasi. D. Meichenbaum tomonidan ishlab chiqilgan Stressni emlash trenirovkasi (Stress Inoculation Training, SIT) test tashvishligiga qarshi ishlatiladigan eng yaxshi tasdiqlangan psixologik intervensiyalardan biridir. SIT uch bosqichdan iborat: (1) kontseptualizatsiya – tashvishning tabiatini tushunish; (2) ko‘nikma egallash – relaksatsiya, kognitiv qayta tuzish va muammolarni hal etish strategiyalarini o‘rganish; (3) amaliyot va mustahkamlash – simulyatsion test vaziyatlarida ko‘nikmalarni sinab ko‘rish.

Yuqoridagi nazariy tahlil va mexanizmlar sintezi asosida biz talabalarda testologik madaniyatni maqsadli rivojlantirishga mo‘ljallangan to‘rt bosqichda amalga oshiriladi.

diagnostika → psixologik tayyorgarlik → metakognitiv rivojlantirish → mustahkamlash va transfer ketma-ketligi asosida qurilgan.

I bosqich – Diagnostik bosqich. Ushbu bosqichning maqsadi talabalarning mavjud psixologik holati haqida to‘liq ma’lumot to‘plashdir. Qo‘llaniluvchi vositalar: Spielberger Test Tashvishligi Inventari (TAI), Schraw va Dennison Metakognitiv Onglilik So‘rovnomasi (MAI), Banduraning Academic Self-Efficacy shkalasi va testologik kompetentlikni baholashning maxsus reyting tarqatmasi. Diagnostika natijalari individual psixologik profil tuzing va rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

II bosqich – Psixologik tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda test tashvishligi va o‘z-o‘ziga ishonch muammolari bilan ishlash amalga oshiriladi. Asosiy usullar: guruh va individual psixologik treninglar, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi elementlari (CBT), diafragmal nafas olish va progressiv muskul relaksatsiyasi mashqlari, kognitiv qayta baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu bosqich 4-6 hafta davom etib, har haftada kamida ikkita amaliy mashg‘ulotni o‘z ichiga oladi.

III bosqich – Metakognitiv rivojlantirish bosqichi. Ushbu bosqichda talabalarning rejalashtirish, monitoring va baholash ko‘nikmalari maqsadli rivojlantiriladi. Asosiy vositalar: fikrlash baland ovozda protokoli, o‘quv kundaligi, tengdoshlar o‘rtasida o‘zaro baholash, xato tahlili sessiyalari va o‘z-o‘zini tekshirish ro‘yxatlari. Bosqich davomiyligi 6-8 hafta bo‘lib, har bir testdan keyingi refleksiv suhbat majburiy hisoblanadi.

IV bosqich – Mustahkamlash va transfer bosqichi. To‘rtinchi bosqichda erishilgan ko‘nikmalar turli kontekstlarda mustahkamlanadi va boshqa akademik sohalarga ko‘chiriladi (transfer). Asosiy usullar: turli formatdagi simulyatsion testlar, portfolio yig‘ish, muvaffaqiyatni dokumentlashtirish va o‘z rivojlanishini tasvirlovchi taqdimotlar tayyorlash. Bu bosqich bir semestr davomida doimiy tarzda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, amalga oshirilgan nazariy-metodologik tahlil quyidagi asosiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Testologik madaniyat – bu faqat texnik ko‘nikma emas, balki kognitiv, motivatsion-irodaviy va refleksiv-metakognitiv komponentlarni birlashtirgan murakkab psixologik konstrukt. Ushbu tarkibiy tuzilishni hisobga olmay turib, samarali rivojlantirish mumkin emas.

2. Testologik faoliyatdagi asosiy psixologik to‘siqlar – test tashvishligi, o‘z-o‘ziga ishonch defitsiti va metakognitiv rivojlanmagan – bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va ularning har birini alohida, lekin uyg‘unlashtirilgan tarzda bartaraf etish talab etiladi.

3. Zamonaviy psixologiya fani – kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, SDT, Bandura’s self-efficacy nazariyasi va metakognitsiya tadqiqotlari – testologik madaniyatni rivojlantirishning samarali psixologik mexanizmlarini taqdim etadi.

4. Taklif etilgan to‘rt bosqichli nazariy-metodologik model diagnostikadan mustahkamlashgacha bo‘lgan yaxlit yo‘nalishni belgilab beradi va oliy ta’lim muassasalarida amaliy qo‘llash uchun tayyor nazariy asos vazifasini o‘taydi.

5. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalish – ushbu modelni O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida nazorat guruhli eksperimental tekshiruvdan o‘tkazish va uning samaradorligini empirik jihatdan asoslashdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zeidner M. (2014). Test Anxiety: Contemporary Theory and Practice. In: R. Pekrun & L. Linnenbrink-Garcia (Eds.), International Handbook of Emotions in Education. Routledge. pp. 317-335.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2021-yil 28-apreldagi PQ-5099-son Qarori “Ta’lim va fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2021.

3. Аванесов В.С. (2022). Теория и практика педагогических измерений: Учебное пособие. 3-е изд. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 336 с.

4. Stiggins R. J. (2014). Improve Assessment Literacy Outside of School Too. Phi Delta Kappan, 96(2), 67-72. https://doi.org/10.1177/0031721714553413

5. Zeidner M., & Endler, N.S. (2019). Handbook of Coping: Theory, Research, Applications (2nd ed.). Wiley. ISBN: 978-1119421740.

6. Hattie J. (2023). Visible Learning: The Sequel. A Synthesis of Over 2,100 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge. ISBN: 978-1032277318.

7. G‘oziyev E.G‘. (2020). Pedagogik psixologiya. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nashr. Toshkent: Sharq. 512 b.

**Umar G‘OYIMOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi”, v.v.b dotsent, p.f.f.d., (PhD)
**Sarvinoz SODIQOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, talaba

# TALABALARDA REFLEKSIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada talabalarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilinadi. Refleksiya — bu shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish jarayoni bo‘lib, ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali talabalarning o‘z-o‘zini anglash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, refleksiv yondashuvning kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari refleksiv qobiliyatni rivojlantirish talabalarning o‘quv samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Tayanch so‘zlar.** Refleksiya, talaba, refleksiv qobiliyat, ta’lim jarayoni, mustaqil fikrlash, pedagogika, kompetensiya.

В данной статье анализируются педагогические и психологические основы развития рефлексивных способностей у студентов. Рефлексия рассматривается как процесс анализа, оценки и осмысления собственной деятельности, что играет важную роль в образовательном процессе. Рассматриваются современные педагогические технологии, направленные на развитие самосознания и критического мышления студентов. Также подчеркивается значение рефлексивного подхода в формировании профессиональной компетентности. Результаты исследования показывают, что развитие рефлексивных способностей способствует повышению эффективности обучения студентов.

**Ключевые слова.** рефлексия, студент, рефлексивные способности, образовательный процесс, критическое мышление, педагогика, компетентность.

This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing students’ reflective abilities. Reflection is defined as the process of analyzing, evaluating, and drawing conclusions about one’s own activities, which plays an important role in education. The article highlights modern educational technologies aimed at enhancing students’ self-awareness and critical thinking skills. It also emphasizes the role of reflective approaches in forming professional competence. The findings indicate that the development of reflective abilities contributes to improving students’ learning effectiveness.

**Key words.** Reflection, student, reflective ability, educational process, critical thinking, pedagogy, competence.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, talabalarning nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Refleksiya shaxsning o‘z faoliyati, xatti-harakati, fikrlash jarayoni va natijalarini anglash, tahlil qilish hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarish jarayonidir.

Ta’lim jarayonida refleksiv yondashuv talabaning o‘z-o‘zini anglashiga, o‘quv faoliyatini ongli ravishda tashkil etishiga va o‘z bilim darajasini real baholay olishiga

yordam beradi. Bu esa nafaqat akademik yutuqlarga, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim tizimi talabadan tayyor bilimni qabul qilishni emas, balki bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish va uni amaliyotda qo'llashni talab etmoqda. Ana shunday sharoitda refleksiv qobiliyat muhim kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi.

Refleksiv qobiliyatning rivojlanishi talabalarda tanqidiy fikrlash, o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va optimal yechim topish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, refleksiya talabaning o'qish jarayonida o'z xatolarini anglash va ularni tuzatish orqali doimiy ravishda o'zini takomillashtirib borishiga imkon yaratadi. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi raqamli ta'lim muhitida refleksiv qobiliyatni rivojlantirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy texnologiyalar talabalarga katta hajmdagi axborotga ega bo'lish imkonini bersa-da, ushbu axborotni tahlil qilish va to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatini talab etadi. Shu sababli, pedagoglar oldida talabalarda refleksiv fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metod va vositalarni joriy etish vazifasi turibdi.

Shuningdek, refleksiv qobiliyat shaxsning kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Talaba o'z fikrini aniq ifoda etish, boshqalar fikrini tahlil qilish va ularga nisbatan munosabat bildirish jarayonida yanada faol va ongli ishtirokchiga aylanadi. Bu esa jamoada ishlash, hamkorlikda qaror qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi.

Umuman olganda, refleksiv qobiliyatni rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri bo'lib, u talabalarning shaxsiy, akademik va kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Talabalarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu sohada bir qator mahalliy va xorijiy olimlar muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Jumladan, A.V. Zaporojets va S.L. Rubinshteynning ishlarida refleksiya shaxsning ongli faoliyatini boshqaruvchi psixik jarayon sifatida talqin qilinadi. Rubinshteyn (1957) refleksiyani shaxsning o'z harakatlarini tahlil qilish va baholash qobiliyati sifatida ko'rsatadi. D.B. Elkonin esa refleksiv faoliyatni o'quv faoliyatining asosiy komponenti sifatida baholab, uning bolalik va o'smirlik davrida shakllanishini ta'kidlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda A.N. Leontyev faoliyat nazariyasi doirasida refleksiyani shaxsning faoliyatni anglash mexanizmi sifatida izohlaydi. Shuningdek, V.V. Davydov o'quvchilarda nazariy tafakkurni rivojlantirish refleksiv qobiliyat bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlardan N. To'raqulov, M. Qodirova va Sh. Karimovlarning tadqiqotlarida refleksiv yondashuvning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, o'qituvchi va talaba hamkorligida refleksiya jarayonini shakllantirish masalalari yoritilgan. Ushbu ishlarda refleksiya talabaning mustaqil fikrlashi va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatiladi.

Shuningdek, UNESCO (2020) hisobotlarida XXI asr ko'nikmalari qatorida refleksiv fikrlash, tanqidiy tahlil va o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalari alohida ta'kidlangan. Bu esa mazkur mavzuning global ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda talabalarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish jarayonini o'rganish

uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, nazariy tahlil metodi qo‘llanilib, mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar va pedagogik manbalar o‘rganildi hamda umumlashtirildi.

Shuningdek, kuzatish metodi orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi faoliyati, ularning o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalari o‘rganildi. So‘rovnoma (anketa) metodi yordamida talabalar orasida refleksiv fikrlash darajasi va unga ta’sir etuvchi omillar aniqlandi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli ham qo‘llanilib, refleksiv qobiliyat rivojlangan va rivojlanmagan talabalar faoliyati o‘rtasidagi farqlar solishtirildi. Olingan ma’lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari tanlab olindi. Bu esa refleksiv qobiliyatni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur o‘rganishga imkon berdi.

Talabalarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish jarayonini o‘rganish davomida o‘tkazilgan kuzatishlar va so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, refleksiya darajasi talabalarning o‘quv faoliyati samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida ishtirok etgan talabalar o‘z-o‘zini baholash, xatolarini tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish darajasi bo‘yicha turli ko‘rsatkichlarni namoyon etdilar.

Dastlabki bosqichda aksariyat talabalar o‘z o‘quv faoliyatini faqat natija asosida baholashga moyil ekanligi aniqlandi. Ya’ni ular jarayonni emas, faqat yakuniy bahoni muhim deb hisoblashgan. Biroq refleksiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va o‘z-o‘zini tahlil qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlardan so‘ng ularning yondashuvi sezilarli darajada o‘zgardi. Talabalar endi o‘quv jarayonining har bir bosqichini tahlil qilishga, o‘z xatolarini aniqlashga va ularni tuzatish yo‘llarini izlashga ko‘proq e’tibor bera boshladilar.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 68 foizi refleksiv faoliyat muntazam amalga oshirilganda o‘qish samaradorligi oshishini qayd etdi. 22 foiz talabalar esa refleksiya ularga mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam berganini bildirdi, qolgan 10 foiz ishtirokchilar esa bu jarayonni dastlab murakkab deb hisoblagan, biroq keyinchalik unga moslashganliklarini ta’kidladilar.

Refleksiv topshiriqlar bajarilgan guruhlarda talabalar faolligi, dars jarayonida ishtiroki va muammoli vaziyatlarga yechim topish tezligi ancha yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, kichik guruhlarda muhokama, o‘zaro fikr almashish va o‘z ishini tahlil qilish jarayonlari refleksiv qobiliyatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, refleksiv yondashuv qo‘llanilgan darslarda talabalar nafaqat bilimni o‘zlashtirish, balki uni amaliyotda qo‘llashga ham ko‘proq e’tibor qaratgan. Bu esa ularning kompetensiyaviy rivojlanishiga xizmat qilgan.

Refleksiv qobiliyatni rivojlantirishda muntazamlik va tizimlilik katta ahamiyatga ega. Bir martalik mashg‘ulotlar sezilarli natija bermaydi, aksincha, doimiy refleksiv faoliyat talabalarda barqaror ko‘nikmalarni shakllantiradi [5].

Umumiy natijalarga ko‘ra, refleksiv qobiliyatni rivojlantirish talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshiradi, ularni mustaqil o‘rganishga undaydi va tanqidiy fikrlash darajasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu jarayon talabalarning shaxsiy mas’uliyatini oshirib, ularni o‘z ta’lim jarayoniga ongli yondashishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, refleksiya talabaning o‘z o‘quv faoliyatini anglash,

uni tahlil qilish hamda baholash jarayonini faollashtiruvchi asosiy psixologik-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki shaxsning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Refleksiv faoliyatni muntazam tashkil etish talabalarning o‘quv samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o‘z faoliyatini tahlil qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va guruhli muhokamalar refleksiv fikrlashni shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, refleksiya talabalarda o‘z xatolarini anglash va ularni bartaraf etish orqali uzluksiz rivojlanish jarayonini ta’minlaydi.

Shuningdek, refleksiv qobiliyat talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Chunki u kelajak mutaxassisni o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilishga, yangicha yondashuvlarni izlashga va qaror qabul qilishda ongli harakat qilishga o‘rgatadi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan sifatli kadrlarni tayyorlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, refleksiv qobiliyatni rivojlantirish ta’lim jarayonini faqat bilim berish darajasidan chiqarib, uni shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida refleksiv yondashuvni keng joriy etish va uni doimiy pedagogik amaliyotga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Елисеев В.К. Становление и развитие рефлексивной культуры учителя как субъекта педагогической деятелности. Дисс. док.пед.наук: 13.00.08-теория и методика профессионалного образования. – Москва, 2005. – С.470.

2. G‘oziyev E. G‘., Jabborov A.M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: Universitet, 2003. – 168 b. – 124 b.

3. G‘oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. - 244 b.

4. G‘oziyev E.G‘. Kasb psixologiyasi. - Toshkent: TDAU, 2003. - 140 b.

5. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуалности. Учебное пособие. – Калининград, 2000. – 562 с. – 204-с.

6. G‘oyimov U. E. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasb va faoliyatga yo‘naltirishning nazariy asoslari // Ilm, fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2020. – B. 112–113.

7. G‘oyimov U. E. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-sahovatni shakllantirish yo‘llari // Xalq ta’limi jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 75–77.

8. G‘oyimov U. E. Building a sense of compassion in elementary school students // International Journal for Innovative Engineering and Management Research. – 2021. – 4-aprel. – B. 61–63.

**Zahriddin QUVANOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang’ich ta’lim” metodikasi kafedrasi, o‘qituvchi

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH MUSTAQILLIGINI RIVOJLANISHINING YOSHGA OID XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada pedagog va psixologlarning yoshga oid muammolarga e’tibor qaratishining ahamiyati hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim dasturlarining samaradorligini baholashda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sifati, balki bolaning psixik, intellektual va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash zarurligi tahlil qilingan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida rivojlanish natijalarini kuzatish mezonlari va mazmuni muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Tayanch so‘zlar.** Pedagogika, psixologiya, yoshga oid rivojlanish, rivojlantiruvchi ta’lim, ta’lim sifati, innovatsion texnologiyalar, o‘quv jarayoni, psixik rivojlanish, bilim, ko‘nikma, kompetensiya, ta’lim samaradorligi.

В статье освещается важность внимания педагогов и психологов к возрастным проблемам, а также роль принципов развивающего образования в эффективной организации образовательного процесса. Также проанализирована необходимость определения не только качества усвоения знаний и навыков, но и показателей психического, интеллектуального и социального развития ребенка при оценке эффективности образовательных программ. В процессе применения инновационных педагогических технологий критерии и содержание отслеживания результатов развития рассматриваются как важный фактор.

**Ключевые слова.** Педагогика, психология, возрастное развитие, развивающее образование, качество образования, инновационные технологии, учебный процесс, психическое развитие, знания, навыки, компетенции, эффективность образования.

The article highlights the importance of educators and psychologists focusing on age-related issues, as well as the role of developmental education principles in the effective organization of the educational process. It is also analyzed that when evaluating the effectiveness of educational programs, it is necessary to determine not only the quality of knowledge and skills acquisition but also the indicators of a child’s mental, intellectual, and social development. In the process of applying innovative pedagogical technologies, the criteria and content of monitoring development results are considered an important factor.

**Key words.** Pedagogy, psychology, age-related development, developmental education, quality of education, innovative technologies, educational process, mental development, knowledge, skills, competence, educational effectiveness.

Pedagog va psixologlarning yoshga oid muammolarga jiddiy e’tibor berishlari hayotning turli davrlarida o‘quv jarayonini tashkil etishning maqbul usullarini izlash bilan bog‘liq. Ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda, biroq, deyarli har bir ta’lim dasturini asoslashda rivojlantiruvchi ta’lim tamoyili e’lon qilinishiga qaramay, ularning samaradorligi muammosi ko‘pincha faqat bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish, ko‘nikmalarni shakllantirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Ma’lum bir innovatsiyalardan foydalanishda bolaning rivojlanishi natijalarini kuzatish mazmuni va mezonlari masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Ruhiy rivojlanishni zamonaviy davrlashtirishda boshlang‘ich sinf yoshi 6-7 yoshdan

9-11 yoshgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu yoshda qiyofa va hayot tarzi o‘zgarishi sodir bo‘ladi: yangi talablar, “o‘quvchi” yangi ijtimoiy roli, mutlaqo yangi faoliyat turi – o‘quv faoliyati paydo bo‘ladi. Maktabda bola nafaqat yangi bilim va ko‘nikmalarni, balki ma’lum bir ijtimoiy mavqega ham ega bo‘ladi. Bolaning shaxslararo munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini idrok etishi o‘zgaradi, bolaning manfaatlari, qadriyatlari va uning butun hayot tarzi o‘zgaradi. Fiziologik nuqtai nazardan, yangi yosh davri – jismoniy rivojlanish disgarmoniyasiga olib keladigan jismoniy o‘sish davri bo‘lib, u asab-ruhiy rivojlanishdan oldin keladi, bu esa asab tizimining vaqtincha zaiflashishida namoyon bo‘ladi va yuqori charchoq, xotirjamsizlik, harakatga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishiga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi ijtimoiy vaziyat quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi: -o‘quv faoliyati yetakchi faoliyatga aylanadi; -ko‘rgazmali-majoziy tafakkurdan og‘zaki-mantiqiy tafakkurga o‘tish davom etadi; -o‘qitishning ijtimoiy ma’nosi namoyon bo‘ladi (baholarga munosabat); - muvaffaqiyat motivatsiyasi ustivor bo‘ladi; -referent guruhi o‘zgarishi sodir bo‘ladi; -kun tartibida o‘zgarishlar paydo bo‘ladi; -yangi ichki pozitsiya mustahkamlandi; -bolaning atrofidagi insonlar bilan munosabatlari tizimi o‘zgaradi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi yetakchi faoliyat o‘quv faoliyati bo‘lib, u natijadorlik, majburiylik, ixtiyoriylik bilan tavsiflanadi. O‘quv faoliyatining negizi aynan ta’limning birinchi yillarida qo‘yiladi. Shunday qilib, o‘quv faoliyati, bir tomondan, bolalarning yoshga bog‘liq imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi, ikkinchi tomondan, ularni keyingi rivojlanish uchun zarur bo‘lgan bilimlar miqdori bilan ta’minlashi kerak. Ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘quv faoliyatining asosiy komponentlari sifatida (D.B. Elkonin fikriga ko‘ra) quyidagilarni hisoblash mumkin: motivatsiya, o‘quv vazifasi, o‘quv operatsiyalari, nazorat va baholash.

Ye.Ye. Sapogova o‘qitishning quyidagi motivlarini ajratib ko‘rsatadi: bilish (bilimlarni, bilim olish usullarini, mustaqil ishlash uslublarini egallashga, qo‘shimcha bilimlarni o‘zlashtirishga, o‘z-o‘zini takomillashtirish dasturlariga qaratilgan); -ijtimoiy (mas’uliyat, o‘qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish, boshqalar bilan munosabatlarda ma’lum pozitsiyani egallashga intilish, ulardan ma’qullikni olish); -tor shaxsiy (yaxshi baho olishga, maqtovga sazovor bo‘lishga intilish).

Bu davrda maktab ta’limi nafaqat faoliyatning bola uchun alohida ijtimoiy ahamiyati, balki kattalar bilan munosabatlarning namunalar va baholar bilan bilvositaligi, hamma uchun umumiy qoidalarga rioya qilish, birlamchi ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish bilan ham ajralib turadi. O‘quv faoliyati natijasida yangi ruhiy shakllanishlar paydo bo‘ladi: ruhiy jarayonlarning ixtiyoriyligi, refleksiya (shaxsiy, intellektual), ichki harakat rejasi shakllanadi (aqlda rejalashtirish, tahlil qilish qobiliyati), so‘z boyligi ko‘payadi (7 mingtagacha so‘z), tilga nisbatan shaxsiy faol pozitsiyasi namoyon bo‘ladi.

Shunday, V.V. Davidov tadqiqotlari asosida (kattaliklar o‘rtasidagi) munosabatlarni aniqlash uchun algebra elementlarini o‘zlashtirish jarayoni joriy etilgan bo‘lib, ular modellashtiriladi, “qatlamlardan tozalangan” predmet shaklda ifodalanadi va harakatlar uchun yo‘naltiruvchi asosga aylanadi. Shunday qilib, bolalar birinchi navbatda turli vazn, hajm va uzunlikdagi obyektlar orasidagi munosabatlarni ifodalashni o‘rganadilar, “ko‘proq” va “kamroq” tushunchalarini egallaydilar, so‘ngra a>b, b<a va hok. mavhum belgilarga o‘tadilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ushbu munosabatlar bilan faol ishlay boshlaydilar, jumladan, yetarlicha darajada shakllangan mavhum tafakkurni talab qiladigan o‘xshash murakkab munosabatlarni ular, o‘qituvchi aqliy rivojlanishning samarali usullaridan foydalanishi sharti bilan, grammatik materialni o‘zlashtirishda aniqlaydilar.

V.V. Davidov dasturining asosiy vazifasi bo‘lib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘liq ta’lim faoliyati va nazariy tafakkurni shakllantirish hisoblanadi. Shunga qaramay, bitta ta’lim dasturi bo‘yicha o‘qiyotgan bola, sharoitlar tufayli, muqobil ta’lim muhitida tushib qolsa, jiddiy qiyinchiliklar paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf yoshini davrlashtirishning zamonaviy nazariy konsepsiyalari ruhiy rivojlanish mantig‘i haqidagi umumiy g‘oyalar bilan kam bog‘langanligi aniqlandi. Eng mashhur L.V. Zankov, V.V. Davidov, N.S. Leytes, L.V. Landa va boshq. nazariyalari. maktabgacha yoshdagi yetakchi faoliyat bo‘lgan o‘yin hamda o‘quv faoliyati o‘rtasidagi aloqani tushuntirmaydilar, keyingi yosh bosqichiga krizis-o‘tishning mazmunini muayyan tavsiflamaydilar. Boshlang‘ich sinf yoshining ruhiy rivojlanish kontekstidan bunday “yirtib tashlanishi”, birinchi navbatda shu bilan bog‘liqki, aksariyat tadqiqotchilar D.B Elkonin ruhiy rivojlanish davrlashtirishiga tayanadi, unda bir bosqichdan ikkinchisiga va bir yetakchi faoliyatdan ikkinchisiga o‘tish mexanizmi kam o‘rganilgan, chunki mazkur mexanizm konsepsiya muallifi tomonidan o‘tish davrlari yoki inqirozlar bilan, hali-hanuz aniqlashtirilmagan o‘zgarishi mantig‘i bilan bog‘langan.

D.B. Elkonin va V.V. Davidov maktabida batafsil ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv (yetakchi sifatida) faoliyatining tuzilmasi (uning o‘qitish amaliyotida shakllanishi jarayonida) faqat uning alohida komponentlarining to‘liq bo‘lmagan birlashmasi bo‘lib chiqadi. Shunga qaramay, Rossiyada boshlang‘ich sinflar uchun ta’lim dasturlarining aksariyati boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar psixologik xususiyatlariga asoslanadi. Shunday, L.V. Zankov dasturi negiziga tafakkur rivojlanishini davrlashtirish qo‘yilgan. V.V. Rubsov boshlang‘ich sinfida o‘qitish tizimi o‘quv-bilish faoliyatning genezini belgilaydigan bolalar va kattalarning birgalikdagi harakatlarini tashkil etishning psixologik qonuniyatlariga asoslanadi. V.S. Bibler ta’limga tafakkur va faoliyatning madaniy shakllari ketma-ketligi sifatida insonning madaniyatni egallash sharti deb qaraydi. Turli xil dasturlar, odatda, turli xil psixologik-pedagogik asoslarga tayanadi, ulardan maktabda foydalanganda esa, ko‘pincha, bir dasturning elementlari hech qanday tarzda birinchisi bilan birlashmaydigan boshqa bir dasturning bir qismiga aylanadi (pedagoglar tomonidan L.V. Zankov va V.V. Davidov dasturlari elementlarini birlashtirish). Ko‘pincha aynan bitta ta’lim bosqichidagi dasturlarning maqsad va vazifalari ma’no jihatdan qarama-qarshi bo‘ladi – ularning ba’zilari bolalarda muayyan malaka va ko‘nikmalarni, boshqalari – nazariy tafakkurni rivojlantirishni nazarda tutadi, uchinchisi – mavhum tushunchalarni muayyanlashtirishga, to‘rtinchisi – mavhumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf yoshining pastki chegarasi L.S. Vigotskiy tomonidan belgilangan bo‘lib, yosh psixologiyasida yetti yoshdagi inqiroz bilan bog‘lanadi, boshlang‘ich sinf yoshining yuqori chegarasi esa yagona tarzda aniq belgilanmagan. L.S. Vigotskiy davrlashtirishda bu yosh “birinchi maktab yoshi” deb ataladi va bolaning 13 yoshida inqirozga kirganida tugaydi. Zamonaviy davrlashtirishlarda boshlang‘ich sinf yoshining yuqori chegarasi 10-11 yosh deb qaraladi, biroq bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining rivojlanishida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarning dalili bo‘lgan psixologik voqelik aniq belgilanmaydi. 10-12 yosh o‘quv psixologiyasida an’anaviy tarzda kichik o‘smirlik davri sifatida qaraladi (D.B. Elkonin, D.I. Feldshteyn va boshq), ammo G.A. Sukerman bu davrni boshlang‘ich sinf yoshining ikkinchi fazasi deb hisoblaydi.

Boshlang‘ich sinf yoshining yuqori chegarasini aniqlashdagi pozitsiyalarning farqi boshlang‘ich sinf yoshidagi yangi shakllanishlarning mazmuni va genezisi yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq, jumladan, hozirgi vaqtda yoshga oid yangi shakllanishlar

tushunchasi maxsus tashkil etilgan ta'lim natijasida boshlang'ich sinf yoshidagi bolada sodir bo'ladigan bir qator o'zgarishlarga nisbatan qo'llaniladi.

Shunga qaramay, L.S. Vigotskiyning rivojlanish davrlashtirishida "yoshga bog'liq yangi shakllanish" tushunchasi bolalik ontogenezi bosqichlarini aniqlash mezoni bo'lib hisoblanadi. Barqaror va kritik davrlarning yangi shakllanishlarini ajratib ko'rsatib, u shaxs tuzilmasida aynan litik (barqaror) davrlarning yangi shakllanishlari saqlanib qolishini, inqiroz davrlarning yangi shakllanishlari esa o'tar xarakteriga ega ekanligini, ya'ni bolaning ongi va munosabatlar tizimini qayta qurishdan so'ng o'z ishlarini yakunlashi, o'tib ketishi va faqat shaxsning "yer osti qurilishida" qatnashishiga urg'u beradi. "Yoshning tuzilmasi statik, o'zgarmas, harakatsiz holatdan iborat emas. Har bir ma'lum yoshda ilgari shakllangan tuzilma yangi tuzilmaga o'tadi. Yosh rivojlanish jarayonida yangi tuzilma shakllanadi. Demak, rivojlanish dinamikasi deganda har bir yoshdagi tuzilmaviy yangi shakllanishlar paydo bo'lishi, o'zgarishi va birikish davrini belgilovchi barcha qonunlar yig'indisi tushunilishi kerak". Zamonaviy yosh va ta'lim psixologiyasida yangi shakllanishlarni ko'rib chiqishda bu o'ziga xoslik yo'qoladi, buning sababi boshlang'ich sinf yoshidagi yangi shakllanishlarni o'rganish bo'yicha ishlarning nazariy asoslari D.B. Elkonin taklif qilgan davriylashtirish bilan bog'liq bo'lib unda alohida yoshlarni aniqlashning asosiy mezoni bo'lib yetakchi faoliyat hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari vazifaga harakat uslubiga yo'naltirilganligida ifodalanadigan nazariy munosabat (vazifalarni bajarishning umumlashtirilgan usulini aniqlash qobiliyati sifatida) bilan ajralib turadi, buni olimlar asosiy maqsadi bolaning maqsadni faoliyat vositalari bilan o'zaro bog'liqligi orqali anglashi va bolaning birgalikdagi faoliyatdagi pozitsiyasining o'zgartirishdan iborat bo'lgan harakatlar ixtiyoriyligi bilan bog'lashadi. Boshlang'ich sinf yoshida shaxsning irodaviy sohasi rivojlanishining yangi yo'nalishi – ixtiyoriy diqqat paydo bo'lishi sababli, o'quvchi ongining markazida ixtiyoriy harakatning vositachi komponenti – so'z paydo bo'ladi, unda uning obyektiv mazmuni yoki ushbu so'z ishlatilgan ma'noviy kontekst to'planadi va ongda ustivor qiladi, jumladan ongdagi bunday ko'rsatmalarning o'zgarishi va saqlanib qolishi – diqqat funksiyasidir. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchisi savodxonlikni o'zlashtiradi, belgili tizimlarning xilma-xilligi bilan tanishadi, belgilar va nutqlarda turli xil, shu jumladan, yuzada bo'lmagan aloqalar va munosabatlarni modellashtirish va ifodalashni o'rganadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.

3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

4. Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Noshir, 2020.

**Sobirjon ISMATOV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi, katta o'qituvchi

# IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI JAMIYATGA MOSLASHTIRISHDA KORREKSION-DIDAKTIK O'YINLARNING ROLI

**Annotatsiya**

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi hamda ularni jamiyatga integratsiya qilish muammolari yoritilgan. Muallif maxsus ehtiyojli bolalarning sensor, muloqot va kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishda korreksion-didaktik o'yinlarning o'rni va samaradorligini tahlil qiladi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan o'yin texnologiyalarining tasnifi, ularning ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiya qilishga ta'siri xususida so'z boradi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitida bolalarning jamoaga moslashishi va mustaqil hayotiy ko'nikmalarni egallashi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar.** Imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy moslashuv, korreksion-didaktik o'yinlar, inklyuziv ta'lim, integratsiya, kognitiv rivojlanish, maxsus pedagogika, sensor tarbiya, nuqsonlarni muvofiqlashtirish, jamoaviy faoliyat.

В данной статье освещаются вопросы социальной адаптации детей с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ) и проблемы их интеграции в общество. Автор анализирует роль и эффективность коррекционно-дидактических игр в развитии сенсорных, коммуникативных и когнитивных навыков детей с особыми образовательными потребностями. В статье рассматривается классификация игровых технологий, применяемых в работе с детьми с ограниченными возможностями, а также их влияние на коррекцию недостатков в психическом и физическом развитии. Кроме того, разработаны практические рекомендации для адаптации детей в коллективе и освоения ими навыков самостоятельной жизни в условиях инклюзивного образования.

**Ключевые слова.** Дети с ограниченными возможностями здоровья, социальная адаптация, коррекционно-дидактические игры, инклюзивное образование, интеграция, когнитивное развитие, специальная педагогика, сенсорное воспитание, коррекция дефектов, коллективная деятельность.

This article highlights the social adaptation of children with disabilities and the challenges of their integration into society. The author analyzes the role and effectiveness of correctional-didactic games in developing the sensory, communicative, and cognitive skills of children with special needs. The paper discusses the classification of game technologies used in working with children with disabilities and their impact on correcting deficiencies in mental and physical development. Furthermore, practical recommendations have been developed for children's adaptation to the community and the acquisition of independent living skills within the framework of inclusive education.

**Key words.** Children with disabilities, social adaptation, correctional-didactic games, inclusive education, integration, cognitive development, special education, sensory education, correction of deficiencies, team activity.

Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilish, jamiyatning har bir a'zosiga teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish global hamjamiyat oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida kechayotgan ijtimoiy-gumanitar transformatsiyalar ta'lim va tarbiya

tizimini tubdan isloh qilishni, ayniqsa, jismoniy, sensor yoki intellektual rivojlanishida muayyan cheklovlari bo‘lgan, ya’ni imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yondashuvlarni butunlay yangilashni taqozo etmoqda. Mazkur toifadagi bolalarning sotsiumdan ajralib qolishi ularning shaxs sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiblyatgan muammo bo‘lib, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi hamda ularni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilish masalasi bugungi kunning nafaqat tibbiy-pedagogik, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan eng dolzarb masalasidir. Zamonaviy maxsus pedagogika va defektologiya fani insonparvarlik tamoyillariga tayanib, asosiy e’tibor jismoniy yoki ruhiy nuqsonni shunchaki davolashga emas, balki bolaning ijtimoiy statusini tiklashga, uning funksional imkoniyatlarini kompensatsiya qilishga qaratilishi lozimligini isbotlamoqda. Inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati shunchaki maxsus ehtiyojli bolani an’anaviy maktab xonasiga olib kirishdan iborat emas.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologiyasini tadqiq etishda ulkan hissa qo‘shgan L.S. Vigotskiy o‘zining kompensatsiya nazariyasida pedagogik ta’sir to‘g‘ri tashkil etilsa, bolaning oliy ruhiy funksiyalari hisobiga biologik kamchiliklarni muvaffaqiyatli korreksiya qilish mumkinligini isbotlagan. Shuningdek, o‘yin faoliyatining o‘rni D.B. Elkonin tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, u o‘yin bolaning nafaqat bilish jarayonlarini o‘stirishi, balki ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va muloqot madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. O‘zbekiston maxsus pedagogikasida ham L.R. Mo‘minova, F.U. Qodirova, D.A. Nurkeldiyeva, M.Y. Ayupova kabi olimlar o‘yin elementlari orqali rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan bo‘lsalar-da, zamonaviy inklyuziv ta’lim muhitida ushbu mexanizmlar yaxlit metodik darajada yetarlicha umumlashtirilmagan. Zamonaviy ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalar shaxsini shakllantirish amaliyoti tahlil qilinganda, bir qator jiddiy ziddiyatlar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, inklyuziv ta’limga bo‘lgan talabning yuqoriligi hamda korreksion o‘yin dasturlari yetishmasligi, shuningdek, bolaning muloqotga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji hamda undagi nuqsonlar tufayli kelib chiquvchi psixologik yopiqlik o‘rtasida jiddiy uzilishlar mavjud. Ushbu ziddiyatlarni hal etish ehtiyoji mazkur tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, korreksion-didaktik o‘yinlarning imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuviga ta’sirini ilmiy asoslash uchun o‘zaro tizimli bog‘langan empirik, nazariy va matematik-statistik metodlar majmuasidan foydalanildi. Dastlabki bosqichda muammoning nazariy poydevorini shakllantirish maqsadida falsafa, maxsus pedagogika, sotsiologiya va korreksion psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro andozalar hamda inklyuziv ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar qiyosiy-mantiqiy tahlil qilindi. Bu jarayonda anomal bolalarning rivojlanish qonuniyatlari va o‘yin faoliyatining korreksion imkoniyatlari to‘g‘risidagi mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Empirik ma’lumotlarni to‘plash va bolalarning real ijtimoiy-psixologik holatini baholash uchun uzoq muddatli va tizimli pedagogik kuzatuv metodi qo‘llanildi. Kuzatuv jarayoni bolalarning tabiiy muhitida — dars mashg‘ulotlarida, erkin o‘yin faoliyatida va tengdoshlari bilan muloqot paytida tashkil etilib, unda bolalarning emotsional reaksiyalari, jamoaviy qoidalarga bo‘ysunishi, nutqiy faolligi hamda tushkunlik yoki agressiya holatlari maxsus kuzatuv kartalarida qayd etib borildi. Shuningdek, bolalarning individual muammolarini chuqurroq aniqlash maqsadida amaliyotchi defektologlar, tarbiyachilar va ota-onalar bilan maqsadli pedagogik suhbat hamda so‘rovnomalar o‘tkazildi, bolalar tomonidan yaratilgan amaliy va ijodiy ishlar (rasmlar, loy ishlari) sifati tahlil qilindi.Tadqiqotning bosh empirik asosi sifatida aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarini qamrab olgan pedagogik

eksperiment (tajriba-sinov) metodi yetakchi rol o‘ynadi. Eksperimentda ishtirok etish uchun maxsus va inklyuziv ta’lim muassasalaridan sensor (eshitish va ko‘rish), tayanch-harakat hamda yengil darajadagi intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar tanlab olindi va ular o‘zaro tenglik prinsiplari asosida tajriba (eksperimental) hamda nazorat guruhlariga ajratildi. Aniqlovchi bosqichda har ikkala guruhdagi bolalarning boshlang‘ich ijtimoiy moslashuv va muloqot darajasi maxsus diagnostik testlar hamda sotsiometrik metodikalar yordamida o‘lchandi. Shakllantiruvchi bosqichda nazorat guruhida dars va to‘garak mashg‘ulotlari an’anaviy dasturlar asosida davom ettirilgan bo‘lsa, tajriba guruhida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan innovatsion korreksion-didaktik o‘yinlar modeli tizimli ravishda amaliyotga joriy etildi. Mazkur model doirasida bolalarning nuqson toifasiga moslashtirilgan sensor-motorik, nutqiy-kommunikativ va rolli-ijtimoiy o‘yinlar haftasiga belgilangan reja asosida o‘tkazildi, o‘yin qoidalari va dinamikasi bolalarning jismoniy hamda ruhiy imkoniyatlariga qarab bosqichma-bosqich murakkablashtirib borildi. Nazorat bosqichida har ikkala guruh o‘quvchilari dastlabki mezonlar asosida qayta sinovdan o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlaridan olingan miqdoriy ko‘rsatkichlarning ishonchliligi va obtektivligini tekshirish, guruhlar o‘rtasidagi farqni aniqlash maqsadida yakuniy ma’lumotlar matematik-statistikaning Styudent t-kriteriyesi hamda foizli taqsimot usullari yordamida qayta ishlanib, sifat jihatidan tahlil qilindi hamda grafik va diagrammalar ko‘rinishida umumlashtirildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar korreksion-didaktik o‘yinlarning maxsus ehtiyojli bolalar sotsializatsiyasiga ta’siri xususida jiddiy nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Eksperiment davomida tajriba guruhida qayd etilgan ijobiy dinamika L.S. Vigotskiyning kompensatsiya nazariyasini yana bir bor amaliy jihatdan tasdiqladi. Zero, o‘yin muhitida bolalarning biologik nuqsonlari (eshitish, ko‘rish yoki harakat cheklovlari) uning muloqot qilish ehtiyojini butunlay bo‘g‘ib qo‘ya olmasligi, aksincha, adaptiv o‘yin qoidalari orqali muqobil aloqa kanallari (imo-ishoralar, vizual simvollar, taktil hislar) ishga tushishi kuzatildi. Olingan miqdoriy ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar shunchaki bilim berish vositasi emas, balki bolaning emotsional-irodaviy sohasini barqarorlashtiruvchi kuchli psixoterapevtik omildir. Nazorat guruhidagi an’anaviy ta’lim jarayonida bolalar o‘z nuqsonlaridan uyalish, jamoadan qochish va o‘ziga ishonchsizlik kabi psixologik himoya reaksiyalarini uzoq vaqt saqlab qolgan bo‘lsalar, tajriba guruhida o‘yin mexanizmlari bu to‘siqlarni tezda eritib yubordi. Buning bosh sababi, korreksion o‘yinlarning xavfsiz va rag‘batlantiruvchi muhit yaratishidir. O‘yin sharoitida xato qilish qo‘rqinchli emas, bu esa bolada muvaffaqiyat hissini (motivation of success) uyg‘otadi va uning ijtimoiy tashabbuskorligini oshiradi.

Mahalliy olimlardan L.R. Mo‘minova va F.U. Qodirovalarning nutqiy o‘yinlar samaradorligiga oid fikrlari bizning tadqiqotimizda ham o‘z isbotini topdi. Nutqiy kamchiliklari bo‘lgan bolalar erkin muloqotda qiyinchilikka uchrasalar-da, o‘yin davomida so‘zlarni faolroq ishlata boshladilar va ularning passiv lug‘at boyligi faol muloqotga ko‘chdi. Biroq, tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, korreksion-didaktik o‘yinlar o‘z-o‘zidan kutilgan samarani bera olmaydi. Buning uchun pedagogdan yuqori darajadagi inklyuziv kompetensiya, o‘yinni bolaning nuqson toifasiga qarab individual adaptatsiya qila olish (masalan, zaif ko‘ruvchilar uchun ovozli va yirik elementlardan, tayanch-harakat a’zolari shikastlanganlar uchun esa harakat dinamikasi cheklangan o‘yinlardan foydalanish) talab etiladi. Shunday qilib, didaktik o‘yinlar tizimi maxsus ehtiyojli bolani jamiyatga integratsiya qilishda an’anaviy dars tushunchalari va real hayot o‘rtasidagi eng samarali „metodik ko‘prik“ bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan to‘liq isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi hamda ularni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilish muammosi bo‘yicha olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar korreksion-didaktik o‘yinlarning ta’lim va tarbiya jarayonidagi yuqori samaradorligini yaqqol ko‘rsatdi. Olingan nazariy va empirik natijalar shuni tasdiqlaydiki, maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi faqatgina tibbiy reabilitatsiya yoki akademik bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bolaning yetakchi faoliyati hisoblangan o‘yin, to‘g‘ri va tizimli tashkil etilganda, jismoniy hamda ruhiy nuqsonlarni kompensatsiya qilishning, ichki psixologik to‘siqlarni yengib o‘tishning eng samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Korreksion-didaktik o‘yinlar jarayonida bolalar nafaqat o‘zlarining sensor, kognitiv va nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, balki real hayot uchun zarur bo‘lgan jamoaviy qoidalarga bo‘ysunish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, o‘z emotsiyalarini boshqarish hamda hamkorlikda ishlash kabi muhim ijtimoiy xulq-atvor normalarini tabiiy ravishda o‘zlashtiradilar. Tajriba-sinov guruhlarida qayd etilgan ijobiy ko‘rsatkichlar, xususan, bolalar o‘rtasidagi agressiya va izolyatsiya holatlarining kamaygani hamda muloqot faolligining oshgani ushbu metodikaning barqaror natija berishidan dalolat beradi.Olib borilgan tadqiqot yakunlari asosida inklyuziv va maxsus ta’lim amaliyotini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim pedagogik tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga korreksion-didaktik o‘yinlarni tizimsiz, shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi sifatida emas, balki kunlik mashg‘ulotlarning uzviy qismi sifatidagi maxsus o‘yin bloklarini kiritish zarur. Ikkinchidan, o‘yinlarni tashkil etishda har bir bolaning individual psixofizik nuqson toifasi (eshitish, ko‘rish, nutq yoki harakat cheklovlari) qat’iy inobatga olinishi va o‘yin materiallari hamda qoidalari ularning imkoniyatlariga moslashtirilishi shart. Uchinchidan, umumta’lim va maxsus maktabgacha hamda maktab ta’limi pedagoglarining inklyuziv kompetensiyasini oshirish, ularni korreksion o‘yin texnologiyalarini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash metodikasi bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tizimli yo‘lga qo‘yish lozim. To‘rtinchidan, mazkur korreksion jarayonga faqat ta’lim muassasasi emas, balki bolaning oila muhiti va ota-onalarni ham faol jalb etish, uy sharoitida o‘ynaladigan didaktik o‘yinlar bo‘yicha oilalarga uslubiy qo‘llanmalar yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, korreksion-didaktik o‘yinlar tizimini ta’lim jarayoniga pedagogik-psixologik talablar asosida integratsiya qilish imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatda o‘z munosib o‘rinlarini topishlariga va mustaqil shaxs sifatida kamol topishlariga mustahkam zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Raximqulovich, Ismatov Sobirjon. “Methods of working with text in literary reading lessons in elementary school.” EPRA International Journal of Multidisciplinary Research 1 (2020): 345-347.

2. Rakhimkulovich, I. S. “Specific Features of the Text in the Cognitive-Pragmatic Approach”. Middle European Scientific Bulletin 8 (2021).

3. Muxtarova, M. (2014). Boshlang’ich sinf ona tili darsliklarida matn bilan ishlash metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti. 176 b.

4. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press. 419 b.

5. Qo’chqorov, R. (2010). Boshlang’ich sinflarda o’qish va nutq o’stirish. Toshkent: Istiqlol. 234 b.

**Shuhrat HAMROYEV,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri, p.f.n.
**Mo'tabar ALIMARDONOVA,**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

# SHAHOBIDDIN MARJONIYNING HAYOTI VA PEDAGOGIK FAOLIYATI

**Annotatsiya**

Maqolada XIX asrning buyuk tatar allomasi Shahobiddin Marjoniy (1818–1889) ning hayoti, nasab-shajarasi, ta'lim yo'li va ilmiy-ijodiy merosi keng tahlil qilingan. Shuningdek, olimning Qozon guberniyasidagi ildizlari, Buxoro va Samarqanddagi tahsil yillari, Qozondagi imomlik va mudarrislik faoliyati, shuningdek, 30 dan ortiq asarning yaratilish tarixi va bibliografik tavsifi batafsil yoritilgan. Marjoniyning shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy ta'siri va milliy tarix yaratishdagi o'rni ochib berilgan. Tadqiqot Marjoniy merosini zamonaviy pedagogika va tarix fani nuqtai nazaridan qayta baholashga xizmat qiladi.

**Tayanch so'zlar.** Shahobiddin Marjoniy, biografiya, bibliografiya, tatar madaniyati, madrasa, isloh, jadidchilik, ilmiy meros, Buxoro, Qozon.

В данной статье проведён широкий анализ жизни, родословной, образовательного пути и научно-творческого наследия выдающегося татарского учёного XIX века Шахабуддина Марджани (1818–1889). Подробно освещены корни учёного в Казанской губернии, годы учёбы в Бухаре и Самарканде, его деятельность в должности имама и мударриса в Казани, а также история создания и библиографическая характеристика более 30 научных трудов. Раскрыты личные качества Марджани, его общественное влияние и роль в формировании национальной исторической науки. Исследование направлено на переосмысление наследия Марджани с позиций современной педагогики и исторической науки.

**Ключевые слова.** Шахабуддин Марджани, биография, библиография, татарская культура, медресе, реформа, джадидизм, научное наследие, Бухара, Казань.

This article provides a comprehensive analysis of the life, genealogy, educational path, and scholarly-creative legacy of the prominent nineteenth-century Tatar scholar Shahabiddin Marjani (1818–1889). The study examines in detail the scholar's roots in the Kazan Governorate, his years of study in Bukhara and Samarkand, his service as imam and mudarris in Kazan, and the history of composition and bibliographic description of more than thirty scholarly works. The personal qualities of Marjani, his social influence, and his role in shaping national historiography are thoroughly revealed. The research serves to reassess Marjani's legacy from the perspective of contemporary pedagogy and historical science.

**Key words.** Shahabiddin Marjani, biography, bibliography, Tatar culture, madrasa, reform, Jadidism, scholarly heritage, Bukhara, Kazan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi "Jadidlar merosi davlat muzyeini tashkil etish to'g'risida" PQ-201-sonli qarorida: Ma'rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o'rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma'naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish va faol targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirish, shuningdek, 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat

kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida qabul qilinganligi alohida ta`kidlab o‘tilgan[1].

Shuningdek qarorda: ma’rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi hissasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish, muhim vazifa sifatida belgilab berildi.

Turkistonda ham Shahobiddin Marjoniy haqidagi maqolalar e’lon qilib turildi. Uning vafotidan 25 yil o‘tib, “Sadoi Turkiston” gazetasida Muzaffar imzosi ostida “Marhum Marjoniy haqinda” nomli maqola e’lon qilingan. Ushbu maqolada Marjoniyni “yangilik tarafdorlarining ma’naviy otasi” deb ta’riflab, uning islohotchilik g‘oyalariga yuqori baho berilgan[2]. Shunday qilib, Sh.Marjoniy ko‘plab xizmatlari bilan buyuk olim-tarixchi va faylasuf sifatida ko‘z oldimizga keladi.

Demak, Shahobiddin Marjoniy kabi jadidlarning hayoti, faoliyati, boy pedagogik merosidan hozirgi kunda ta’lim –tarbiya jarayonida foydalanish dolzarb vazifadir.

Marjoniyning 1885- va 1897-yillarda (I jild), 1900-yilda (II jild) chop etilgan “Mustafad al-akhbar fi ahvali Kazan va Bulgar” nomli tarixiy asari tatarlar tarixidagi birinchi fundamental asar bo‘ldi. U o‘z ishida keng doirada arab, fors, turk va boshqa qo‘lyozma manbalardan foydalangan. Ushbu asar tatarlarning tarixiy ongini shakllantirishda va milliy identifikatsiyani mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Olimning teologik asarlari hozirda faqat tor mutaxassislar doirasida ma’lum, chunki ularning aksariyati arab tilida yozilgan. Shu sababdan ular zamondoshlar orasida keng tanilmagan.

Shahobiddin Marjoniyning “Nozura al-haq fiy farziyati al-ishai va in lam yag‘ib ash-shafaq” asari 2012-yil Turkiyani Istanbul shahridagi “Dor al-hikma” nashriyotida chop etilgan.

1915-yilda minnatdor tatar jamoasi savdogar Solih G‘ubaydullinning mablag‘lari evaziga 639-sahifalik yubiley to‘plamini nashr etdi. “Marjoniy” nomli ushbu to‘plamga 23 ta nufuzli tatar olimi va jamoat arboblarining maqolalari va xotiralari kiritildi, ular olimning biografiyasi, ilmiy-pedagogik va jamoat faoliyatini yoritdi. Ushbu nashr ilmiy merosni anglash jarayonidagi birinchi katta hissa bo‘ldi. Ammo Sh.Marjoniy asarlarini chuqur o‘rganish 1920-yillarning o‘rtalarida to‘xtatildi. Sovet ideologik ilm-fani tatar tarixini “burjua tarixshunos merosidan” xalos qilishga harakat qilgan bo‘lsada, maqsadiga erisha olmadi. Sh.Marjoniyning “Al-Hikama al-balig‘a al-janiya fi sharh al-aqoid al-hanfiya” asari 1937-yilda Qozon shahrida nashr qilingan. Marjoniy xalq xotirasida ajralmas va yorqin shaxs sifatida yashashda davom etdi. Shu bilan birga, sovet davrida uning ilmiy merosini kompleks tarzda o‘rganish va qayta nashr qilish masalasi qo‘yilmagan. Shunga qaramasdan, bir qator fidoyi olimlar tomonidan uning ijtimoiy-pedagogik merosi o‘rganildi. Chunonchi, 1960-yillarning ikkinchi yarmidan Shahobiddin Marjoniyning ijodining ayrim jihatlarini qayta baholash tendensiyasi paydo bo‘ldi. 1969-yilda Qozonda “Shahobiddin Marjoniy” nomli maqolalar to‘plami nashr etildi (tahrirchi X. Xizmatullin), unga G. Tukay she’rlari, G. Ibragimov, F. Amirkhan va S. Kudashning asarlari kiritilib, olimning taraqqiyparvar roli ta’kidlandi. 1970-yilda M.

---

[1] https://share.google/Ec4byvh1wvD67RIhj PQ-201-сон 30.05.2024. Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida

[2] https://share.google/Ec4byvh1wvD67RIhj PQ-201-сон 30.05.2024. Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida

[2] https://share.google/zgJllrkQBDHYIJIe9 Shahobuddin Marjoniy tatar xalqining buyuk pedagogi, tarixchisi va faylasufi sifatida

Usmanovning Sh. Marjoniy tarixiy asarlarida foydalangan manbalar doirasi o‘rganib chiqildi. Olimning falsafiy qarashlari Marksizm-Leninizm metodologiyasi asosida Y. Abdullinning monografiyasida qisman o‘rganildi. Shuningdek, M. Yusupovning “Shahobiddin Marjoniy tarixchi sifatida” asari Sh. Marjoniyning tarixiy qarashlari va konseptual yondashuvlarini o‘rganishda muhim ilmiy hissa bo‘ldi. Biroq olimning ilmiy merosini kompleks tarzda o‘rganish faqat XX asrning oxirgi o‘n yilligida boshlandi. 1989-yilda Marjoniyning tarixiy asari “Mustafad al-akhbar fi ahvali Kazan va Bulgar” qisqartirilgan holda qayta nashr etildi. Bu nashr tadqiqotchilarni uning ijodiga qiziqtirdi va keng jamoatchilik uchun uning fikrlari chuqurligi va kengligini tushunishga imkon yaratdi. Taniqli tatar olimi A. N. Yuzeyev Shahobiddin Marjoniyning g‘oyasi, diniy reformatik fikrlari va ma`rifatparvarlik faoliyatini tadqiq qilgan.[8] Shuningdek A. N. Yuzeyev tomonidan Shabiddin Marjoniyning ”Vafiya al-aslaf va taxiya al-axlaf” asari arab tilidan qilingan tarjima, sharh, maqolasi bilan 1999-yil Qozondagi “Imon” nashryotida nashr qilindi.[9] Sh. Marjoniyning oltitomlik qo‘lyozma asari “Vafiyyat al-aslaf va Tahiyyat al-akhlaaf” tanlangan jildi, arabshunos olimlar jamoasi tayyorlagan bo‘lib, XXI asr boshlig‘ida nafaqat ilmiy, balki jamoat ahamiyatiga ega bo‘ladi. Ibrohim Marash turk dunyosida dinni 1850-1917-yillarda targ‘ib qilish, mazmun mohiyatini aslicha asoslagan olimlar orasida Sh. Marjoniyning g‘oyalari o‘z o‘rniga ega ekanliga tadqiq qildi.

2001-yil Qozondagi “Imon” nashryotida Marjoniy haqida ma`lumot berilgan “Мэржани хакында ижмалы мэгьлумат” va Tuntariy, Muhammad Nejiplarning “Мэржани ҳэзрэтлэри ҳакында хатыйратым” asarlari ma`rifatparvarning hayoti, faoliyati, ijtimoiy-pedagogik merosini o‘rganishda muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi. ma`rifatparvarning hayoti, pedagogik faoliyati hamda ijtimoiy-ma`rifiy g‘oyalarini o‘rganishda muhim asar hisoblanadi.

Shahobiddin Marjoniy haqida O‘zbekistonda ham bir qator manbalar uchraydi. Chunonchi, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida: Marjoniy Shahobiddin – ma’rifatparvar va faylasuf, tarixchi va ilohiyotchi olim, tatar xalqi ilmiy tarixining asoschisi ekanligi, Samarqanddagi Sherdor madrasalarida o‘qiganligi va dars berganligi, Buxoro va Samarqandda arab va fors tillarini puxta o‘rganib, sharq falsafasi va tarixi bilan tanishgan, matematika va astronomiya bilan shug‘ullanganligi bayon qilingan. Shuningdek, Marjoniy Buxoroda olim sifatida shakllanib, Kursaviy ilmiy merosi bilan tanishganligi, Ahmad Donish bilan hamkorlikda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatishda jonbozlik ko‘rsatganligi, u Buxoroda ‘‘Movarounnahr mashhur ulamolarining ahvoli va ishlari’’ hamda Kursaviyning Buxorodagi faoliyati va mahalliy hokimiyat bilan murakkab munosabati to‘g‘risidagi asarini yozganligi, Turkiston tarixi va geografiyasiga oid ko‘plab asarlari mavjud, xususan, uning X–XII asrlarda Movarounnahr xonaqolari va tasavvufning ahvoli, Turkistondan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqidagi tadqiqotlari diqqatga sazovor ekanligi, 1850 -yilda Qozondagi katta Jome masjidi imomi, 1867-yilda muhtasibi. Ayni paytda Qozon tatar o‘qituvchilari maktabida dars berganligi hamda, 30- dan ortiq yirik asarlar muallifi ekanligi keltirib o‘tilgan. Kursaviy, Marjoniy, Ahmad Donishning islom dinini isloh qilish va ma’rifatparvarlik g‘oyalari keyinchalik jadidchilik harakatining vujudga kelishida muayyan darajada xizmat qilganligi ta`kidlab o‘tilgan.

Shahobiddin Marjoniy XIX asr boshida tug‘ilgan bo‘lib, o‘z shaxsida islohotlar davrini ifodalaydi. Shu sababli tatar tarixida XIX asrni Marjoniy asri deb atash mumkin.

Ma`rifatparvarning ajdodlari. Shahobiddin Marjoniyning to‘liq ismi – Shahobiddin ibn Bahouddin ibn Subhon ibn Abdulkarim ibn Abduttavvob ibn Abdulg‘aniy ibn Abdulquddus ibn Ydash ibn Yodgor ibn Umar. Bu ulkan nasab silsilasi shuni ko‘rsatadiki,

Marjoniy ilm-fan va din sohasida ko‘p avlod vakillarini yetishtirgan aziz-muhtaram oiladan yetishib chiqqan.

Marjoniy Qozon yaqinidagi Yapanchi (Toshkichu) qishlog‘ida 1818-yilning 16-yanvarida tavallud topgan. Uning ajdodlaridan Abdulquddus birinchi bo‘lib Marjon qishlog‘iga kelib o‘rnashgani va shu qishloqni asos solgani uchun ularning nasabi «Marjoniy» deb mashhur bo‘lgan. Marjon qishlog‘i Qozondan 50 chaqirim uzoqlikda joylashgan edi.

Otasi Bahouddin – o‘z davrida Buxoroda tahsil olgan, Buxoro amiri Amir Haydar ibn Ma’sum huzurida izzat-hurmat topgan taniqli olim edi. Yabynchi, so‘ngra Tashkichu qishlog‘ida imom va mudarris sifatida 40 yil davomida turli fanlardan dars berib, ko‘plab shogirdlar tayyorlagan. Marjoniy o‘zining bir yozma majmuasida otasidan ta’lim olgan 35 nafar imomning ismini qayd etib o‘tadi.

Onasi Bibixubayba – aqlli, xulqi chiroyli, ibodatli ayol bo‘lib, 1823-yilda 29 yoshida vafot etgan. U chiroyli xat yozuvchi edi; Marjoniy hazratlari onasining qo‘li bilan yozilgan ba’zi duolarni umri bo‘yi saqlab yurganini yozib qoldirgan. Bobosi Subhon esa 25 yilcha imomlik qilib ta’lim bergan; yoshligidanoq arab va fors tillarida 60 dan ortiq kitobni qo‘lda ko‘chirgan ilmsevar kishi bo‘lgan.

Marjoniy shaxsida nasl-nasabi sifatida meros bo‘lib qolgan ilmsevarlik, rostgo‘ylik va qat’iyat o‘z aksini topdi. Uning bobosi Abdulnosir ham o‘z davrida fiqh ilmi bo‘yicha mashhur olim bo‘lgan; Marjoniy bu haqda shunday yozadi: “U nihoyatda dindor, taqvoli va fiqh ilmi bo‘yicha mashhur edi. E’tiqodi to‘g‘ri, sabrli, barcha axloq va amallarida shariat va Rasulullo sunnatlariga amal qilishga harakat qilar edi”.

Boshlang‘ich ta’lim va yoshlik yillari (1824–1838). Marjoniy olti yoshidan boshlab otasining madrasasiga qatnab, qadimgi tartib asosida dars o‘qishni boshlagan. Qishloq bolalari bilan birga ona tilini o‘sha paytda qo‘llanilgan kitoblardan o‘rgangan. Tez orada arabcha o‘qishga kirishib, nahv va sarf darslarini “Bidan”, “Sharhi Abdullo”, “Qavaid”, “Avomil”, “Mumtoz”, “Kafiya” kitoblari orqali puxta o‘zlashtirib olgan.

Yoshligidanoq Marjoniyda keskin aql-idrok belgilari namoyon bo‘lgan. Ustozi bir kuni shunday degan: “Men qancha shogird ko‘rdim, ammo Shahobiddindek zehnli, uningdek anglovchan shogird ko‘rgan emasman. Saboqlarini bir marta o‘qiboq yoshdoshlaridan oshib ketadi... 12–13 yoshli bolaning bunday bilimiga hayron qolaman. Agar bu bola sog‘lom ulg‘aysa, buyuk olim bo‘ladi”.

Marjoniy yoshligi haqida shogirdlariga shunday degan: “Bizning kichik ukamiz mendan ham o‘tkir edi, darsni ham, gapni ham tez tushunardi, lekin tez unutardi. Men esa darsni sekinroq o‘rganardim, lekin bir narsani yaxshi tushunsam – uni hech unutmas edim”. Bu so‘zlar uning bilimni chuqur o‘zlashtirish va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatiga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Marjoniy jismoniy jihatdan ham baquvvat va botir bo‘lgan. Toshkichu va qo‘shni qishloqlardagi “Saban to‘yi”larida mashhur polvonlarni yiqitib, “Kurashchi Shihobiy” laqabini olgan. Ukasi Sadriddin bu haqda yozadi: “Kurashganda Marjoniyning shunday odati bor edi – yiqilganlar bilan emas, balki yiqituvchi bahodirlar bilan kurashishni yaxshi ko‘rar edi”. Bu jihatdan u turli hayotiy fazilatlarni birlashtirgan kamolot namunasi bo‘lgan.

17 yoshida otasining madrasasida dars bera boshlagan Marjoniy, o‘qitish uslublarini tanqidiy ko‘z bilan baholashga kirishgan. Eski usullarni yetarli emas deb topib, arabcha sarf kitobini o‘zi yangicha tarzda yozib, shu orqali dars bera boshlagan. 12–13 yoshida namoz tartibi haqida ona tilida kichik risola yozgani ma’lum bo‘lib, bu uning isloh ruhining juda erta uyg‘onganidan dalolat beradi.

Buxoro va Samarqand yillari (1838–1849). Marjoniy 21 yoshida – 1838-yil 17-may-

da — Buxoroga safar qilishga qat’iy qaror qildi. O‘sha davrlarda Qozon va Buxoro o‘rtasida savdo karvonlari qatnab turgan; Marjoniy Mang‘ir qishlog‘i savdogari Mo‘xtor binni Muharramning karvoniga qo‘shildi. 1838-yil 12-dekabrda Buxoroga yetib keldi.

Buxoroda u dastlab “Eshon xalifa Niyozquli” madrasasidan 35 so‘mga bir hujra sotib olib joylashdi. So‘ngra Buxoroning eng keksa mudarrislaridan Domla Mirzasolih A’lam ibn Nodirmuhammad al-Farg‘oniydan tahsil oldi. Keyinchalik u Domla Muhammad ibn Safer al-Xo‘jandiy, Domla Fazil ibn G‘ashur al-G‘ijdavoniy, Domla Abdulmo‘minxo‘ja ibn O‘zbekxo‘ja al-Buxoriy va boshqa bir qator yirik olimlardan ta’lim oldi.

Buxoroda bir muddat mashg‘ulotlarni kuzatgach, Marjoniy mavjud ta’lim tizimidan qoniqmay qoldi. Uning fikricha, madrasalarda Qur’on, hadis, arab tili adabiyoti va tarix kabi asosiy fanlar deyarli o‘qitilmas, ko‘p vaqt sharh va hoshiyalar bilan o‘tkazilardi. Marjoniy bu haqda «Muqaddimat vafoyatul-aslaf» asarida yozdi: “Buxoro xalqi va hukumatining ma’rifatdan uzoqligi, boshqaruvlarining buzilganligi, o‘qituv tizimlarining tartibsizligi g‘oyatda ajablanarli...’’

Buxoroda besh yil tahsil olgach, Marjoniy Samarqandga safar qildi va u yerda Sherdor madrasasiga joylashdi. Bu safar uning ilmiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Samarqandning mashhur olimi – Qozikalon Abu Sa’id bilan tanishib, uning farzand-nabiralariga dars berdi. Abu Sa’id o‘z kutubxonasidagi noyob kitoblarni Marjoniyga berdi; bu kitoblar uning dunyoqarashini butunlay o‘zgartirdi.

Marjoniy keyinchalik shunday degan: “Menga fikr berib, yo‘limni ko‘rsatgan asl manbalar mana shu kitoblardir”. Samarqand kutubxonasida u Imom G‘azzoliyning “Kimiyoi saodat”, Ibn Sino, Shahrastoniy, Suyutiy kabi allomalarning asarlarini, kalom va falsafaga doir noyob qo‘lyozmalarni o‘qidi. Aynan shu davrda Marjoniy Kursaviy g‘oyalari bilan tanishdi va haqiqiy ilm yo‘lida haqiqat izlashga bel bog‘ladi.

Buxoroda ikkinchi bor tahsil olgach, Marjoniy “Mir G‘arib’’ madrasasidan xona sotib olib, chuqur ilmiy izlanishlar bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ko‘plab qo‘lyozma kitoblarni ko‘chirdi, izoh va tahlillar yozdi, turli manbalardan ma’lumotlar to‘pladi. Uning ikkita katta xaltasi bo‘lib, unda ko‘rgan-eshitgan muhim narsalarini yozib bora ekan. Bu 11 yillik Markaziy Osiyo safarida u millat tarixiga yangi sahifalar yozishga tayyor bo‘lgan ulug‘ allomaga aylandi.

Qozondagi faoliyat va hayotning oxirgi davri (1850–1889). 1849-yil 21-mayda Marjoniy Buxorodan yo‘lga chiqib, 13-sentyabrda Qozonga yetib keldi. Qozon musl-monlari orasidagi eng obro‘li boylardan biri Ibrohim ibn Gobaydulla Yunusov unga imom bo‘lish uchun sinov tayinladi. Mashhur olimlar – Mulla G‘ali Eshon, Mulla Xabibulla ibn Rahmankoliy va boshqalar ishtirokida o‘tkazilgan imtihonda Marjoniy barcha savollarga to‘liq va ravon javob berdi.

1850-yil 30-martda Marjoniy rasmiy ravishda Qozondagi Birinchi masjidga imom-hatib va muallim sifatida tayinlandi. Shu paytdan boshlab u bir vaqtning o‘zida diniy peshvo, o‘qituvchi va tadqiqotchi sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. 40 yil davom etgan bu xizmat davri uning umrining eng samarali va eng barqaqor davri bo‘ldi.

Marjoniy Qozonga kelganining dastlabki kunlaridayoq madrasasida dars boshladi. Shogirdlari uning bir shaxsda olim, ustoz va islohotchi sifatidagi fazilatlari haqida hay-ratlanib gapirganlar. U Rossiyaning turli o‘lkalaridan – Xo‘qi Tarxan, Penza, Saratov, Samara, Peterburg, Qrim, Sibir va boshqa joylardan kelgan talabalarni tarbiyaladi.

Marjoniy hayotida qiyinchiliklar ham bo‘ldi. Qozon mullalarining bir qismi uning e’tiqod va qarashlari bilan kelisha olmadi; Ibrohim boy bilan munosabatlar yomonlashib, bir necha marta madrasa ishi to‘xtatildi. Biroq u barcha to‘siqlarni berdi va shunday

dedi: “Men qilgan ishlarim va gaplarim musulmonlar uchun foydali va chin haqiqatdir. Bugun baholovchi bo‘lmasa, kelajakda baholovchilar bo‘ladi”.

Marjoniy 1889-yil 18-aprelda 71 yoshida vafot etdi. Umri bo‘yi 8–9 ming bet hajmida 30 ga yaqin turli kitob va maqolalar yozdi. Kunduzi dars berib, kechqurunlari soat o‘n ikkigacha va ba’zan tun yarimigacha ishladi – bu rejimni umrining oxiriga qadar saqladi.

Marjoniyning ilmiy merosi va asarlari. Marjoniyning ilmiy merosi o‘ta keng va ko‘p qamrovli bo‘lib, tarix, ilohiyot, falsafa, fiqh va pedagogika sohalarini qamrab olgan. Uning asosiy asarlari quyidagilardan iborat.

“Mustafad al-akhbar fi ahvali Kazan va Bulgar” – 1885- va 1897-yillarda (I jild), 1900-yilda (II jild) chop etilgan bu fundamental tarixiy asar tatarlar tarixidagi birinchi yirik ilmiy manbaa sifatida tan olingan. Marjoniy bu asarda arab, fors, turk va boshqa qo‘lyozma manbalardan keng foydalangan; asar tatarlarning tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

“Vafiyat al-aslaf va taxiya al-akhlaaf” – Marjoniyning olti tomlik qo‘lyozma tarjimai hol asari bo‘lib, o‘z davrining eng noyob manbaalaridan biri hisoblanadi. A. N. Yuzeyev tomonidan 1999-yilda arab tilidan tarjima qilinib, Qozonning ‘‘Imon’0T nashriyotida chop etilgan.

“Nozura al-haq fiy farziyati al-ishai va in lam yag‘ib ash-shafaq” – 2012-yilda Turkiyaning Istanbul shahridagi “Dor al-hikma” nashryotida chop etilgan ilohiyot va fiqh masalalariga bag‘ishlangan asari. “Al-Hikama al-balig‘a al-janiya fi sharh al-aqoid al-hanfiya” — 1937-yilda Qozonda nashr qilingan; hanafiy aqidasi sharhi bo‘lib, diniy ta’limotdagi muhim manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, Marjoniyning Buxoro va Samarqand madrasalarida o‘qitish tartibiga oid tanqidiy yozuvlari, fiqh, hadis, tafsir, kalom va falsafaga doir ko‘plab risolalari ham mavjud. 1915-yilda minnatdor tatar jamoasi savdogar Solih G‘ubaydullinning mablag‘lari evaziga 639 sahifalik “Marjoniy” nomli yubiley to‘plamini nashr etdi; unga 23 nufuzli olim va jamoat arbobining maqolalari kiritildi.

XX asrning oxirida Marjoniy ilmiy merosini tadqiq etish yangi bosqichga kirdi. 1989-yilda “Mustafad al-akhbar” qayta nashr etildi; 2002-yilda Tatariston Respublikasining Tarix institutiga Marjoniy nomi berildi; Qozondagi sobor masjidi va bir qator ko‘chalar ham uning nomi bilan atalmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Shahobiddin Marjoniy (1818–1889) – o‘z davrining chegaralaridan ancha ilgari o‘ylagan, nasl-nasabi ulug‘, ta’lim yo‘li mashaqqatli va ilmiy merosi beqiyos bo‘lgan buyuk allom. Uning biografiyasi faqat shaxsiy tarixi emas, balki XIX asr tatar va Markaziy Osiyo ma’rifat tarixining yorqin sahifasidir.

Marjoniyning hayot yo‘lida uch asosiy bosqich aniq ko‘rinib turadi: qishloqdagi dastlabki ta’lim va yoshlik (1818–1838), Buxoro va Samarqanddagi tahsil va shakllanish yillari (1838–1849), hamda Qozonda imomlik va mudarrislik orqali umr bo‘yi xizmat qilgan faoliyat davri (1850–1889). Har bir bosqich uning keyingi ijodiy va pedagogik faoliyatiga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Ilmiy merosi jihatidan Marjoniy islom ilmlarining deyarli barcha sohalarida qalam tebratgan; 30 dan ortiq asari tarix, fiqh, kalom, tafsir va pedagogikani qamrab oladi. Uning eng muhim asari – “Mustafad al-akhbar” – tatar milliy tarixshunosligining poydevori bo‘lib qolmoqda. Turkiston, O‘zbekiston va butun islom dunyosida e’tirof etilgan bu zot haqida hali ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilishi lozim.

Shahobiddin Marjoniyning hayoti, faoliyati, ijtimoiy-pedagogik merosini quyidagi yo‘nalishlarda o‘rganishni tavsiya qilish mumkin:

Marjoniyning tarix faniga munosabati va tarixiy asarlari.
Tarixiy asarlari manbalari.
Marjoniyning tarixiy asarlari.
Marjoniyning tarix falsafasi va metodikasiga oid fikrlari.
Marjoniyning tarixiy xizmatlarining bahosi.
Turkiy matbuotda Marjoniy.
Shimoliy turklarda (tatarlar) Marjoniy tutgan o‘rni.
Marjoniy tadqiq etish.
Marjoniyning pedagogik merosi haqida ma’lumot.
Marjoniyda pedagogik fikrining uyg‘onishi.
Marjoniyning o‘tgan darslarida foydalangan o‘ziga xos metodlari.
Marjoniyning haqiqat yo‘liga kirishi va ta’lim islohoti haqidagi qarashlari.
Marjoniy hazratlarining yozgan asarlari.
Marjoniyning pedagogik ta`limoti.
Marjoniyning ahvoli va axloqi.
Marjoniy fikricha taraqqiyga to‘sqinlik qiluvchi sabablar.
Marjoniyning maktabda o‘qituvchilik tajribasi.
Marjoniy haqida xotiralar va qarash.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida. PQ-201-сон 30.05.2024. https://share.google/Ec4byvh1wvD67RIhj

2. Shahobuddin Marjoniy tatar xalqining buyuk pedagogi, tarixchisi va faylasufi sifatida https://share.google/zgJllrkQBDHYIJIe9

3. Shihobiddin Marjoniy. Mustafod al-axbor fi ahvol Qozon va Bulg‘or. – Qozon: al-Hay'at al-omm li dor al-kutub va al-vasoiq al-qavmiya, 1885.

4. Shahobuddin Marjoniy. Nozura al-haq fiy farziyati al-ishai va in lam yag‘ib ash-shafaq. – Istanbul: Dor al-hikma. 2012.5. “Marjoniy”. To‘plam. Qozon:1915

6. “Shahobiddin Marjoniy” To‘plam. (tahrirchi X. Xizmatullin), Qozon: 1969

7. Юсупов М.Х. Шигабутдин Марджани как историк. – Казань: ТКИ, 1981. – б. 232.

8. Юзеев А.Н. Шихаб ад-дин Марджани: мыслитель, религиозный реформатор, просветитель. – Казань: “Иман”, 1997. – б. 60.

9. Marjaniy Sh. Vafiya al-aslaf va taxiya al-axlaf. A.N.Yuzeevning arab tilidan qilgan tarjima, sharh, maqolasi. – Qozon: Imon, 1999.

10. Ibrahim Maraş. Türk dünyasinda dini yenileşme 1850-1917. – Istanbul: 2002.

11. Ibrahim Maraş. Türk dünyasinda dini yenileşme 1850-1917. – Istanbul: 2002.

12. Мэржани хакында ижмалы мэгьлумат // “Мэржани” жыентыгы. – Казань: “Иман”, 2001.

13. Yusupov M.X. “Shigabutdin Marjani” asarida . – Qozon: Tatar kitob bosmasi, 2005. –B.257.

14. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi M harfi Toshkent: ‘‘O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’’ Davlat ilmiy nashriyoti, 188-bet

**Nurbek BEGALIYEV,**
Shahrisabz state pedagogical institute, teacher

# SARDOBAS AS AN ELEMENT OF THE GREAT SILK ROAD INFRASTRUCTURE

**Annotatsiya**

Maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda, xususan, Movarounnahrda qurilgan sardobalarning tarixiy ahamiyati, ularning Buyuk Ipak yo'li infratuzilmasidagi o'rni, shuningdek, ushbu gidrotexnik inshootlarning me'moriy va muhandislik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda cho'l hududlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashda sardobalarning o'rni, qo'llaniladigan qurilish texnologiyalari, qo'llaniladigan materiallar va ularni joylashtirish mezonlari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Amir Temur hukmronligi davrida sardobalarning qurilishi va ta'mirlanish jarayonlari tarixiy manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar.** Sardoba, Buyuk ipak yo'li, Movarounnahr, gidrotexnik inshoot, cho'l zonasi, karvon yo'llari, o'rta asr me'morchiligi, suv ta'minoti, Abdullaxon II, Qarshi cho'li.

В данной статье анализируется историческое значение сардоб, построенных в Центральной Азии, особенно в Мавераннахре, в эпоху Амира Темура и Темуридов, их роль в инфраструктуре Великого шелкового пути, а также архитектурно-инженерные особенности этих гидротехнических сооружений. В исследовании научно изучены роль сардоб в обеспечении питьевой водой пустынных регионов, применяемые технологии строительства, используемые материалы и критерии их размещения. Процессы строительства и реставрации сардоба во времена правления Амира Темура анализируются на основе исторических источников и археологических исследований.

**Ключевые слова.** Сардоба, Великий шелковый путь, Мавераннахр, гидротехническое сооружение, пустынная зона, караванные пути, средневековая архитектура, водоснабжение, Абдуллахан II, Каршинская степь.

This article analyzes the historical significance of sardobas constructed in Central Asia, particularly in Mawarannahr during the era of Amir Temur and the Temurids, their role in the infrastructure of the Great Silk Road, as well as the architectural and engineering features of these hydraulic structures. The study scientifically examines the role of sardobas in supplying drinking water to desert regions, the construction technologies employed, the materials used, and the criteria for their placement. The processes of construction and restoration of sardobas during the reign of Amir Temur are analyzed on the basis of historical sources and archaeological research.

**Key words.** Sardoba, Great Silk Road, Mawarannahr, hydraulic structure, desert zone, caravan routes, medieval architecture, water supply, Abdullah Khan II, Karshi steppe.

Since ancient times, the Great Silk Road, which connected the countries of the East and West economically, spiritually, and culturally and functioned on an intercontinental scale, played an important role in the development of international relations. Water structures – particularly sardobas (covered water reservoirs)–held great significance in the formation and stable functioning of this route. The emergence of new branches of the Silk Road and their consistent development were closely linked with the activities of cities, fortresses, and caravanserais situated along the route and functioning in close interaction with sardobas.

As is well known, the Renaissance, recognized in European history as a transi-

tional period from medieval culture to the culture of the modern era, brought significant achievements in science and culture. These accomplishments were also vividly reflected in navigation and shipbuilding. Consequently, the discovery of inexpensive and convenient maritime trade routes marked a high stage in the development of shipbuilding during that period.

By the end of the fifteenth century, the decline of the Temurid state and the intensification of internal conflicts seriously affected the functioning of the Great Silk Road. As trade activity weakened, the route gradually began to lose its importance in international commercial relations between East and West. Nevertheless, this historical route, stretching across deserts and steppes, mountains and valleys, seas and lakes, and not subordinated to any particular state or ideology, facilitated communication among peoples speaking different languages and practicing different religions, thereby contributing to cultural interaction. Even under difficult circumstances, merchants and travelers assisted one another by sharing their last drops of water, demonstrating remarkable solidarity.

For more than two thousand years, caravanserais were initially built to ease the hardships faced by merchants traveling through desert regions and to meet the daily water needs of both traders and their pack animals. Later, sardobas – special domed hydraulic structures – began to be constructed near caravanserais or in their place, eventually becoming an important element of trade infrastructure.

Sardobas are complex engineering structures embodying the scientific thought of the ancient peoples of Mawarannahr and Iran, as well as their high level of architectural craftsmanship and profound knowledge of the region’s climate, geography, soil composition, and other environmental factors. [3] During the Middle Ages, sardobas were built alongside caravanserais, while under the rule of Amir Temur their construction and repair were carried out on a particularly large scale. In the deserts of the Karshi region and along trade routes, building materials necessary for the construction of sardobas – such as fired bricks, ganch (alabaster), qir (a special mortar made from reed ash), and water – were transported by caravans in special containers. Construction only began after these materials had been delivered.

In many cases, the fired bricks used in the construction of sardobas were produced directly at the construction site in seasonal open kilns. Transporting tens of thousands of bricks required for such massive structures over long distances would have been extremely difficult.

Following the decline of the Temurid state, the restoration of ruined sardobas along trade routes and the construction of new ones were mainly carried out during the reign of the Shaybanid ruler Abdullah Khan II (1557–1598). Abdullah Khan II conquered vast territories stretching from Turkestan to Merv and Balkh and succeeded in reunifying the fragmented region of Mawarannahr into a centralized state. His state is regarded as one of the most powerful and centralized political entities in the history of Mawarannahr after the era of Amir Temur. Recognized by contemporaries as an enlightened and progressive ruler, Abdullah Khan II undertook extensive construction and improvement projects throughout the country. At the same time, he devoted particular attention to restoring Mawarannahr’s former position within the system of international trade. Sardobas constructed along ancient caravan routes became a practical manifestation of these efforts.

As hydraulic engineering structures, sardobas were mainly built in desert areas

along caravan trade routes where there was a shortage of drinking water. These structures were constructed as circular reservoirs covered with domes and were designed in accordance with the natural relief of the terrain.

Among the local population of Central Asia, these structures were known as “sardoba,” “gumbaz,” or “mula.” In Iran and Khorasan, similar structures still in use today are known as “ab-anbar.” Hydrogeologist L.A. Sobotsinsky also mentions these terms in his general description of sardobas.

Sardobas were usually built in regions suffering from water scarcity and, depending on the landscape, were filled with rainwater, melted snow, groundwater through kyariz systems, or flowing canal water. The word “sardoba” derives from the Persian words “sard” (cold) and “ab” (water), meaning “cold water.”

In the summer of 1928, researchers from the Central Asian Museum Department began collecting the first scientific data on sardobas. In early 1930, at the initiative and financial support of groundwater specialist M.M. Reshetkin, sardobas located mainly in the desert regions of Kashkadarya Province were studied, and maps of their geographical locations were compiled.

The sardobas built along the Great Silk Road passing through present-day Uzbekistan were structures fully adapted to desert conditions and harmoniously integrated with the natural environment. To ensure that commercial caravans traveling long distances could reach their destinations in time, the distance between sardobas was kept relatively uniform – approximately 25–30 kilometers apart. During construction, the ground was first leveled and prepared for the foundation. A stake was driven into the ground, to which a long rope was attached. Another sharpened stake was tied to the opposite end of the rope, forming a large compass-like instrument. Using this method, several circular outlines were drawn on the ground to designate the contours of the structure. The smallest circle indicated the diameter of the reservoir, while larger circles defined the inner and outer walls. The diameter of existing sardoba reservoirs generally ranges from 5 to 7 meters.

At the next stage, the walls were erected and the upper part of the structure was covered with a dome. Special ventilation openings were left in the upper sections of the walls to prevent water contamination and ensure air circulation. This helped maintain the water’s coolness and purity. In some cases, small fish (marinka) were introduced into the reservoir for natural water purification.

Today, 44 sardobas have survived in Central Asia. Of these, 16 are located in Turkmenistan, including the sardobas of Dukchi, Chillik, Gadjuli, Shohsuvor, Kattachagan, Katta-Rahim, Katta-Ahmed, Ugil, Abdullakhon, Nafaytuda, Yulgunachchik, Tog, Ustiochik, Butachi, Sangisulak, and Farrukh.

Another 10 sardobas are located in the Bukhara oasis: Buzachi, Yakka, Karaulbazar, Shosuar, Malik Sardoba, Chilgumbaz, Ustiochik, Taz, Isfantuda, and Yusuf.

In addition, six sardobas are situated between Khujand–Tashkent and Jizzakh–Syrdarya, including the sardobas of Kaynar, Mirzarabot, Jinbulok, Yogochli, the second Mirzarabot, and Yakka. In the Karshi steppe, twelve sardobas have been identified: Urachi, Talimardjan, Egizak, Garcha, Yusuf, Karshi, Yakka, Fatto, Ashun, Begicha, Shurcha, and Nishan.

Regarding the structural characteristics of Central Asian sardobas, there is limited information about medieval sardobas filled with rainwater or flowing water in some northern regions. However, the Kaynar sardoba, located between Khujand and Tash-

kent, was supplied with groundwater through a kyariz system. Sources indicate that it was built in the sixteenth century by Mir Arab. The structure has a domed form and is located on the right bank of the Angren Canal, north of the settlement of Karakhitai. The dome reaches a height of 10 meters. The walls and dome were built using fired bricks measuring 24×24×5 cm, 26×26×5 cm, and 27×27×5 cm. The structure has a diameter of 10 meters, its foundation consists of large stones, and its walls were constructed in three circular tiers. Water entered the reservoir through a special channel in the wall. The entrance to the structure was through an arched opening from the north, while exits were oriented toward the southeast and south. Square openings were located at the top of the dome, and two additional arched windows on the south and north sides provided ventilation. The sardobas of Jinbulok and Mirzarabot, once situated near the Khujand railway line, are now almost completely destroyed.

In 1996, researchers Mukhtar Pardaev and Samaritdin Suyunov from the Institute of Archaeology of the Academy of Sciences of Uzbekistan conducted studies to determine the construction periods, historical dating, and architectural features of sardobas located between Jizzakh and Syrdarya. One of the studied objects was the Yogochli sardoba, located 35 km north of Jizzakh. This sardoba stands in the desert zone of the oasis and externally resembles a hemisphere. Its walls and dome were built from square fired bricks measuring 26×26×5 cm and 27×27×5 cm. The dome contains ventilation openings, while the lower part includes a “qulfak” system designed to direct water into the reservoir. The wall is cylindrical; the foundation thickness is 1.25 meters, and the upper wall thickness is 0.55 meters. The wall height reaches 11 meters, the internal dome diameter is 15.35 meters, and the reservoir depth is 5.50 meters. More than ten steps were built to provide access to the water. The entrance is arched and 2.90 meters high.

In addition to this structure, sources mention the Mirzarabot sardoba located approximately 25 km north of Yogochli and the Yakka sardoba situated another 25–30 km farther north. Notably, these sardobas differ in size, height, and reservoir depth: some are larger and deeper, while others are smaller and shallower. The Yogochli and Mirzarabot sardobas were mainly filled with rainwater and melted snow, whereas the Yakka sardoba received water through an irrigation canal diverted from the Syrdarya River.

In the middle course of the Zarafshan oasis lies the ancient city of Karmana, also associated with sardobas. The Raboti Malik complex, the summer residence of the Karakhanid dynasty, and the nearby Malik Sardoba are located 17 km west of Karmana along the Samarkand–Bukhara caravan road. Today, only the main entrance portal of the palace and the sardoba have survived. Valuable information about Raboti Malik and the adjacent sardoba can be found in the travel notes and drawings of the Russian scholar and artist A. Lehmann, who visited these sites in 1841–1842.

Research findings demonstrate that the sardobas identified in the Karshi steppe were constructed in a manner fully suited to desert conditions both structurally and functionally. These structures were designed with consideration for the natural climate, water supply capabilities, and the characteristics of trade routes.

Based on the conducted research, the following scientific conclusions were formulated:

Before constructing a sardoba, the terrain, ground level, and strategic location were carefully studied.

The main part of the reservoir was located below ground level, allowing the water to remain naturally cool.

After excavation of the reservoir pit, a special staircase was built for convenient water access.

Sardobas were filled from various sources: rainwater, melted snow, canals, and underground kyariz systems.

The primary construction materials were fired brick, gypsum (ganch), and dressed stone.

Alabaster and mortar mixed with crushed stone (natural cement) were mainly used as binding materials in masonry.

In conclusion, sardobas constructed in Central Asia, particularly in Mawarannahr, constituted an integral and important part of the infrastructure of medieval trade routes. They played a strategic role in maintaining the continuity of economic, cultural, and spiritual ties between East and West along the Great Silk Road. By solving the problem of drinking water supply in desert regions, these structures ensured the safe and stable movement of commercial caravans.

The structural solutions, construction technologies, and site-selection criteria of sardobas demonstrate a high level of engineering thought. Adaptation to the natural landscape, placement of reservoirs below ground level, the use of domed coverings, and ventilation systems ensured the preservation of cool and clean water for long periods. The effective use of local materials such as fired brick, dressed stone, and alabaster reflects the advanced architectural and engineering traditions of that era.

Historical sources and archaeological studies confirm that sardobas were widely constructed and restored during the reigns of Amir Temur and the Shaybanids, especially under Abdullah Khan II. This indicates that the development of trade routes and the strengthening of international economic relations were among the highest priorities of state policy.

The geographical distribution of sardobas across Turkmenistan, the Bukhara oasis, the Karshi steppe, Jizzakh–Syrdarya, and the Khujand–Tashkent region demonstrates that they formed an extensive and interconnected network. They were located at regular intervals and functioned as parts of a unified infrastructural system.

**References**

1. Suyunov, S.S. The History of Irrigation in the Kashkadarya Oasis. Karshi, 2023.

2. Reshetkin, M.M. Diary. Tashkent, 1928.

3. Masson, M.E. The Problem of Studying Cisterns–Sardobas. Tashkent, 1935.

4. Bedger, B.A. Field Diary. Moscow, 1930.

5. Suyunov, S.S. The Ancient Jizzakh Oasis in the System of Central Asian Civilization (Political, Economic, and Cultural Life). Tashkent, 2019.

6. Mashkovtseva, S.F. The Karamazar Mountains: Guidebook for Excursions of the Third All-Union Geological Congress. Leningrad, 1928.

7. Pardaev, M.H., and Suyunov, S.S. “Sardobas as Structures Marking Ancient Caravan Routes.” In Central Asian Cities on the Great Silk Road. Samarkand, 1994.

8. Masson, M.E. The Problem of Studying Cisterns–Sardobas. Tashkent, 1935.

9. Sobotsinsky, L.A. Statistical and Economic Survey. St. Petersburg–Moscow, 1913, p. 25.

10. Lerch, P.I. Archaeological Journey to the Turkestan Region in 1857. St. Petersburg–Moscow, 1870.

**Maksudjon BOBOYEV,**
Shahrisabz state pedagogical institute, department of history, senior lecturer

# THE POLITICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF "TEMUR TUZUKLARI" IN THE FORMATION OF THE MEDIEVAL CENTRALIZED STATEHOOD MODEL

**Annotatsiya**

Maqolada Turkiy xalqlarda ilk davlat tushunchalari va uning nazariy tamoyillari tahlil etilgan. Davlatning shakllanishi umumiy irodani shakllantirishi, davlat har doim tenglikka intilishi, shaxsning shaxsiy irodasi esa doimo ustunlikka intilishlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif insoniyat doimo mukammal, barqaror va farovon davlat tartibotlarini yaratish yo'lida ko'plab davlat tuzulmalarini kashf qilib kelishga erishganligi bo'yicha fikrlarni keltirib o'tgan.

**Tayanch so'zlar.** Davlat, konsepsiya, urug', el, Turkiy davlatlar, xon, kengash, saylov, shaxsiy iroda, ustunlikka intilish.

В статье анализируются понятия раннего государства у тюркских народов и его теоретические принципы. Утверждается, что формирование государства формирует общую волю, государство всегда стремится к равенству, а личная воля личности всегда стремится к превосходству. Автор также приводит мнения о том, что человечество всегда добивалось изобретения многих государственных структур на пути создания совершенных, стабильных и процветающих государственных порядков.

**Ключевые слова.** Государство, концепция, род, народ, тюркские государства, хан, совет, выборы, личная воля, стремление к превосходству.

The article analyzes the concepts of the early state among Turkic peoples and its theoretical principles. It is thought that the formation of the state forms the general will, the state always strives for equality, and the personal will of the individual always strives for superiority. Furthermore, the author expresses the opinion that humanity has always succeeded in inventing many state structures on the path to creating a perfect, stable, and prosperous state order.

**Key words.** State, concept, clan, people, Turkic states, khan, council, election, personal will, striving for superiority.

The state is a socio-political institution formed by the association of people governed by legal laws. The union of individuals can function on the basis of law only when it is founded upon the principles of justice. The true source and legal foundation of political power are permanent laws established by the state, recognized by the people, and binding upon society. Law represents the expression of the general will. Therefore, it must be based on the principles of justice, since no individual desires laws that contradict their own interests.

The term "concept" originates from the Latin language and means a "system of understanding." It represents a set of interconnected ideas, views, and principles that together form a unified system. A concept serves as the principal method and guiding theoretical framework for understanding, interpreting, and explaining a particular phenomenon or process. [1] In society, the system of views regarding various phenomena manifests itself in scientific, artistic, technical, political, and other forms of activity as a worldview, a guiding idea, and a constructive principle. In other words, a concept

serves to formulate and systematize the principles and procedures of state formation.

A concept represents a system of methods for solving problems; it is a doctrine aimed at understanding, distinguishing, and interpreting particular phenomena, as well as drawing conclusions and judgments specific to them. A concept determines the strategy of action. A document that defines the external and internal essence and nature of the state is referred to as a concept.

Understanding the political and legal essence of statehood requires consideration of its principal elements, including methods and instruments of governance, the effectiveness of political and legal systems, the activity and initiative of citizens, the participation of broad social groups in public life, as well as shared ideological and cultural values. In particular, studies devoted to the Temur Tuzuklari seek to answer several fundamental questions: How were the political-legal and socio-cultural traditions of national statehood formed? What qualities and characteristics should the central element of statehood possess? Under what conditions and circumstances can the effectiveness and stability of the state be ensured? How are the interests of the individual, society, and the state harmonized within state activity? Through what mechanisms are their interaction and effective cooperation organized?

According to Sadri Maksudi Arsal, one of the distinctive features and principal achievements of Turkic statehood was the high degree of social cohesion among Turkic peoples and their exceptional capacity for state formation.

According to his view, since ancient times the Turkic peoples possessed a specifically structured social system whose elements remained preserved even during periods of social crisis. These elements included: “arka gun” or “kunluk” (family), “soy” (clan), “oymoq” (tribe), “oul” (tribal union), and “oguz-ogiz” (a union or confederation of tribal associations). Therefore, although states emerged and declined throughout history, the above-mentioned structural elements remained stable, enabling the rapid formation of new state structures on the basis of these established tribal organizations.

Relying upon their national religion and distinctive ideological worldview, the ancient Turks continually sought to establish peace, order, and justice throughout the world. In this regard, the emergence of the Tengrist religion among the Huns is recorded as early as the fifth century BCE. Based on this chronology, Tengriism (the cult of the Eternal Blue Sky) may be regarded as the second monotheistic national religion in world history after Judaism.

One of the most remarkable characteristics of medieval Turkic societies was their religious tolerance toward other faiths. In addition to their belief in Tengri, various Turkic peoples and tribes in the pre-Islamic period also adhered to religions such as Buddhism, Zoroastrianism, Manichaeism, Christianity, and Confucianism throughout different stages of their history.

According to historical sources, the ancient Turks expressed the concept of the “state” through the term “El.” V. Radlov, who was the first scholar to translate the Orkhon inscriptions into German, interpreted the term “El” as meaning a “tribal community.” [3]

In contrast, Thomsen considered this term equivalent to the concept of an “empire.” The true meaning of the term “El” corresponds to the notions of an “organized political community” or a “state.” When applied to large human communities, this concept denotes “a united and politically organized people,” that is, a nation organized in the form of a state. The legal designation for such a nation (people) is “state.” In ancient Uyghur documents, the term “El” was consistently used to refer to the state.

Similarly, in Mahmud al-Kashgari’s Dīwān Lughāt al-Turk, the word “el” is employed in a meaning analogous to the concept of “state.” From this, it can be concluded that the concept of “El” in the Orkhon inscriptions signifies an “independent state.”

In Turkic states, as in the Hunnic Empire, power was centralized in the person of the monarch at the head of the state. This ruler was referred to as the Qaghan (Kaghan). The Khan served as the leader of the “El” and the representative of the government. Throughout human history, the legal and actual status of state rulers has varied significantly. There have been numerous transitional forms between modern presidents, who at times have been elevated to quasi-divine status, and pharaohs, as well as European absolutist monarchs who considered themselves representatives of God.

At this point, the following question arises as a central issue: were the rulers of Turkic states monarchs, or can they be considered analogues of modern presidents? To which extent did the actual and legal status of khagans correspond?

The answer to this question is as follows: the Turkic khan, like the ruler of the Huns, was a monarch, and the Turkic state itself was a monarchy. However, the khagans of the VI–VIII centuries were not absolute monarchs. There existed a number of factors that limited political power and the unrestricted exercise of authority, such as:

1.In ancient Turkic states, the people were not merely subjects obliged to obey authority; rather, they were considered an active element participating, to a certain extent, in the governance of the state. The population was free, while khans were required to respect the customs, beliefs, and worldview of the people.

2.The second factor that significantly limited the khan’s freedom of action and reduced the possibility of abuse of power was the role of the beks. In all important matters, the khan was obliged to consult the beks in the kurultai.

3.The third factor that constrained the khan’s authority was customary law. The khan’s activities were required to be conducted within the framework of these traditional legal norms.

The khan possessed two types of authority.

1.The khan was the supreme head of power and the highest authority within the political system.

2.At the same time, he occupied the highest position within the formal administrative hierarchy.

The status of the khan as a representative of state authority can be considered in the following aspects:

1.The khan was the supreme leader of both representative and executive power, responsible for regulating state affairs and ensuring the continuity and stability of the state.

2.In accordance with traditional national norms, the khan governed the “El” based on customary law (töre).

3.The khan ruled the “El” in times of peace and served as the supreme commander-in-chief during wartime.

4.The khan could submit legislative proposals to the kurultai for consideration and also possessed the indirect right to enact laws.

Any laws introduced either by the kurultai or personally by the khan were required not to contradict ancestral traditions. The khan held the highest official position in the state as the supreme administrator. In this regard, the following responsibilities were

assigned to him:

1.Protection of state borders and expansion of its territory.

2.Implementation of measures aimed at ensuring the economic welfare of the population.

3.Preservation of the honor and prestige of the Turkic state and its people.

According to the fundamental customary law, after the throne became vacant, the khan was selected by the kurultai from among the beks and other respected and prominent individuals. Representatives of the general population could also participate in the kurultai. The candidate for succession to the throne had to belong to the ruling khan's dynasty. Among eligible heirs, the eldest son of the deceased khan usually enjoyed priority in succession.

If the khan had no sons, or if his sons had not yet reached maturity, the throne could be inherited by the eldest brother of the deceased khan. The primary principle was that preference was given to the eldest members within the ruling dynasty. If the death of the khan resulted in the extinction of the dynasty, the kurultai could elect one of the beks who met the required qualifications as the new ruler.

The procedure of legitimate succession demonstrates that accession to the throne was validated through the consent or confirmation of the beks. Throughout Turkic history, the founders of dynasties were effectively selected by the beks and, to some extent, by the people. This tradition, originating from the Asian Huns, remained largely unchanged up to the time of Amir Temur.[6]

The rulers of Turkic societies were distinguished by a specific function as intermediaries between the Sky God (Tengri) and the earthly world, serving to protect people from otherworldly forces and to ensure divine favor for the community. According to their religious beliefs, the ruler of the state—whose authority was centered within society and subordinated to the will of the sovereign—was expected to perform rituals believed to secure prosperity and stability through his divine capacity.

These functions played a significant role in the ideological system of archaic and traditional societies, in which belief in the sacred and divine nature of the ruler constituted a key element. Such ideological functions indicate that the ruler held a supernatural status. According to this worldview, the prosperity of society depended on the ruler's endowed virtues, his charisma, and his ability to secure the favor of the Sky and other supernatural forces. If the ruler failed to fulfill his duties—ensuring security and prosperity, or if sudden increases in livestock mortality occurred—he could be replaced or even killed, as it was believed that Tengri itself demanded a change of leadership.

In this worldview, the Turks believed that the Sky itself required the transfer of power. No ruler could personally govern a state where legal order prevailed without assistance. As in the state of the Huns, governance in Turkic states was not carried out solely by the khan, but also by officials who assisted him and performed various administrative functions. Among the Turks, the khan's assistants were called "beks." The term "bek" (bey) encompasses meanings such as to supervise, protect, guard, and oversee.

According to ancient Turkic beliefs, the bek was responsible for caring for the people, protecting them, and overseeing state affairs. Beks were the highest-ranking officials assisting the khan in governance. Their positions were divided into three categories. The first group consisted of hereditary appointees from the ruling khan's

dynasty, who were seated on the khan’s right side. The second group included the Tarxan and Buyruq beks, who were seated on the left side. Tarxan beks were individuals who rose from among the people due to their talent and capability, while Buyruq beks were appointed for a fixed term.

In addition, beks were granted various titles and ranks according to their positions. After the khan, the highest title was Yabghu. The second-ranking title was “Shad,” which was used to appoint regional governors of the khan’s territories. In the Great Turkic states, there were always two shads: one governing the eastern part and the other the western part. The title “Shad” was given to princes of royal blood who governed a specific region or province; it was not granted to individuals who were not related by blood to the ruling dynasty.

Among the Turks, the general system of social norms and rules of life was referred to as “Töre.” What does this term mean? The main sources of the formation of “Töre” include: 1) the people, 2) the kurultai, and 3) the khan.

According to the tradition of Turkic khanates, council meetings were divided into three types:

1. Legislative and administrative assemblies.At the beginning of the year, national administrative tasks related to the socio-political life of the country were defined, and decisions were made for the subsequent year. During these assemblies, new laws and regulations were adopted. The meetings were attended by beks holding administrative positions.

2. Military Council. All military units would assemble in one place during the autumn season, where discussions were held regarding the number of troops, their level of military preparedness, combat strength, and forthcoming tasks. Special attention was also given to the regular conduct of military exercises.

3. Religious and General Assembly. Such assemblies were held every fifth month of the year. During these meetings, prayers were offered to Tengri, the Sky God, as well as to the spirits of the earth, and sacrifices were made in honor of the spirits of the ancestors.

In 892 CE, Ismail Samani, who ended the Arab conquest and succeeded in establishing control over the whole of Transoxiana, is regarded as one of the rulers who enriched the centralized system of governance with Turkic state traditions. The foundation of this system consisted of the royal court (darghah) of the supreme ruler and the system of administrative departments (diwans). The supreme ruler held the title of amir; therefore, references such as Amir Ismail and Amir Ahmad are found in historical sources.The execution of the ruler’s decrees was entrusted to the Amir of the police (ḥarīs amir). The security of the court and other important state institutions was ensured by the Chief Chamberlain (bosh hojib) and his officials. Administrative and economic affairs of the court were managed by an appointed official.

The diwans functioned as executive institutions, and five diwans are mentioned in the sources of that period: the vizier’s diwan (prime minister’s office), the military affairs diwan, the diwan of diplomacy and official ceremonies, the finance diwan, and the postal and intelligence diwan. The head of a province was called a wali, appointed by the supreme ruler. In the provinces, governance was carried out by amirs. At the city level, officials such as the ra’is (city head), shihna, kutwal (fortress commander), and sahib-i diwan (administrative officer) also operated.

With the spread of Islam in the regions of Turan, it can be observed that the

concept of consultation (shura) in governance was further enriched by new doctrinal principles. The work reflects profound philosophical views on state laws and Sharia regulations, emphasizing the harmonization between the secular nature of political authority and religious legal principles.

Conclusion One of such valuable theoretical doctrines is the development of electoral procedures related to the selection of the head of state. In the concept of Islamic political law and freedoms, ikhtiyar—understood as the right to choose, select, and elect the best and most suitable member of the Muslim community—is regarded as one of the important historical foundations of electoral processes and principles.

It was necessary for those responsible for decision-making to ultimately select from among the candidates the most appropriate ruler—one who meets the requirements of time, place, and circumstance, and who is responsible for the security of the state, society, and individuals, as well as possessing moral integrity and compassion. After the recognition of the existence of candidates for the position of head of state, specific legal and regulatory conditions were established for both groups involved in the selection process.

In al-Mawardi's work Al-Ahkam, it is stated that those who nominate candidates for the position of head of state, forming a special electoral body known as al-ahkam al-muhakamatu istikharat al-imam al-khassa, must meet the following three criteria:

They must be honest, rational, impartial, and just individuals in all respects.

They must possess sufficient knowledge regarding the requirements expected of a candidate for the position of head of state.

They must have the wisdom and competence to identify and recommend among the candidates the most capable individual for governing state and societal affairs.

Since ancient times, the world has recognized the ability of Turkic peoples to establish states, which in turn compels acknowledgment of their capacity to develop legal systems. The essence of the state lies in governance, as well as in the establishment of a legal system that ensures enforcement and compliance with laws. There is no state without law.

This is confirmed by Chinese sources, the Orkhon inscriptions, Uyghur literature, the Qutadghu Bilig, Uyghur legal documents, as well as ideas on legal relations reflected in Turkic literary traditions.

**References**

1. Concept // Wikipedia. Available at: https://ru.wikipedia.org/wiki (accessed: 2026).

2. Sadri Maksudi Arsal. Turkic History and Law. – Kazan: "Fän" Publishing House, 2002. – p. 217.

3. Malov S. E. The Yenisei Writing of the Turks. – Moscow–Leningrad, 1952. Kyzlasov L. R. New Dating of the Yenisei Written Monuments // Soviet Archaeology. – 1960. – No. Kyzlasov L. R. On the Dating of the Yenisei Written Monuments // Soviet Archaeology. – 1965.

4. Rahmon N. The Turkic Khaganate. – Tashkent: Publishing House of People's Heritage named after A. Qodiriy, 1993. – p. 51.

6. Kradin N. N. The Structure of Power in Nomadic Empires. – Moscow: Russian Academy of Sciences, Center for Civilizational and Regional Studies, 2002. – p. 84.

**Bosh muharrir:**
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;**
**Mas’ul kotib:**
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**
E’zozxon KARIMOVA, Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.